

MUHAMMAD ISMOIL

BAHORNING ENG SO'NGGI LOLASI


Hikoya va qissalar



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2010

BBK 84(5Y)6
I 81

Elimizning iste'dodli shoiri Muhammad Ismoilning ushbu — «Bahorning eng so'nggi lolasi» kitobiga uning mehr va muhabbatni, sadoqat va jasoratni madh etgan bir qancha hikoya va qissalari, badiolari jamlandi. Umid qilamizki, ijodkorning taqdim etilayotgan adabiy tuhfalari sizda katta taassurot qoldiradi.



ISBN 978-9943-01-116-8

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2010-y.



BARQAROR TUYG'ULAR ALANGASI



Bir kursdosh qizimiz bo'lguvchi edi. «Muhabbat yo'q, men hech qachon sevmayman, men hech qachon turmushga chiqmayman», der edi. Ammo u birinchilardan bo'lib sevdi, birinchilardan bo'lib turmushga chiqdi. Hali-hanuz uni uchratib qolsam, muhabbat degan tuyg'uning bor-yo'qligi haqida xayol surib qolaman.

Bugun iste'dodli yozuvchi Muhammad Ismoilning «Sahroyi gullar» kitobi qo'limga tushdi-yu, yana o'sha voqeani esladim va bu o'lmas, abadiy tuyg'uning har qanday inkoru salbiy e'tiroflarga qaramasdan, yashayverishini yana bir bor anglab yetganday bo'ldim. Bir vaqtlar Bayron shunday degan edi: «Sevgi erkaklar hayotining bir qismi bo'lsa, ayollar hayotining o'zidir». Darhaqiqat, xuddi shunday. «Sahroyi gullar» to'plamini o'qir ekansiz, yozuvchining eng nozik va samoviy xilqat bo'lmish ayollar ichki tuyg'ularini, yurakning puchmoqlarida yashirilib yotgan bokira hislarni, iztiroblar suratini chizishga intilayotganining guvohi bo'lasiz.

Talabalik yillarimizda turk yozuvchisi Rashod Nuri Gunteginning «Choliqushi» romanini yig'lab o'qirdik, Faridaga o'xshab yashashni, Faridaga o'xshab sevishni orzu qilardik. Guntegin bir ayol hayotini butun bor bo'yi bilan shu qadar mohirona tasvirlagan ediki, biz beixtiyor kitob muqovasiga nazar tashlardik. Ha, to'g'ri, bu asarni ayol kishi emas, erkak kishi yaratgan. Nazarimizda, haqiqiy yozuvchi ana shunday bo'lishi kerak edi. Asar qahramonining: «Komron, men sendan emas, sen bo'lgan joylardan ham nafratlanaman», degan so'zlarini hammamiz yoddan bilardik.

Bugun Muhammad Ismoil qalamidan to‘kilgan so‘zlar bilan yaqindan tanishar ekanmiz, uning ham bu mashaqqatli vazifaning uddasidan chiqishga bel bog‘laganiga amin bo‘ldik. U o‘z asarlari uchun qahramonlarni siz bilan biz yashab turgan shu hayotdan, hayotning o‘zginasidan olgan. Shuning uchunmi, ular qo‘g‘irchoqbozlar ip bilan boshqaradigan qo‘g‘irchoqlar singari emas, balki o‘zlari harakatlanadilar — o‘zlari sevadilar, o‘zlari iztirobga tushadilar, o‘z taqdirларini belgilash yoki o‘zgartirish uchun o‘zlari qat’iy qaror qabul qiladilar.

Inson ko‘zining qorachig‘iday ardoqlagan orzusiga esh bo‘lolmasa, eng azoblisi, bir osmon ostida, bir oshyon bag‘rida turib suyukli odamiga erisholmasa, bundan yomoni yo‘q. «Siz hamon o‘shasiz...» hikoyasi aynan shunday achinarli hayot tasvirini tilga oladi. Bu zavol topgan sevgining armoni, insonning qo‘lidan ko‘p narsa kelgani holda, taqdirning yozug‘ini o‘chirishga qurbi yetmasligi, turmushning ulkan ikir-chikirlarga, ro‘zg‘orning g‘or ekanligiga qaramasdan uning mehrga, muhabbatga go‘dakday talpinishi, yillarning ham bu tuyg‘uning taftini o‘chirolmagani... mana Muhammad Ismoil aytmoqchi bo‘lgan gaplar, uning qismatidagi, u aytishi shart bo‘lgan gaplar... Bir shoir aytganidek, «Azal kotiblari oshiqlar baxtin qora yozmishlar», ya’ni bu satrning birinchi ma’nosi azaldan oshiqlar baxti qorga yozilgan, shuning uchun ularning baxtli damlari tez o‘tadi, chunki qor quyosh chiqishi bilan yer bag‘riga singib ketadi. Ikkinchi ma’nosi taqdir bitigini bitadigan xattotlar oshiqlar qismatini qora rang bilan yozganlar. Shuning uchun ham ularning kuni kun emas. Bu dunyoda sof muhabbatga erishish bashariyatning orzusi. Lekin u Farhod va Shirin, Tohiru Zuhro, Layliyu Majnunlar qismati bilan boshlanadi-da, shu yerda tamom bo‘ladi. «Ha, bu endi badiiy asar-da», deyishingiz mumkin. To‘g‘ri, asar badiiy to‘qimaga asoslansa-da, lekin kishi beixtiyor ishongisi keladi, shunday muhabbat sohibi va sohibalarining bugungi kunda bo‘lishini juda-juda istaydi, yurakdan orziqib istaydi. Muhammad Ismoil esa dunyoning ana shu kemtigi bilan sevgi butunligini, uning otash nafasi bilan barhayot olamni, insonlarning o‘zlari turmushning qalin to‘rlariga o‘ralashib qolgan taqdirda ham ularning muhabbat ko‘zlari hamisha ochiqligini uqtirishdan sira tolmaydi.



Xiyonat, rashk, iztirob... Yozuvchining barcha asarlari shu uch tuyg'uning mustahkam doirasidan chiqib ketolmaydi, to'g'rirog'i, chiqib ketishni ijodkorning o'zi xohlamaydi. Muhammad Ismoil bir she'rida shunday yozadi:

Seni ko'rmoq bahor,
o'ylamoq bahor
Muzlar eriganday, ko'zlarimda yosh.
Men seni yo'qotib, bo'laman
abgor
Men sening poyingda gullayman
qiyg'os.

Bizning nazarimizda yozuvchi bu misralar mazmunini butun asarlari qatiga singdirib yuborganday. Ular qandaydir samimiy, qandaydir sodda, qandaydir tabiiy. Bugun odamlar shunday asarlarni sog'ingan va har doim shunday sog'inib yashayveradi.

Muhammad Ismoil «Siz hamon o'shasiz...», «Yulduzlari kuygan tun», «Sahroyi gullar», «Oppoq guldek oydin xotira» singari hikoyalari, «Samolarda so'ylaganim sensan, ona yurt», «Bir falsafa borgan o'xshaydi» singari badialari, «Yangi oy chiqqan kecha», «Oy chiqmagan oqshom», «Mohinur» kinoqissalarini o'quvchilar hukmiga havola etar ekan, bu uning ijodining ilk debochasi ekanligiga, u o'zbek adabiyoti javonini zabardast asarlari bilan boyitishiga ishonch bildirib qolamiz. Bunga, Sizning qo'lingizda turgan «Bahorning eng so'nggi lolasi» kitobi ham kafolat bo'la oladi. Marhamat o'qing, zavq oling, Sizning qo'lingizda o'zbek adabiyotining yangi bir tuhfasi, yangi bir muattar guldastasi!

*Halima XUDOYBERDIYEVA,
O'zbekiston xalq shoiri*



SEN — QALBIMNING ARDOG'IDASANI!



Qissa

Sheroz Farangizni tanir, lekin bir kuni yaqindan taniyman va bir kuni... yaxshi ko'rib qolaman deya sira o'ylamagandi. O'shanda tuman markazidagi madaniyat saroyida «Go'zallik tanlovi» o'tkazilayotgandi. Raqs tushish, she'r aytish, qo'shiq kuylash, dasturxon bezash, orasta kiyinish bo'yicha tumandagi har maktabdan bittadan nomzod saralangan, endi ular ichidan yagona g'olibni aniqlash lozim edi.

Bahs nihoyasiga yetay deganda, kelishmovchilik boshlandi.

Musobaqa yakuniga ko'ra to'plangan ballar 181, 184, 187 va ikkita 189 ballni tashkil etdi. Hay'at a'zolari 3-raqamli qizni g'olib deb e'lon qildi. Shunda Sheroz o'rnidan turdi-da, minbarga chiqib, Farangiz to'plagan ball ham 189 ekanini, endi shu ikki qiz o'rtasida musobaqa davom etishi lozimligini qayta-qayta ta'kidlab turib oldi. Maktabdoshlari uni yoqladi. Ulkan saroy olqish va qarsaklarga to'lib ketdi.

G'olib bo'lishi uchun imkoniyat yaralganini ko'rgan Farangiz o'zi sevgan qo'shiqni ijro etib berdi. Bu uning ilk qo'shiqlaridan biri edi:

Tush ko'raman seni tunlari
Yonginamda bo'lasan paydo.
Silash uchun ma'yus yuzlarim
Sen kelasan chin dildan shaydo.

Ayt, qaydasan yaqinmi, yiroq
Yuragimning ostidami yo.
Vujudimda tinmaydi titroq
Seni qo'msab bo'ldim-ku ado.



Oppoq gulday oydin xotira,
Ziyo sochgan oqshomdadirman.
Unutilmas, yorqin, bokira
Hislar toshgan ayyomdadirman.

Xayr deya ayta olmasman,
Ko'zimda yosh, ko'nglimda to'fon.
Sendan bir zum ayro qolmasman,
Ishqing bilan saqlagayman jon.

Tush ko'raman seni tunlari
Yonginamda bo'lasan paydo...

Farangiz qo'shiqni berilib aytdi. Zal qiyqiriqlar qurshovida qoldi. Sheroz sahnaga chiqib, uni tabrikladi. Bu ularning birinchi bor uchrashishlari edi. Sheroz uning ko'zlariga tikildi-yu, vujudini titroq bosdi. Yuragi duk-duk urdi, qo'llari qaltirab, oyoqlari chalkashdi. Ko'zlari esa hayratdan qotib, aytayotgan so'zlari uzuq-yuluq chiqdi.

Yangi shartlar ijrosi bo'yicha Farangiz g'olib keldi. Uning ustunligi yaqqol ko'rinib turardi. 3-raqamli qiz esa, har qancha harakat qilmasin, yetarlicha ball to'play olmadi.

Oliy sovrin — «Xovos go'zali» nomi va billur vaza Farangizga topshirildi.

Oradan bir necha kun o'tib, tumanning faol o'quvchilari yig'ilishdi. Farangiz uni ko'rib dadillik bilan qo'l uzatdi. Sheroz bu baxtdan esankirab qoldi. Bunday yoqimli tashabbusga uning jur'ati yetishmasdi.

— Rahmat, siz tarafimni olmaganingizda men yutmagan bo'lardim, — dedi Farangiz jilmayib.

— Men sizning emas, haqiqatning tarafini oldim, — deya g'o'ldiradi Sheroz.

— O'rtaga chiqib, shuncha gapni qo'rqmay aytganingizdan keyin haqiqat men tarafga o'tib ketdi-da, — dedi kulib Farangiz. Uning tovushi yoshgina kelinchakning o'z kuyoviga iltijosiday ming bir g'amzaga to'la edi.

— Menga esa siz kuch berdingiz. Avvallari hech qachon hech kimning tarafini olmagandim. Menga nima bo'ldi o'zi, bilmayman. O'rnimdan turib hadeb, «5-raqamli qiz zo'r», deya baqiraveribman.



Sheroz o'zining o'sha kungi holatini tasvirlab berar, Farangiz esa sollanib-sollanib kulardi.

Shu kundan boshlab ular uchrashganlarida so'rashadigan, yuraklaridan quyulib, hech qachon tugamaydigan gaplardan gaplashib turadigan bo'lishdi. Farangizga Sherozning mardligi yoqib qolgandi. Sherozga esa Farangizning so'zga chechanligi, gapirganda ham naq Sherozning ko'nglidagi gaplarni gapirishi yoqardi. Go'yo Farangiz Sherozning qiz bola holatidagi shakliga o'xshar, agar Farangiz o'g'il bola bo'lib tug'ilganda, u Sherozning o'zi bo'lardi-qo'yardi.

Sheroz maktabning jonkuyar faollaridan edi. Maktab devoriy gazetasini chiqarar, tuman gazetasida maqolalari, she'rlari chop etilardi.

Farangiz bilan tanishganidan so'ng o'qishini ham, ijodini ham tashlab qo'ydi. Dastlabki kezzlar, Farangiz bilan qancha gaplashmasin, aytadigan gaplari tugamas, bir-biridan go'zal so'zlar yuragidan qaynab chiqar, bu so'zlarning adog'i yo'qday edi. Bora-bora buning aksi bo'lib qoldi. Uni ko'rganda tomog'i g'ippa bo'g'iladigan, bir og'iz so'z ayta olmay uzoqdan qarab o'tadigan, o'zini yo'qotib qo'yadigan bo'ldi. Xuddi siri ochilib qoladiganday uni ko'rganda qizarib ketar, ko'rmasa turolmas, ko'rsa qochadigan odat chiqardi. Shu qizni rostdan yaxshi ko'rib qoldimmi, deya azoblanar, o'ylab o'yiga yetmas, gohida yaxshi ko'rib qolgani uchun uni ham, o'zini ham ayblar, yuragidagi bu «isyon» haqida Farangizga gapirishga jur'ati yetmasdi. Bir kun o'zidagi bu o'zgarish haqida she'r yozdi va uni tuman gazetasiga topshirdi:

Tobora gurillab yonmoqda olov
Tobora kattaroq, tobora kengroq.
Tobora o'zimga bilmasman ayov,
Tobora kattarar ko'ksimda ingroq.

Tobora poyingga boryapman cho'kib,
Tobora adashib, tobora sarmast.
Tobora sen menga azizroq bo'lib,
O'zimdan tonmoqqa qilmoqdaman qasd.



Tobora husningga telbaman telba,
Tobora boshimga urmoqda qismat.
Tog'day rohatimni sovurdim yelga,
O'rniga topmadim xascha halovat.

Tuyg'ular yonmoqda, idrok yonmoqda,
Yonmoqda shiddatli, tobora asov.
Bir jonsarak nafas, sarson tomoqda,
Tobora gurillab yonmoqda olov.

She'r chop etilganidan keyin juda ko'p kishilar she'rni o'qishganligini, yaxshi yozilganligini aytishdi. Sherozni esa Farangizning fikrigina qiziqtirardi.

Sheroz bir kuni maktab koridorida, deraza raxiga beholgina suyanib, faromush turgan Farangizni ko'rib qoldi. U qovog'i soliq, nimadandir xafa va sarosimada edi.

— Nima bo'ldi? — dedi Sheroz kulimsirab.

— Kimdir sinfimizdagi hamma partaga «Sheroz plus Farangiz» deb yozib ketibdi.

— Kim?

— Bilmayman.

— Kimdir nimanidir sezib qolgan bo'lsa kerak-da, — dedi Sheroz.

— Nimani?

— Siz sezmagani narsani! — dedi Sheroz iljayib va o'zining dadilligidan ich-ichidan o'ziga tasanno o'qidi.

— Men nimani sezishim kerak ekan?! — dedi Farangiz jiddiy tortib.

— Oramizda o'sha plyusning mavjudligini!

— Plus faqat matematikada ishlatiladi, uning siz bilan bizga hech qanday daxli yo'q.

— Plusning ma'nosi qo'shish. Bu — faqat matematikada emas, yaxshi odamlar orasida ham bor-ku!

— Yaxshi odamlar orasidagi gaplarning siz bilan bizga nima daxli bor. Hali u yozuvlarni o'zingiz yozib chiqqan bo'lmang tag'in.

— O'lay agar, men yozganim yo'q. Men sizning nomingizni yozsam qandaydir partalarga emas, tilla harflar bilan peshonamga yozaman.



— Odam o‘z peshonasiga o‘zi yozolmaydi. Umuman, har qanday yozuv-chizuvni bas qiling.

— She‘r ham yozmaymi? Iltimos, o‘qib ko‘ring. Sizga atalgan. Zora ko‘nglingiz ko‘tarilsa. Men sizning xafa bo‘lishingizni hech ham istamayman. Sizni g‘amgin ko‘rsam, tars yorilib ketay deyman. Sheroz yon cho‘ntagidan buklangan bir varoq qog‘ozni oldi-da, qizga uzatdi. Sheroz bu she‘rni uzatganda uning satrlari naqadar bashoratli ekanini, bu she‘r ular muhabbatining ramzi bo‘lib qolishini bilmasdi. Unda shunday satrlar bor edi:

Men sening oldingda jur‘atsiz odam,
Bilaman, men senga sira yoqmadim.
Sen tomon talpinib bosmadim qadam
Shundanmi sira ham chopmas omadim.

Yoki izhor qilsam muhabbatimni
Eng katta qudratim qulaydi abgor.
Sendan umid qilgan ezgu dardimni
Xascha olmasliging bo‘ladi oshkor.

Lekin hali hayot etmoqda davom,
Bir kuni men senga yetmoqligim shart.
Sen uchun o‘nglayman o‘zimni tamom,
Sen uchun bo‘laman o‘n barobar mard.

Qalbingga bir qatra nur solmoq uchun
Kunlarim ham yongay qayta va qayta.
Men yuzta bo‘laman yuksalmoq uchun
Kuylarim tugamay yuzta ham nayda.

Har kun ming bor bo‘g‘ar chorasizligim,
Har kun mingta chora o‘ylab topaman.
Sen ketar yo‘llarni qora ko‘zligim
Har kun mingtasini ming bor yopaman.

Seni sevmoqlikning o‘zi katta baxt,
Seni ulug‘lashdan tolmaydi yurak.
Senga yetmoqligim bo‘lib qolsa naqd,
Ertak boshlanar va

men o‘lsam kerak.





Bir kuni... mayin va tarovatli may tunlarining yasharish va qalblarga g'alayon solib, junbushga keltiruvchi, yulduzlar gulxanning samoga sochilgan cho'g'lariday porlagan kechalaridan birida ularning hayotini mutlaqo o'zga o'zanga solib yuborgan mudhish voqea yuz berdi. Bahor kelib, tabiat yam-yashil libosini kiygan, oydin oqshomlar aro to'y mavsumi boshlangan kezlar edi. To'yxonaga qo'yilgan ovoz kuchaytirgichlar, xonandaning sarmast xonishlarini uzoq-uzoqqa yoyardi. Sheroz ham uyda o'tirgisi kelmay, uni ohangraboday o'ziga chorlagan to'yxonaga bordi. To'yga Farangiz ham kelgan ekan. To'y oxirrog'ida kelinning iltimosiga binoan Farangizdan bir juft qo'shiq aytishni so'rashdi. Farangiz iltimosni rad eta olmadi. To'ydagi gasht, nash'u namo, tarovat uni zavqlantirib yuborgandi. U kuylay boshladi. To'ydagi yosh-yalang o'zini davraga urdi. Agar qochib qolmaganida Sherozni ham o'rtaga tortishlari aniq edi. Sheroz jon deb o'ynardi-yu, gap-so'z ko'payishidan istihola qildi.

To'y ancha davom etdi. Farangizni uyiga kuzatib qo'yaman, deya ilinjda turgan Sheroz nimagadir chalg'idi-yu, uni ko'zdan qochirib arosatda qoldi.

So'ngra uning dugonasi Lolaruhni uchratib Farangizni so'radi.

— U sizni izlab ketdi-yu! — dedi Lolaruh hayron bo'lib.

— Qanaqasiga?!

— Bir bola kelib, sizni Sheroz akam maktab hovlisidagi bog'da kutib turibdi, borasiz ekan, — dedi. — Farangiz o'sha yoqqa ketdi.

— Men hech kimga bunday deganim yo'q!

— Unda aldashedimikan?

— Hazillashmayapsizmi?

— Yo'q. Siz boring. Balki sizni izlab yurgandir! — dedi Lolaruh qiz bolalarga xos ziyraklik bilan jiddiy tortib.

Sheroz o'zlariga qadrdon bo'lgan va Farangiz bilan o'qtin-o'qtin uchrashadigan maktab hovlisiga yugurdi. Maktab hovlisi kunduzi gavjum bo'lgani bilan kechqurun nazardan chetdagi

ovloq hisoblanardi. Odamlarning o'tkir nigohidan panadaligi uchun, sevishgan oshiq-ma'shuqlar boshqa joy topolmay, ko'pincha shu yerda uchrashishdi.

Sheroz maktab hovlisiga bir zumda yugurib bordi. Bog'da telbalarcha yugurib yurarkan, qiz bolaning yig'lagani, kimningdir baqirgani, tarsaki solgani, alamli faryodni eshitdi. Keyin yordam so'rab chinqirilgan qichqiriqning egasi Farangiz ekanligini anglab, o'sha tomonga yugurdi. U yugurib kelarkan, ulkan chinor daraxtiga butun tanasi arqon bilan chambarchas bog'lab tashlangan, sochlari to'zg'igan, ko'ylagining old tarafi yirtilgan Farangizni ko'rdi. Uning oldida esa, aftidan Farangizning taslim bo'lmaganidan jahli chiqib, bir yo'g'on bola turardi. U bundan ikki yil oldin maktabni bitqazib, kunini ko'chada mushtumzo'rlik bilan o'tqazib yuradigan Toshtemir edi.

— Ha, nega kelding? — dedi u Sherozning nega kelganini bilib tursa ham. — Qani, yo'qol bu yerdan!

— Qizni qo'yib yubor! — Sheroz Toshtemirga kuchi yetmasligini bilardi. — Agar hozir qo'yib yubormasang, ertaga singlingni shu yerga itday bog'lab qo'yaman va itlarga talataman!

— Nima?! — Toshtemir Sherozni yuziga bir tarsaki urdi va qorniga tepib yiqitib tashladi. Sheroz o'rnidan turdi.

— Qo'yib yubor uni! Sen qanaqa xovosliksan o'zi! Bu mening yaxshi ko'radigan qizim. Tushudingmi!

— Men ham uni yaxshi ko'raman! Agar mayib bo'lishni istamasang, yo'qol bu yerdan. U endi hech qanaqa xovoslikmas. U «artist», tushudingmi? U hammaniki!

— Yo'q, u meniki. Agar hozir undan kechirim so'ramasang, bu yerdan o'lingingni sudrab ketishadi. Men esa, o'lsam ham uni senga tashlab qo'ymayman.

Sheroz hamlaga shay bo'lib turardi. Hozir u Toshtemirni bo'g'ib o'ldirishga ruhan tayyor, ammo jismonan kuchi yetmasligini anglaganidan hamlaga chog'lanolmasdi. Toshtemir tap tortmay bostirib keldi-da, ikki marta tepib, Sherozni uchirib yubordi.

Farangiz uning bu holatini ko'rib, ovozi yetguncha najot izlab chinqira boshladi.

Sheroz oʻrnidan turdi-da, Farangizga qarab: «Baqir-mang», dedi. U odamlar yigʻilib, gap-soʻz koʻpayishini istamasdi.

— Toshtemir, uni qoʻyib yubor. Toki men bor ekanman, unga qoʻl tekkizishingga yoʻl qoʻymayman. Men sen bilan shu qiz uchun ertalabgacha, qatra qonim qolguncha yoqalashishga tayyorman. Uni qoʻyib yubor!

— Yoʻq. Men uni sening koʻz oldingda... Qara, qanday chiroyli qoʻgʻirchoq. Keyin koʻzing ochiladi, keyin erkak odamning ishiga aralashmaslik kerakligini tushunasan. Vaqti kelib esa, bunaqa «artist»larni mendaqa yigitlarga qoʻshqoʻllab topshirish kerakligini tushunasan. Sendaqa sheʼr yozib, oshiq boʻlib yurganlarni esa... ichagini sugʻurib salla yasab boshiga kiygizaman.

Toshtemir zarb bilan urib Sherozni sakkiz qadam nariga uchirib yubordi. Sheroz Toshtemirni bu qadar qahrga toʻlganidan, hushi joyida emasligini, nasha kayfida harakatlana-yotganini tushundi. Unga toʻgʻrilikcha bas kelib boʻlmasdi. Va... alam bilan yerda yotgan toshni qoʻliga oldi.

— Endi yo sen tirik qolasan, yo men!

Sherozning ham ichiga shayton oralaganidan oʻzini boshqarolmay qolgandi. Urmoqchiday chap qoʻlini siltadi-yu, himoyaga shaylangan Toshtemirni dogʻda qoldirib, oʻng qoʻlidagi tosh bilan qoq boshiga urdi. Toshtemirning yuziga darhol shovullab qip-qizil qon quyildi. Birdan gʻazabga toʻlgan Toshtemir Sherozni ayovsiz tepa boshladi. Sheroz toshni moʻljallab, uning peshonasiga ikkinchi bor urdi. Toshtemir gursillab yiqildi.

Sheroz ohista borib, Farangiz bogʻlangan arqonlarni yechdi. Soʻngra ingrab yotgan Toshtemirga qaramay, birma-bir qadam tashlab falokat roʻy bergan janggohni tark etishdi.

Oʻsha tunning oʻzidayoq Sherozni hibsga olishdi. Toshtemir kasalxonada jon bergandi. Koʻp oʻtmay sud jarayoni boshlandi. Sheroz voqea Farangiz tufayli yuz berganligini suddan yashirdi. Ikkalasi shunchaki urishib qolishganligini, tosh toʻsatdan boshiga tegib ketganligini, oʻzi ham ancha-muncha jarohat olganligini gapirdi.

Agar Farangizning nomi o'rtaga olinsa, uning nomi bir umr isnodga qolishini va Farangiz o'z nomini hech qachon oqlolmasligini Sheroz yaxshi tushunardi. Marhumni «zo'r-lash»da ayblab bo'lmasdi. Bu balki, Sherozning aybini biroz yengillatishi mumkin edi. Lekin, Farangizning or-nomusi Sherozning or-nomusiga aylanib ulgurandi. U bu or-nomusni endi ko'z qorachig'iday avaylardi. Endi u bu or-nomus uchun o'limga ham tayyorligini bo'yniga olgandi.

Sud Sherozning yoshligini, bilib-bilmay qilgan gunohini inobatga olib, olti yil ozodlikdan mahrum etdi. U, balog'at yoshiga to'lgunga qadar mahbuslikning dastlabki qismini bolalar koloniyasida, so'ngra kattalar qamoqxonasida o'taydigan bo'ldi. Sudda juda ko'p odam qatnashdi. Ota-onasi, aka-ukalari, qarindosh-urug'lar, o'qituvchilar, mahalladoshlar. Kelajakda katta inson bo'lib yetishadigan bir bolaning hayoti teskari aylanib, chappaga ketgani hammani hayron qoldirar, yuraklarini ayanchli og'riqqa to'ldirardi. Sherozning o'zi ham buni kutmagandi. Sud jarayoni tugar ekan, zal yig'i-sig'iga to'ldi. Odamlar xayrlashish uchun baqirar, yerdan tobut ko'tarilganda ayollarning qiy-chuvi yeru ko'kni to'ldirganidek mahbusni sud zali panjarasidan olib chiqayotganlarida yig'i-sig'i shu darajada avjiga chiqdi.

— Mening kasrimga qoldingiz. Sizning o'rningizga men qamalishim kerak edi! — deya ingradi Farangiz u bilan xayrlashayotib.

— Yo'q, unday demang. Agar bu holat yana takrorlansa, yana shunday qilardim.

— Siz o'lganingizda nima bo'lardi?

— Men o'lmayman. Sizni hech qachon tashlab ketmayman. O'sha kuni o'lsam ham, avval sizni qutqarib, keyin o'lardim. Endi men jinoyatchiman. Endi men yomon odamman. Endi men sizga noloyiqman. Meni kechiring. Meni kutmang.

Farangiz hayratdan qotib qoldi. «Sizni kutaman», — deya baqirmoqchi edi, odamlar Sherozni o'rab ketayotganini ko'rib, so'zi bo'g'zida qoldi.

So'ng ingrab yubordi. «Sizni o'lgunimcha kutaman».

Sherozni qamoqxonaga kechqurun keltirishdi. Soqchilar qop-qorong'u xonaga kirgizib, ortidan itarib yuborishdi. Sheroz

yerga qarab qip-qizil polni ko‘rdi va mahbuslarni rosa urishganidan hammayoq qip-qizil qonga bo‘yalibdi-da, endi meni ham urishsa kerak deb, ichiga qo‘rquv kirdi.

Joyida qotib turavergandi, ko‘zi qorong‘ulikka moslashib, polda yotgan odamlarni ko‘rdi.

Keyin kimdir: — Joy topib yotaver, — degach, cho‘chin-qirab yerga cho‘kkaladi. O‘sha tunning o‘zidayoq o‘z o‘tmishida qora dog‘ bo‘lib qoladigan biror voqea yuz berishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘z-o‘ziga qasam ichdi.

Xudoning kuni to‘xtamas ekan. Bora-bora u ham tor, iflos va jirkanch xonaga ko‘nikib ketdi. U nima bilandir band bo‘lishni istar, Xudodan ish berishini so‘rardi. Tog‘lardagi yo‘l qurilishiga bo‘lsa ham, ariq tozalashga bo‘lsa ham jon deb borar, stanoklarda bosh ko‘tarmay ishlar, devoriy gazetalar chiqarar, rasm chizardi. U o‘zini ish bilan ovutishga harakat qilardi.

Bir kuni unga Saida’lo degan hamxonasi:

— Irodangizni cho‘ktirmang! — dedi. — Xudo sizning harakatlaringiz, haqligingizni, albatta, inobatga oladi. Xudoga ishoning. Xudoga ishonmaganlar esa, albatta, halokatga uchraydi. Odam zindonga tashlanganda ochlikka yigirma kun chidashi mumkin, suvsizlikka o‘n kun chiday oladi. Ammo irodasiz bo‘lsa, iymonsiz bo‘lsa, qo‘rquv va tahlikada uch kungina yashashi mumkin. Keyin esi og‘ib o‘z muvozanatini yo‘qotib qo‘yadi! — dedi. Bu gap Sherozni yodida bir umrga qoldi. Tushkun damlarida Saida’loning shu gaplarini eslab, kelajakka umid bilan qaradi.

Uning iste’dodini ko‘rgan Saida’lo ilm olishga undardi. — Hali yoshsiz, o‘qing, — derdi u. — Odam ilm izlab uxlab qolganda, farishtalar qanotlarini yozib, soyabon qilib turar ekan. Ilmli odamning martabasi shahidning martabasidan, hojining martabasidan ulug‘roq. Yeru osmondagi barcha jonzot olimning gunohi kechirilishini so‘rab turadi. Hatto suvdagi baliqlar ham istig‘for aytishadi. Yoshligim o‘tdi, ilmga yaroqsizman, deya zinhor tushkunlikka tushmang.

Qaddingizni baland tuting. Qamoqxona — tiriklarning qabristoni, degan gap to‘g‘ri. Lekin ozodlik — qayta tirilish

ekanini unutmang. Muhabbat esa kishini vujud iskanjasidan ruhiy ozodlikka olib chiqadigan ilohiy maqom. Lekin, hamma ham chin muhabbat bilan olmaydi. Bir kuni Majnunning qiynalib yurganini ko'rgan ota-onasi uni yetaklab bir qancha go'zal qizlarni ko'rsatishga olib boribdi. Majnun boshini ham ko'tarib qarab qo'ymabdi. Otasi: «Bir qara, qanchalik chiroyli qizlar-a, nega qaramayapsan», desa, Majnun: «Bosh ko'tarsam, Layli nigohining qilichi boshimni kesib tashlaydi», degan ekan. Haqiqiy muhabbat shunday bo'ladi.

Sheroz dastlabki yillar Farangizga bir-ikkita xat yozib yurdi. Keyin tushkunlikka berilib, u kim-u men kimman, degan xayolga bordi. Qiz bolaning baxtini bog'lashni istamadi. Uning qamoqxonada yozgan she'rlarining biri quyidagicha edi:

Sizni ardoqlashdi,
 Sizni suyishdi,
 Qo'l cho'zib qoldilar
 ko'kka ko'tarib.
 Ko'z tikib toldilar,
 kulday kuyishdi.
 Vaslingiz axtarib,
 o'n mingta g'arib.
 Yurakni tildilar,
 tilishar hamon.
 Suyakka qadaldi
 sanchilgan pichoq.
 Sizga yetmoq armon,
 sizdan ketmoq armon.
 Biroq yechilmas siz
 boylagan sirtmoq.
 Siz juda go'zalsiz,
 bo'lmaydi chidab.
 Quturar, ingranar
 o'rtangan jonlar.
 Bir lahza tin olmoq uchun
 chinqirib,
 Qaqshab, Sizdan izn
 so'rar bo'ronlar.

Sizni sevib bo'lmas,
 sevib qolgandan.
 Poyingizga qular
 simyog'ochlar ham.
 Tomog'da cho'g' yongan,
 dard o'tib jondan
 Simob simirmoqda
 to'q ham, ochlar ham.
 Sizga taraf yo'qdir,
 bas kelguvchi yo'q.
 Bahs qilguvchi yo'qdir,
 qilolmagay arz.
 Sizga bir boqqanga
 yog'ar mingta o'q.
 To nafas uzguncha,
 uzolmagay qarz.
 Siz — hursiz, husningiz
 nurdan yaralgan.
 Mashhursiz, rasmingiz
 ming-minglarda bor,
 Siz ketgan tog'larda
 qorlar qoraygan.
 Sizdan dastxat so'rab
 izlaydi bahor.

Ming bor tang qoldirgan
horitgan, quvgan
Tahlikada tutgan
poylab saharda.
Quyoshsiz. Umid va
qoʻrquvda turgan
Tuni boʻyi najot
kutgan Qayslarga.

Sizni sevganlarga
aylamang shafqat,
Nafrat va gʻazabla
oʻtda yondiring.
Faqat, menda sizga
loyiq muhabbat.
Yoningizda faqat
meni qoldiring.



Oradan yillar oʻtdi. U qamoqdan chiqqanda ruhi soʻngan, yashashga ishtiyoqi umuman yoʻq edi. Uni biror joyga ishga ham olishmasdi. Fermer xoʻjaligi ochib, dehqonchilik bilan shugʻullana boshladi. Bu paytda Farangiz Toshkentda yurar, mashhur xonandaga aylangan, televizorda bot-bot koʻrinardi. Uning maftunkor suratlari bosilmagan gazetaning oʻzi yoʻq edi. Bular hammasi qasddan uyushtirilayotganga oʻxshardi. Sheroz qaysi gazetani ochib qarasa, unda Farangiz kulib turgan boʻlar, intervyularida unga murojaat qilib gapirayotganga oʻxshardi. Qachon televizorni yoqsa, Farangiz koʻrinar, unga bagʻishlab qoʻshiq aytayotganday har bir nolasi yurakni tirnardi.

Sherozni uylantirish uchun onasi juda koʻp joyga yugurdi. Nihoyat, Musharraflarnikidan rozilik olindi. Musharrafning onasi: «Mening ham oʻgʻlim qamoqxonada oʻtiribdi. Qamoqdan chiqqan odam odammasmi?!» — deya, mard ketibdi. Musharraf qoʻl-oyogʻi but, es-hushi joyida, mehribon va kamgap qiz edi. Umuman olganda, bu davrda Sheroz uchun kimga uylanishning farqi yoʻq edi. U unashtirilgan kuniyoq oʻzini yolgʻiz sezdi va naqadar katta xato qilganini tushundi. Musharraf uning hayotiga kirib kelsa-da, koʻngliga kirib kelolmadi. Sheroz bunday koʻngil-sizlikka ham koʻnikishi mumkin edi. Axir u bir paytlar oʻz farzandlari muhabbat mevasi boʻlishini istamaganmidi?!

Farzandlari, qalbining duru javohirlari boʻlishini, bu duru javohirlar dunyodagi eng goʻzal, eng mard, eng chiroyli bolalar boʻlib, orzularining, ezgu niyatlarining timsoli boʻlib dunyoga kelishlarini istamaganmidi?!

Sheroz qismatini bugun o'zgartirmasa boshqa hech qachon o'zgartirolmasligiga ko'zi yetgani uchun yelkasiga kostumini ildida, uydan chiqib ketdi.



Farangiz Sheroz qamalib ketganidan keyin Xovosda turolmadi. Odamlar tugul ko'chalar ham, daraxtlar ham, har bir turmush voqealari ham uni ayblayotganga o'xshar, zero sudda uning nomi zikr etilmagan bo'lsa-da, hamma uning yolg'iz qolganidan, alamlisi, u bir jinoyatchini sevib yurganidan, qanday qilib jinoyatchini sevib qolishi mumkin-u va bu mumkin bo'lmagan narsani Farangiz qilib yurganidan, demak, jinoyatchini sevsa, buning ham bir illati bo'lsa kerak-da, deya o'ylashlaridan siqilar, hamma uni ko'rsatkich barmog'i bilan nuqib qarayotganga o'xshar, shuning uchunmi, maktabni bitirguncha umuman ko'chaga chiqmadi. Maktabni tugatdi-yu, Toshkentga o'qishga ketdi. Omadi chopib konservatoriyaga o'qishga kirdi.

Uni o'qishdan ham ko'ra haqiqiy hayot maktabi kutib turardi. Ovozini charxlash uchun vokalga qatnashishi, qo'shiq matnini tanlashi uchun she'riyat olamiga kirib kelishi, aranjirovkachilar bilan ishlash, she'rga bop musiqa tanlash, musiqani hali hech kim kashf etmagan navolarini yaratish, bu navolarni maromiga yetkazib ijro etuvchi, yuzaga chiqaruvchi studiyalarni tanlash va bularni hammasi ko'ngildagidek bo'lishi uchun olam-olam mablag' kerakligi, bu mablag'lar manbayi bo'lmish to'y, charlar, tug'ilgan kunlarda uzluksiz ishlash kerakligi kishidan juda katta sabot va iste'dod talab qilardi. Farangizning omadi shunda ediki, u o'zi ham kutmagan holda qo'shiqlari mashhur bo'lib keta boshlagandi. Shuning uchun u bastakorlar, prodyuserlar, jurnalistlarning eshigini taqillatib borishga ulgurmay ularning o'zi uning eshigini taqillatib kela boshlagandi. Bu tashqaridan qanchalik yaltiroq ko'rinmasin, uning ichkarisida tinimsiz mehnat, achchiq zahmat va odamlar bilan muomala qila bilish san'ati yotardi. Muomala san'ati shu qadar nozik san'at ediki, uni hech qaysi kitobdan, hech qaysi bir universitet darsliklaridan topib bo'lmasdi.

Farangizning ishi yurishib ketgan bo'lsa-da, u yolg'iz edi. U hamisha to'da-to'da odamlar orasida yurar, lekin qalban yolg'iz edi. U Sheroz qamoqdaligida ko'rish uchun bir necha bor bordi. U Sherozga taskin berishga harakat qilar, lekin har borganida Sheroz uni ko'rib battar qiynalishini, uni ko'rib jarohatlari yangilanishini sezar, bundan o'zi ham og'rinardi. Sheroz o'zini mag'rur va mard tutishga harakat qilar, lekin bu uning ojjizligini, ilojsizligini yanada ko'proq namoyon qilgani uchun haqoratlanganday, kamsitilayotganday bir holat yuzaga kelardi. Shuning uchun keyingi paytlarda ko'proq «posilka» jo'natar, oraliqda tobora kengayib borayotgan tafovutni tenglashtiruvchi maktublar jo'natar, bu maktublarga javoban esa tobora qisqaroq, dudmalroq, tushunarsizroq javoblar olardi. Bu javoblarning sovuqligini ko'rib, gohida Sheroz endi meni sevmasmikan, o'zi aslida ham qachonlardir sevganmidi, deya o'ylanib qolar, ularning tanishishlari va munosabat o'rnatganlaridagi fursat shu qadar qisqa ediki, o'rtamizda muhabbat tug'ilib ulgurganmi yo ulgurmaganmi, deya o'ylanib ham qolardi.

Gohida konsertlardan, to'ylardan charchagan kezlari uyga yolg'iz qamalib olib yig'lardi va Sherozga uzundan-uzoq maktub yozardi.

Biz aziz o'quvchini shu paytgacha Farangiz bilan yuzaki tanishtirib kelgandik. Nihoyat, uning ko'ngil olami bilan tanishtirishga jur'at etdik. Bu ko'ngil olamini yarq etib namoyon etuvchi damlar Farangizning Sherozga atab yozgan, ammo jo'natmagan, xatligicha, sirliligicha qog'ozda qolib ketgan, uning iffati, uning qiz bola sifatida o'zini asrab-avaylovchi, qiz bola bo'lganligi uchun chegaradan chiqib ketolmasligi, chiqib ketishi mumkin bo'lmaganligini isbotlovchi ming bitta maktubidan birini e'tiboringizga havola etamizki, shu kichkina bir dalilning o'ziyoq uning naqadar katta va nozik qalb egasi ekanligini ko'rsatib beradi va uning o'zini o'zi chizib berishi orqasidan «Nonning ushog'i ham non» deganlaridek, bu ushoq-qina dalolat qanchalik toza, qanchalik ulug'ligini ko'rib olasiz.

Bu xatni u Sheroz qamoqxonadan chiqqan kezlari uni izlab kelishiga mahtal bo'lgan, kutgan, yo'l poylagan, poylayverib

umidsizlikka tushgan, umidini soʻndirmaslikka intilgan, oʻzidan nima ayb oʻtganligini axtaraverib koʻzlari kirtaygan, kelmayotganligi uchun goh Sherozni, goh muhabbatni ayblayotgan kezlari yozgandi. Mana oʻsha maktub. Balki bu maktubmas, balki uning xayollaridir: «Bugun mening tugʻilgan kunim. Shunday kunda yolgʻizliging, tanholiging yomon bilinar ekan. Hattoki, jigardek yaqin doʻstlaring ham dardimga malham, jonimga oro boʻlolmasligini, baribir qandaydir boʻshliq hayotimda toʻla-toʻkis hukmronlik qilayotganini, nimadir yetishmayotganini sizga qanday qilib tushuntiray? Ular uyimni toʻldirib, olam-olam shodliklardan sarmast boʻlib, mening bayramimni nishonlamoqda. Kimdir divanda oyogʻini chalishtirib, ichimlik hoʻplamoqda. Yana birov musiqani tushungan odam sifatida berilib, boshini tebratgan koʻyi kuy tinglayapti. Yana bir juftlik bir-birini yelkasiga bosh qoʻyib raqsga tushayapti. Yana kimdir bemaʼni xotiralar koʻzgusi bilan fotoalbomni varaqlamoqda. Kimdir bilimdonligini namoyish etish maqsadida qoʻlidagi kitobni roʻkach qilganча buyuk mutafakkirlar haqida bilib-bilmay falsafa sotadi. Balki qayerdadir qulogʻiga chalinib qolgan maʼlumoti uning orzusini roʻyobga chiqishiga yordam berayotgandir. Kulgim qistaydi. Xonamga toʻlib olgan sigaret va ichimlik hididan koʻnglim ozib tashqariga yoʻnalaman, nima uchundir mana shu holatga xulosa yasagim keladi: olam toʻla boʻshliq! Balkonga chiqqanimda birdaniga sovuq havo yuzimga urildi: qanday yaxshi! Nazarimda goʻyo bugun mening hayotimdagi eng tantanali kunim emasday. Oʻzi doimo shunday — bayram kunlari mendan baxti qaro kimsa yoʻqday tuyuladi:

Ichikdim, sogʻindim seni shekilli,
Xoʻrligim keltirar gʻalat eʼtiroz,
Nimaga odamlar shod, xurram, mamnun.
Bizlar odammasmi, sevgilim, Sheroz.

Demak, bizlar odam emas. Yulduz toʻla osmonga tikilar ekanman, nima uchun insonni samoga bunchalar mehr qoʻygani sababini izlayman. Chunki... chunki uning bagʻri keng, juda ham



keng. Nima uchun zaminday zil iztiroblarim qolib, osmon haqida fikr yuritib qoldim, o‘zim ham tushunolmay hayronman. Yo‘q, juda yaxshi bilaman, u sizni eslatadi. Tunda qaro ko‘zlarinigizning aksi edi u.

Azizim! Sizga boshqa qanday murojaat qilishga ham hayronman. Hech narsa deb atab bo‘lmasligiga chidash qanchalar og‘ir! Siz shunchalar yaqinsizki, go‘yoki qo‘lim yetadiganday. Shunchalar uzoqsizki, bu masofani bosib o‘tish uchun butun umrim ham kamlik qiladi. Bir dalli aytmoqchi, bir osmon ostida, bir Vatanda yashab turib sizga yetishmoqlikning iloji yo‘qligiga ko‘nikmoq qanchalar azob! Ilojsizlik, ammo u asrlarga tatisa, yuragingni qurtdek yemirib bitirsa dodingni kimga aytasan? Sog‘inchimning bo‘yi osmonlar bilan tenglashib ketdi. Yuragim esa qafasdagi she‘r kabi o‘kirmoqda: «Qo‘yib yubor meni, qo‘yib yubor. Bir marotaba ozodlikka chiqar meni». Men esa ozodlik ta‘mini totib ko‘rgan yurakning nimalarga qodirligini xayolimga keltiraman-da, titrab ketaman. O, qani menda iloj bisyor bo‘lganida edi, sarg‘ayib ketgan yurakning ortidan yalangoyoq chopmasmidim!? Qurb yetarli bo‘lganida diydoringizga to‘yib-to‘yib tikilishdan o‘zimni tutib turmagan bo‘lar edim.

Azizim!

Siz o‘ylaysizki, mening hayotim farahli, sururbaxsh. Labimdan hech qachon kulgu arimaydi, har qanday tantanali kechalarni qoldirmaslikka harakat qilaman. Oyoqlarim tortmasa-da, ko‘ngil chopmasa-da, ularni majburlayman. Chunki yolg‘iz qolsam, xayollarim qonimni qora zulukday so‘raveradi. Nazarimda, etim ustuxonimga yopishib ketdi. Oyoqlarim o‘zimga bo‘ysunmay sizning huzuringizga oshiqqan chog‘i, «Irodam kuchli mening!», deya baqiraman. «Hissiyotlarimni yengishim kerak, ularning ustidan g‘alaba qozonishim kerak», deya pichirlayman oxirida majolim yetmay. Qo‘llarim telefonga yopishadi. Sizga — Xovosga telefon qilmoqchi bo‘laman. Biroz turib fikrim o‘zgarib qolishini bilgan holda shosha-pisha raqamlarni tera boshlayman. Yarmiga kelganda qayoqdandir, «Sabr-toqating yetmadi-a?» — deya kimdir ustimdan qahqaha otib kulganday bo‘ladi. Darrov sergak tortaman: Ovoz juda-juda tanish. Uni qayerdadir

eshitganman! To‘xta-to‘xta, u o‘zinning ovozim-ku va nihoyat go‘shak ko‘tariladi. Boshqa birov oldi chog‘i. Sizning ovozin-gizni ming chaqirim naridan ham tanisam kerak. «Kim kerak?» — deydi begona ovoz. Bu hol menga bolaligimdagi bir o‘yinni eslatadi. Unda bolalar ikki safga tizilib turishardi-da, bir-birlariga savol yog‘dirishardi:

Oq terakmi, ko‘k terak,
Bizdan sizga kim kerak?

Keyin so‘ralgan bola yugurib, narigi safni yorib o‘tishga harakat qiladi. Buning oqibatida yiqilib tushish, yaralanish, shim-ko‘ylagini yirtish, kamida buning uchun ota-onadan so‘kish eshitish, hattoki kaltak yeyish mumkinligi hech kimning xayoliga kelmasdi. Faqatgina birgina maqsad: narigi safda bir bolani yutuq evaziga ergashtirib kelish istagi hamma narsadan ustun edi. Qani endi, hayotda ham shunday bo‘lsa, men dunyodan sizni so‘rardim. Ikkilanibmi, ikkilanmay, bilibmi, bilmay siz men tomon o‘qday uchib keldingiz. Ammo tutib qololmadim. Qo‘llarim, balki dilim lat yeyishidan, balki ishonchsizlikdan mahkamroq, risoladagiday tura olmagandirman. O‘sha paytda o‘z-o‘zini ayash evaziga oqargan sochlarim, zahar-zaqqumga to‘la, nursiz hayotim bilan tovon to‘lab o‘tishimni bilmagandim, bilmagandim, axir! Men hali-hanuz sizni zorlanib chorlay- veraman:

Oq terag-u ko‘k terak,
Bir ko‘rmoqqa yor kerak.

Ovozim tubsiz bo‘shliqqa singib ketadi. Go‘yoki sizni ko‘zi qiymay, u ham ortingizdan ergashib, borsa-kelmasga ravona bo‘lganday.

Azizim!

Mening butun umrim shu o‘yinni o‘ynash bilan o‘tadiganga o‘xshaydi. Ammo unda kim yutadi-yu, yutuqning kimda ketganini hali-hanuz o‘zim ham bilolmayman...



Sizni bilib bo'lmaydi asti,
Na iblissiz va na farishta.
Yuz ming marta urinsam hamki,
Goh uzilib, bog'lanar rishta.
Sizni kutib yashayman hamon
Biz tomonga kelasiz qachon...

Farangiz ...»



Sheroz Toshkentga kelganida qismat o'yinini qarangki, Farangiz «Xalqlar do'stligi» saroyida konsert berayotgandi. Sheroz aynan Farangiz uchun Toshkentga kelgan bo'lsa-da, u bilan uchrashish uchun juda uzoq paytdan buyon tayyorlanib yurgan bo'lsa-da, uning konsertiga kirishga ikkilanib turdi, so'ng gulbozorga borib, Farangizning bo'yi barobar guldasta yasattirdi. Guldastani ko'tarib kelar ekan, o'zi sahnaga chiqib, u bilan yuzma-yuz bo'lolmasligiga, bolalikda bo'lib o'tgan, bo'lganda ham beixtiyor bo'lgan va zabunlikka yuz tutib bexayr tugagan muhabbatni eslatuvchi kimsa sifatida uning ko'ziga ko'rinolmasligiga fahmi yetdi.

Konsert boshlanishiga besh-o'n daqiqa qolganda, yetaklashib kelayotgan bir qiz va yigitdan guldastani olib xonandaga olib chiqib berishlarini iltimos qildi.

— Ismingiz nima, aka? — so'radi yigit.

— Nomimni aytsangiz, kirmay ketganimga xafa bo'ladi. Yaxshisi, o'z nomlaringdan tabriklab qo'ya qolinglar. O'zi atay shu konsert uchun kelgandim, chaqirib qolishdi, noiloj qaytib ketayapman, — dedi Sheroz.

— Mayli, xotirjam bo'ling! — dedi qiz, — albatta berib qo'yamiz.

Ular kirib ketgach, Sheroz atrofda biroz aylandi-da, saroyga qaytib keldi va ko'zga ko'rinmas joyga o'tirib oldi.

Farangiz kuylaganda saroy jonlanar, odamlar jo'r bo'lardi. Xuddi poyezd joyidan siljiganda, odamlar qo'l ko'targanday unga qo'l siltashlari, uning mashhurligini, sevimliligini yuzaga chiqarardi.

FARANGIZ SARMAST BOʻLIB KUYLARDI:

Meni kuchliroq sev, kechagidan ham,
Keragidan ortiq, kechagidan koʻp.
Kecha qolmas edi, yuragimda gʻam,
Kecha sevar eding, keragidan koʻp.

Har lahza yuz bora meni soʻzlarding,
Larzaga tusharding har lahza yuz bor.
Yuzlaring koʻkarib, yuz bor boʻzlarding,
Yuz bor ulugʻlarding, yuz bor boʻlsang xor.

Bugun ham sen meni kechagiday sev,
Kecha uni sendan soʻramagandim.
Ertaga yemasin yuragimni dev
— Kechani qoʻmsagan aziyatlarim.

Kecha sen men bilan eding shahzoda,
Men hamon muhabbat eltgan oydaman.
Men bilan birga boʻl sarxush fazoda,
Kechagiday sev va ketma samodan.

Qoq ikki boʻlinib ketmasin falak,
Qoq ikki boʻlinib, boʻzlamasin oy.
Faqat seni deya uradi yurak,
Faqat sen uchundir koʻksimdagi joy.

Qoʻshiq tugagach, butun zal gulduros qarsaklarga toʻldi. Muxlislar quchoq-quchoq gullar, kimlardir esdalik sovgʻalar irgʻitardi. Sheroz zalning olqishini koʻrib, endi Farangizga hech qachon qoʻli yetmasligini, uning oldida xoru xaschalik qiymatga ega emasligini angladi. Va muztar holatda ulkan saroyini tark etdi.



Sheroz Xovosga qaytib keldi. Toʻy kuni tobora yaqinlashayotgandi. Ammo uning koʻngli bundan tobora siqilib borar, xuddi dorga osiladigan kuni yaqinlashayotgan mahbusday qochishga joy topolmas, hatto mahbuslik kunlari ham bunchalik yuragi ezilmagan, u paytda qachondir ozodlikka chiqishini bilardi,

endi esa, yaqin kunlarda, sanoqli kunlar ichida dorga osilish marosimi ijro etiladiganday yuragi entikardi.

Shu tufayli Musharrafni ko'rishga ham, uni ko'nglini olishga ham, bergan roziligi uchun undan minnatdor bo'lishga ham, har bir kuyovning oldidagi burch, bo'lg'usi kelinning qoshiga borib, undan hol-ahvol so'rashga ham oshiqmas, do'stlari, o'rtoqlari bilan to'y tadorigini ko'rib, hozirlanishga ham shoshilmas, nimadir ro'y berishini kutar, Farangizni bir bora ko'rish uchun yuragi yorilar darajada sog'inardi. Nihoyat, to'y kuni belgilanib, nikohdan o'tish marosimi boshlandi.

To'y to'yday bo'lishi kerak edi. Har bir o'zbek o'zi istasa istamasa-da, o'zi bilsa bilmasa-da, u xoh kambag'al bo'lsin, xoh oddiy xizmatchi bo'lsin, xuddi ming qo'yli boyday davlatmand, saxovatmand xo'jaga aylanadi. Misqollab topganini botmonlab sovradi. Tabiati shunday.

Sherozda ham beixtiyor shunday bo'ldi. Ozmi-ko'pmi topganini hammasini shu to'yga tikdi. Topgani esa kam emasdi. Uch yildan buyon fermerlik qilardi. Hisob raqamiga millionlab pul kelib tushishga ulgurgan edi.

Shuning uchun ko'cha to'lib nikoh marosimiga kelgan qizil belbog'lar bog'langan yengil mashinalarning signallari, bolalarning qiy-chuvi, karnay-surnay navolari yeru ko'kni to'ldirib yuborgandi.

Sheroz oq ko'ylak, qora kostum-shim, qizil galstugini taqib, ko'zgu yonida yasan-tusan qilarkan, bu qiy-chuvlarga e'tibor bermas, bamaylixotir sochini tarar, yuzini shapatilab qizartirishga harakat qilar, g'amgin ko'zlarida shodlik jilvalanishi uchun behuda urinar, o'zini risoladagidek holatga keltirish uchun yaxshi o'ylarni o'ylashga tirishar, yaxshi o'ylarning hammasi esa Farangiz bilan bog'liq xayollar edi.

Bir payt tezlashib ketgan g'ala-g'ovurdan bezovtalanib dera-zaga qaragan edi, ko'cha tomondan uyi darvozalari ro'parasida turgan, salafanlari olinmagan yap-yangi oppoq «Neksiya»-ga ko'zi tushdi. Va kimniki ekanligini bilolmay hayron bo'ldi. Hali hushini yig'ib ololmagan edi-ki, xonaga bir to'da bola bostirib keldi. Ular kim o'zarga baqirishardi.

— Sizga «Neksiya» olib kelishdi. Artist Farangiz to‘yingizga to‘yona deb «Neksiya» sovg‘a qilibdi. Chiqib kalitini olarkan-siz, — deya baqirishardi ular.

Sheroz xuddi Farangizning o‘zi kelganday yugurib ko‘chaga chiqdi.



Farangiz har qancha irodali bo‘lmasin, o‘zidagi eng ojiz nuqta — Sheroz haqidagi xayollarga berilganida mutlaqo esan-kirab qolar, ojiz va notavon kimsaga aylanardi. U Sheroz uchun yangi oppoq «Neksiya»ni to‘yona qilib jo‘natgan bo‘lsa-da, bu ko‘nglidagi chigilni yozolmas, tumanday bosib kelayotgan g‘uborni tarqatolmas, xuddi bu bulutlar birlashib momoqaldiroq chaqnashi, qayerlardadir yashin uchib tushishi lozim bo‘lganiday, yuragining tub-tubida alamzadalik guldrosolari, o‘kinch ko‘chkilari uni quyushqondan chiqarib yuboradigan, muhabbat toshqinlari, xo‘rlik zilzilalari siltanib yotar va har daqiqada hayotini izdan chiqarib yuborishga shaylanardi. Farangiz bir o‘zi o‘zini boshqarolmasligiga fahmi yetib, o‘sha kunni do‘stlari davrasida o‘tkazishga qaror qildi. Axir bugun Sheroz Musharraf bilan nikohdan o‘tadi. Ikki kundan keyin esa to‘y.

Axir u nima uchun kutdi? Kimni kutdi? Nega? Uning hayotida unga muhabbat izhor qilganlar kam bo‘ldimi? Unga poy-patak bo‘lganlar, uni qiyin damlarida suyaganlar, unga haqiqiy muhabbat bilan munosabatda bo‘lganlar, uning baxtli damlarida rosmana quvonganlar va uni dunyodagi eng pokiza va eng go‘zal qiz deb bilganlar, uning uchun jonu jahonini ayamaganlar kam bo‘ldimi? Yo‘q, ular ko‘pchilik edi va ularning ko‘pchiligi-ni Sherozdan afzalroq tomonlari, yetukroq fazilatlar bor edi. Lekin nima qilsin, u birinchi muhabbat bilan, beg‘ubor qalb otashlari bilan Sherozni sevdi va bu muhabbat yillar davomida uning qon-qoniga, jon-joniga singib bordi. Va bora-bora uning butun qismatini, fe‘l-atvorini, dunyoqarashini Sherozga bo‘lgan munosabat belgilab bordi. Sheroz uning hayotining ajralmas qismiga aylandi.

Lekin qiziq, u qanchalik go'zal, qanchalik mashhur va hamisha gavjum odamlar orasida bo'lishiga, hamma unga havas bilan qarashiga, hamma unga muhabbat bilan qarashiga qaramay u yolg'iz. Uning atrofida hech kim yo'q. Yonida qalbiga eng yaqin odam — sevgilisi yo'q. U yolg'iz yashayapti. Bugun esa mana shu yolg'izlik bundan keyin ham davom etishi uchun qayerlardadir uning umidlarini chilparchin qiluvchi, uni yana yolg'izlik qa'riga tashlovchi, uning muhabbati sarob ekanligini oshkor anglatuvchi hukm o'qilayapti. Bu hukm o'qilganidan keyin Sheroz qonuniy ravishda undan begonalashadi. Oralariga mustahkam to'siq qo'yiladi va bu to'siq elga oshkor etiladi. El bu to'siqning o'rnatilishiga guvoh bo'ladi. Va bu to'siqni buzish elning nazarida sharmandalik qilish hisoblanadi. Elni bu to'siqning buzilishiga rozilik qilish esa hech qachon amalga oshirib bo'lmaydigan hodisadir. Faqat nima uchun, qaysi aybi uchun Farangiz chetda qolib ketdi?!

Nega Sheroz uning oldiga bosh urib kelmadi?! Nega bir og'iz ko'ngil so'ramadi? Eski qadrdonlik hurmati, bolalikdagi muhabbat hurmati nega uni yo'qlamaydi? Qachon ular shunchalik begonalashib ketishga ulgurdi? To'g'ri, Sheroz unga hech qachon muhabbat izhor qilmagan. U bilan yuzma-yuz turib ahdu paymon qilmagan. To'g'rirog'i, bunga fursat bo'lmagan. Har ikkisi ham bir-birlariga talpinishgan. Bir-birlarini o'rtasida muhabbat rishtasi his qilingan. Lekin ey voh, endi har ikkisi ham bu hissiyotlardan yuz burmoqda.

Farangiz bu ezgin xayollardan o'zini qutqarish uchun ancha vaqtlardan buyon «Bir o'tiraylik» deb hol-joniga qo'ymay yurgan tanishiga qo'ng'iroq qildi va bugun uning mehmoni bo'lishga rozilik bildirdi. Boshqa do'stларini ham, prodyuserini ham, yaqin dugonalarini ham o'sha joyga taklif qildi.

«Xalqlar do'stligida»gi konsert katta shov-shuylarga sabab bo'lgan. Bu loyiha uchun qirq milliondan ortiq xarajat sarflangan. Nafaqat o'zi, balki butun guruh a'zolarini tinka-madorlari qurib, charchagan edi. Bugungi o'tirishga ham butun guruhni taklif etdi.

Lekin o'tirish homiysi Farangizning roziligini boshqacha tushungan edi. U necha yillardan buyon Farangizning qo'lini so'rab yurgan, kechagi konsertiga ham, ovoz yozish studiyalaridagi xarajatlarga ham yonidan mablag' sarflab yurgan va kerakli paytda bu xarajatlarni ikki hissa chiqarib yurgan odam edi. U Farangizning bu taklifini o'z muhabbatiga rozilik alomati deb tushundi. Va ziyofatga alohida tayyorgarlik ko'rdi.



... Farangiz qop-qorong'u xonada kimdir uni yechinti-rayotganini xotirlay boshladi. Hushyor tortib o'ziga kelishga harakat qildi. Uning poyida tiz cho'kkancha qo'llari qaltirab El-tursun G'ayratovich turardi. Farangiz qo'llarini uning yaltiroq boshiga qo'ydi.

— Jonim! — deya g'uldiradi u. — Butun olamni oyog'ingiz tagiga tashlasam maylimi? Izn bering, oyog'ingizni bir o'pay. Tirnoqlaringizni o'payin, jonim. Axir men bu iznni necha yillardan buyon zoriqib kutdim...

— Biz qayerdamiz? Boshqalar qani?

— Hammaga o'zingiz javob berib yubordingiz. Meni kuzatib qo'yishga o'zingiz izn berdingiz.

— Biz qayerdamiz, chiroqni yoqing!

— Jonim, o'zingiz uxlayman dedingiz-ku?

— Uxlayman, lekin siz bilan emas.

— Jonim...

— Torting qo'lingizni...

— Farangiz, ayting, sizdan bir bo'sa olish uchun nima qilay? Meni topganim sizniki...

Eltursun G'ayratovich turib chiroqni yoqdi-da, shosha-pisha qayerdandir diplomat ko'tarib keldi va uni kalit bilan ochdi-da, dasta-dasta pullarni uning oyog'i tagiga sohib tashladi.

— Oling, Farangizxon! Yuz ming dollar. Hammasi sizniki. Sizga bo'lgan muhabbatim evaziga birgina bo'sa bersangiz bo'ldi.

— Meni ko'ylagim qani? — so'radi Farangiz bamaylixotir.

— Farangizxon keling, yo‘q demang, — deya cho‘kkalagan-cha uning oyoqlarini o‘pa boshladi Eltursun G‘ayratovich.

— Meni ko‘ylagim qani? — deya farmonbardorlarcha takrorladi Farangiz.

— Farangizxon...

— Yo‘qol, oyog‘imning tagidan! — baqirdi Farangiz va oyog‘i bilan uning yelkasini tepib yubordi.

Eltursun G‘ayratovich tisarilib turdi-da, yaxshi gap bilan muddaosiga yetolmasligiga tushundi va g‘azabi kelib o‘rnidan turarkan: — Mana senga ko‘ylak, mana manjalaqi! — dedi-da, Farangizning yuziga tarsaki tortib yubordi. — Jalab,— deya uni divanga itarib yubordi! — Hozir g‘ing desang chavaqlab tashlayman.

Farangizning mastligi tarqab hushyor tortdi. Va o‘zining ojizligini, kuchsizligini tushundi. Uyoq-buyoqqa qarab qo‘liga ilinadigan va ursa raqib nari ketadigan biror narsa axtara boshladi. Shu payt Eltursun G‘ayratovich vahshiy hayvonday o‘zini uning ustiga tashlab yuz-ko‘zlaridan o‘pa boshladi. Farangiz harchand siltanmasin, uning ostidan chiqishning ud-dasini qilolmadi. So‘ngra zo‘rg‘a bir qo‘lini bo‘shatib oldi-da, ko‘rsatkich barmog‘ini Eltursun G‘ayratovichning ko‘ziga urdi.

U dodlagan nari surildi.

Uning ko‘zidan qon oqa boshlagandi.

Farangiz joyidan qo‘zg‘alarkan: — Bilib qo‘y, menga teginmoqchi bo‘lgan birinchi odamning o‘lib ketganiga to‘qqiz yil bo‘ldi. Meni himoya qilmoqchi bo‘lgan odam esa olti yil qamoqda o‘tirib chiqdi. Agar sen ham o‘lishni istayotgan bo‘lsang, hozir joyingdan qimirlagan zahoting ikkinchi ko‘zingni ham o‘yib olaman. Men o‘z nomusimni shuncha yillardan buyon sendaqa gazandalarga sotish uchun asrab yurganim yo‘q. Bu nomus sendaqalardanmas, kerak bo‘lsa, mening o‘zimdan ham qimmat turadi. Uning qancha turishini esa sendaqalar hech qachon bilmaydi. Mabodo nomusim sendaylarning changalida buziladigan bo‘lsa, san‘at sohasini o‘sha kuni tark etib ketishimni sen mutlaqo tushunmaysan.

Farangiz kiyindi-da, ingrab yotgan Eltursun G‘ayratovichga qaramay, eshikni bir tepib chiqib ketdi.



Sheroz Farangiz yuborgan sovg'ani ko'rib hayratga tushdi. Uning oldiga borishga bahona topilganidan, uni ko'rish imkoniyati tug'ilganidan, go'yo jarga qulayotgan odamning qo'liga ushlab olish uchun ilmoq ilinganday quvonib ketdi. To'yning mingta tashvishi bo'lishiga qaramay, Toshkentda Farangizni qayerdan topishni bilmasa-da, yo'lga chiqdi. Farangizni hamma tanigani uchun ham uni, albatta, topib olishini bilardi. Faqat uning oldiga borib nima deyishini bilmas, to'g'rirog'i, Farangiz uni qanday qarshi olishini, yuborgan sovg'asi to'lovmi yoki minnatdorchilik nishonasimi yoki muhabbat ehtiromimi, mana shularni bilmas, shuning uchun o'zini nimaga hozirlash kerakligini anglolmay yo'lga chiqqan edi.

Kechqurungi soat sakkizlarda ular Toshkentning eng go'zal restoranlaridan birida so'zlashib o'tirishardi.

— Men sizning kelishingizni bilardim. Kelishingizni intizorlik bilan kutardim. Men, men uchun olti yil qamoqda o'tirgan odamni unutib yuboradigan darajada ahmoq emasman. Men o'zim sizni izlab bormoqchi edim. Lekin uylanayotganingizni eshitib, qattiq xafa bo'ldim.

Lekin, bo'lib o'tgan voqealar tufayli Xovosga ham bormay ketganimga, eh-he, necha yillar bo'ldi. Uydagilarning o'zlari kelib turishadi. Lekin, siz kelmaysiz. Nega shu paytgacha biror marta kelmadingiz? Biror marta yo'qlamadingiz? Hech bo'lmasa qo'ng'iroq qilsangiz bo'lardi-ku. Ozodlikka chiqqaningizni eshitib kelishingizni har bir daqiqada kutdim. Sizga turmushga chiqaman deb o'ylagandim. Qamalganingizdan keyin emas, unashtirilganingizdan keyin yo'limiz boshqa-boshqa tomonlarga ketganini angladim, umidlarim puchga chiqqandi. Lekin hozir ham sizni avvalgiday yaxshi ko'raman. Sizga turmushga chiqish, chiqmasimdan qat'i nazar siz bilan birga yashamasak-da va yo'llarimiz ayro ketgan bo'lsa-da, sizga bo'lgan muhabbatim so'nggi nafasimgacha saqlanib qoladi.

Sheroz Farangizning ko'zlariga qarab turarkan ich-ichidan to'lg'ondi. U ayol kishi hech qachon kechira olmaydigan xiyonatni

sodir etganini, bu xiyonatni yuvish uchun tovon to'laydigan qudratga ega emasligini angladi.

— Meni kechiring, Farangiz! — dedi u. — Men sizga xiyonat qilganim yo'q. Men jur'atsizlik qildim. O'sha paytlar sizning oldingizga kelishga kuchim, shijoatim yetmasdi. Men, hayotdan uzilib qolgandim. Mening yuragimda yashashga ishtiyoq so'nib bitgandi. Hech narsadan umid qilolmasdim. Men uchun go'yo hamma eshiklar taraqlab yopilgandi. Boshimdan o'tgan, boshimni yanchgan savdolar ko'zimni ochirishga yo'l qo'ymasdi. Hatto hozir ham sizga og'iz solishga jur'atim yetmaydi. Rosti, Toshkentga sizni izlab keldim-u, kel, deyishingizni orzu ham qilolmayman. Siz uchun qamalganimni esa, unutib yuboring. Roziman. O'shanda yuz bergan hodisa butun umrimni falaj qildi. Birov ataydan uyushtirgani ham yo'q. Bexosdan bo'ldi. O'zimni himoya qilish uchun uni tosh bilan urdim. Tosh qattiq tegib, u o'ldi. Buni qahramonlik desak, ahmoq bo'lamiz. Bu shunchaki tasodif. Men sizni bog'liq holda tashlab ketolmasdim. Mening o'rnimda boshqa odam bo'lganda ham shunday qilardi. Shuning uchun u kunlarni unutib yuboring. Mendan ko'ra kuchliroq bola bo'lganda, Toshtemirning o'zini daraxtga bog'lab qo'yardi, tamom-vassalom, hech qanday fojia yuz bermasdi. Bo'lgan voqealar mening noshudligim tufayli yuz berdi. Shuning uchun vijdon azobida yurishingizni istamayman va yuz bergan hodisa oldida o'zingizni aybdor sezib, shu aybingiz uchun meni unutilmay va mana shu unutilmaslikni muhabbat desangiz, yanglishasiz. Men sizning oldingizda qachonlardir qilgan qahramonligim uchun sovg'a so'rab kelganim yo'q! Menga sizning qalbingiz yoqadi. Siz xuddi mening yuragimning tarjimoniga o'xshaysiz. Sizning so'zlaringiz xuddi mening yuragimdan olib gapirilayotgan so'zlarga o'xshaydi. Ikkalamiz xuddi qachonlardir, hali tug'ilmasimizdan oldin bitta odam bo'lganmiz-u, keyin boshqa-boshqa oilalarda dunyoga kelganga o'xshaymiz. O'tgan yillar ichida bir lahza yo'qki, sizni yodga olmagan, sizni qo'msamagan, siz bilan xayolan gaplashmagan bo'lsam. Bugundan boshlab siz bilan yana qayta uchrashmasligimiz mumkin. Siz shafqatsizlarcha yo'limizni boshqa-boshqa tarafga burib yuborishingiz mumkin. Lekin bu bizlar ajrashdik, degani emas. Siz

yana mening ko‘z oldimda har lahza namoyon bo‘laverasiz. Har lahza siz bilan gaplashib turaveraman. Sizni har lahza sog‘inib, har lahza sevaveraman. Bu to o‘lgunimcha davom etadi. Dunyoda eng so‘nggi gul qolsa ham uni sizga hadya etgan bo‘lar edim.



Restorandan chiqishgach, Farangiz Sherozni uyiga taklif qildi.

Farangiz ikki xonali uyda yolg‘iz yashardi. Xonalarga ko‘rk berib turgan aql posongisini buzib yuboruvchi nihoyatda qimmatbaho mebellar estrada xonandasining yulduzi kishini esankiratar darajada porloqligidan darak berardi.

Sheroz oppoq divanga yastanarkan, Farangizning qo‘lini ushlab, o‘ziga tortdi. Bu Farangizning qo‘lini birinchi bor ushlashi edi. Aniqrog‘i, muhabbat bilan ushlashi, yanada aniqrog‘i, muhabbat izhor qilish uchun o‘z ehtiroslarini jilovlay olmay, uni o‘z bag‘riga tortish uchun, o‘zini u bilan bir butlikda ko‘rish uchun ushlashi edi.

— Farangiz, sizni naqadar yaxshi ko‘rishimni bilasizmi? Siz meni borlig‘im, yoshligim, bugunim va ertangi hayotimsiz! Mening barcha o‘tmish xotiralarim siz bilan chambarchas bog‘langan. Sizens eslaydigan xotiralarimning o‘zi yo‘q. Sizens tasavvur qiladigan kelajagimning o‘zi yo‘q. Keling, menga turmushga chiqing. Istasangiz, Tojmahalgaga borib, ziyorat qilamiz va o‘sha yerda muhabbat va sadoqat bilan bir umr birga yashaymiz deya, qasam ichamiz. Shunga rozimisiz! Istasangiz, umra safariga boramiz, Ka‘batilloni aylanib, nikohdan o‘tamiz. Istaysizmi? Istaysizmi, men bir qadam ham oldingizdan ketmayman. Istaysizmi, men mashinamni sotaman, uyimni sotaman, hisob raqamimdagi hamma mablag‘imni va butun umrimni siz uchun sarflayman, sizning san‘atdagi mavqeyingizni rivojlantirish uchun sarflayman. Men hozir boshi berk ko‘chaga kirib qolganman. Olti yillik umrim, kelajagimga tamal toshi qo‘yiladigan yigitligimning eng go‘zal davrlarini zax va rutubatli xonalarda shaxtimni, shijoatimni sindirish uchun alam va azobda ich-

ichimni yeb o'tqazdim. Qamoqdan chiqqanda endi o'z hayotim tugadi, endi oila quraman, xotinim menga o'g'illar tug'ib bersa, o'z kelajagimni shu o'g'illarim hayotida davom ettiraman, degandim. Men Musharrafni ham ayblamayman. Buning hammasiga men o'zim aybdorman. Men o'zim gunohkorman. Lekin men o'z kelajagimni bunday tanazzul botqog'ida qoldirolmayman. Menga yordam bering! Menga yordam qo'lini cho'zing! Keling, birgalikda oila quraylik. Farzandlar ko'raylik. Bir og'iz ayting, to'yni to'xtataymi? To'yni to'xtatsam, menga tegishga rozi bo'lasizmi?

— Yo'q, bu bo'lishi mumkin emas. Men unday qilolmayman.

— Demak, yo'q.

— Ha, boring, baxtli bo'ling.

— U bilan hech qachon baxtli bo'lolmayman.

— Men ham kecha o'zga odamga turmushga chiqishga rozilik berdim.

Farangiz bu so'zni qayerdan kelib qolgani-yu, nega aytib yuborganligini bilmay qoldi. Bu so'z uning yuragidagi alamning ifodasi, Sherozga kinoyasi edi, xolos.

— Balki to'yimga borarsiz?!

— Yo'q.

— Iltimos, boring, bu butun hayotim davomida berilgan eng katta baxt, eng katta omad bo'ladi. Menga bundan ham kattaroq baxt berilishi mumkinligini tasavvur ham qilolmayman.

Sheroz xuddi zulmat qo'ynida yurib-yurib, izlab-izlab, miltiragan bir shu'lani topgan-u, o'sha shu'la birdaniga o'chib qolganday esankirab, nima qilishini bilmay qolgan telbaga o'xshardi. Uning yuragida kuchli og'riq uyg'ondi. Alam va nafratdan yerga mushtlab hayqirdi:

— Ey Xudo, nega topdim deganimda, qalbimning ardog'idagi, ko'zimning qarog'idagi, jonimning titrog'idagi javohirimni yo'qotdim. Nega?— dedi-da, o'zini yerga uraverdi va bexos Farangizga qaradi-da:

— To'yni to'xtatsam, menga tegasizmi-yo'qmi?! — dedi.

— Yo'q, — dedi Farangiz.

U voqealar shiddati bu darajada teskari aylanib ketishini hali tasavvur qilib ololmayotgandi.

— Men ketdim! — dedi Sheroz va eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdi.

Farangiz uning ortidan ko'chaga otildi. Ammo ko'chada hech kim yo'q edi.



To'y avjiga chiqqanda, darvozaning ko'chaga qaragan tarafi ikkiga bo'linib to'y o'rtasiga Farangiz va uning bir to'da sozanda-yu, arganchilari kirib kela boshladi. To'yda mahalliy qo'shiqchilardan biri odamlarning yuragini ezib, ayniqsa Sherozning dardu dunyosini qorong'u qilib: «Muhabbat yo'q ekan, muhabbat yo'q ekan, bevafo ko'p ekan dunyoda!» — degan hazin qo'shiq kuylayotgan edi. Odamlar Farangizni ko'rib yoppasiga gulduros qarsaklar bilan o'rinlaridan turib ketishdi. Hamma to'xtamay qarsak chalar, odamlar uning qo'shiqlarini xotirlab olqishlar, ko'rinmay ketgan o'zlarining mashhur hamqishloqlari bugun to'yga kelganidan hayratlanishar, ko'pchilik uning nega kelganini bilmas, bilganlar voqealar rivojini bundan keyin qaysi tomonga ketishini anglolmay hayron. Ba'zilar esa uni faqat xonanda sifatida tashrif buyurgan desa, ba'zilar ularning orasida qachonlardir bo'lib o'tgan kichkinagina muhabbat hali ham davom etayotganidan hayratda edi.

Farangizni ko'rib o'z san'ati tanazzulga yuz burganini sezgan mahalliy qo'shiqchi, qo'shig'ini tugatmayoq ovozini pastlatdi va hamma bilan birma-bir ko'rishayotgan Farangizga imo qilib uni o'rtaga taklif qildi.

— Aziz mehmonlar, hozir davramizga estradamizning porloq yulduzi, o'zining betakror qo'shiqlari bilan millionlab muxlislar yuragini zabt etgan, mashhur xonanda Farangiz tashrif buyurdi. Farangiz asli o'zimizning Xovosdan. Men bunday hamshaharim borligidan faxrlanaman va mamnuniyat bilan mikrofonni elimizning ardoqli san'atkori Farangizga topshiraman.

— Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar, aziz mehmonlar!
Men o‘zimni sizning davrangizda ko‘rib turganimdan, sizning davrangizda ishtirok etayotganimdan behad xursandman. Mening tashrifimning boisi mana bu ikki yosh. Men bu yoshlarga baxt, saodat va tuganmas muhabbat tilayman va hozirgi aytadigan qo‘shig‘imni mana shu yoshlarga bag‘ishlayman.

Farangiz jimib qolgan va undan mo‘jiza kutayotgan davraga qarab, o‘zining yangi qo‘shig‘ini ayta boshladi:

Bo‘g‘zimda bir yig‘i ismingni aytсам,
Baxt deganlari ham achchiq sharobmi?
Dunyoga sevmasdan yurganlar hakam,
Sevganlarning holi menday xarobmi?

Sen bilan umrning gullab-yashnagan,
Hech kim ucholmagan toqida uchdim.
Ammo bugun tushkun, zor-zor qaqshagan,
Ilojsiz qolganlar chohiga tushdim.

Chopay desam, endi oyoqlarim yo‘q,
Seni topay desam, ko‘rmas ko‘zlarim.
Seni chorlay desam, tomoqlarim yo‘q,
Uzilib-uzilib ingrar so‘zlarim.

Titroq yuragiga nayza sanchilgan,
O‘ksik va tashlandiq devonadayman.
Bir-bir chiqaverar jonim halqumdan,
Hech qachon kelmaysan, davolamaysan.

Hayot yomon ko‘rmagandi meni aslo,
Balki bag‘ri to‘la hali muruvvatga.
Hayot bilan xayrlashmoq mumkin, ammo,
Xayr deya aytolmayman muhabbatga.

Uning qo‘shig‘ini tinglab turgan to‘yxona xuddi sel quygan-day jimjit bo‘lib qolgan edi. Shunda Farangizning mikrofon tutgan qo‘llari titray boshladi.

— Azizlar, bilasizlarmi, bu qo‘shiq kimga atalgan? Bu qo‘shiq bugun to‘yi bo‘lib o‘tayotgan akamiz Sherozga atalgan. Yodingizda bo‘lsa, bundan to‘qqiz yil oldin bir mudhish voqea

sababli Sheroz aka qamalib ketgan edilar. U kishining qamalib ketishiga, hayotlari abgor bo‘lishiga men sababchi edim. Biz maktabda o‘qib yurgan kezlrimizda bir-birimizni yaxshi ko‘rar edik. Bir kuni Sheroz aka meni himoya qilaman deb Toshtemir ismli bolani o‘ldirib qo‘ydilar va olti yilga qamalib chiqdilar. Lekin u kishi bu haqda hech kimga aytmadilar. Bugun u kishining to‘yi. Qarang, muhabbat uchun, bir qiz bolaning or-nomusi uchun, o‘z hayotini abgor qilgan, umrining eng go‘zal damlarini zax va qorong‘u joylarda, tashlandiq va kishanband holatda o‘tkazgan va buning uchun hech kimdan hech narsa da‘vo qilmagan bir ulug‘ insonning to‘yida o‘tiribmiz. Men bir o‘zbek qizining bokira sha‘ni uchun kurashgan, poymol bo‘lishidan, tahqirlanishidan asrab qolgan mana shu yigit oldida bir umr qarzdorman. Boshim yerga tekkuncha ta‘zim va tashakkurdaman.

To‘yxonaga og‘ir sukunat cho‘kdi. Noqulay vaziyat yuzaga kelgandi.

Shu payt o‘rtaga bir odam yurib kela boshladi. Titrab turgan Farangiz uni ko‘rib qo‘rqib ketdi. U Toshtemirning otasi edi. U mikrofonni oldiga yaqin kelib, qo‘liga mikrofonni olib, xaloyiqqa qarab gapira boshladi.

— Men o‘sha hayotdan erta ko‘z yumgan, bolaligidayoq juvonmarg bo‘lib ketgan Toshtemirning otasiman. Mana hozirgi san‘atkorimiz Farangiz aytayaptilarki, mening bolam u kishilar bilan yoqalashib o‘lib ketgan. U kishi esa Sheroz bilan xohlashganmiz, Sheroz bir qizning or-nomusi uchun kurashdi, deyaptilar. Men bu gaplardan bexabar edim. Bolam shunday noma‘qulchiligi uchun jazosini olibdi. Nega endi ular bir-birlari bilan turmush qurmay to‘y kuni o‘z dardlarini dunyoga doston qilib o‘tiribdilar. Shunday ekan, bular bir-birini shunchalik xohlashgan ekan, bularning ota-onalari ham shu yerda o‘tirishibdi. Kelinglar, shu ikki yoshning to‘yini o‘tkazaylik. Mening o‘g‘lim juvonmarg bo‘lib ketgan bo‘lsa, bularning hayoti juvonmarg bo‘lib ketmasin.

Hayratda qotib qolgan odamlar birdaniga shovqin-suron solib chapak chalib yubordilar.

Sheroz onasiga qaradi.

Shoʻrlik onaizor oʻgʻliga tikilgancha duv-duv yigʻlar, koʻz yoshlari ikki yuzini sel boʻlib yuvaradi.

Farangiz yuzaga kelgan vaziyatdan nihoyatda xijolatda edi. Axir u kimnidir toʻyini buzayapti-ku? Axir oʻrtada fotiha oʻqilgan, nikoh qilingan-ku? Axir ular bugundan boshlab rasman roʻyxatdan oʻtishgan va bu yerga yigʻilganlar Sheroz va Farangizning tomoshasiga guvoh boʻlish uchun emas, Sheroz va Musharrafning toʻyida ishtirok etish, ularning baxt va visol kechasi bilan qutlash uchun yigʻilishgan-ku. Nega ular Farangizni olqishlamoqda. U xonanda boʻlgani uchunmi yoki yuragidagi dardlarni toʻkib solgani uchunmi? Axir u bu gaplarni toʻyni buzish uchun aytgani yoʻq-ku!

Shu payt Sheroz oʻrnidan turib Farangizning oldiga keldi va mikrofonni qoʻliga olib tiz choʻkdi:

— Farangiz, menga turmushga chiqing, yoʻq demang, roziman deng?

Shu payt oppoq harirga oʻralgan Musharraf toʻyxona oʻrtasiga yurib kela boshladi. Hamma u tomonga oʻgirilib qaradi va u nima qilar ekan, deya sarosimada, tahlikada jim boʻlib qoldi.

Musharraf sekin-asta yurib kelar, yuzlari xijolatdan qizargan. Ammo koʻzlarida samimiy bir yolqin, lablarida nimtabassum bor edi.

U oʻz barmogʻidagi uzukni yechdi-da, bir qoʻli bilan Farangizning, bir qoʻli bilan Sherozni yengidan tortib, «kiydirib qoʻying» deya jilmaydi.

Sheroz uzukni Farangizning qoʻliga kiydira boshladi. Farangiz qoʻlini tortib olmaganligi uning roziligini bildirib turardi. Faqat u xijolatdan qizarar, oʻzini qoʻyishga joy topolmasdi.

Odamlar «rozimisiz, rozimisiz» deya soʻrayvergach, mikrofonni oldi-da, «roziman» dedi.

Hamma yana qarsak chalib yubordi.

Odamlar Farangizdan qoʻshiq aytib berishni soʻray boshladi. Oʻsha kungi toʻy tonggacha davom etdi.

Unda Farangiz aytgan ushbu qoʻshiq takror-takror yangradi:



Ichimda hayot barq urmoqda,
Isyon ko'tarmoqda shodlik.
Yoshlik hush gashtini surmoqda,
O'z bag'riga oldi ozodlik.

Ko'ngilda bir qatra g'ubor yo'q,
Tashvish yo'q, xayol yo'q o'ylashga.
Bu yorug' olamdan ko'nglim to'q,
Tayyorman sel bo'lib kuylashga.

Bu sarhush yuraklar hayotning,
Eng totli ayshidan yayrasin.
Yashash uchun kelgan har odam,
Har kun baxtliman deb yashasin!





SAHROYI GULLAR



Hikoya

Ya langlik uzra garmsel to‘lqinlari sassiz-sadosiz mavjlanadi. Yengil epkin qo‘lsiz odamning yengiday shalpayib qolgan to‘ppalak qovun yaproqlarini o‘ynaydi. Chaylada ellik-oltmish yoshlardagi ikki ovsin va amakivachchalar terlab-pishib choy ichisharkan, haligina brigadir tashlab ketgan va zimmalariga birdaniga tushib qolgan og‘irlik — og‘ir gapni toshu taroziga solishib, tarozi pallasining o‘zlari turgan tomoniga vazmin fe‘llarini harchand bostirsalar-da, bas kelolmay diqqatlari oshib o‘tirishibdi.

— Hozirdan o‘n olti tonna bo‘lsa, kuzga kelib o‘n sakkiz tonna berasan deydi, noinsoflar, — checha faqat qorachig‘igina ko‘rinuvchi botiq ko‘zlarini paykalga tikadi.

— Ko‘klamda gektariga o‘n ikki tonnadan berasizlar, deb shartlashgandi. O‘shanda xat-qog‘oz qilib olmaganimiz mana endi pand beryapti. Biz buni beti bor, burdi bor deb, qog‘ozga ham qaramagan ekanmiz.

Kun qaynab ketgandi. To‘rt tomonni yondirib yotgan saraton olovining tafti chayla ichkarisiga dam-badam uriladi. Ustunga ilingan qalampir shodalari liqillaydi. Bu qalampirlar insu jinslarni daf qilar emish. Bo‘lsa bordir. Shunisi ayonki, o‘rgimchak yoki boshqa jondorlar burchaklarga in qurish tugul, shu atrofda aylanishganiga biror kishi guvoh bo‘lgan emas.

— Ko‘klam kelaversa, bir narsadan quruq qopketadiganday ichimiz g‘imirlab qoladi-yov. El qatori yuraversak, kunimiz o‘tmaydimi? — Enaqiz opa kuldi.

— Kuzda karmonga picha pul tushsa, charchoq o‘lgur qochadi. Tushmay-tushmay yurgan pul bir tushsa katta ko‘rinadi-da.



— To‘g‘ri-yov. Umrimiz ketmonni suyrash bilan o‘tdi, tag‘inam, boyagi-bo-yagi boy bovamning tayog‘i.

— Ketmon, boy bo-vangizning boshingizda o‘y-natgan tayog‘imi, nima u?

— Kim biladi, sho‘-rimiz qaynab, enamizning emchagini qattiq tishlagan ekanmizmi, birimiz ikki bo‘lmaydi, bitimiz sirka...

Hangoma shu yo‘sinda aylanadi, Ahmadning jimligi suhbat mavzuiga brigadir mojarosini qo‘shdi.

— Zakunchi bo‘lsang ekan, bularning surobini

tuvrilasang, — deydi Checha, — unday chaqalarga tishimiz o‘tmasa. Jog‘alashib boray desang, uyat bo‘lsa...

— Uyalgan kishi oshdan quruq qolar! — Opa o‘pkalandi. — Oshdan quruq qolib, yana ketmonga yaramasang.

— Hali boraman, — deydi Ahmad o‘zicha.

— Sabr qil-chi. Bitta yugurdakka gap qaytarib, baraka toparmiding. Ishlamasang, ket, deydi. Keladigan son mingta deydi. Ishqilib, bo‘lar ish bo‘ldi, bo‘yog‘i ko‘chdi.

O‘rtaga murosaga soluvchi jimlik cho‘kdi.

— Amaki qanday, tuzalay deb qoldimi?

— Bir nav, tuzuk. Sho‘rlik ketmonini qattiq urganda oshqo-zoni og‘risa, qovurg‘am sanchiyotibdi deb yuraverdi, yuraverdi, oxiri do‘xtirga borsa, yotqizib qo‘yibdi. Kecha ko‘rgani bordim, rangi dokaday, gapirmaydi. Ha, Mohigul, nima bo‘ldi desam, bulk etmaydi. Bir gap eshitib qolganmi deymanda. Qoni sal yurishsin deb, qo‘llarini uqalasam, badani issiq. Qaytarimni bilmay kelaverganim...

Checha oriqlik qo‘llarini cho‘zib, dasturxon ziyini yopdi.

— Kambag‘al boyoqishniki shu ekan-da. Eplagan ikki oshar, ensasi tushgan bir oshar, deb bekorga aytadimi. Mana bu ish

bo‘pqolag‘aysin, mana bu ish bo‘pqolag‘aysin deb, ayni yetishar mahalingda lo‘p etib boshqasi chiqib turadi. Boshingni qaysi devorga urishni bilmay dovdirab qolaverasan.

Opa yuzidagi terni artdi. Uning qovoqlari ter to‘kilaver-ganidanmi, shishgan, yupqa terisi ostidagi qon terni art-ganda, qovoqlar pirillaganida sachrab ketadiganday qizarib turardi.

Chirildoq yaqin-yaqinginadan cho‘zib-cho‘zib chirilladi. Kun haddan tashqari yorug‘lashib ketgandi. Yalanglikka uzoq tikilib bo‘lmas. Odamning ko‘zi qamashardi. Zarlangandek, yarqiragan sap-sariq tuproq qo‘ynidagi qup-quruq tikanak gul shamolda butun borlig‘i bilan qimirlab, qisirlagan un chiqarar, boshidagi katta nishdor g‘ujumi, erta tongda nurlari nayzadek sachrovchi quyoshning kichkina aksini yodga solardi.

Atamasiz o‘simliklar baxmal bargli, chumchuqning ko‘zi-cha keladigan xo‘jag‘at shonali och ko‘kish gullar, har qancha jazirama bo‘lsa-da, zabarjad rangidagi, arang ko‘zga tashlanadi-gan mayda-mayda g‘unchalarini asray oluvchi, novdasi yo‘g‘on gullar, tanasi ham, rangi ham olachipor maxluqqa o‘xshagan, yer bag‘riga eshilib, ulangan yovvoyi o‘tlar — hamma-hammasi sahroga yangi kelgan kishini begonalatib qo‘yadi. Bu sahroyi gullar ham odamning ko‘nglidagi, uning o‘zi ham bilmaydigan tuyg‘ular kabi har yili barq urib dunyoga kelar, o‘z bo‘yini taratar, urug‘ sochar, qish izg‘irinida yana o‘zi bilan o‘zi andarmon bo‘lib, zamin bag‘riga singar, ko‘klamda ko‘payishib, yana yer yuziga qaytib kelardi.

— Saraton oftobining tafti qaytdi. Endi oftob g‘animat. Hademay kun botadi. Hali-beri qorong‘i tushmaydiganga o‘xshaydi-yu, aslida...

Jo‘yak ichidagi o‘tlarni chopiq qilayotgan Dilshodjon qavarib so‘gallashgan qo‘llarini enasiga ko‘rsatadi.

— Ketmon dastasini siqib ushlama-da, qo‘ling bo‘sh hara-kat qilsin, — deydi enasi. Dilshodjon enasiday ishlolmaga-nidan g‘ayirligi kelib, ketmonga zo‘r beradi. O‘pkasi to‘lib, yuragi o‘ynoqlaydi. O‘chakishadi. O‘zini to‘xtatib olishni ep ko‘rmaydi. Axir tinmay ishlash uchun katta jismoniy kuch bo‘lishi shart ham emasdi. Ana, enasi boshini ko‘tarmayapti. Boshqalar ham. Atrofdagilarning hammasi bunga ko‘nikib ketgan. Ularni

mehnat erkinligining ko‘rinmas zanjiri tutib turganday hamma o‘z ixtiyori bilan ishlayveradi. Shunday ekan, salgina o‘tirib g‘uborini yozishga Dilshodjon ham or qiladi.

Uyga shom qorong‘usida kirib kelishdi. Soat o‘n birdan oshib qolgandi.

Checha har kuni yugurib chiqadigan bolalarining jimligidan xavfsiradi. «Mohigulga bir gap bo‘ldimikin?» — eri haqidagi o‘y ko‘nglidagi tumanni junbushga soldi.

— Tinchgina o‘tiribsizlarmi? — dedi u to‘shanchiga og‘ir cho‘kkalarkan. O‘rganib qolganidanmi, beixtiyor «voy, jonim-ey» deb yubordi.

— Otamni bugun aparasta qilishibdi, — dedi kenja qizi. U tirnoqlarini haddeb ishqalardi. Keline esa qaynonasiga yaqinlasholmay, yarim yo‘lda qovog‘ini uyub turardi.

— Bugunmi? — keliniga yuzlandi checha. Undaychaqa gap yo‘q ediku? Nimaga tuyqusdan uytadi? — checha so‘nggi gapni o‘ziga-o‘zi aytdi.

— Qahhor, yur moshinangni hayda, borib kelaylik.

Tun yarmidan oqqanda shahar kasalxonasiga kirib borishdi. Hamshiralar vaqt allamahal bo‘lgani uchun emas, bemor maxsus xonada yotqizilgani uchun ularni ichkariga kiritishmadi.

Checha koridorda turib, baland karavotda oppoq choyshab yopinib yotgan, ko‘zi ochiq bo‘lsa-da, tanish ovozlarni eshitganda ham qimir etmagan, g‘aribgina tuyulib ketgan erini elas-elas ko‘rdi. Yer chala uyquda, tarkidunyo qilmoqchi bo‘lgan-dek, tanish ovozlarga qayrilib qaray olmas, tanish ovozlari jonli, ammo biror nafi yo‘q ruhlari singari bejo silkinib, g‘ayritabiiy tovushlar chiqarardi, xolos.

Checha maxsus xonadan chetlanar ekan, xonadagi qorong‘ilik ta‘siridanmi, negadir o‘zini aybdor sezdi. Nechukdir hayotdan qo‘rqdi. Yashash mushkulligini anglamagan ekan. Anglamay turib yashayvergani uchun ham hayot endi undan o‘ch oladiganday tuyuldi. «Voy, xudoyim-ey» deb yubordi. Bu zorlanish ich-ichidan o‘rmlab keldi. O‘g‘li o‘girilib qaradi-yu, nima deyishini bilmay yutindi.

— «Bu sho‘rlilik ham indayolmaydi, — deb o‘yladi checha. — Dardi ichida. Odamgina ichmay turib, zaharni bilmaydi-ya. Hayvon biladi. Bu boyaqish ham to Mohigulning ahvoliga

tushgancha yuraveradi». Checha o'g'lining yo'g'on bo'yniga termilib, o'zida so'ngsiz mehr, fidoyilik tuydi. Ko'zlari mo'ltiradi. Ko'nglidagi gaplar uchun o'zini qoraladi. «Nega o'z azangni boshqalarga ham tiqishtirasan? Qul o'lmay, rizqi kamaymas. Qozoningni suvga solib qo'yanmi, tishingning oqini so'rasanmi, o'tishi kerak bo'lgan kun bir amallab o'tadi-da, shunga shunchami?»

— Bo'ldi endi, dehqonchilikni ham yig'ishtirib qo'ysak bo'lar, — dedi u ohista.

— Ha, yilda shu gapni aytaman, bir to'xtamga kelmaysiz, — deb koyindi o'g'il.

Ular yetib kelishganda, uydagilar uxlab yotishar edi.

Checha ko'rpaga cho'zilar ekan, tanasi titrayotganini sezdi. Uning ruhi o'zgargan bo'lsa-da, tanasi bugungi ko'nikmalardan qutulolmagandi. Mehnatda qotgan suyagi endi to'g'ri lanmasdi. Chechaning ko'nglida tug'ilgan niyat esa ayricha tashviqot bilan vahima solardi.

Checha horigan bo'lsa-da, ko'zi ilinmay yotdi. Tunning qaysidir mahalida tush ko'rdi. Tushida ko'ringan oq narsa er o'ralgan choyshabmikan, ilg'ay olmadi. Oq narsa qorong'ilik qo'ynidan yaqinlashaverdi. Bu ikki boshli ilonning og'zidagi tilla tanga ekan. Tilla oy nurida yaltirar edi. Checha yaxshiroq razm soldi. Ilon inidan tangalarni bittama-bitta olib chiqib qurityapti. «Sabr tagi — sariq oltin. Ana, mening sabrim. Ilonning og'zidagi abadiy sabrim!..»

Keyin checha ilonning ko'zini yaqqol ko'rdi. Qora to'r chiziqlar tortilgan, ammo to'rlar ko'rinmaydigan darajada qip-qizil, bu shu'lalanuvchi ko'zlar chechaning tarang tortilgan miyasida namoyon bo'ldi-yu, shu zahoti romlab tashladi. Chechaning nafasi ichiga tushib, uyquga ketdi.

U ertalab uyg'ondi-yu, kundalik mayda-chuydalarga unnadi. Ancha vaqt o'tib tushidagi ilonni esladi. Bugun ishim o'ngidan keladi, deb suyundi. Erini o'yladi. Xabar olgani bejirimgina kiyinib yo'lga otlandi.

Eri bir kecha-kunduzdayoq cho'kib qolgandi. Ko'zlari miltillab turardi. Checha talmovsirab, aylanib-o'rgildi. Tinkasi qurigan eri indamaydi. Kalta-kulta to'ng javob qildi. O'zini tutib ko'ngil yorishni istamadi. Shiftga qarab yotgisi kelmay ag'-

darilmoqchi bo'ldi. Iloj yo'q edi, boshini yostiq ostiga oldi. Chechaga kap-katta odamning bu qiligi erish tuyuldi. Ammo yana indamadi.

Oradan hafta o'tdi. Erining qovog'i hamon ochilmasdi. Dastlab kam-kamdan cho'qilab yedi, so'ngroq shuni ham tusa-may qo'ydi. Ko'zidagi tundligi arimadi, qaytaga bolaladi, og'irligini tashlab ko'zini cho'ktirdi.

Checha dalaga qatnamay qo'ydi. Bolalarini ham yubormadi. Eriga uzzukun qadalib o'tiraverdi. Bir kuni eri gapdan-gap chiqib, ichini yordi.

— Odam bolasi to'qqiz oyda tug'ilarkan. Yaratgan egam hisobni kamaytirsam kamaytirar ekan-u, oshirmas ekan. Xuddi shuningdek, o'lim ham 9 oy oldin darak berarkan. Bu gap o'zimdand chiqdimi, birov aytib qulog'imga quyib ketdimi, bilmadim, lekin ko'nglim xijil, talvasadaman. Ajalim yaqin shekilli... Ichim qiziydi. Bir qultum bo'lsa ham, suv ichib o'lsam deyman...

Checha uni ortiq gapirishiga qo'ymadi, jerkib tashladi. Og'ir o'yda qoldi. Achchiq-achchiq ko'z yosh to'kdi. Bolalarni bag'riga bosdi. Uyga qaytganida ham ixtiyori o'zida emas edi. Shuning uchun bo'xchalarini titkiladi, sandig'ini ochdi, azalik matolarini bir-bir ko'rdi-yu bo'shandi, kuyadori hididan ko'ngli ozdi, nima qilayotganini uydagilarga bildirmadi. Shu kuni xonadonda chiroqlar erta o'chdi.

Kunlar shunday zaylda o'taverdi.

Erining qorni shishib, do'mbiraday taranglashib ketgandi. Yutoqib, har qancha bo'lsa suv ichar, kam ovqatlanar, oyoq-qo'llari chillakday ozib, tanasi bujur-bujur shaldirab, quvvatdan qolgandi. Oshqozon hech o'ziga kelay demasdi.

— Dala qaytdi ekan? Bormay qo'ydinglar, — dedi bir kuni eri.

Checha nima javob qilishini bilmadi. Bir ko'ngli «E, qo'ying shu dalani» degisi keldi, bir ko'ngli «Qanday qilib bo'lsa ham tirikchilikni o'tkazish kerak-ku», degan xayolga bordi. Polizning uvoliga qolmay, dedi. Suyak-suyagidan o'tib ketgan o'lim qutqusini yengdi. Erining yordamidan umidini uzdi. Uning ko'zlari-dagi dard sharpalari ruhini qitiqlamay qo'ydi.

Ertasi kun saharmandondan qavatiga o'g'lini olib, turmush aravasini sudragancha dalaga otlandi. Oftob so'fito'rg'ay

sayramasdan birato‘la charaqlab ko‘rindi. Tun bo‘yi sal nam tortib qoraygan tuproq sarg‘aya boshladi, so‘ng oqarib ketdi. Salqin shabada esdi, keyinroq u ham quruqlashdi.

Odamlar kun qiziguncha ishlab olish payida, ketmonlarni ildamlik bilan bo‘ylari barobar ko‘tarib, chopiq qilishar, ketmonning shaqirlab qurib yotgan kesaklarga urilgani eshiltildi.

Enasi Dilshodjonga o‘git berardi:

— Quruq tuproqni qo‘lingda siqimlab ushat. Qo‘lingni quritsang, ketmon dastasi bemalol o‘ynaydigan bo‘ladi...

Dilshodjon enasi aytganday qiladi. To‘xtamay ishlashning mashqini oladi.

Kun tikkaga kelganda tushlikka chiqishdi. Qumg‘on qaynaguncha radio eshitgan bo‘lishdi: «...Paxtakorlar sharbat suvini oqizishda yuksak yutuqlarga erishdilar».

— Voy jonim-ey, — dedi ko‘rpachaga cho‘karkan Enaqiz opa. — Yer ham tosh-metin qotib ketibdi, ursang ketmon sapschiydi.

Chayla yonida suv istabmi, soya istabmi kelib qolgan, uzunligi yarim quloch ko‘lvor ilon kulcha bo‘lib, goh tilini raqqosaning qo‘llaridek silkitib qo‘yib, beozorgina yotardi. Hech kim unga parvo qilmadi. Mabodo ko‘rib qolishganda ham, ozroq shov-shuv bilan gapni shu tomonga burib, hangomani davom ettirishardi. Agar esida qolgan bo‘lsa, Checha ham ko‘rgan tushini qistirib o‘tardi, albatta.





BALOG'AT BEKATI



Telenovella

O'shanda Rashid o'ninchi sinfda o'qirdi. Ilhom bilan bamaylixotir, asta maktabdan qaytayotgandi, kutilmaganda bir to'da bola ularni o'rab oldi. Bittasi chiqib Rashidning yoqasidan ushladi:

— Nega singlimga gap otib yuribsan!

— Yo'q gapni qayerdan olding?! — dedi Rashid.

— Yo'q gapni sen chiqargansan. Hozir baqraygan ko'zingni o'yib olaymi?

— Qo'lingni tort, — derkan Rashid uni siltab tashladi.

Biroq, lunjiga tushgan mushtdan esankirab qoldi. Va o'zini o'nglab raqibining biqiniga zarb bilan urdi. Tasir-tusur urish boshlandi. Urishga to'dadagi bolalar ham qo'shildi. Ilhom esa Rashid bilan tengma-teng savalashish o'rniga, Rashidni mahkam quchoqlab harakatlanishga qo'ymadi. Rashidning burnidan sharillab oqqan qonni ko'rgan raqiblar qochishga shaylanishdi. Rashid yerdan tosh olib ularning ortidan otdi va Ilhomga qarab baqirdi:

— Meni nega ushlab turding?

— Ular ko'pchilik. Baribir kuchimiz yetmasdi. Urishma desam, hech quloq solmaysan. Axir u Gulyuzning akasi-ku!

— Loaqal ularning bittasini chalg'itib turganingda, qolganlarini po'stagini dorga yoyib qo'yib, bittama-bitta qoqardim. Nasihatingni esa keyin aytaverar eding, qo'rroq.

— E, qo'yaver, odam kaltak yegan bilan o'lib qolmaydi.

— Senga farqi yo'q. Gulyuz eshitib qolsa ustimdan kuladi.

— Kulsa kular. Hali tanimaydi-yu. Biron marta gaplashgan bo‘lmasang!

— Endi, tanishishni ham istamasa kerak.

Rashid o‘sha oqshom uyda o‘tirolmadi. Atrofga qorong‘u cho‘kib, oy tikkaga kelganda, asta sirg‘anib ko‘chaga chiqdi. Gulyuz yashaydigan ko‘cha boshida tentirab yurdi. O‘ynoqi jilg‘a suvlari jildirar, terak barglari mayin shitirlardi. Rashid Gulyuz yashaydigan uy derazasidan ko‘z uzmay, qorasi ko‘rinib qolarmikan, deya umid qilardi. «Qaniydi Gulyuz derazadan bir bor ko‘chaga qarasa, meni ko‘rib yonimga kelsa-da:

— Siz meni yaxshi ko‘rasizmi? — desa.

— Ha, yaxshi ko‘raman. Shu narsaga ich-ichimdan iqrorman, — derdim.

— Bo‘lmasa, nega doim mendan qochib yurasiz?

— Sizning oldingizda o‘zimni yo‘qotib qo‘yaman.

— Hozir binoyidek gapirayapsiz-ku!

— Hozir men gapirmayapman. Hatto ovozim ham chiqqani yo‘q. Gapirayotgan ichimdagi qush. U aytadigan gaplarimni o‘rgatib turibdi. Sizga xayolan gapiraveraman, gapiraveraman. Hech qachon ko‘z oldimdan ketmaysiz. Tursam ham, o‘tirsam ham sizni o‘ylayveraman».

Gulyuz xonadonlarining chiroqlari o‘chgach, Rashid uyga qaytib keldi.

Ertasi kun, tanaffus payti Rashid bir qizdan ikki enlik qog‘oz oldi. Unda shunday so‘zlar bitilgandi:

«Rashid! Bugun biz darsdan so‘ng navbatchilikka qolamiz. Siz ham qoling. Aytadigan gapim bor.

Gulyuz!»

Rashid xatni o‘qib, qizarib ketdi. O‘zini qo‘yishga joy topolmay qoldi. Bir xayoli darsdan chiqib, qochib ketishni ham o‘yladi. U, o‘g‘rilik ustida qo‘lga tushganday, o‘zini aybdor sezardi. Gulyuz uni so‘roqqa tutib, jonini sug‘urib oladiganday edi. Xatni Ilhomga ko‘rsatdi va «Birga qol», — dedi.

— Dadil bo‘l, do‘stim, mana sen kutgan g‘alvali payt keldi, — deya dalda berdi Ilhom.

Darsdan so‘ng hamma sinfni tark etgach, Rashid polni yuvish uchun paqir ko‘tarib koridorga chiqdi. Qo‘shni xonada Gulyuz Nazokat bilan sinfni tozalayotgandi. O‘tib ketayotib ularning sinfiga mo‘raladi. Bir-birini bildirmay izlagan ko‘zlar to‘qnashdi.

— Yaxshimisiz?

— Rahmat.

— Keling. Siz bilan birinchi marta ko‘rishayapmiz, shekilli.

— Yo‘q, men sizni har kuni ko‘raman.

— Men esa sizni birinchi marta ko‘rib turibman, — dedi Gulyuz qat’iyat bilan.

— E’tibor bermagansiz-da.

— Biz haqimizda nega hamma gapirib yuribdi.

— Bilmadim. Bexabarman. Rosti, mening ham qulog‘imga u-bu yoqimli gaplar chalindi.

— Nima deb chalindi...

— Yaxshi eshitolmadim. Yolg‘on-yashiqqa tobim yo‘q, — dedi Rashid vaziyatni biroz yumshatish uchun kulimsirab.

— Rosti qanday...

— Rostini aytolmayman...

— O‘zingiz bilasiz... Hamma ayb menda... Biz ko‘rishmasligimiz kerak edi. Sizga bekor xat yozibman. Bor gap ichimizda qolsa yaxshi edi. Siz maktabni tugatib ketardingiz. Shu bilan hammasi tugardi.

— Men aytmoqchi edim... balki Toshkentga ketishdan oldin bir amallab aytardim.

— Qayerga o‘qishga kirmoqchisiz? — Gulyuz xuddi Rashid hozir jo‘nab ketayotganday diqqat bilan razm soldi.

— Hatto aytishga ham qo‘rqaman. Lekin qarorim qat’iy. Siz ham borasizmi?

— Menga hali bir yil bor.

— Toshkentda birga o‘qisak qanday yaxshi bo‘lardi.

— Albatta, biz haqimizda gapiruvchilarning daryolardan ham uzun gapi, bizga tosh otguvchilarning tog‘lardan ham katta toshi u yerga yetib bormasdi.

Ikkisi ham yelkalaridan ajdarho ag‘darilganday birdan kulib yuborishdi.



Shu kundan boshlab ular har kuni ko'rishadigan bo'lishdi. Rashidning kayfiyati baland edi. Kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shilgandi. Ertalab maktabga chopar, tushdan keyin eshak minib, kanal ziyidan qamish o'rib kelar, dars qilar, kechalari mukka tushib she'r yozar, chirog' yorug'ida uxlab qolar, ertalab darsliklarini joylardida, maktabga oshiqar, tanaffus bo'ldi deguncha, qo'shni sinfni bir aylanib kelish ishtiyoqida bo'lardi.

Uning Gulyuzga atab yozgan she'rlari ham bir daftar bo'lib qoldi. Lekin u bu she'rlarni hammadan yashirardi. Xuddi ko'ngil sirlarini barchadan yashirgandek, hammaga ham o'qib beravermas, bu she'rlarni faqat Gulyuz eshitishini, Gulyuzgina o'qib, xursand bo'lishini istardi. Bir kun bor jur'atini yig'di-da, she'rlaridan birini qog'ozga ko'chirib, Gulyuzning qo'lga tutdi. Unda shunday misralar bor edi:

Harirlarga o'ralganmisan,
Parilardan tarqalganmisan,
Go'zallikning malagimisan
Uchrashdik, ne hol bu muhabbat?!

Sen kelding-u menman shahzoda,
Sen kelding-u menman aftoda,
Devonaman yer-u samoda,
Ne savdoga solding muhabbat?!

Sen ko'nglimning ardog'idasan,
Sen ko'zimning qarog'idasan,
Sen jonimning titrog'idasan
Sevasanmi, aytgin muhabbat?!

- Nima bu? — dedi Gulyuz hali qog'ozni ochmay turib.
- She'r, — dedi Rashid. — Sizga atalgan!
- Bu sinfda ekanligimizni qayerdan bildingiz?
- Dars jadvalingizni yoddan bilaman-u. Qachon, qaysi darsdan necha baho olganingizni ham bilaman.
- Bu ma'lumotlarni sizga kim yetkazib turadi?
- Sinfdoshlaringizning hammasi bilan o'rtog'man-ku.

— Qo‘lga olganman deng, — dedi Gulyuz jilmayib.

— Ishim tushgandan so‘ng shunga majburman. Endi akangiz bilan o‘rtoq bo‘lib olishim kerak.

— Ovora bo‘lasiz. Hozir akam kelib qolsa meni taniganingizga pushaymon yeysiz.

— Meni hech kim siz uchun pushaymon yedirolmaydi, — dedi Rashid pichirlab.

— Xo‘p xayr, darsga kiray...

— Qachon ko‘rishamiz, — dedi Rashid shosha-pisha.

— Ko‘rishib turibmiz-ku.

— Xuddi ko‘rishmagandaymiz. Hozirgi turishimiz ham xuddi xayolga o‘xshaydi. Siz bilan bir soat ham bir daqiqaday tez o‘tib ketadi, bir soat ko‘rmasam o‘zimni qo‘yarga joy topolmayman.

— Unda o‘qishga ketganingizda nima qilasisiz, — dedi Gulyuz erkalanib.

— Bilmadim. O‘qishga kirib ketsam nima bo‘lishini bilmadimu, lekin kirolmasam osmon ostin-ustun bo‘lib ketsa kerak. Ba‘zilar faqat katta pul evaziga o‘qishga kirish mumkin deydi. Lekin men o‘z kuchim bilan kiraman.

— Men ham o‘z kuchingiz bilan o‘qishga kirishingizga ishonaman, — dedi Gulyuz uning qat‘iyatidan g‘ururlanib.

— Mening boshqa yo‘lim yo‘q. Boshqa choram yo‘q. O‘qishga kirolmasligim hatto tasavvurimga sig‘maydi. Tug‘ilganimdan buyon yagona orzum shu. Men bir kun, albatta, shoir bo‘laman. Mening she‘rlarimni hali butun dunyoda o‘qishadi.

— Menga she‘rlaringizni hammasini bering. Ularni yon daftarimga ko‘chirib olaman.

— Biz hamisha birga bo‘lamiz, Gulyuz. Shundaymi?

— Menga sizning orzularingiz, intilishlaringiz hamisha yoqadi. Siz hech kimga o‘xshamaysiz.

Oradan ko‘p o‘tmay yozgi ta‘til boshlandi. Rashid maktab imtihonlarini a‘lo baholarga topshirdi-yu, Toshkentga ketishga tayyorlana boshladi. Uning oldida ulkan sinovlar davri turardi. Rashid bu sinovlarni eslasa qo‘rqib ketar, dorilfununga o‘qishga kirish xuddi ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan afsonaviy hayotga o‘xshardi. Lekin ortga yo‘l yo‘q edi. Butun maktab, o‘qituvchilar,

sinfdoşlar, qo‘shnilar, xullas, hamma undan faqat g‘alaba kutayotgandi. Unga Gulyuz ko‘z tikib turardi. Qolaversa, o‘z-o‘ziga bo‘lgan qat‘iy ishonchi uni kuzatib turardiki, agar o‘qishga kirolmay, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotsa, bir umr o‘zini o‘nglolmasdi. O‘ziga bo‘lgan mana shu ishonch oldida ham u, albatta, o‘qishga kirishi kerak edi.

Bir sumka zilday kitoblarini ko‘tarib avtostansiyaga kelganida, uni kuzatish uchun Gulyuz ham keldi. Ilhom sumkalarini avtobusga joylayotganda, Gulyuz uning qulog‘iga sekin pichirladi:

— Siz men uchun eng aziz insonsiz. Siz albatta o‘qishga kirasiz. Sizga ishonmaganlarga siz ham ishonmang.

— Rahmat! Sizga har kuni xat yozaman. Siz qalbmida bo‘lganingiz uchun ham juda kuchliman. Kelajakda bizlar buyuk odamlar bo‘lamiz.

Ular qo‘l siltashib xayrlashdilar.



Rashid Toshkentga kelib, hujjatlarini topshirdi. Ijaraga uy topib, qattiq tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Sochini butunlay oldirdi. Kunning har bir soatini rejalashtirdi. Har bir daqiqa vaqt hisob-kitobda edi. Lekin, ora-sira Gulyuzga maktub yozishni ham kanda qilmadi.

«Azizim Gulyuz!

Mana, ko‘rishmaganimizga ham uch kun bo‘ldi. Lekin bir daqiqa ham ko‘z oldimdan ketganingiz yo‘q. Sizni shu qadar sog‘indimki, yuragim hozir yorilib ketadiganday tuyuladi. Bu yerda har kuni o‘n besh soat dars tayyorlayapman. Agar, Xovosda, maktab paytlari shunchalik dars qilganimda, hamma darsliklarni yodlab olgan bo‘lardim. Lekin, biz bilan birga hujjat topshirgan shunday bilimli abituriyentlar ham borki, bittasi hatto «O‘tgan kunlar» romanini boshidan oyoq yod biladi. O‘zbekiston iste‘dodlarga boy, deb bekorga aytishmas ekan. Unday aqli butun, uzoqni ko‘zlagan bolalar oldida men bir sahroyiman, xolos. Yagona ilinjim omaddan!

Menga omad tilang, Gulyuz».





Ko'p o'tmay Gulyuzdan javob maktubi keldi. Unda shunday tavozelar yozilgandi.

«Rashid!

Salom! Aslida xat yozmoqchi emas edim. Xayollaringizni bo'lib nima qilaman? Sizga birinchi navbatda o'qish kerak. Men ham xuddi o'qishga tayyorlanayotgandek har kuni qo'limga kitob olaman. O'zimga turli xil imtihon savollarini berib ko'raman. Endi o'ninchi sinfga o'tishimga qaramay o'ninchi sinf darsliklarini birma-bir titkilab chiqdim. Xudo xohlasa, yanagi yil men ham o'qishga boraman.

Endi esa xayr!

Sizga omad tilayman!

Gulyuz».

Rashid o'sha kuniyoq Gulyuz maktubiga javob yozdi.

«Azizim Gulyuz!

Bu gaplarni avval hech kimga aytmagan edim. Olti yoshimda qattiq xasta bo'lib, to'shakka mixlanib qoldim. Har kuni tunda o'lim sharpasi menga hamroh edi. O'shanda, hayot qanchalik go'zal ekanligini, men albatta yashashim kerakligini anglaganman. Doktorning, «bu bola yaqinda o'lsa kerak» degan gapini eshitib qolib, o'limga qasdma-qasd, yashash uchun kurashish kerakligini anglab o'sdim. Keyinchalik men sog'ayib ketdim-u otam to'shakka mixlanib qoldi. Otam ichkilik tufayli o'lib ketdi. U o'lganda men o'n besh yoshda edim. Shunda mahalladagi masjidga borib, qo'limga Qur'on kitobini ushlab, hech qachon aroq ichmayman, deb qasam ichdim. Sakkizinchi sinfni bitirganimda past baholarim uchun, meni maktabdan haydashmoqchi bo'lishdi. Shunda men o'zimni qo'lga olishim kerakligini, endi hayot bilan ortiqcha hazillashib bo'lmasligini qo'rquv va dahshat bilan anglab yetdim va o'qishga qattiq berildim. «4» baho olish ham menga katta fojia edi. Men o'qituvchilarga faqat a'lo baholarga o'qiyman deb so'z berganim uchun to'qqizinchi, o'ninchi sinfni a'lo baholar bilan yakunladim.

Meni maktabdan haydamosliklarini so‘rab yolvorgan kunimdan keyin biror soniya bo‘lmadi-ki, o‘z orzularim uchun kurashmagan, jon-jahdim bilan o‘qishga albatta kiraman deb o‘ylamagan bo‘lsam.

Gulyuz, men kabi har kuni ming bor yolvorib, Xudodan so‘rang, iloyo o‘qishga kirib ketay:

Umr — jar bo‘yida yashamoq kulib,
Zirhli-zirhli toshlar sari shart qulamoq.
Ey, hayotim ko‘kka o‘rla qo‘shiq bo‘lib
Jonu jahdim, yuksaklarni salt kuylamoq!

Sizni sog‘inib Rashid».



Mana shunday mashaqqatli, tahlikali, quvonchli kunlarga limmo-lim to‘lib, yoz ham o‘tdi. Rashid o‘zida yo‘q xursand edi. U kutilmaganda o‘qishga kirib ketdi. Xovosda bir hafta bo‘l-diyu shu bir hafta qanday o‘tib ketganini o‘zi ham bilmadi. O‘qituvchilari bilan uchrashdi. Ularga minnatdor-chilik bildirdi. Sinfdoshlari bilan choyxonada o‘qishga kirganini tantanali nishonlashdi. Oyisi, singillari bilan suhbatlashib to‘ymadi. Gulyuz bilan ikki-uch bor ko‘rishdi. Unga Toshkentda yurganida yozgan she‘rlarini qayta-qayta o‘qib berdi:

Tunlar osmonga boqib
Oyni topolmas bo‘ldim.
Dilni olovga yoqib
Ko‘zni yopolmas bo‘ldim.

Bilmadim bu ne savdo
Bo‘g‘zimda titraydi cho‘g‘.
Senga shaydoman shaydo
Chiroylisan tengi yo‘q.

Ko‘zlaringni sehridan
Goh sarxushman, goh nolon.
So‘zlaringning mehridan
Goho xonman, goh bejon.



Mo'jiza ardog'ida
Taqdir kulib boqsaydi.
Muhabbat quchog'ida
Bir jon bo'lib yotsaydik.

Gulyuz she'rni eshitib xursand bo'ldi. Rashid uning chaq nab turgan ko'zlaridan o'pib olmoqchi bo'ldi, lekin jur'ati yetmadi. Gulyuzning qo'llarini uzoq vaqt siqib turdi. Nimadir aytmoqchi bo'ldi. Lekin aytolmadi. Ular jimgina xayrlashdilar.



Rashid Toshkentga ketgandan bir hafta o'tib, Gulyuz Ilhom bilan uchrashib qoldi:

— Haqiqat yo'q ekan, — dedi Ilhom. — Meni yiqitishdi. Hamma savollarga «besh»ga javob bergandim. Rashidning «tanka»si kuchli ekan.

— Rashidda «tanka» nima qiladi, — dedi Gulyuz. — Bu yil bo'lmasa, yanagi yil harakat qilarsiz.

— Rashid mendan yaxshi o'qimasdi. Qanday kirib ketdi, bilmayman.

— Nima unga hasad qilyapsizmi?

— Yo'q, to'g'rilikcha aytayapman. Sen ham undan xomtama bo'lmay qo'ya qol. Xo-v, kinoda aytadi-ku: «Endi u mabodo qaytib kelsa ham, ministrning qizidan pastini cho'qimaydi», — deb.

— Nega endi. Yanagi yil men ham o'qishga boraman.

— Sen, ja-a kirib ketarmiding! Hali Toshkentga borgin, chiroyli qizlar shu qadar ko'p, og'zing ochilib qoladi. Undaqa-larni sen faqat kinoda ko'rgansan. O'shalar turib, Rashid endi senga qaraydimi?

— Qaramasa qaramas. O'sha Rashidingizga ko'zim uchib turgani yo'q. Siz ham o'shani oldiga boring.

— E, men uning oldida nima qilaman. Menga shu yer yaxshi. Sen endi o'zimga qolgan ko'rinasan.

— Toshingizni sal naryoqda tering!

Gulyuz Rashidning o'rtog'i bilan mana shunday gap tala-shib olganidan dastlab o'zi ham hijolat tortdi. Lekin bo'lar ish bo'lgan, bo'yog'i ko'chgan edi.

Kunlar o'tib, Ilhom ko'p bora Gulyuzning yo'lini to'sib chiqa boshladi. Gohida nimalarnidir gapirib, ko'nglini olmoqchi bo'lar, ba'zan kinoga taklif etar, ba'zan esa Rashid haqida gapirib, yanada yaqinlashish payida bo'lardi.

Aslida Gulyuzning ham uyida vaziyat yaxshi emasdi. Onasi o'lgach, hatto onasining yili ham o'tmay otasi uylanib oldi. Gulyuz bundan qattiq taajjubga tushdi. Ancha paytgacha o'gay onani yoqtirmay yurdi. Aksiga olib, o'gay ona uning oliy ma'lumot olishiga qarshi edi. Maktabni tugatishi bilan uzatib yuborish payida edi. Tabiiyki, otasi ham shu fikrni ma'qulladi. Faqat akasi G'ofurgina Gulyuz tarafdori edi. Kechalari Gulyuz kitob o'qib o'tirganda, onasi chiroqni o'chirib qo'yar, uyni osmonga ko'tarib baqirardi: «Ey, kitob o'qib shahar olib berarmiding. Bilib qo'y, seni hech qachon o'qishga yubormayman. Dadang ham o'qishingni istamaydi. Qiz bolaga o'qishni kim qo'yibdi. Qani chiroqni o'chirib, joyingga yot». Deyarli har kuni mana shu ahvol takrorlanardi. Qolaversa, Ilhomning ba'zi bir nojo'ya va oshkora betamizliklari noxush gap-so'zlarni chiqara boshladi-ki bu haqda Rashidga aytishni ham, aytmaslikni ham bilmasdi.



Bir kun Rashid qishloqqa kelganida Gulyuzga shunday savolni berib qoldi:

— Nega doim g'amgin yurasiz?

— Nimadan xursand bo'lishim kerak?! — dedi Gulyuz jilmayib.

— Nega xafa yurishingiz kerak?!

— Battol va bag'ritosh odamlarning ko'pligidan, muhabbatning o'tkinchiligidan, — dedi Gulyuz o'ylanib.

— Muhabbatni nega o'tkinchi deysiz, hali hech kimni sevib ulguraningiz yo'q-ku.

— O'zim emas, boshqalar uchun shunday xulosaga keldim. Oyim o'tganlaridan keyin bir yil o'tmay dadam uylanib oldilar. O'ttiz yil birga yashashgandi. Bir-birlarini bir kun ko'rishmasa, turisha olmasdi. Endi dadam o'gay onamni o'tqazgani joy topolmaydilar. Hatto biz bilan ishlari bo'lmay qoldi... shu onam o'qishimga qarshilar.



— Bir amallab ko‘ndiring, o‘gay bo‘lsa ham onangiz-ku! — dedi Rashid.

— Onam emas, dadamning xotinlari...

— Undan nima istaysiz?

— Ketsin uyimizdan, — dedi Gulyuz. Uning ovozida ikkilanish bor edi.

— Ketsa, dadangizga yaxshi bo‘ladimi? — dedi Rashid uning ovozidagi qat‘iyatsizlikni sezib.

— Qaydam, o‘zlarini o‘ldirib qo‘ysa kerak.

— Shunda sizga yaxshimi?

— E, boring-e, hamma erkaklarning tili bir. Axir olamda muhabbat, sadoqat degan narsalar bor-ku. Dadam onamni qanchalar yaxshi ko‘rardi, endi esa eslamaydilar ham.

— Qayerdan bilasiz eslamasligini, — dedi Rashid.

— Yaxshisi dadangiz yaxshi yashayotganidan, o‘qishga ketsangiz u kishiga qaraydigan odam borligidan xursand bo‘ling.

— Agar erkaklar ham ayollarchalik sevolsa edi... Siz o‘zingiz sevgan odamingizni dunyoda bitta deb bilarmidigiz, — dedi Gulyuz shaddodlik bilan.

— Ha, men uni shunday sevaman-ki, — dedi Rashid ham sho‘xligi tutib. — Olovga aylansa, butun qishloq kuyib, kul bo‘lardi. O‘nta o‘t o‘chirish mashinasi ko‘pik sachratib o‘chirolmasdi.

— Yurakdan ham Xudo bergan ekan, — dedi Gulyuz sha-raqlab kularkan. — Lekin dunyoga o‘t ketsa-yu vafo bir umrli bo‘lmasa, bu dodu faryodlar kimga kerak.

— Qo‘ling yetgan shoxning shaftolisi shirin, deyishadi-ku o‘zgaruvchan odamlar ko‘p.

— Hayotda sadoqatli yigitlar ham bormikan?

— Unday odamlarni kunduzi chiroq yoqib topib bo‘lmaydi, — deya hazillashdi Rashid. Gulyuz unga qo‘l ko‘targan edi, Rashid qochib qoldi. Gulyuz uni quvdi. Rashid qochar ekan, birdan to‘xtab, Gulyuzni quchoqlab oldi. Shivirlab:

— Keling, so‘nggi nafasimizgacha birga bo‘lamiz.

— Siz hech kimga o‘xshamaysiz, — dedi Gulyuz.

Rashid egilib uni o'pmoqchi bo'lgan edi, Gulyuz uning qo'ynidan sirg'alib chiqdi-da, «Xayr!» degan cha uyi tomon qochib ketdi.



Rashidning muhabbatga sarmast kunlari tugab, sevgisi sinaladigan daqiqalar ham yaqinlashayotgandi. Unga yaqin do'sti Ilhom pinhona raqib chiqib qoldi. Ilhom «Agar Rashidning ko'nglini Gulyuzdan sovutsam, Gulyuz o'zimga qolib ketardi...» — deya xayol surardi.

Ta'til kunlari Rashid qishloqqa kelganida Ilhom o'z maqsadiga erishish uchun uni bir ziyofatga taklif qildi. Ilhom Rashidning yo'lini poylab turarkan, uni ko'rib, xuddi bexosdan uchratib qolganday:

— E, shoir nima qilib tentirab yuribsan? — dedi.

— Ilhom axtarib... — dedi Rashid hazillashib.

— Ilhom ko'chada nima qiladi. Uni izlasang, topasan. Seni esa biz bilan ishing bo'lmay qolgan.

— Qo'ysang-chi, bizning ishimiz ilhomsiz bitmaydi, — dedi Rashid yana hazillashib.

— E, do'stim, hazil-huzul bilan-u senga rasmana ilhom bag'ishlaydigan bir joy bor, bormaymizmi?

— Qanaqa joy ekan? — dedi Rashid noxushlanib.

— E, do'stim, seni yomon joyga olib borarmidim. Tumandagi qozi do'stim ziyofatga chaqirgan. Bir yayraylik.

Ziyofat haqiqatan ham juda yaxshi tashkillashtirilgandi. Stol usti noz-ne'matlarga to'la. Billur qadahlarda turli xil ichimliklar. Yerga qip-qizil gilam to'shalgan. Ohangrabo kuy yangramoqda. Divanda shahar qozilaridan biri o'tiribdi. Yonida ikkita bir-biridan go'zal nozanin. Ilhom tezda qizlar bilan til topishib ketdi. Hatto ularning biriga she'r ham o'qib bera boshladi:

Siz-ki meni sevasiz yomon
To'rt mucham ham qolmaydi omon.
Sizdan keyin o'zga yorning men,
Yori bo'lib ketishim, gumon.
Ertaga men netaman deysiz,
Shartta erga tegaman deysiz.



Agar sizga ishonib yursam,
Ersiz qolib ketaman, deysiz.

Uning she'rini eshitib, qizlar sharaqlab kulib yuborishdi. Faqat bu davraga Rashidgina qo'shilolmay turardi. Uning begonasirab turganini ko'rgan qozi qizlarning biriga topshiriq berdi:

— Mana, Rashidboy do'stimiz, tolibi ilm ekanlar, hoynahoy o'qishdan charchab, holdan toyib turgandirlar. Bir ko'nglini olib, dimog'ini chog' qiling.

— E, buningiz hech gapirmaydi-yu, nima balo tilini qarg'a cho'qiganmi? — dedi qizlardan biri nozlanib.

— Yo'q, sizni ko'rib soqovman xolos.

— Ana, ana gapirdi. Demak tili bor.

— E, nima deyapsizlar, — dedi Ilhom. — Buni tili bir qarich. Shoir-ku...

— Bo'lmasa she'r eshitamiz, — deyishdi qizlar.

Hadeb qistayverishganidan so'ng Rashid ortiqcha takallufga o'rin qoldirmaslik uchun yangi she'rlaridan birini o'qib berdi:

Ko'kdan havo emas, baxt
Ko'ksimga quyuladi.
Har bitta tosh, har daraxt,
Ilohiy tuyuladi.
Butun olam tortish kuchi,
Ko'kragingda mujassam,
Orziqaman, men uchun
Qalbing, har zarbi karam.
Sen bilan birga yo-hu
Soyada kuppa-kunduz
Ko'kka boqsam, ko'kda oy-u,
Ko'rinar sonsiz yulduz.
Xush boqsang nigohingdan
Nurga to'lar sayyora.
Tund bo'lsang qovog'ingdan
Qor yog'adi qop-qora.

Qizlar qiyqirishib, chapak chalishdi. Davra biroz qizigandan so'ng Rashid Ilhomni chetga chaqirib qulog'iga shivirladi:

— Men ketdim.
— Qayerga, shunday davrani tashlab-a, — dedi Ilhom. — Qizig‘i endi keladi. Bu qizlar bilan mazza qilib, maishat qilmaysanmi, o‘pib-quchoqlamaysanmi?
— Yo‘q, do‘stim, men yaxshi ko‘rmagan kishimni quchoqlab o‘polmayman, — dedi Rashid.
— Ozroq o‘tirgin, yaxshi ko‘rib qolasan, — dedi Ilhom. — Muhabbat degani — aysbu ishrat degani. Sen izlagan xayoliy narsalar, yo‘q narsalar, xayolingga ishonib umringni shamolga sovurma.
— Sen ham, — dedi Rashid eshikni yoparkan. — Bu yengil-yelpi hayotga ishonib, umringni shamolga sovurma!



Gulyuzga ham o‘z hayoti uchun kurashish davri keldi. O‘sha kuni u ekinlarni o‘tob jizg‘anak qilib kuydirayotgan polizda, peshonasiga ro‘molini tang‘ib olgancha chopiq qilayotgandi.

— Sinfdozlarimning hammasi ketib bo‘ldi, — dedi u nihoyat ko‘zlaridan duv-duv yosh oqizgancha. Bitta men qoldim. Yana bir kun o‘tsa, hujjatlarimni qabul qilishmaydi.

— Dadam o‘qishga borishingga rozilar, — dedi akasi nihoyat boshini ko‘tarib. — Faqat oyim... O‘qiganlar nima bo‘lyapti, biron gap-so‘z chiqsa, qanday bosh ko‘tarib yuramiz, deyaptilar.

— Oyimni aldash kerak, — dedi Gulyuz. — Baribir yiqilib keladi, yiqilsa ayb o‘zida, keyin pushaymon yesa o‘ziga, deb aldab ko‘rish kerak.

— Oson ekanmi? — dedi G‘ofur tishlarini g‘ijirlatib.

— Akajon, bugun soat uchda Toshkentga so‘nggi avtobus ketadi. Agar shundan qolsam tamom, keyin hech qachon o‘qishga borolmayman.

— Bo‘lmasa, sen hozir ketmonni tashlagin-u, uydan kiyimlaringni, kitoblaringni olib jo‘na. Ma, menda ozroq pul bor, kerak bo‘lganda ishlatarsan.

— Yaxshi qoling aka, — Gulyuz o‘zida yo‘q xursand, poliz oralab chopib ketdi, — dadamlarga aytib qo‘ying, xavotir olmasinlar. Xayr! Dadamning ishonchlarini oqlayman. Xudo xohlasa, hammasi yaxshi bo‘ladi.



Bir sinovdan o'tgan Gulyuzni ikkinchi sinov kutib turardi. U Toshkentga, to'g'ri Rashidning oldiga bormoqchi edi. Uning otlanganini ko'rgan Ilhom bu yil ham omadimni sinab ko'ray, deya u ham qo'shildi. Ular kech qorong'uda azim poytaxtga kirib borganlari tufayli xarchand izlamasinlar, Rashidning manzilini izlab topisholmadi. Nihoyat, Rossiya mehmonxonasining yoniga kelib, ijaraga, bir kechalik joy so'rashdi. Joy ham topila qoldi. Bu Ilhom uchun ayni muddao edi. «Mana endi Gulyuz o'zimga qoldi. Bu yerda bizni hech kim tanimaydi. Agar tun bo'yi bir joyda birga qolsak, marra meniki. So'tak Rashid bultur o'qishga kirib ketdi. Men esa yiqildim. Bu yil ham kiritishim gumon. Lekin hech bo'lmasa Gulyuz meniki bo'lishi kerak. Endi uni qanday avrasam ekan... Hozir ahvoli chatoq. Begona joyning qo'rquvi bosgan. Biroz erkalasam, ko'ziga yaxshi ko'rinaman. So'tak Rashid kutib o'tirgandir. Bunday go'zalni senga olib borib, tutqazadigan ahmoq yo'q».

Gulyuzning mung'ayib o'tirganini ko'rib, o'g'rining ko'zi o'ljada deganlariday Ilhom yayrab ketdi:

— Mana, chiki-chiki joyga joylashib ham oldik. Endi buni bir nishonlaymizmi?

— Nima bilan?! — dedi Gulyuz.

— Hozir somsa, non, olma olib kelaman. Keyin bitta shampanni paqillatamiz.

— Shampant kerak emas! — deya e'tiroz bildirdi Gulyuz.

— Yo'g'-e! O'zingiz bilasiz. Bizda zo'rlash yo'q. Bizda ichish majburiy, mast bo'lish-bo'lmaslik esa — ixtiyoriy.

— Gapni aylantirmay, o'zingiz uchun alohida joy axtar-sangiz yaxshi bo'lardi.

— Xo'p-xo'p. O'zimga alohida joy topaman. Ko'chada qolib ketmasam bo'ldi.

— Bilaman, siz ko'chada qolmaysiz, — dedi uning tezroq ketishini istagan Gulyuz.

Ilhom tashqariga chiqib ketdi-yu, xiyol o'tmay qo'lida paket ko'targancha kirib keldi. U shoshilar, hayajonlanar, to'xtamay gapirardi:

— Dumbali somsa deb somsapaz har bittasini ochib ko‘rsatsa bo‘ladimi? Har birini ichida mushtday-mushtday go‘sh t bilan, g‘ishtday-g‘ishtday dumba bor emish.

Ilhom dasturxon tuzata boshladi va ayyorona kulib eshikni berkitdi. U somsalarning ichiga qandaydir dori solib kelgandi. Xonaki kiyimda yanada gulgun ochilib ketgan Gulyuz qorni ochganidan Ilhomga minnatdorchilik bilan jilmayib choy uzatdi. Ilhom somsalarni birini ishtaha bilan yeya boshladi. Gulyuz ham somsaga qo‘l uzatdi.



Bu paytda Rashid yotoqxona oldidagi skameykada dilgir bo‘lib o‘tirardi. U Ilhom bilan Gulyuzning kelishini bir necha kundan beri kutar, ular bugun ham kelmaganlari uchun toqati toq bo‘lib, yarim kechaga yaqin yotoqxonasiga kirib ketdi.



Gulyuz o‘zining bugungi jasoratidan mamnun edi. Go‘yo bir sirtmoqdan qutulganday kayfiyati ko‘tarilib, ertangi ishlarini xayolan rejalashtirardi. U o‘ziga hamroh bo‘lgani uchun Ilhomdan ham minnatdor edi.

— Yaxshiyam men bilan birga kelgan ekansiz, bo‘lmasa, bir o‘zim qorong‘uda, ko‘chada qolib ketar ekanman, — dedi u.

— Qo‘rqmang, sizni hech ham yolg‘iz qoldirmayman. Ertaga Rashidni topib, sizni uning qo‘liga eson-omon topshiraman-u, keyin o‘zim ham imtihonlarga tayyorlanaman. Bultur kirolmadim, bu yil qarorim qat‘iy.

— Rashid darsda ekan-a? — dedi Gulyuz.

— Amaliyotda bo‘lsa kerak. Uning ishi endi yallo.

— Ertaga topolarmikinmiz?

— Ertaga hujjatlarni topshiramyiz. Siz imtihonlarga tayyorlanaverasiz, men o‘zim uni mingta g‘orning ming birinchisida yotgan bo‘lsa ham topaman.

— O‘qishdan yiqilib sharmanda bo‘lsam-a? Hozir xovosliklarni hammasi bizga ko‘z tikib turibdi.

— E, tashvish qilmang. Ilondan qo‘rqqan ola chilvir-dan hatlamas. Axir sizdaylar kirolmasa kim kiradi.

— Negadir boshim aylanayapti. — Gulyuz o‘zidagi o‘zgarish nimadanligini bilolmasdi. — Biram yengilman-ki!

Ilhom Gulyuzning rangi oqara boshlaganidan va o‘zining ham sarmastligidan ruhlanib, har ikkisiga ham dori ta’sir qilayotganini sezdi.

— O‘qishga kirmasangiz nima bo‘pti, — dedi u dadillanib.

— Sizning go‘zalligingiz o‘nta diplomdan balandroq turadi. Qayerga borsangiz qaymoqday ish topiladi. Istagan yigitingizni peshonasini chertib-chertib, erga tegishingiz mumkin.

— Siz shunday deb o‘ylaysiz, lekin men emas, — dedi Gulyuz xushnud. Uning negadir kulgusi qistayotgandi.

— Men hozir Rashidning o‘rnida bo‘lish uchun hamma narsaga tayyorman.

— Qaniydi hozir sizning o‘rningizda Rashid bo‘lib qolsa.

— Ertaga uni topib kelaman, — dedi Ilhom. Va Gulyuzning yoniga o‘tirib hayron bo‘lganday:

— Nima uning shoxi bormi? — deya kallasiga ikki barmog‘ini shox qilib ko‘rsatarkan, echkiga o‘xshab masxarabozlik qila boshladi.

— Uning shoxi emas, peshonasida yulduzi bor, — dedi Gulyuz o‘zini kulgudan to‘xtatolmay.

— Yulduzi emas, Gulyuzi bor deng, — dedi Ilhom Gulyuzni quchoqlarkan.

— Nari turing, suykalmang, — dedi Gulyuz biroz hushyor tortib.

— Nari tur deb turtmang. Urgandan turtgan yomon.

— Nari turing! Negadir boshim aylanayapti. Shuni yaxshi bilingki, boshim aylangani, dunyo ostin-ustun bo‘lib ketayotgani bilan siz ko‘zimga yaxshi ko‘rinib qolmaysiz.

— Qo‘ying, unday demang. Charchagansiz, ozgina dam oling.

Biroz uxlasangiz hammasi tushday o‘tib ketadi.

Siz keting, men eshikni yopib olaman, — dedi Gulyuz biroz sergaklanib.

— Hozir, yarim kechasi qayerga boraman, o‘zim topgan uydan o‘zimni haydayapsizmi, Gulyuz, — dedi Ilhom va

Gulyuzga yopishib, o'pmoqchi bo'ldi. Mahkam quchoqlab, krovatga yotqizmoqqa jon-jahdi bilan shaylandi. Qo'llarini qayirib, yuz-ko'zlaridan, bo'yinlaridan o'pa boshladi. Gulyuz siltanar, lekin Ilhom qo'yib yubormasdi. Qattiq olishuvdan so'ng Gulyuz Ilhomning yuzlarini timdalab, qonatib yubordi. Oqayotgan qip-qizil qondan esankirab qolgan Ilhom o'zini biroz bo'sh qo'ygan paytda, Gulyuz stol ustida turgan pichoqni oldi-da, unga hamla qildi. Ilhom sapchib o'rnidan turdi. Gulyuz g'azab bilan pichoqni bermadi. Ilhom jon talvasasida xonadan ura qochib chiqdi.

Gulyuz:

— Yaramas! — deganча krovatga kelib o'tirdi va o'zining abgor holatidan xo'rliги kelib, o'krab yig'lab yubordi.



Ilhom qayerga borishini bilmay ancha vaqt ko'chada tentirab yurdi, so'ng cho'ntagidan Rashid yashaydigan yotoqxona manzilini oldi-da, taksi to'xtatdi.

U Rashidning xonasini topganida, tun yarmidan oqqandi.

Ichkaridan:

— Kim u? — degan tovushni eshitib yengil tortdi.

— Menman, jo'ra, xayriyat izlab-izlab zo'rg'a topdim.

Ikki o'rtoq quchoqlashib ko'rishishdi.

— Senga nima bo'ldi, kim bilan yoqalashding? — dedi Rashid unga razm solarkan.

— Gulyuzni bir ijara uyga joylashtirib, seni izlayotgan edim. Ko'chada bezorilarga duch kelib qolib, rosa tashlashdik. Bittasini shunday yasab urdi-im, qolganlari qochdi...

— Yur, Gulyuzning oldiga boramiz.

— Qo'ysang-chi, qara soat necha bo'ldi. U ham rosa charchagan. Uxlab ham qolgandir. Qiz bolaning oldiga yarim kechasi bostirib borish noqulay...

— Ha, odamlar ham gap qiladi, — dedi Rashid shashtidan qaytib.

— Nimasini aytasan, odamlar yo'qni yo'ndirishadi, — dedi Ilhom yozg'irib. Uning ovozida kimlardandir norozilik bor edi.

— Nima bo'ldi? — dedi Rashid.

- Bechora Gulyuz. Avval uni sen bilan gapirishardi...
- Endi-chi, — dedi Rashid.
- E, qo‘ysang-chi... Shunchaki aytaman-da. Xafa bo‘lib yurma tag‘in. Do‘stimsan, ichim achiydi.
- Ayt-chi, nima bo‘ldi? — dedi Rashid Ilhomning qandaydir gapni yashirayotganidan bezovtalanib.
- Sen tufayli u bilan goh-goh gaplashib turganim uchun odamlar gap chiqaribdi. Go‘yoki men Gulyuz bilan yurarmishman. Yoyilgan gapni yig‘ib bo‘lmas ekan. Gulyuz ham qiziq. Menga bir-ikki ilmoqi gap qildi. O‘zimni eshitmaganga oldim. Senday jonajon do‘stimga xiyonat qilamanmi?! Yo‘q, ko‘zim qiymaydi.
- Bo‘lishi mumkin emas.
- Uni sen uchun gard yuqtirmay, qo‘riqlab yurdim. Bunday qattiqqo‘lligim uchun ba‘zida men bilan gaplashgisi kelmay qoladi.
- Tong otsin, o‘zidan ham so‘rayman.
- Bu gaplarni zinhor bildirma. Yo‘qsa meni chaqimchilikda ayblaydi. Uni to‘g‘ri oldingga olib kelaveray desam, ko‘nmadi. Ertaga uchrashamiz, ko‘rish qochib ketmas, deydi.



Rashid tongda xuddi Gulyuzning ovozi eshitganday bir-daniga hushyor tortib uyg‘ondi. Butun vujudi Gulyuzni qo‘msab o‘rtanardi. Betoqat bo‘lib o‘rnini yig‘ishtirarkan, Ilhomni uyg‘ota boshladi.

- Tursang-chi kun peshin bo‘libdi-ku!
- Yo‘g‘-e, — dedi Ilhom o‘rnidan qo‘zg‘alarkan, aldashni ham qiyvorasan.
- Gulyuzning oldiga boraylik, bugun hujjatlarini topshirishi kerak.
- O‘zing bor, — dedi Ilhom paysalga solib: — Men qolaman, itday charchadim.
- E, tur-e, uni qayerdaligini ko‘rsat. Keyin kelib yotaversan.



Ilhom ketgach Gulyuz tun bo'yi azoblar iskanjasida qoldi. Ilhomning nojo'ya xatti-harakatlari uchun o'zini aybladi. Uyat va alamdand nima qilishini bilmasdi. Xonada u yoqdan bu yoqqa yurarkan, uyqusi o'chib ketgan, o'zini bosib ololmasdi. Tongga yaqin o'tirgan joyida mudray boshladi va eshik birinchi taqillashidanoq cho'chib uyg'ondi.

— Kim u? — dedi jahl aralash.

— Men, — dedi Rashid.

— Siz, — deya hayron bo'ldi Gulyuz, so'ng eshikni ochdi.

Tashqarida Rashid va Ilhom turardi. — Qanday topdingiz? Salom, kelinglar!

— Nega biznikiga bormay bu yerda qoldingiz. Nima, biz begona bo'lib qoldik-mi?

— Adresingni yo'qotib qo'yib, zo'rg'a topdim — deya gapga aralashdi Ilhom.

Rashid xonaga kirarkan, shampan vinosi, olmalarni ko'rib hayron bo'ldi.

— Ha, tuningiz ko'ngilli o'tganga o'xshaydi.

— Qara, axir bir qultum ham ichganim yo'q... Sensiz o'tirish o'tirishga ham o'xshamadi, — dedi Ilhom xuddi qasam ichmoqchiday qo'lini ko'ksiga qo'yib. — Biz bu yerga yaxshi niyat bilan kelganimizni nishonlash uchun paqillatib ochdi-gu, ichmadik.

— Agar ichganlaringda nima bo'lardi... — Rashid Ilhomning yoqasiga yopishdi. — A?..

— Men Gulyuzni olib kelib, xizmatim evaziga rahmating shumi?

Oraga Gulyuz tushib har ikkisini ajratmoqchi bo'ldi: — Qo'yib yuboring uni, men o'zim u bilan gaplashaman.

— Gaplashib oladigan gaplaring ko'p shekilli, — dedi Rashid achchiq ustida.

— Ha, bizning o'zimizning gapimiz bor, — dedi Ilhom xuddi, sen aralashma, deganday.

— Shunaqami, — deya Rashid Gulyuzga qaradi. Gulyuz «Ha» deganday boshini silkidi.

— Bo‘lmasa men ketdim, oralaringga men aralashmayman, — dedi-da, jahl bilan eshikni tars yopib, xonadan chiqib ketdi. Buni kutmagan Gulyuz: «Rashid!» deya baqirdi. So‘ngra alamdanda bo‘g‘riqib, Ilhomga yuzlandi:

— Sen qaysi yuz bilan yana kelding.

— Nima qilibman?

— Hali shuncha voqeadan keyin-a...

— Bo‘ldi bas, hazillashgandim.

— Seni hech qachon kechirmayman. Ket...

— O‘zing bilasan. Istasang qolishim mumkin. Begona shaharda, bir o‘zing... Harholda qiynalma deyman. Rashid ham, ana ketvordi...

— Ket, yaxshilikcha, — dedi Gulyuz nafrat bilan. Ilhom uning avzoyini ko‘rib, sumkalarini oldi-da, indamay chiqib ketdi.

Gulyuz o‘krab yig‘lab yubordi. O‘sha kuni u Toshkent Davlat milliy universitetiga hujjatlarini topshirdi. O‘ziga yotoqxonadan joy topdi. Es-hushini yig‘ib, imtihonlarga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Rashid o‘sha kuni Gulyuzning yonidan chiqib ketdi-yu, o‘zini qo‘yishga joy topolmadi. Dastlab o‘zini haq deb hisoblagandi. Bora-bora o‘zining nohaq ekanligini anglab yetdi. Gulyuzni eslagan sari sog‘inar, sog‘ingan sari o‘zini ayblar, o‘zini ayblagan sari xayolan Gulyuzdan kechirim so‘ray boshlardi. Mana bugun ham gazeta tahririyatiga amaliyot o‘tash uchun yo‘lga tushar ekan, xayolan Gulyuz bilan gaplashib keta boshladi.

— «Yaxshimisiz, Gulyuz!

— Kechirasiz, meni kimgadir o‘xshatayapsiz, shekilli?

— Meni tanimayapsizmi?

— Yo‘q.

— Bo‘lmasa, men sizni taniyman, Gulyuz!

— Qayerdan taniysiz?

— Xovosda, maktabda birga o‘qiganmiz. Siz mendan bir sinf kichik...

— Iloji bo‘lganda, o‘sha maktabda o‘qimagan bo‘lardim.

— Menga nisbatan buncha nafrat sizda qayerdan paydo bo‘ldi?

— Men sizni tanimasam, sizdan nega nafratlanay?



- O‘tgan ishga salavot. Meni kechiring, Gulyuz!
- Bizlar bir-birimizga begonamiz. Meni shunday qiyin damlarda tashlab ketdingiz, sizdan yaxshilik kutib bo‘lmaydi.
- Meni kechiring, Gulyuz! Hamma ayb menda. Men nohaqman. Men tirnog‘ingizga ham arzimayman. Endi hushyor bo‘laman. Bu xatoimni boshqa takrorlamayman», deya xayol surar, lekin bo‘yin egib uning oldiga borolmasdi. Xayolan unga ming bora murojaat qilsa-da, u yashayotgan yotoqxonada atrofida kezib yursa-da, yotoqxonaga gohi-gohi telefon qilib uni chaqirtirsa-da, u go‘shakni qo‘liga olgach, telefonni uzib qo‘yar, yo to‘satdan uchratib qolishini istar, o‘z izzat-nafsini ham yerga urishni istamas, birinchi imdod u tomondan bo‘lishini kutardi, lekin bir kuni sog‘inch ustun kelgan payti, dorilfunun yo‘lagida uning oldini kesib chiqdi.
- Tabriklayman, bugun imtihonlarni a‘lo bahoga topshiribsiz, — dedi irshayib.
- Rahmat! Toshkentda yaxshi kutib olganingiz uchun yana bir bor rahmat!
- Nega shoshyapsiz, biron ishingiz chala qoldimi?
- Uyga ketishim kerak.
- Biron joyda ozgina o‘tirmaymizmi?
- Yo‘q, kerak emas.
- Nega endi, nima aybim bor!?
- Meni nima aybim bor?
- Siz, Ilhom bilan...
- Gapiring. Siz hali shunchalikka bordingizmi?
- Xovosga ham borgandim. Ilhom va siz haqingizda el orasiga gap oralabdi.
- Siz ham ishondingizmi?
- Ular hammasi yolg‘on deng, Gulyuz!
- Siz menga gapirmasam ham ishonishingiz kerak.
- Xo‘p, ishondim deylik. Nega mening oldimdan ketishga shoshilyapsiz.
- Sizdan xafaman. Menga ishonmaganingiz uchun xafaman. Siz juda katta xato qildingiz. Men sizga ishonardim. Men sizga ko‘ngil qo‘ygandim. Ammo, hamma orzularim sarobga

aylandi. Osmon olis, yer qattiq, odam boshi toshdan ekan, siz bilan so‘nggi bor ko‘rishishimiz, hayotning tugashi emas ekan. Endi sizning o‘z hayotingiz bo‘ladi. Men ham bir amallab o‘z yo‘limni topib ketaman. Bo‘ldi bas — orqamdan yurmang. Biz hali haqiqiy muhabbat ostonasiga qadam tashlash uchun yoshlik qilar ekanmiz.

Gulyuz shunday dedi-da, shaxdam qadamlar bilan yurib ketdi.

Gulyuz imtihon javoblari chiqishiga ancha kun borligi uchun kutishga sabri chidamay Xovosga yo‘l oldi.

Bu mish-mishlarning sababchisi Ilhom edi.

Bir kuni u choyxonada o‘tirganida ulfatlari uning qitiq patiga tegishdi.

— Toshkentga borib kelganmishsan. Gulyuzni kuzatib bordingmi? — dedi o‘rtoqlaridan biri.

— Gulyuzni Rashidga olib borib, topshirib kelgan, — dedi ikinchisi.

Bundan g‘ashi kelgan Ilhom:

— E, og‘zingga qarab gapir. Gulyuz meniki-yu, Rashidni eslaganimiz ham yo‘q, — dedi.

— Rashid bilan do‘st eding-ku. Yana nima bo‘ldi? Do‘stingning sevgilisi do‘stdan aziz bo‘ldimi?

— To‘g‘ri, do‘st edim. Lekin shunday qiz turganda yuzta do‘stdan voz kechib yuborarkan odam, — dedi Ilhom gerdayib.

— Qiz bola shayton deganlari shu-da! — dedi o‘rtoqlarining biri tizzasiga shapillatib urarkan.

— Sen jiddiy gapirayapsanmi?! — dedi yana biri hangoma-ning tutuni yuqoriga o‘rlyotganidan hayratlanib.

— Garov bog‘lashim mumkin. Gulyuz meniki. Uning menda ko‘ngli bor. Toshkentda bir kecha birga bo‘ldik. U maktab paytlari Rashid bilan bir-ikki og‘iz yo‘q joydagi havoyi gaplarni u yoq-bu yoqdan gaplashgan bo‘lsa bordir, hozir uzilishib ketgan.

— Yo‘g‘-e! Kel, garov o‘ynaymiz. Agar shu qiz Rashidni tashlab senga tegsa, ko‘k baytalimning toyini to‘yona qilganim bo‘lsin!

— Endi uning menga tegmasdan boshqa iloji yo‘q. Ish pishgan. Kichik kalit katta uyni ochar, puxta yigit to‘yga shoshar, jo‘ra!

— O‘-h-ho‘! Ana voqea, — deya dong qotib kulishdi Ilhomning o‘rtoqlari.

Albatta bu gap ulfatlar hali o‘rinlaridan qo‘zg‘almasdan butun qishloqqa tarqaldi.

Shuning uchun Gulyuz qishloqqa kirib borarkan ikki ayol uni nuqib gapirayotganidan gap nimadaligini bilolmay hayron bo‘ldi. Ayollar undan ko‘z uzmay pichirlashardi:

— Ana shu qiz Toshkentga bormasdan buzilib ketibdimi?

— Voy, kim aytdi. Shunday a‘lochi, ko‘hlikkina qiz-a?

— Begona bilanmas, Norto‘xtaning o‘g‘li Ilhom bilan don olishib qo‘yganmish.

— Voy, bechora, endi o‘qishi nima bo‘ladi, — deya afsuslanib, bosh silkirdi ayol.

— O‘sha Ilhom, nima bo‘lsa bo‘ldi, endi o‘zim olaman deb yurganmish.

— Voy, go‘rga-ey. Tashlab ketsa nima bo‘lardi.

— Tashlab ketsa, buziladi, qoladi-da, — deya masxaraomuz g‘amgusorlik bildirardi undan ko‘z uzmay.

Gulyuz ko‘cha-ko‘yda unga qiziquvchanlik bilan qarab turganlarning nigohini uyga kelganda tushundi. Ovqatlanib bo‘lgach, o‘gay onasi uni ichkari uyga sudradi.

— Endi o‘qishni yig‘ishtirib qo‘ya qol qizim. Ko‘p hovliqaverma. Qiz bola, birovning xasmi, o‘qib, o‘qib qari qiz bo‘lib o‘tirganlar qancha. Qolaversa, ko‘cha ko‘rgan qizdan, bozor ko‘rgan echkidan qo‘rq, deydilar, — dedi oyisi.

— O‘zimga mahkamligimni bilasiz-ku, oyi, — dedi Gulyuz hech narsaga tushunmay.

— Har qancha mahkam bo‘lma, chig‘iriqqa bir tushib qolsang, chiqib ketolmaysan. Ko‘zga yaqin qizsan, yetgan ham, yetmagan ham qo‘l cho‘zadi.

— Shaharda mendaylar qirning giyohidan ham ko‘p — dedi Gulyuz sirtiga suv yuqtirmay.

— Xolbuvi xolang bir gap topib keldi, Ilhom degani bilan pinhona til biriktirib yurganmishsan.

— Bo‘lmagan gap, — dedi qat’iy Gulyuz.
— Oralarinda nima sirligini bilmadimu, lekin qo‘shnining kelinidan seni shu arzandaga so‘rattirib yuboribdi.
— Tort aravangni demadingizmi? — dedi Gulyuz qat’iy. Uning shiddatini ko‘rgan oyisi qolgan gaplarini gapirolmay, beixtiyor yutindi.



Gulyuz ketdi-yu, Rashid o‘t ichida qoldi. O‘zini qayerga qo‘yishni bilmasdi. Amaliyot tugashini sabrsizlik bilan kutar, dardi dunyoga sig‘masdi. Gulyuzga qo‘ng‘iroq qilar, aksiga olib, go‘shakni Gulyuz ko‘tarmas, undan doim akasi G‘ofurning ovozi kelardi. Bir kun Gulyuzga bag‘ishlab, shunday she‘r yozdi:

Men seni sog‘indim, jonim qaydasan
Seni axtaraman, telefonlarda.
Bilaman, sen qo‘lim yetmas, oydasan,
Ko‘ringing kelmaydi, biz tomonlarda.
Ko‘zimning oldida yurgin, o‘ynagin,
To‘yolmay kuyay sen sochgan chiroyga.
Sog‘inchdan o‘zimni qayga qo‘yayin,
Zorman, yetolmay sen yashagan oyga.
Ovozing keladi go‘yo samodan
Gohida sho‘xu sha‘n, bulutli goho.
Yerning bor javharin va‘da aylayman.
Ammo tund avzoying o‘zgarmas aslo.
Bilib qo‘y, bir kuni tugar toqatim.
Bir kuni bariga beraman barham.
Garchand senga sira-sira yoqmadim
Zabt etaman bir kun, oyni,
Seni ham.

Rashid she‘rni xatga solib, jo‘natmoqchi bo‘ldi. Keyin, o‘zim borganimda o‘qib berarman, deb cho‘ntagiga solib qo‘ydi.



Qishloqdagi visir-visir mish-mishlar asta-sekin avj olib, balandladi va nihoyat G‘ofurning qulog‘iga yetib bordi. G‘ofur

bu gaplarni batafsil eshitib o'tirmadi, izoh ham, isbot ham talab qilmadi. Kun qorayganda, ko'cha muyulishida Ilhomni ushlab olib, panaga sudradi.

— Qani ayt, nima gap — dedi u dangal.

— Men uni Toshkentga olib borgandim. Borgan kunimiz joy topolmay, birga qolib ketdik.

— Kimga joy topilmadi? — dedi G'ofur va javob ham kutib o'tirmasdan Ilhomning og'zi-burni aralash qulochkashlab urdi. U og'riqdan yiqilib enkayganida, biqiniga tepdi. Yiqilgach, ayovsiz tepaverdi. G'ofur o'zini to'xtatolmay qolgandi. Ilhom esa o'kirardi.

— Seni qamataman. O'linging qamoqda chirydi. Shahar qozisi yaqin jo'ram. Bo'ldi qil deyman...

— Ayt, Gulyuzga tegishdingmi? — dedi G'ofur xirillab.

— Nima bo'lganini bilmayman. O'tirib shampan ichdik. Keyin, mening boradigan joyim yo'q edi.

— Unga qo'l tekkizding-mi?

— Men uni yaxshi ko'raman, unga uylanaman. Shu niyatda... Gulyuz faqat meniki bo'lishi kerak.

G'ofur Ilhomni bir tepgan edi, u chuqurga tushib ketdi. Ularni o'rab olgan olomon G'ofurni nari sudrab olib ketishdi.



Rashid imtihon javoblari chiqadigan kuni dorilfunun hovlisida Gulyuzni kutdi. Javoblar chiqdi hamki, Gulyuzdan darak bo'lmadi. Gulyuz o'qishga kirgandi. Bundan juda xursand bo'lgan Rashid Gulyuzning nomidan dekanatga uchrashdi-da, kech bo'lishini kutib o'tirmay qishloqqa yo'l oldi. Xovos, u borganda birdan sukunatga cho'kkandi. Xuddi boshlanadigan bo'ron oldidan sukunatga cho'kkandek edi. Hammayoq jim-jit. Uning nima deyishini kutib turishgandek edi.

Kech bo'lib qolganiga qaramay, Rashid sekingina Gulyuzning derazasini chertdi. Gulyuz uyda ekan, pardani qiyalatib, tashqariga mo'raladi. Tashqarida Rashid jilmayib turardi.

— Salom Gulyuz, tabriklayman! — dedi hayajonlanib.

— Nima bilan!

— Imtihon ballaringiz chiqdi. O'qishga kiribsiz!



— Voy! Buncha zo‘r! Rahmat sizga!
— Nega o‘zingiz bormadingiz!
— Erta yo indin bormoqchi edim. Uyda ozgina ishlar chiqib qoldi.

— Ertaga anhor bo‘yida ko‘rishaylik, aytadigan gaplarim bor, — dedi Rashid.

— Bilmadim. Bu yerda ko‘rishmaganimiz yaxshi. Toshkentga boraylik...

— Ko‘rishmasak bo‘lmaydi. Ertaga, kechki payt, soat olti-larda, kanal bo‘yida kutaman, — dedi Rashid qat‘iyat bilan.

Gulyuz «xo‘p» degandek qo‘l ko‘tardi va deraza pardasini yopdi. Rashid teraklar shovullab turgan ulkan oy yop-yorug‘ yoritib turgan qadrdon ko‘chani aylanib yurdi-da, Ilhomlar-nikiga yo‘l oldi.

U chala-chulpa bo‘lsa-da mish-mishlarni eshitgan, ichi-ni gumon va shubha iti tirnardi. Shunday bo‘lsa-da o‘zini zo‘rg‘a bosib turardi, Gulyuz bilan ham, Ilhom bilan ham, so‘nggi hisob-kitobni oxiriga yetkazish uchun, har ikkisi bilan ochiq-oydin gaplashib olmoqchi edi. Rashid o‘zini hech narsa bilmaydiganday bamaylixotir tutardi. Aytilgan joyga, Gulyuz ham, Ilhom ham kelganidan so‘ng xushchaqchaqlik bilan har xil gaplarni gapira boshladi. Maktabda o‘qib yurgan kezlar, paxta yotog‘iga olib borganda, kechqurun gulxan yoqib, gap-lashib o‘tirishardi. Kelinglar, gulxan yoqamiz, dedi Rashid. So‘ngra kichkinagina gulxan yoqishdi. Ufq qizarib, oqto-b botayotgan, borliqqa oqshom qorong‘uligi tushayotgan, qishloq podalari uyga qaytayotgan mahal edi.

Gulyuz qip-qizil cho‘g‘dan zavqlanar, Ilhom bo‘lajak og‘ir suhbatdan o‘zini olib qochish uchun hadeb o‘tin tergani ketaverar edi. Oqshom tushayotgan bo‘lsa ham, kun issiq bo‘lgani uchun Rashid yechindi-da, o‘zini kanal suviga otdi.

— Hoy, cho‘milmaysanmi? — deya Ilhomni ham cha-qirdi.

— O‘zing cho‘milaver, men har kuni shu yerdaman, — dedi Ilhom.

— O‘zi suzishni bilasizmi? — dedi Gulyuz Rashid hadeb suvni o‘ynab, shapillataverganini ko‘rib.

— Sirdaryoda cho‘milib katta bo‘lganman-u, agar Sirdaryo tutash bo‘lganda Hind okeanigacha suzib borardim, — deya lof urdi Rashid.

— Toshkentga tutash bo‘lganida, suzib borib-kelib turardim, yo‘lkira tekinga tushardi, deya qol, — dedi Ilhom hazillashib. Rashid qiyqirib kuldi. U shu zaylda yarim soat suvdan chiqmadi. Bir payt sovqotganini sezdi va qirg‘oq tomon suza boshladi. Biroq suzgani sari girdobga botib ketayotganini, xatti-harakatlari tobora chuqurlik sari tortib, cho‘ktirayotganini anglab qoldi. Qo‘rquv va tahlikada «dod» degan hayqiriq tomog‘idan otilib chiqdi. Qirg‘oqda Ilhom ko‘rinmas, Gulyuz bamaylixotir olovga o‘t qalab o‘tirardi. U Gulyuzga qarab, yana baqirdi:

— Cho‘kayapman, qutqaringlar!

Gulyuz uning ahvolini tushundi shekilli, qirg‘oq bo‘ylab yugura boshladi. Ammo yaqin atrofda hech kim yo‘q edi. Rashid uch bora baqirganidan so‘ng suv tagiga cho‘kib ketdi.

«Mana endi hammasi tugadi», — deya o‘ylardi Rashid. Uning qo‘l-oyoqlari akashakday qotib, mutlaqo ishlamay qolgan, faqat ongining qayeridadir, kul ichidagi uchqun yanglig‘ bir fikr miltirardi: «Mana endi Gulyuz ham ketdi. Mendan endi nom-nishon ham qolmaydi. Kim ham meni eslab yig‘lardi. Yolg‘iz onamgina dog‘imda ado bo‘lishi mumkin. Gulyuz-chi, Gulyuz! Nahotki Gulyuzni tashlab ketsam!» Rashid og‘riq bilan so‘nggi bor siltanib, suv yuziga qalqib chiqdi.

Qirg‘oqda «ana-ana u», — degan tovushlar eshitildi. U yana suv ostiga botib ketdi.

Gulyuz qirg‘oq bo‘ylab yugurarkan, Ilhomni chaqira boshladi. Yugurib kelgan Ilhom biroz sarosimalandi-da «Men o‘zim suzishni bilmayman-u, qanday qutqaraman», deb taysallay boshladi. Rashid suv yuzida ko‘rinmay ketgach, Gulyuz o‘zini suvga otdi. Gulyuzning suv yuzida shaloplab yurganini ko‘rgan, baqir-chaqirdan to‘planib kelgan odamlar birin-ketin o‘zlarini suvga ota boshlashdi. Eng so‘ngida oriyat yuzasidan Ilhom ham suvga tushdi, lekin qirg‘oqdagi o‘tlarni bir qo‘li bilan ushlab, qo‘yib yubormadi.

Suvga tushganlar suv tagida ko‘rinmay ketgan Rashidni axtara boshlashdi. U qalqib chiqqandagina, uni tutib olishdi. O‘zini

suvga tashlagan Gulyuz ham suzishni bilmasdi. Uni ham qutqarib chiqazishdi. Aslida Gulyuz o'zini suvga tashlamaganda, atrofdagilar ham kim suvda cho'kayotganligini bilmagan, Rashidning cho'kayotganidan bexabar edilar. Rashidni qirg'oqqa sudrab chiqishganda u behush edi. Ko'kragi suvga to'lib qolgan, zo'rg'a-zo'rg'a nafas olar, o'pkasi ham shishib ketgandi. Qo'l-oyog'i ixtiyorini yo'qotgan, o'zini o'ngl olmay zil-zambil bo'lib yotardi. U ko'zini ochganida shalabbo bo'lgan Gulyuz boshida o'tirar, hadeb yig'lardi.

Oradan bir hafta o'tib, Rashid o'ziga keldi.



Birinchi sentabrga bir kun qolganida ular Toshkentga jo'nash uchun, avtostansiya bekatida uchrashishdi.

— Meni kechir, Gulyuz. Senga juda ko'p ozor berdim. Sening oldingda qarzdorman. Endi doim birga bo'lamiz. Seni hech qachon yolg'izlatib qo'ymayman. Yoningdan bir qadam ham siljimaيمان, — dedi.

— Yonimdan bir qadam siljimasligingizga loyiq bo'lishim kerak, — dedi Gulyuz.

— Sen loyiqsan. Seni boshimda ko'tarib yurishimga loyiqsan, — dedi Rashid. — So'nggi nafasimgacha seni sevaman.

Gulyuz Rashidga qarab g'amzali jilmaydi. Rashid egilib uning qo'lidan o'pdi.

Ular balog'at bekatida turishardi.



OPPOQ GULDAY OYDIN XOTIRA



(Hikoya)



Yoshing o'tgach, shaxsiy munosabatlarda shu qadar injiqlashib qolar-kansanki, ehtimolu shubhalarni birma-bir tasmollab chiqib, hadiksirashga hojat yo'qligiga ishonch hosil qilmaguningcha, bir ishni boshlashdan hayiqib turaverarkansan kishi. Xuddi hujjatli filmlarda qarigan sher ko'zini loqayd yumgani kabi sen ham qarshingda turgan kishi hali og'iz ochmasdan unga nima deb javob berish kerakligi bo'g'zingda yetilib turgan bo'ladi. Kim nima demoqchi, bundan unga nima foyda-yu, senga nima ziyon, hammasi betinim ravishda tarozi pallasiga tushib-chiqib turaveradi. Va nihoyat charchaysan. Dunyoda beminnat biron narsa bormi o'zi? Birov sen uchun o'zidan kechib, biron narsa qilganmi? Xotiralaring bu yaqin oraliqdan hech narsa topolmay, olislarga, yoshlik, bolalik yillaringga yetaklaydi.

Bu voqea miyamga shu qadar muhrlanib qolganki, agar shu ketishda ketaversa, vaqti kelib, dorilbaqoga safar qiladigan bo'lsam, bunday o'tmish bilan yaratgan Parvardigor oldida nima deb javob beraman, deya o'ylanib qolaman. Lekin, nima qilaylik, yoshlikning ko'zi ko'r deyishadi, oldinda bizni nimalar kutayotgani yetti uxlab tushimizga kirmasdi.

U zamonlarda bunday tashviqot poyezdlari butun O'rta Osiyo bo'ylab sang'ib yurar, yoshlar qo'mitasi tomonidan tashkil etilgani uchun qandaydir ma'ruzalar o'qilar, keyin konsert, ikki-uch soatga cho'zilgan yig'in, diskoteka bilan yakunlanardi.

Turkiston shahridagi yig'inimiz ham avvaldan belgilab qo'yilganday ketayotgandi. Men ham o'rtaga chiqib she'r o'qigan, menga ham chalingan qarsakdan xijolat tortib, yelkamdan tog' ag'darilganday chetroqda aylanib yurardim. Kech tusha boshlagandi. Poyezdimiz yana ikki-uch soatdan so'ng, kechasi bilan yo'l yurib, boshqa shaharga yetib borishi kerak edi.

Musiqa qattiq chalinib, o'yinga chorlay boshladi. Qorong'u tushib ulgurmagan, rang-barang chiroqlar umum xursandchiligiga qorishib, mislsiz fayzli ohangraboni tashkil etardi.

Shu payt oppoq ko'ylakli qiz, yig'in tashkilotchilaridan shekilli, barchani davraga tortib yurganiga ko'zim tushdi. Qiz malikalarga o'xshardi. Sochlari kesilgan, yuzlari oppoq, qora ko'zlari yoqutday jilvalanardi. Atrof shu qadar g'arib tuyulib ketdiki, naqadar aftodahol, yupun, safarda yuraverib, kir-chirga botib ketganim va olam bu qadar ham go'zal bo'lishi mumkinligi haqida o'ylamaganimdan, o'zimni butunlay yo'qotib qo'ygandim. Oradan bir lahza o'tmagan ham ediki, qiz aylanib yonimga kelib qoldi.

- Yur, o'yingga tushamiz!
- E, men bilmayman.
- O'zim o'rgataman, kelsang-chi.

Bir soniya ikkilanib tursam bu qiz boshqa hech qachon kelmasligini sezib, beixtiyor ergashdim:

- Agar chaqirmaganingda, oldingga kelmasdim.
- Nega?
- Negaki sen juda chiroyli ekansan.
- Seni mehmon dedim-da!
- Rahmat, sen mehmon deyapsan-u, lekin sen bilan o'ynayotganimni ko'rib anovi bolalar kaltaklashga shay turishibdi.
- Endi, bu yerdan tashqariga chiqma. Ketar chog'ingda ham o'rtoqlaringning o'rtasida ket.
- Nima, ularning ichida yigiting bormi?
- Yo'q. Yigitim Moskvada o'qiydi.
- Bular-chi?
- Ular meni qizg'anishyapti xolos.
- Men seni uyinggacha kuzatib qo'ymoqchiman.

— Buning iloji yo‘q. Ular ko‘pchilik. Qorong‘ida ayab o‘tirishmaydi. Bu qilig‘im uchun, balki meni ham sog‘ qo‘yishmas.

— Uying uzoqdami?

— Uzoqda. Lekin sen mendan xavotirlanib o‘tirma.

— Hech narsadan xavotirlanganim yo‘q. Senga bor-yo‘g‘i bir gapni aytmoqchiman xolos. Shuning uchun, albatta, kuzatib qo‘yaman. Meni qo‘rqq deb o‘ylamay qo‘ya qol.

— Senga nima bo‘ldi? Axir sen yo‘lni qaytishda topib kelolmaysan-ku. Bu yerning ko‘chalari qorong‘u bo‘lsayam, chiroq yoqib qo‘yishmaydi.

— Bir gap bo‘lar. Iltimos, yo‘q dema, seni kuzatib qo‘yay.

— O‘zing bilasan.

So‘ngra rosa o‘yinga tushdik. Nihoyat, hech kimga bilintirmay davrani tark etdik. Rosti, unga aytadigan hech qanday gapim yo‘q edi. Tilimga biror tuzukroq gap ham kela qolmasdi. Faqat u bilan yolg‘iz qolishga harakat qilayotgandim, xolos.

Biz qorong‘u ko‘cha bo‘ylab sekin yetaklashib ketayotgan edik, shu payt besh-olti bola biz tarafga yugurib kelayotganini ko‘rdik. Shunda u qo‘limdan ushladi-da, shiddat bilan zimziyo ko‘cha qa‘riga boshlab ketdi.

Unga ergashib yugurar ekanman, bolalarning harakatga tushib qolganini, baqir-chaqir qilib so‘kinayotganini, nihoyat, qaysidir biri tosh otganini, ish xavfli tus olayotganini anglab yetdim. Endi, oldingidan ham tezroq yugura boshladik. Endi uning qo‘lidan ushlab olgan, qayerga bo‘lsa-da, qochib qutulish payida chopardik.

Toshlar zuv-zuv uchib, yonimizga tusha boshladi.

Nihoyatda jahlim chiqib ketdi. Agar birona tosh Zauret (u qizning ismi shunday edi) ga tegsa, hammasini urib, boshini yoraman degan fikr charxpalak bo‘lib xayolimda aylanardi. Shu payt oyog‘im tosh to‘kilgan uyumga tegib, shartta to‘xtadim. Ataydan, toshlarni har tarafga shu qadar ko‘p otdim-ki, uylarning oynalari, shiferlari sinib, itlarning tinimsiz vovullashi to‘rt tarafni bosib ketdi. Men odamlar ko‘chaga chiqsa, anavilar quvishdan voz kechib, qochib qolishadi deya, jon-jahdim bilan zuvullatib tosh otardim.



Shovqin-surondan sarosimaga tushib qolgan bolalar orqaga qochishdi shekilli, so'kinishlari uzoqdan eshitila boshladi. Biz esa uy egalari yugurib chiqmasdan tun qa'riga g'oyib bo'ldik.

Bu shaharni mutlaqo bilmadim. Yurib-yurib kichkina xiyobon yonidan chiqdik. Xiyobon tepasida neon chirog'i yonib turar, xiraligidan, haykalchanning kimligini bilib bo'lmas edi. Oyning yارقiroq nuri, shabodalar g'irillab turgan bo'm-bo'sh ko'chalar, bo'm-bo'sh xiyobonni osmon bilan bog'lab yuborgandi.

Qayerga kelib qolganimizni chamasi Zauret ham bilolmayotgandi. Mening esa poyezdim ketib bo'lgandi.

— Seni rosa izlashsa kerak?

— Izlashadi. Hayfsan ham yozib qo'yishgandir.

— Kuzatib, bekor qilding.

— Hech ham bekor emas. Hademay tong otib qoladi. Uyingni bir amallab topib olsak, bo'ldi. Men ham tong otguncha sen bilan shu yerda o'tiraman. Uyga taklif qilardimu, otam bilib qolsa, naqd o'ldiradi. Hozir meni uzatish payiga tushgan.

— Kimga uzatmoqchi?

— Bir yigitga. Lekin uni yaxshi ko'rmayman.

— Birontasini yaxshi ko'rganmisan o'zi?

— Har xil bo'lgan. Balki sevgandirman. Balki yo'q. Bilmayman. Lekin kimga bo'lsa ham tegib ketaverish yoqmayapti.

— Yoqadigani topilmasa-chi?

— Balki meni yoqtiradigani chiqib qolar. Yigit sevsa, ayol kishi yaxshi ko'rib ketaveradi.

— Men senga, yaxshi ko'rib qoldim desam, ishonasanmi?

— Yo'q.

— Nega?

— Negaki, sen tong otishini kutayapsan, xolos.

— Aksincha, shu oy sening yuzingni tong otguncha yoritib tursa, sen kulib tursang, tiz cho'kib har oqshomni shunday o'tkazishga tayyorman.

Zauret boshimni ko'kragiga qo'yib quchoqladi. Uning ko'kraklaridan xushbo'y hid kelar edi. Belidan quchoqlaganicha, oppoq siynalaridan o'pa boshladim. So'ngra uning haroratli, kuydirguvchi, jazillab turgan otash lablari titroq lablarim bilan

birlashar ekan, butun a'zoyi badanimni o't bo'lib yondira boshladi.

Keyinchalik bu holat xotiramda nogiron umrimga berilgan sadaqaday muhrlanib qoldi.

Turkistonda uch kun qolib ketdim. Kun bo'yi shahar aylanardik, kechqurun u uyiga ketar, men mehmonxonada tunardim. Ketar kunim kechqurun uni mehmonxonada qolishga undadim. U «yo'q» dedi. Uni yozg'irib, mehrsizlikda, bag'ritoshlikda ayblay boshladim.

Uning ensasi qotdi:

— Nima, men bilan tanishganingga afsuslanasanmi? Sen bilan shuncha gaplashib yurganim yetmaganday, hali yotmoqchi ham bo'lyapsanmi? Muhabbat deganing shumi? Men hali qiz bolaman. Istasang, sen bilan yotib qolishim mumkin. Agar maqsading shu bo'lsa, yur.

— Meni kechir, Zauret!

— Sen meni jismimnigina emas, qalbimni ham sevishingni istayman. Shunda sevgimiz abadiy bo'ladi.

— Meni kechir, qo'lingdan bir marta o'pganimning o'ziga bir umr quling bo'lishga roziman. Hech kim meni senchalik sevmagan.

— Sevgi haqida hali gapirishga erta! — dedi u shivirlab.

— Bilmadim. Sen menga o'zingni fido qilyapsan. Men esa... ertaga ketaman.

— Nima qipti? Buyog'ini kelajak ko'rsatadi. Istasang, xabar olarsan, istamasang, seni kutib yashayveraman.

— Biz, albatta ko'rishamiz!

O'shanda, xayrlasha turib ikkimizning ham ko'zimizdan yosh chiqib ketgandi.

Oradan ming-ming kunlar xuddi bir siqim qum singari xotiralar yig'indisiga aylanib, o'tib ketdi.

Qancha azobli, iztirobli, omadli va baxti qaro kunlar yuragimga bir changal zahar tashlaganday tahlika va sarosimalarga solib o'tib ketdi. Hayotimdagi ayovsiz zirqiratgan yolg'izlik silsilalari, abgorlik tahlikalari davri tugul, eng baxtli kunlarda ham o'sha tunni, o'sha xiyobonni, uning ochiq yelkalarini, suyub erkalashlarini unutilmadim.

U bilan oʻtgan lahzalar endi menga tentaklikning uchiga chiqqan koʻrinishi boʻlib tuyulsa-da, nega oʻsha paytlarni koʻp eslayman? Hayotimdagi oʻsha daqiqalarni nega sogʻinaman? Nega yuragim orziqib ketadi? Nega uni eslagan, diydorini izlagan, koʻzlaridagi olovli qarashlar oʻrtagan damlarda oʻzimni qoʻyishga joy topolmay qolaman?

IZGʻIRINLI KUNLARNING BIRI



Voqeiy hikoya

Qattiq shamol chang-toʻzon koʻtarib, daraxt shoxlarini bukdi, ochiq turgan darvoza qanotini taraqlatib, oynalarni sindirdi. Omonat boʻlib qolgan uylarning shiferlari qatori mahalla masjidining tosh tegib singan ikkita eski shiferi ham yerga tushib, parcha-parcha boʻldi. Tomning usti ochilib, yomgʻir yogʻsa chakka oʻtib ketadigan darajaga keldi.

Kunlar oʻtib, bu holdan xavotirga tushgan Mutavallining xayoli qochdi. Yuz qadam narida dangʻillama uy qurayotgan Izzat akaga ich-ichida arzi hol qildi: — «Izgʻirinli kunlargacha masjid ustini berkitib olaylik, elu yurtning duosi tegib, savobga qolasiz». U shu umidda hashamatli hovli eshigini taqillatdi. Eshikni bir usta ochdi. Hovlini koʻrgan Mutavalli hangu mang boʻlib qoldi. Hovli hovli emas, goʻyo katta qurilish maydonchasi edi. Uyum-uyum gʻisht, shagʻal, shiferlar, yuzlab deraza, eshik romlari. Mutavalli qurilish kattaligidan ruhlanib ketib, ustalarga kuch-quvvat, gʻayrat-shijoat tiladi. Izzat aka ham «Hormang!» ga yarasha qoʻllarini koʻksiga qoʻyib, «Bor boʻling!» qildi. Mulozamat qanchalik choʻzilmasin, gap aylanib kelib, Mutavallining iltimosiga kelib toʻxtadi.

— Jonim bilan berardim-u, qish kelmay imorat ustini yopib olish taraddudidaman. Boʻlmasa, ikkita shifer nima degan gap!

Mutavalli sir boy bermadi. «Xo‘p, xo‘p» deya, kulib xayrlasharkan, «Nomozga chiqib turing» deya qistirib o‘tdi, alami ichida qoldi.

Bu zamonda qaysi masjidning usti yopilmay qolib ketibdiki, mahalla o‘rtasidagi gavjum bu jomening tomi ochiq qolsin. U ham ta‘mirlanib, avvalgi ko‘rku tarovati tiklanib ketdi. Izzat aka esa o‘sha yili imorati ustini yopmagan, ikkinchi qavat qurilishini boshlab yuborgan edi. Ajab, shiferlar uchinchi yili ham ishlatilmadi. Chunki uchinchi qavat qurilishi boshlab yuborilgandi. Bora-bora bu yaqin orada unga teng keladigan hovli qolmadi, hisob. Qizig‘i shundaki, imorat bitgach, shiferlar o‘rniga oppoq tunukalar yopildi. Hovliga marmar hovuzlar qazilib, yunonlarda muhabbat ma‘budi sanalmish Amurning yalang‘och, oppoq haykali o‘rnatildi, qafasga tirik yo‘lbars bolasi va o‘rgatilgan burgut keltirildi.

Bir kun Mutavalli asr namozini ado etib turgandi, tashvishli qiyofada kirib kelgan qo‘shnisidan noxush xabar eshitdi: «Soppasog‘ yurgan Izzat aka imorat qurilishi tugagan kuni ustalarini rozi-rizolik bilan jo‘natibdi-da, tuyqusdan yuragi sanchib qaytish qilibdi. Ertaga peshinga chiqarilarmish».

Yomg‘ir ertasi kuni ham, janoza o‘qilayotgan paytda ham sira tinmadi. U kishini bilganlar dunyoning bevafoligidan, ulfatlari esa shinavanda odamning bevaqt qazosidan, hamkasblari zo‘r rahbarligidan, savdoda tili shirin va uzoqni ko‘zlay olishidan, namozxonlar esa uning erta-indin namozga tushaman deb niyat qilib yurganidan gapirishardi. Xullas, hammada tushkunlik, g‘amguzorlik, Yaratganning bunday yozug‘i qarshisida ojizlik, uni tushunib olishga muhtojlik bor edi.

Izzat akaning qabrini marhuma onasi va bolaligidayoq nobud bo‘lgan bosh farzandi go‘rlari orasiga qazishdi. Janozaga minglab odam to‘plandi, tobut qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi. Tobutkashlar yarim qadam tashlamasdanoq tobutni ko‘tarishga navbatdagi odam qo‘shilardi. Tobut imomning oldiga qo‘yildi. Imom odamlarga hayotning foniyligidan, oldinda boqiy dunyo borligidan nasihat qila boshladi. Marhumning qarzi qolgan-qolmaganligini jamoatga havola etganda, uning akasi barcha qarz

mas'uliyatini bo'yniga oldi, so'ngra saloti janoza o'qildi. Ammo yomg'ir bir necha kundan buyon ezib yoqqani tufayli qabris-
tonda yurib bo'lmas, odam oyog'i to'pig'igacha botib ketar, tuproq
yumshoqligidan oyoqlar sirpanib, qadam tashlab bo'lmasdi.
Izzatillaning akasi suv ko'lmak bo'lib qolgan joylarga, balchiq-
lar ustiga shiferlardan yotqizdi. Shundan so'nggina tobut chayqala-
chayqala odamlar yelkasi osha qabr tomon suzib ketdi.

Yangi qazilgan qabr, albatta, har bir insonni seskantirib
yuboradi. Bir zumga bo'lsin, o'yga toldiradi. Mana uch qavatli
imoratlar solgan odam, shunday shohona uyida uch kun
ham yashamay, ikki gazlik lahadning sovuq va zax qa'riga
qo'yilmoqda. Darhaqiqat, lahad tepasida mahalla oqsoqolining
ovozi yangradi:

— Muhtaram jamoa, rahmatli Izzat aka qanday odam edi?

— Yaxshi, yaxshi, — har tarafda baralla ovozlari eshitildi.
Nihoyat ipak qurtiday oppoq kafandagi jasad tobutdan olinib,
qabrga tushirildi. Biroq... besh-o'n daqiqa o'tar-o'tmas jasad
yana qabrdan chiqarilib tobutga solib qo'yildi. Betoqat bo'lib
turgan minglab odam yana tahlika va xijolatda. Nima bo'ldi?
Qabr hali tayyor emas emish... Lahim torroq chiqibdi ekan.
Pichir-pichir, shivir-shivirlar... Minglab odam marhum tezroq
qo'yilishiga mahtal bo'lib qoldi. Sovuq yomg'ir tinay demas,
izg'irinli kun edi. Tobut qabr tepasida ancha vaqt turdi. Go'r-
kovlar yana ishga tushib ketdi.

Nihoyat, marhum qabrga qayta qo'yilib, ustiga tuproq tor-
tildi. Qism-qism tuproqlar sochilib, yangi do'ngalak paydo
bo'ldi. Imom marhum haqiga Qur'on tilovat qildi.

Yig'ilgan jamoat shoshilib tarqaldi. Yomg'ir hamon tinay
demasdi. Osmonni qop-qora bulutlar galasi qoplab olgan. Izg'i-
rinli shamol tomchilarni yuzga ayovsiz urardi. Yerga to'shalgan
shiferlar asqotib, odamlar hakkalagancha o'shalarni bosib,
har kim har tarafga ravona bo'ldi.

Mutavalli hamma tarqalguncha qabr tepasida turdi. So'ngra
qabrlar oralab, loy kechib, bir-bir qadam tashlarkan, turna-
qator terib qo'yilgan va Izzatillaning qabrigacha kelgan shifer-
larga qarab, behuzur bo'ldi, yaxtagini ko'targancha loy kechib
yurib ketdi.

ZABARJAD

Qissa

Sarvar Samandarovich darvoza ochilishini kutib turardi.

Ikki qavatli dang‘illama uyning temir darvozasi juda bahaybat edi. Eshik ochilavermagach, mashinadan tushishga majbur bo‘ldi. Darvoza tabaqalarini birma-bir itararkan, shippaklarini shapillatib xotini kelayotganini eshitdi.

— O‘g‘ling hali ham kelmadimi — dedi u xotiniga qaramay.

— Yo‘q.

Sarvar Samandarovich mashinani ichkariga olib kirdi. So‘ngra so‘riga yonboshladi. Choy ko‘tarib kelgan xotini choy-nakni bir chetga qo‘ydi-da, xontaxtaning chang bosganidan xijolat bo‘lib, arta boshladi.

— Mehrning narxi qancha turishini bilasanmi? Uning narxi mashinadan ham, mana shu uydan ham qimmat ekan. Mehrning narxi ota-onadan ham qimmatroq ekan. Biz o‘g‘lingga hamma narsani berdik. Mashina ham, mana shu uy ham o‘g‘lingniki edi. Lekin unga mehr bermaganligimiz uchun u hammasini tashlab, bu uydan chiqib ketdi.

— Yo‘q, biz tarbiya bermadik.

— Yana yanglishyapsan xotin. Biz unga mehr bermadik. Nahotki shuncha janjaldan keyin ham shuni anglamagan bo‘lsang. Endi bas, shovqin-suron ko‘tarma. Haqiqatning yuziga tik qaraydigan payt keldi. Hech kimni ayblayotganim yo‘q. O‘g‘lingni ham, kelinigini ham, seni ham.

Sarvar Samandarovich biroz tin oldi-da, yuzini ters o‘girdi: — Biz boshi berk ko‘chaga kirib qoldik.



Kuy-qo‘shiq avjida edi. Estrada yulduzining tug‘ilgan kuniga mamlakatning nufuzli a‘yonlari yig‘ilgandi. Nazardan biroz chetda qolgan Shohruxga shohona ziyofatning inja

tamannolari, kiborona nash'u namolari zavq bag'ishlamay qo'ydi. Yuragi siqilib, ketishga taraddudlandi. Uning yo'lini kesib chiqqan Isfandiyor qo'lidan mahkam tutib, qo'shni stol sari yetakladi. Unda dugonalaridan ajralib birgina qiz o'tirardi.

— Salom, yaxshilar! Bu kishi Shohrux Sultonov. Yoshlar orasida eng zo'r rejissyorlardan. Bu xonim debyutant kinoaktrisa Zabarjad Zokirova. Albatta g'oyibdan bir-birlaringni taniysizlar, men esa uchrashtirdim, xolos.

— Salom, yaxshimisiz!

— Salom!

— Yaqinda qaysidir kino dublyajida ovozingizni eshitgandim.

— Ha, — dedi qiz qoshlarini chimirib. So'ngra yoniga xuddi xizmatkori kelganday so'radi. — Teatrd nima gaplar?

— Tinchlik.

— Nega shovqin-suron emas.

— Shovqin kimga yoqadi, g'alva ko'tarishga toqatim yo'q. Tashabbus jazosiz qolmaydi.

— Askar uxlayapti, xizmat o'tyapti, deng — dedi qiz g'olibona.

— Safimizga keling. Uxlash ham katta mahorat.

— Agar Janna D'Ark rolini talab qilsam-chi?

— Janna D'Ark bizda qo'yilmayotganiga ancha bo'lgan.

— Davlatning oyligini olib, kanaday semirishning vaqti tugadi deb jar solmaysizmi?

— Hech kim semirgani yo'q. O'zimning ham boy bo'lib boltam yo'q, kambag'al bo'lib xaltam.

— Baribir, nimadir qilish kerak. Boshqa teatrlar ishlayaptiyu. Qotib qolishning huzurbaxshligi sizning qiyofangizga yarashmas ekan.

— Iltimos. Yaramni tirnamang. Maishiy mavzularning badbo'y hidi shu qadar jonimga tekkanki, gohi o'zim qo'yayotgan spektakllarning bo'm-bo'sh mojarolaridan ko'nglim ag'darilay deydi.

— Odamlarning ko'ngli ag'darilib bo'lgan.

— Siz menga ortiqcha baho beryapsiz. Men kimman? Qo‘limdan nima keladi? Men bo‘lmasam ham teatr kam-ko‘st-siz ishlayveradi. Bu dunyoda hamma aktyor. Yuring, yaxshisi o‘ynaymiz. Bitimiz bir to‘kilsin!



Shohrux ertalab cho‘chib uyg‘ondi. Lablari alamli pichirlardi: «Istamayman, istamayman, istamayman! Nahotki yaxshi ko‘rib qolgan bo‘lsam. Yo‘q, kerakmas, kerakmas! E, Xudo...»

Ular bugun ko‘rishishlari kerak edi. Zabarjad teatrga soat uchlarga yaqin keldi. Shohrux uning qo‘liga ssenariy tutdi.

— Najib Mahfuzning «Rodopis» asari. Rodopis obrazini talqin qilib ko‘ring-chi...

— Asar nima haqda?

— Merenra va sohibjamol raqqosa Rodopis haqida: Yosh va navqiron Merenra taxtga o‘tirarkan, kunlarning birida samoda uchib yurgan burgut uning oyoqlari ostiga duru javohirlar bilan ziynatlangan bir shippakni olib kelib tashlaydi. G‘oyibdan yuborilgan bu ishoratning ne sir-sinoati bor ekanligiga qiziqqan shahzoda maftunkor Rodopis yashovchi qal‘aga yo‘l oladi va qarshisida go‘zallikning mislsiz timsolini ko‘rib...

Shu payt Zabarjadning qo‘l telefoni chirillab qoldi.

— Alyo, ha teatrdaman. Gapni ko‘paytirmay, olib ketadi odam degan... Ha, o‘n besh minutdan keyin chiqaman. Ha, davom ettiravering... Kechirasiz.

— Davom etmayman. Endi xonamga telefonni o‘chirib kiring. Bu yer siz uchrashuv belgilaydigan joy emas.

— Voy-bo‘ ukam-u — deya Zabarjad labini cho‘chchaytirdi.

— Ukaga istig‘no ohangi bilan gapirishmaydi.

— Shunaqa gapirish mavridi edi.

— Men yolg‘onni yomon ko‘raman.

— Keyin nima bo‘ldi?

— Uchrashuvni bekor qilsangiz aytaman.

— Yo‘q, ketishim kerak.

— Agar siz... agar siz ko‘zimga yaxshi ko‘rinmaganingizda bu qilg‘ingiz uchun hech qachon kechirmagan bo‘lardim. To‘pponcham bo‘lsa...

— Ha. Ana sahnada to‘pponcha paydo bo‘ldi. Stanislavskiy nazariyasi bo‘yicha, spektakl davomida endi u otilishi kerak. Ha, iltimos u otilganda haqiqiy otilsin. O‘q o‘rniga paxta otilib chiqmasin. O‘q tovushi o‘rniga musiqa chalinmasin. Xo‘sh, siz meni qaysi spektaklga chaqiryapsiz o‘zi? Ijodiningizda Rodopis bo‘lishim kerakmi? Yo hayotingizda? Ochiq aytavering. Men hammasini ijro etaveraman. Men bor mahoratimni ayamayman.

— Avval asarni o‘qib ko‘ring. Katta ketmang. Hali sinovdan o‘tasizmi, yo‘qmi Xudo poshsho...

— Xohishingiz... Farmon sizdan, ijro bizdan. Xo‘p, xayr.



Shohrux bir haftadan buyon telefon qilmagani uchun Mohichehraning ko‘zlariga yosh to‘ldi. Bir haftadan buyon alamli bir haqiqat ayon bo‘lib borayotgandi. Avvallari Shohrux unga kunda bir, ikki telefon qilar, goho har soatda holidan xabar olar, shunchaki ham valaqlashib o‘tirardi. Telefon qilmayotgani undan voz kechganidan dalolat edi. Izohlashning, nega, nega, nega degan savol-javoblarning hojati yo‘q edi. Shunday bo‘lsa-da, ayolligiga bordi. Bag‘rikenglik qildi. Telefon go‘shagini ko‘tardi.

— Alyo, Shohrux aka, yaxshimisiz?

— Ha, Mohi, qalaysiz?

— Ko‘rinmaysiz? (ichida o‘z savoliga o‘zi javob aytib o‘tirardi: Yangi yor topilganda eskisidan kechmoq kerak.)

— E, biroz ishlarim ko‘payib ketdi. (Ko‘rinmaysiz emas, Rodopis rolini taklif etmoqchi bo‘lib yuruvdingiz, nega indamay ketdingiz.)

— Ha, men o‘ylabman, bizdan bilib-bilmay biroz xatolik o‘tgan bo‘lsa, kechirim so‘rab qo‘ysammikan. (Ishlarim ko‘payib ketganmish! Kerak bo‘lsa Oliy Majlis Kengashini tashlab kelardingiz-u, dangalini aytib qo‘ya qolsa-da erkak degan.)

— E, xato sizda nima qiladi? Onangiz ham sizni beta-horat emizmagan (Rodopis roliga nega ravo koʻrmayapsiz demoqchi. Uni senga bersam, isyonkor muhabbat maʼbudasi emas, his-tuygʻularga qul boʻlgan va shu sababli Morenrani halo-katga uchratgan fohisha qiyofasini yaratib berasanmi? Rahmat, kerak emas).

— Bugun kechqurun spektaklim bor edi. Hafsalam boʻlmay turibdi. (Spektakldan keyin boʻshman, siz nima qilmoqchisiz, Shohrux aka. Bir iliq soʻz aytasangiz-chi, kuchimga kuch, gʻayratimga gʻayrat qoʻshib joʻsh tiradigan. Shunchayam intiq qilasizmi?)

— Meniyam negadir hafsalam yoʻq. (Endi qarmogʻingga ilinib boʻpman. Chaqirsang ham bormayman.) Boʻpti, boʻl-masa. Sal ishlarim saranjom boʻlsin, oʻzim telefon qilarkan. (Kerak boʻlsang, oʻzim topib olaman. Hadeb telefon qilib, jigʻimga tegma.)

— Boʻpti. Xayr, Yaxshi ishlang! (Nozu karashmani sal oshirishim kerak shekilli, uncha-muncha gap taʼsir qilmayapti. Hali koʻramiz, bir yugurtiray, oʻzing kelib, oyogʻim tagiga yotib olasan.)

— Boʻpti. (Xayriyat, osonlikcha qutuldim. Bu bilan hisob-kitobimiz oxirlab qolgan koʻrinadi. Vaqt — oliy hakam. Kunlar oʻtib, hammasi unutilib ketadi. Xafa boʻlma, Mohichehra.)



Sarvar Samandarovich mashinasini darvoza tagiga toʻxtat-di-da, signalni bosdi. Toʻgʻrisi, shu qadar charchagan, holdan toygan ediki, mashinasini koʻchada qoldirib kirishga ham tayyor edi. Biroq, oʻziga Xudodan ozgina sabr soʻrab turdi. Birozdan soʻng, ulkan temir darvozani bir necha qulflarini sharaqlatib, darvoza yonida xotini paydo boʻldi.

— Oʻgʻling telefon qilmadimi? — soʻradi Sarvar Saman-darovich soʻriga yonboshlarkan. Hovli oʻrtasida favvora suv sachratib shovqin solar, palma daraxtining ulkan barglari salqin shabadada silkinardi. Ikki qavatli bahaybat uyning favvoralari qanchalik baland otilmasin, shamol osmondan kuch bilan tushmasa, havo aylanmasdi.

- Yo‘q, — dedi xotini.
- Nima, endi qaytib kelmasmikan?
- Qaynanasi, bitta-yu bitta qizim, shu uyda yashayveringlar, deganmish.
- Nima, meni o‘g‘lim ikkitami? Yo yashirib qo‘ygan yana bir-ikkita bolam bormi? Bu uylarni kim uchun solganman axir?! Falonchini o‘g‘li xotininikiga ketib qolibdi degan isnodga qoldim-ku?
- Bu gaplarni urmasdan oldin o‘ylang edi.
- Nima, o‘z bolamni ham urolmaymanmi?
- Bu gaplarni yoshligida aytish kerak edi. Endi suyagi qotib, qulog‘iga gap kirmaydigan paytda aytganingiz befoyda.
- Bolaligida bola dedik, bitta bola deb, qosh-qovog‘iga qaradik. Mana oqibati. Hammasiga sen aybdorsan. Yana bitta tug‘sang, o‘lib qolmasding.
- Qon bosimim bor. Ba‘zilarning bitta bolasi o‘nta boladan afzal. Xudo beradiganini bitta bolaning orqasidan ham beraveradi.
- Agar ikkita bo‘lganda bittasi ketsa, ikkinchisi suyanchiq bo‘lardi.
- Shu paytgacha qayerda edingiz, hoy mard bola. Shu paytgacha o‘ynashlardan bo‘shaganingiz yo‘q-ku?! Men qon bosimim bor deb vaj ko‘rsatgan ekanman, nega meni do‘xtirga olib borib tuzatmadingiz. Yoshim qirqdan oshib, ellikka ketayotganida sizga endi bola kerak bo‘lib qoldimi? Endi tug‘sam, bu bola yigirma yilda katta bo‘lib oltmishdan oshganimda menga nima karomat ko‘rsatib beradi.
- Bu gapni senga o‘n besh yildan beri aytaman. Gapga quloq solmaysan.
- Menga aytishingiz emas, shu ishni qilishingiz kerak edi. Siz aksincha, mendan arazlab, ko‘chada yallo qilib yurdingiz. Mana endi boshimiz devorga «taq» etib urilgandan so‘ng hamma aybni menga to‘nkayapsiz. Men kimman, men sizning soyangizman xolos. O‘zingiz to‘g‘ri bo‘lganingizda soyangizni egriligidan qo‘rqmasdingiz.
- O‘g‘lingga telefon qil, qaytib kelsin.

— Keladi, kelmay qayoqqa boradi. Hozir unga xotining gapi gap, so‘zi so‘z bo‘lib turibdi. Bir-ikki kun o‘tsin, xotini bir hunarlar ko‘rsatsin... Sarvar Samandarovich xotini keltirgan ovqatdan istamaygina cho‘qilab-cho‘qilab yedi. U parhez harakatida yurardi. Semirib ketishni yoqtirmasdi. Aniqrog‘i, uning atrofidagi odamlar uning semirib ketishini yoqtirmasdi.

Sarvar Samandarovich kelishgan, xushmuomala, hayotda juda ko‘p odamlar bilan muloqotda bo‘lgani, doimo yaxshilik umidida yashab, og‘ir mehnatdan sira bo‘yin tovlamagani uchun hamma bilan chiqishib ketar, hayoti ham kam-ko‘stsiz, farovon kechardi. Teatrdan tashqari ham, Toshkentda, Samarqandda, Andijonda shaxsiy firmalari, do‘konlari bor edi. Daromad o‘shalar ketidan kelar, teatrdagi rahbarligi, obro‘si do‘konlar ishini yurgazishga xizmat qilardi. Lekin Xudo bandasining hamma ishini to‘la-to‘kis uyub tashlamas, albatta, bir tomonini kemtik qilib qo‘yar ekan. Sarvar Samandarovich serfarzand oilada o‘sdi. O‘zi ham serfarzand bo‘lishni istagan edi. Biroq xotini bitta tuqqandan keyin tug‘ishni orqaga solib yuraverdi. Keyin-keyin «qon bosimim bor» degan vaj-karson topdi. Keyin-keyin, endi qaridik, shu bitta farzand yetadi deb turib oldi. Sarvar Samandarovich esa bekitiqcha yana uylanishni niyat qilib yuraverdi. Xashakdan o‘tin chiqmas, o‘ynashdan xotin chiqmas deganlaridek, o‘ynashlar biri kelib, biri ketar, u esa ularning ichidan jiddiy o‘ylab ko‘rishga arziydiganini axtarardi.



Shohrux tanishtirish va u bosh rolda o‘ynashiga izn so‘rash uchun Zabardadni Sarvar Samandarovichning oldiga olib kirdi.

— Shunaqa deng. Xo‘sh, Zabardadxon malika rolini o‘ynay olasizmi?

— Hayotda hech malika bo‘lmaganman. Qo‘limdan kelmasa kerak.

— Agar malika bo‘lganingizda sizni rol o‘ynash uchun chaqirishga haddimiz sig‘masdi. XV asrda yashaganingizda esa chaqirishga yanada qiynalardik.

— Xafa bo‘lmang, men malikalik da‘vo qilayotganim yo‘q. Bor-yo‘g‘i rol so‘rayapman xolos.

— Albatta, ruxsat beraman. Hech qaysi malikadan kam joyingiz yo‘q. Odamlar sizni haqiqiy «Rodopis» deya qabul qilishlariga ham ishonaman. Aslini olganda bu asar Shoh Morenra va Rodopis haqida emas, so‘nmas muhabbat haqidagi qo‘shiqdir. Chin sevgining qismati shunday. Odamlar kelib-ketaveradi. Ammo haqiqiy muhabbat asrlar osha yashayveradi.

— Men ham shunday so‘nmas muhabbatni yaratishga harakat qilaman, Sarvar Samandarovich.

— Marhamat, sahna sizniki.



Oradan bir oylarga yaqin vaqt o‘tdi. Spektakl mashqlari jarayonida Zabarjad Rodopis obrazini Shohruxning ko‘nglidagiday qoyilmaqom qilib ijro etdi. Bu rolga da‘vogar bo‘lgan Mohichehraning ham, Gulbadanning ham talqinlari o‘tmadi. Zabarjad bu obrazi orqali Morenra obrazini ijobiylashtirib yuborgan edi. Morenra haqiqiy muhabbat qurboni, qahramoni edi. Rodopisni butun jon-jahoni bilan sevib qolgan hukmdor Morenra saltanat yumushlarini, toju taxt siyosatini unutib, o‘zini muhabbat izniga tashlab, Rodopis uchun qasr qurdira boshlaydi. Bundan darg‘azab bo‘lgan koinlar g‘alayon ko‘tarishadi. Morenra mardlarcha isyonkorlarga peshvoz chiqadi va halok bo‘ladi.

Mohichehra talqinidagi Morenra maishatga berilgan, kayfu safo, hirsu havas tufayli saltanat ixtiyorini hokimlar qo‘liga topshirib qo‘ygan va sarmast holda haqiqatlab jafokashlar tig‘iga duchor bo‘lgan beburd shoh obrazi edi.

Gulbadan talqinidagi Morenra esa o‘zini nima qilayotganini bilmaydigan, avvallari ayol quchog‘idan bahramand bo‘lmagani uchun raqqosa Rodopis tuzog‘iga tushib qolib, o‘zini qo‘yarga joy topolmay darg‘azab ig‘vogarlarning zug‘umi tufayli zaharli tig‘ga o‘zini urgan sho‘rlik shoh obrazi edi. Asar sujeti ham, so‘zlari ham zarracha o‘zgartirilmagan, asl holda

qolgandi. Faqat talqin etish, so‘zlarga jilo berish, ohang va shiddat bag‘ishlash, jon kiritib ijro etish o‘zgargandi xolos. Bu obrazga hamma o‘z nuqtayi nazaridan yondoshgandi.



So‘nggi bosh repetitsiya ham muvaffaqiyatli o‘tdi. Ertaga premyera. Shohrux imkon topib Zabbarjadning qulog‘iga pichirladi:

— Bugun sizni kuzatib qo‘yaman!

Ular Zabbarjad yashaydigan ko‘cha boshiga yetishganda, kun allamahol bo‘lib qolgan, ko‘chada odamlar siyraklashgan, chang-to‘zon, shovqin-suron tingandi.

Shohrux engashib Zabbarjadning qo‘lidan o‘pdi, so‘ng bag‘riga tortdi.

— Hamma aktrisalaringiz bilan shunday xayrlashasizmi?

— Yo‘q.

— Kim sizga bu huquqni berdi?

— Sizni yaxshi ko‘raman. Shuning uchun o‘pishga haqqim bor deb o‘ylayman.

— Yaxshi ko‘rishingiz sizga yana qanaqa huquqlarni beradi, bilsak bo‘ladimi?

— Siz meni yaxshi ko‘rmaysizmi?

— Yo‘q, yaxshi ko‘rmayman. Men sizni bilmayman. Siz men uchun mavhum odamsiz. Tanishganimizga ham bor-yo‘g‘i bir oy bo‘ldi.

— Bir paytlar bir qo‘shiq bo‘lardi:

Men ketganda ancha yosh eding,
Bog‘bon qizi gullar erkasi.
Mana endi oydek to‘libsan,
Xayolimning ey arzandasi.

Xayolimda bolalikdan birga o‘sgandaymiz. Birga ulg‘aygandaymiz. Keyin bir-ikki oy bir-birimizdan uzoqda yurganmiz-u, yana ko‘rishib turgandaymiz. Men o‘zimning qadrdon va jonajon do‘stimni topib olgandayman.



— Xotirjam bo‘laving. Men bolaligimda hech sizga o‘xshagan do‘stga yo‘liqmaganman.

— Zabarjad... — Shohrux Zabarjadni quchoqlashga urindi. Zabarjad, — menga qarang.

— Xo‘sh, nima deysiz?

— Sizni yaxshi ko‘raman!

— Nima bo‘pti? Qiziq ekansiz. Bu so‘z men uchun hech narsani anglatmaydi. Yo shu gapni aytganingiz uchun sizni yaxshi ko‘rib qolaymi?

— Zabarjad, tuyg‘ularimni haqoratlamang.

— Siz haqoratlamang. Men nima desangiz jim turaveradigan qo‘g‘irchoq emasman.

— Hech bo‘lmasa, ketishimdan oldin bir og‘iz shirin so‘z ayting.

— Yaxshi boring.

— Shumi?

— Shu. Mayli kechirdim. Agar spektaklda rol berganim uchun quchoqlashga haqqim bor deganingizda, kechirmasdim. Harqalay, o‘rab gapirdingiz-ku!

— Farosatingiz shunga yetganiga rahmat!

— Yaxshi qoling. Xayr!

Shohrux to Zabarjad uyga kirib ketguncha qarab turdi.

So‘ngra cho‘ntagidan mashina kalitini izlay boshladi.



Mohichehra chuqur qayg‘uga cho‘kib o‘tirardi. Shohruxni o‘ziga qaratmoqchi edi, bo‘lmadi. Agar yo‘lini qilsam, unga tegib olaman deb umid qilgandi, qayerdandir Zabarjad paydo bo‘ldi-yu, harakatlari zoye ketdi. Umid va ikkilanishlar, gumon va muhabbat alangasida ikki yillik umri o‘tdi. Bu ikki yil qiz bolaning ayni gullaydigan o‘n sakkiz, yigirma ikki, qolaversa yigirma to‘rtga to‘ladigan qisqa davri uchun juda katta muddat edi. U mana shu juda qisqa muddatning ikki yilini Shohruxga bag‘ishladi va oxir-oqibat, Shohruxning hayotida Zabarjad paydo bo‘ldi-yu, undan quruq qoldi. Hatto unga nasib etishi kerak bo‘lgan bosh rol ham, undan qiyalab o‘tib Zabarjadda

to'xtadi. Unga esa kanizak roli tegdi. Mana, u sahnada Zabarjadga kanizaklik qiladi. Hayotda esa undan ham battar, mag'lub bo'lgan ma'shuqa. Gazetalar ham teatr sahnasida Zabarjad Zokirova degan yangi yulduz paydo bo'lganligi haqida tinmay yozib yotibdi. Uning kanizak rolini o'ynashga rozi bo'lganligi ham Shohruxdan umidini uzmaganligi tufayli edi. Harqalay uzoqlashib ketgandan ko'ra ko'z-ko'zga tushib turgani yaxshi-da.

Mohichehra oynaga qararkan, uning aksidagi sohibjamolni ko'rib: «E, bu Shohrux deganning ko'zi ko'rmi-ya» — deb yubordi.

Mohichehra o'z qomatiga o'zining suqi kelib, oyna atrofida gir-gir aylanib oshifta bo'larkan, telefon qo'ng'irog'idan cho'chib tushdi.

— Alyo.

— Alyo, Mohi...

— O, Sarvar Samandarovich! Xayriyat, xayriyat, bexato nishonga oluvchi nazingiz yon daftaringizdagi to'tigullar ro'yxatidan ortib, bizga qadalganidan behad baxtiyorman.

— Bo'ldi, bas qil. Davlatning juni bilan o'zingni juningni aralastirma. Bilasan ishli odamman. Bosh qashiy deb boshimni, osh oshay deb og'zimni topolmayman. Seni ham tunu kun menga ko'zingni qadab turgan joying yo'qdir.

— Sarvar aka, men bo'lmasam ham buni kuni oyday o'taveradi deb o'ylaysizda-a?

— Kuningiz mensiz, nafaqat oyday o'tadi, quyoshday yorug' o'taveradi.


— Qo'ysangiz-chi, sizsiz o'tgan kunim qursin. Maymunlar ham holimga yig'lamay qo'ygan, o'zim ularning oldiga borib, ho'ng-ho'ng yig'lab kelyapman.

— Oldingizga bugun bir maymun borsa, qabul qilaszmi?

— Ko'z yoshimni artishgami yoki sochimni silab, o'ynashgami?

— O'ynashga. Oching eshigingizni.

Mohichehra yugurib borib eshikni ochdi. Tashqarida qulog'iga qo'l telefonini qo'yib Sarvar Samandarovich turardi.



— Voy, keling, shuncha gapni ko'chada aytish shartmidi?

— Bu yerga kelganda lablarim lazziyatli yumushga tushib ketadi, esim og'ib gap topolmay sarmast bo'laman.

— Voy bo', ko'ramiz necha marta sarmast bo'larkansiz.

Mohichehraning g'amzasi yurakni o'rtab yuborardi.

— Bu sizning mahoratingizga bog'liq-da.

— Bizda hech yomoni bo'lmagan.

— O'zingizni ehtiyot qiling, ochko'z eshak to'rtva teshar.

Sarvar Samandarovich kostum, galstuklarini yecharkan, Mohichehrani bag'riga bosib,

erkalay boshlaydi. Uzoq o'pichdan so'ng Mohichehra uning quchog'idan siltanib, nari surildi.

— Men sizga yotganda yaxshiman, boshqa payt yomonman, shundaymi?

— Ha, yana nima bo'ldi?

— Teatr rahbarisiz. Bir og'iz aytganingizda menga bosh rolni berishardi. Ko'chadan kelgan anovi qiz teatrdan ishlamay turib, e yo'q, be yo'q, bosh rolni ilib ketdi. Men burnimni tishlab qoldim. Siz nima bo'layotganiga qaramaysiz ham. Shohrux Sultonov bo'lsa, bugungi zamonda shahvatparast shohlar haqida spektakl qo'yib yuribdi. Hozir shu kerakmi?

Nima demoqchi, nimalarga ishorat qilayapti? Shuncha yil teatr ostonasini yalab, tajriba orttirib, ustozlardan o'rganib, birim ikki bo'lsin, bitim sirka bo'lsin deb, jonim halak yur-sam-u, qayoqdagi Shohrux Sultonov ko'chadan o'ynashini yetaklab kelib, meni unga kanizak qilib qo'ysa! Lallaygan o'r-tog'i Isfandiyor shoh rolini o'ynarmish. Tanish-bilishchilik, oshna-og'aynichilik, hamtovoqlik ham evi bilan-da?! Rahbar bo'lib, qayoqqa qarayapsiz? Men bechora bu yerda yaxshiman, u yerda ko'rib ko'rmaganga, tanib tanimaganga olasiz, o'tirsam o'poq, tursam so'poqman.

— O'zingizni bosing. Zokirovaga shuncha hasadmi?

— Hasad — qo'g'irchoqlarga qilinmaydi!

— Bunisi bo'lmasa, boshqa spektakldan bosh rolni olib berarman? Shunga shunchami?

— Yo'q. Men Rodopis bo'lishni orzu qilaman, Rodopis.

— Men ketdim. O'tirishni ham rasvo qilding. Menga hech joyda shafqat yo'q.

— Sarvar Samandarovich, to'xtang. Rahbar bo'lgandan keyin xalqning dardini eshitish kerak-da. Indamay juftakni rostlash har dangasaning qo'lidan keladi.

— Sizni bir xursand qilmoqchi edim, ammo nachora, bit-magan savdoga shirinkoma yo'q.



Spektakl ijrosi juda muvaffaqiyatli tugadi. Tomoshabinlar o'rinlaridan turib, ijrochilarni rosa olqishladi. Shohrux odam-larga nazar tashlar ekan, yuragi g'ururdan gupirib ketdi. Spek-takl qahramonlari qayta-qayta sahnaga chiqib ta'zim qilishdi. Otilgan qip-qizil gullar gilamday ularning oyog'i tagiga poyan-doz bo'ldi. Teatr rahbari yangi spektaklning barcha qatnash-chilariga, jamoa oqsoqollariga ziyofat berishga va'da qildi. Aktyorlar bu xushxabar uchun yana chapak chalib, shodon qiyqirishgancha, grimxonalariga otillishdi.

Zabarjad ham o'ziga birkirilgan xonaga otildi. Ko'zguga qarab, malikalik qiyofasidan ko'zlari chaq nab ketdi. So'ngra kiyimlarini almashtirdi. Yana oddiy liboslarga qaytish erish

tuyuldi. Nachora, teatr hayoti shunday. Sahnada shohsan, hayotda yana o‘z holingga qaytasan. Yana el qatori qorin to‘ydirish tashvishiga tushuvchi, uyga qaytish uchun avtobus kutuvchi, shilqimlarning telba-teskari gaplariga javob qaytarishga majbur yo‘lovchiga aylanasan.

Zabarjad mana shu xayollarda upa ketqazuvchi lattani yuziga surtgandi, dahshatli og‘riqdan chinqirib yubordi. Nima bo‘lganini bilish uchun, ko‘ziga to‘lgan yosh bilan ko‘zguga qaragandi, qulog‘ining oldi, chakagi ostidan to‘iyagigacha terisi qip-qizil bo‘lib, shilinib tushganini ko‘rdi. Falokatning xunuk jarohatidan yana vahimaga tushib, battar baqirib yubordi. Xona birpasda odamga to‘ldi. Kimdir upa lattani hidlab, kislota ekanligini aniqladi. Kimdir «Tez yordam» mashinasi chaqirdi. Kimdir Zabarjad hushidan ketmasligi uchun suv sepib turdi.



Kunlarning birida Zabarjadni ko‘rish uchun shifoxonaga Sarvar Samandarovich keldi.

— O, Zabarjadxon. Yotavering, yotavering, hech bezovta bo‘lmang.

— Salom, yaxshimisiz? — Zabarjad dik etib o‘rnidan turdi:

— Kechirasiz. Biroz ko‘zim ilinibdi.

— Ko‘rinishingiz yaxshi. Ko‘z tegmasin. — Sarvar Samandarovich Zabarjadga yaxshiroq razm solar ekan, ichida o‘yladi: «Qiz bechora, ancha talofat ko‘ribdi-ku. Buni, bu holatda ko‘rgan odamning afti burishmay iloji yo‘q. Bu chandiqlarni grimmda ham bekitib bo‘lmasa kerak».

— Dori-darmonlardan tanqislik yo‘q-mi, Zabarjadxon, bizdan nima yordam. Lekin, o‘sha-o‘sha go‘zalsiz. — Sarvar Samandarovich yuzidan tabassumini qo‘ymasdi, ichida esa: «Spektaklni bekor to‘xtatgan ekanman, goh-goh qo‘yaverish kerak, Mohi o‘ynayveradi. Sal shoshilibman, endi bu menga to‘g‘ri kelmaydi. Menikini tirnog‘ida ham dog‘i bo‘lmasligi kerak», — deya o‘ylardi.

— O‘zingiz charchamay ishlab yuribsizmi, Sarvar Samandarovich, teatringizda bir jonimni berib ishlay devdim, bo‘lmadi. Sizga qoyil, bir-birini ko‘rishga ko‘zi yo‘q shuncha

odamni boshini birlashtirib turibsiz, mahoratingizga tan berdim.

— E, hali ishlaysiz. Sizday go‘zal qizlar dunyoga ming yilda bir keladi. Sog‘ayib keting, hali ko‘p ko‘rishamiz. Endi men boray.

Sarvar Samandarovich Zabarjadning qo‘lini o‘pdi:

— Bosh rol sizniki. Chiqquningizgacha kutamiz.

Sarvar Samandarovich hovliga yetmay yana o‘yladi: «Xotin qilmasam, o‘ynash qilarman. Dargohimni bir chetida yursa, yuribdi-da. Asl aynimas, deganlari shu bo‘lsa kerak, husnini yo‘qotmabdi».

Zabarjad uni kuzatarkan: — «Afting qursin, qari tullak, betingdagi tirishlar menikidan xunugu, bujmaytiriganiga o‘laymi — derdi ichida — Men nimani o‘ylayotganimni bilmaydi deb o‘ylayapti, shekilli. Mendan voz kechib yuborgani shundoq-qina ko‘rinib turibdi-yu. Mendan-a, mendan!»

Zabarjad ko‘zguni qo‘liga oldi. «Men shunchalik xunukman-mi?» U yuzidagi bitib borayotgan tirishni silab qo‘ydi. «Mendan voz kechdi-a?! Sahnada Rodopisni kim o‘ynashini ko‘rasiz! O‘ynash qanaqaligini bir ko‘rsatib qo‘yay!»

Kun kech bo‘lganda Mohichehra va Gulbadan kirib keldi.

Ikkalasi ham shodliklarini yashirolmasdi.

— Voy, Zabarjad, senga nima bo‘ldi-a. Yuragim bir achidi, bir achidi. Kelib, kelib shunday go‘zal qizni Xudo urib qo‘yadimi? Kel, endi, chin do‘st bo‘lamiz. Senga yaqin dugona bo‘laman. — Shunday deyar ekan, Mohichehra Zabarjadni yuzini o‘pib qo‘ydi. Ichida esa «Ha, Shohruxga osilmoqchi eding. Battar bo‘l. Endi unga yaqinlashib bo‘psan. Chalpakka o‘rab, oldiga tashlashsa senga qaramaydi. Birovni oshiga qo‘l uzatganning ahvoli shu. Shohrux akam endi o‘z-o‘zimga qoldi».

— Voy, Zabarjad opa, haliyam bir chiroylisiz, bir chiroylisiz. Qaniydi shu chiroy menda bo‘lsa, shu chandiqa ham rozi edim — dedi Gulbadan.

Qizlar qiyqirishib kulishdilar.

— Qo‘ying, hech kimga ko‘rgulik qilmasin. Dushmanimga ham ravo ko‘rmayman — dedi Zabarjad.

— Shu chandiqa ham bir silashga zor yigitlar qancha axir.

Gulbadan yana qiyqirdi. Ichida esa, «Ha, Isfandiyor akam o‘zimga qolib ketdi. Kecha meni izlab borishining sababi bu yoqda. Sendan qochadi endi, qochganda ham beting qursin, deb qochadi. Va-hah-ha». Gulbadan ich-ichidan shodlanib qiyqirardi. — Silatmang, siliyman deb quvlasalar, qoching!

— Ja-a, uzoqqa qochib ketmasinlar, — gapga gap kiygizdi Mohichehra: — Baribir kimgadir silatish kerak, sen nima bu parini hamma joyi kuygan deb o‘ylayapsanmi? Kuymagan joylari ham bor.

— Mayli, mayli, endi kuymagan joylari bilan kuydiraver-sinlar, — yana qiyqirdi Gulbadan.

Zabarjad ularning bu qadar bezbetligidan hayron qoldi. So‘ngra yuzini burishtirib «Oh» — dedi-da yotib oldi: — Qizlar, uzr, miyamga ham ta’sir qilgan shekilli. Boshim zirqirab qoldi.

— E, yoting, yoting — dedi ikkalasi ham baravariga.

O‘zingizni yaxshilab qarating. Miya ketsa chatog‘-a. Yana bizni taniyolmay o‘tirmang.

Ular ko‘ngillari xotirjam xayr-xo‘shlashib chiqib ketishdi.



Kelmaganlar orasida Isfandiyor qorasini ko‘rsatmay ketgandi. U Zabarjad shifoxonaga tushganining birinchi kuni keldi-yu, shu bilan yo‘q. Uning kelmayotgani nima fikrda yurganidan dalolat berardi. Fir‘avn rolini o‘ynagan, odamlar ko‘ziga qat’iy fikrli, mard va shiddatkor bo‘lib ko‘ringan Isfandiyor nega bunchalik tez o‘zgardi, yuz o‘girdi. Axir, u emasmidi, «to‘yni tezlataylik» deya shoshirgan. Axir u emasmidi «spektakl tugagach, birinchi kuniyoq men shoh libosida, sen malika qiyofasida odamlar ongidan ketmay turiboq to‘yni boshlab yuboramiz. Rozilik bersang bas, o‘sha kun uyingga sovchi jo‘nataman» — degan. Men unga nima deb, javob berishni bilmaganim uchun uning samimiyligiga shubhalanganim uchun indamagandim. Bu yer shifoxona emas, haqiqiy teatr ekan.

Shomga yaqin bir dasta gul bilan Isfandiyor kirib keldi.

— Zabarjad, tuzukmisiz?



— Rahmat. Siz so‘radingiz, endi butunlay tuzalib ketsam kerak. Faqat biroz boshim og‘rib turibdi.

— Bu havoning o‘zgarib turishidan bo‘lsa kerak — dedi Isfandiyor.

Ichida esa «Boshing tuzalgani bilan beting tuzalmaydi. Sendan Gulbadan chiroyliroq. Endi Gulbadanga uylanganim ma‘qul. Klara Iskandarovnaning zug‘umi ham bosilardi, qolardi. Nervimni buzib yuramanmi? Dadamga o‘xshab yotib qolsam, bizni kim boqadi. Sabr qilish kerak. Qayg‘urish kimga zaril. Bunga uylanib, umrim hasratda o‘tsinmi? Agar bunga uylansam, Klara Iskandarovna meni teatrdan haydab yuborishi aniq».

— O‘zingizni ishlaringiz yaxshimi, Isfandiyor aka — dedi Zabarjad samimiy ohangda. Negadir Isfandiyor bilan ozgina dardlashgisi bor edi.

— Oyim, to‘yni tezlat, deyaptilar!

— Tezlat, nega to‘xtab turibsiz?

Isfandiyorning rangi oqarib ketdi: — Siz kasalsiz-ku.

— Sog‘ qizlar ko‘p-u!

Isfandiyor yengil nafas oldi.

— Men sizni kutay desam, oyim to‘yni tezlat deyaptilar. Adam kasal.

— Adangizni o‘rtaga qo‘shmang. Hamma ham kasal bo‘lavermaydi. Yuragi yonib turgan odamlargina kasal bo‘ladi. Sizning uylanishingizga qarshi joyim yo‘q. Meni kutmang.

— Siz aqlli qizsiz, Zabarjad. Latofatli, dilbar qizsiz. Ayniqsa, yuragingiz go‘zal.

— Mayli, endi boring. Baxtli bo‘ling. To‘yingizga aytsangiz, jon deb borardim-u, odamlarning kayfiyatini buzib nima qilaman.

— Yo‘q, yo‘q boravering. Ro‘mol o‘rab boring. Ro‘mol o‘rash hozir urfga kirayapti.

— Balki, bir amallarmiz... — Zabarjad chuqur xo‘rsiniq olib, yutindi.



Premyeradan bir hafta o‘tgach, teatr Badiiy kengashining «Rodopis» spektakliga bag‘ishlangan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Yig'ilish turli-tuman bahslarga sabab bo'ldi. Teatrning kekxa rejissyorlaridan biri shunday dedi:

— Yosh rejissyor Shohrux Sultonov juda qiziq mavzuni ko'tarib chiqqan. Men uni bu muvaffaqiyati bilan tabriklayman. U asarga original yondoshgan. Ayniqsa, bosh qahramon roliga Zabarjad Zokirova yaxshi tanlangan.

Kekxa rejissyor mana shu tarzda uzundan-uzoq gapirdi. Gapni taniqli aktrisa Klara Iskandarovna davom ettirdi:

— Biz yoshlarimizga bu qadar erk berib yuborishimiz to'g'ri emas. Axir teatrimizga ulug' ustozlarimiz mustahkam tamal toshini qo'yib ketganlar. Men xirs-havas botqog'iga botgan raqqosa Rodopis singari salbiy obrazni bosh qahramon darajasiga olib chiqib, muqaddas teatrimiz sahnasini toptayotganlari uchun ulug' ustozlarimiz ruhi oldida xijolat tortayapman.

— To'g'ri aytdingiz, Klara Iskandarovna, — dedi unga ko'zini suzib o'tirgan Botir Boltayev. — Men hayron qoldim. Soliqdan tushgan pullar o'ynashining oyog'i ostiga tashlansaya! Buni qanday tushunsa bo'ladi. Teatrimizga dam olishga kelgan aziz tomoshabinlarimizning ko'ngliga g'ulg'ula tushmaydimi? Keyin, anovi bosh qahramon qizimiz Zabarjad Zokirova, ja-a qattiq muqom qilib, o'zini malikalarday tutvorgan.

So'z navbati aktrisa Gulbadan Zunnunovaga tegdi:

— Axir u malika emas, bor-yo'g'i shohning o'ynashi xolos.

— Zabarjad Zokirova sira o'ynolmagan. Bu rejissyor Shohrux Sultonovning xatosi. Biz debyutant aktrisaning gardaniga og'ir yukni, u ko'tarolmaydigan yukni qo'yib xato qildik. Tomoshabinlarimiz esnab, qarsak chalish ham eslaridan chiqib ketganini ko'rgan Zabarjad oxiri taqdirga tan berdi. Yuziga kislota tortdi. Mana endi jabrini chekib, shifoxonada Ollohdan madad kutib yotibdi. Balki hozir u kislota emas qora sursam bo'larkan deb o'ylayotgandir, ammo endi kech.

— Tarixiy asarga bu tarzda zamonaviy yondoshmaslik kerak, — o'rnidan turib ketdi Isfandiyor. — Shoh asar dunyoga kelgan. U teatrimizda har kuni o'ynalsa arziydi. U har kuni olchoqlar quloqlari ostida jaranglab turishi kerak.



— E, muncha baqirasiz! — deya gapni bo‘ldi Klara Iskandarovna. — Siz Fir‘avn Morenra emassiz-ku. Bor-yo‘g‘i Shohruxning o‘rtog‘i, hamtovog‘isiz. Zabarjad ham Shohruxga begona emas. Yangi tanishlaridan. Mohichehra esa eskisi edi. Og‘iz-burun o‘pishishlar teatrimizda nega bu qadar ildiz otib ketdi, Sarvar Samandarovich!

Nihoyat gapga teatr rahbari Sarvar Samandarovichning o‘zi aralashdi.

— O‘rtoqlar, men bilmagan ekanman. Aktyor mahoratiga, sa’y-harakatiga to‘g‘ri baho bermaslik, tanish-bilishchilik kuchayib ketganini bilmagan ekanman. Rahmat sizga Shohrux Sultonov. Meni bundan o‘z vaqtida ogoh etdingiz. Hamma gaplar deyarli aytib bo‘lindi. Xulosa, spektakl teatr rejasidan olib tashlansin. Yosh rejisser Shohrux Sultonovga sahnalashtirish uchun spektakl berilmasin. Uning ishda qolish-qolmasligi ko‘rib chiqilsin. Bu taklifga rozilar qo‘l ko‘tarsin.

Yig‘ilganlar Sarvar Samandarovichning avzoyiga qarab turishdi. U qo‘lini ko‘targach, birin-ketin boshqalar ham qo‘shildi.



Sarvar Samandarovich uyga kelsa, hovlida shovqin-suron avj, bolalar yugurib-o‘ynar, qiyqirishar, onalariga ham quloq solmay, o‘tlarni, gullarni payhon qilishardi. Uning qorasi ko‘ringanidan bolalar, «tog‘am keldi» — deya, uning etagiga yopishishdi. Sarvar Samandarovich ularni birma-bir dast ko‘tarib, yuzlaridan o‘pdi. Qishloqdan singlisi bolalari bilan kelgan ekan. Singlisi ham o‘tirgan joyidan irg‘ishlab turib, uning istiqboliga peshvoz chiqdi. Sarvar Samandarovich dasturxon g‘aribligini ko‘rib, xotiniga boshqatdan qozon osishni buyurdi. O‘zi esa dasturxon boshida o‘tirishga sabri chidamay, o‘z xonasiga kirib ketdi. Singlisining ikki o‘g‘li, bir qizi bor edi. Kuyovi esa uchma-uch ro‘zg‘or tebratar, vaqti kelganda Sarvar Samandarovich qo‘li bilan, o‘rni kelganda tili bilan singlisining kemtik ro‘zg‘origa qarashib turar, uning shamoli bilan singlisining ham bir kuni amal-taqal o‘tib turardi. Lekin bu safar singlisining tashrifi ham, jiyanlarining xarxashalari ham ortiqcha

huzur bag'ishlamadi. Qaytangga yurak-yuragining tubida yashirilib yotgan alamlarini yuzaga chiqarib yubordi: «Qani endi meni ham shunday yana bir farzandim bo'lsa, mana shu ulkan hovlida o'ynab yursa. Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor deganlari rost ekan. Nahotki, hayotim shomi boshlangan bo'lsa. Nahotki, endi men tugab bo'ldim. Nahotki, umrimni shamollarga sovurdim. Nahotki, endi odamlar oldida yuzim shuvut. Bolalikda farzandlarim ko'p bo'lishini orzu qilardim. Nahotki, orzularim armonga aylansa. Nega bu haqda juda kech o'ylayapman. Nega hayotimni o'ynashlar og'ushida sarobga aylantirdim. Nega qayta uylanish haqida jiddiy o'ylab ko'rmadim. Nega hamma narsada, hamma ishda yutib chiqishga o'rgangan odam eng muhim narsani — hayotimni boy berdim. Uyim bor, davlatim bor, shon-shuhratim bor, Xudo yana bir-ikkita farzand berganida, bu dunyodan bearmon o'tmasmidim».



Shohrux majlisdan tushkun kayfiyatda chiqdi. Turib gapirmoqchi edi, lekin so'z bermaganlaridan keyin, nima qilsin. So'z berganlarida ham o'zini oqlash uchun biror jo'yali vaj-karson topolmagan bo'lardi. Doimo shunday bo'lib kelgan. U o'zini himoya qilishni bilmasdi. Darhol so'z topib berolmasdi. Jo'yali javoblar uning xayoliga doimo kech keladi. Umuman olganda unga tuhmat uyushtirishdi. Balki bu tuhmat emas, uning xatolaridir. Balki, xatolari uchun to'g'ri jazolashayotgandir. U hech qachon xato qilmaydigan silliq odamlarga doimo havas qilardi. Jazolangandan so'ng ertasigayoq tavba-tazarru qilib, boshliqning oyog'iga yiqilib-yolvoradiganlarga ham. Biroq bunday qilish uning qo'lidan kelmaydi. U qattiq tushkunlikka tushib ketadi. Qattiq azob chekadi. Juda qattiq o'ylanib, uni nega buncha xo'rlashlarini tushunolmay, ko'ziga yosh to'ladi. Birovga hech qachon yomonlikni o'ylamasa, qo'lidan kelgancha hammaga yaxshilik qilish payida yursa-yu, nega doim kaltak tagida qoladi. Nega oyoqlari ostiga olib tepkilashadi? Axir birov unga zarra ishonch bildirsa, shu ishonchni oqlash uchun jonini ham berishga tayyor-ku. Shuncha sharmandalikdan so'ng endi boshimni qanday ko'tarib yuraman? Kim degan odam bo'ldim?

Shohrux mana shunday g'ussali xayollar girdobida ko'cha kezib yurgandi, Isfandiyorni uchratib qoldi.

— E, qayda yuribsan. Izlamagan joyim qolmadi.

— Ko'cha kezib yuribman. Qayoqqa ham borardim. Uyga boray desam, uyga sig'mayman. Ishxonada o'tiray desam, odamlarga qarashga betim chidamaydi. Yana biroz yolg'iz qolsam, o'zimni o'zim yeb qo'ysam kerak.

— E, qo'ysang-chi bo'lmag'ur gaplarni. Sabr qil, hammasi o'tib ketadi. Yur, ikkita-ikkita pivo uramiz.

— Bilasan-ku, ichmayman.

— Bo'lmasa, biznikiga ketdik. Bitta yaxshi qo'lbola osh qildiraman.

— Qo'ysang-chi, kerakmas. — Shohrux indamay aftini burishtirdi.

«Isfan... Zabarjadni rostdan yaxshi ko'rarmikin? Yaxshi ko'rsa nega bu haqda hech gapirmaydi? Yo Zabarjadni yaxshi ko'rishimni bilgani uchun indamaydimi? Ayol kishi uchun ajralib ketgan do'stlar qancha! Erkak odam ayolni qizg'angan-chalik boshqa hech narsani qizg'anmaydi».

— Gulbadan bilan hali ham munosabatlaring yaxshimi? — dedi Shohrux Isfandiyorni ko'ngliga qo'l solish uchun.

— Ha. Yaxshi!

— Nega bo'lmasa, Klara Iskandarovna senga tashlanib qoldi. Qizi bilan munosabatlaring yaxshi bo'lsa, bunday qilmasdi-ku?

— Avvalgiday emas. Goh-goh ko'rishib turamiz-u, endi shunchaki uchrashayotganimiz ayon bo'lib qoldi shekilli. Balki bu haqda oyisiga aytgandir.

— Endi kim bilan yuribsan?

— Vaqti kelsa aytarman. Savdomiz pishmayroq turibdi. Qani uyga ketdikmi? Taksi...

Ular taksiga o'tirib, Isfandiyorlarnikiga yo'l olishdi.

Shohrux Isfandiyorlarnikiga kirgan zahoti, bo'g'iq ovozni eshitdi: — Hoy, kim, Isfan... senmisan?

— Ha, menman dada. O'rtog'im bilan keldim. Birga ishlaymiz. Ismi Shohrux.

Shohrux ovoz kelgan xonaga mo'raladi-yu, krovatda yotgan odamga ko'zi tushdi.

— E, o'g'lim kel. Bir qo'l, bir oyog'im ishlamay, shol bo'lib qolgan. Insultdan. O'zing yaxshimisan?

— Rahmat. Yuribmiz. Iloyo, sog'ayib keting.

— Bu darddan sog'ayganlar kam bo'ladi. Yotib qolganimga yetti yildan oshdi. Bu qayg'u-hasrat hech kimga tushmasin. Teatrda o'n besh yil yetakchi rejissyor sifatida ishladim. Bir kuni teatrga yangi rahbar keldi-yu, ikki-uch xatoyimni topib, oddiy rejissyorlikka tushirib qo'ydi. Teatr — men uchun dunyo markazi edi. Teatrsiz menga hayot yo'q edi. Qattiq tushkunlikka tushdim. Yotib ichdim. Chekdim. Ko'kragimni zaxga berib yotdim. G'am-hasrat ezib tashladi. Bosh ko'tarolmay qoldim. Ammo tortgan alamlarim holva ekan. Boshimga qon quyilib, insult bo'ldim. Bir oydan so'ng, meni yana yetakchi rejissyorlikka tayinlashganida, teatrga borolmadim.

Mana yetti yil bo'ldi. Endi bolajonlarimni to'yiga ham bosh bo'lolmayman. Odam bo'lib biror ma'rakaga qatnasholmayman. Shuning uchun boshingga biror kulfat tushganda, sabr qil, bardam bo'l, irodang mustahkam bo'lsin. Suyaging sinsa sin-sin-u, irodang sinmasin. Bo'lmasa, noshukur bandasini Xudo shu ko'yga solib qo'yarkan.

— Iloyo, sog'ayib keting. Menga hech narsa qilgani yo'q amaki. Ishlarim yaxshi.

— Ha. Ishlaring yaxshi. Menikidan sal yaxshi. Ko'zlaring aytib turibdi.

— Yo'g'-e. Qani bir duo qiling. Endi men boray.

Ular yana ozroq u yoq-bu yoqdan chaqchaqlashishdi-da, o'rinlaridan qo'zg'alishdi. Shohrux biroz o'zini o'nglagandi.



Shohrux uyga yarim kechasi kirib keldi. Oshxonada g'imirsib yarimta qotgan non va ochilmay qolgan konservani topdi. Qotgan nonni qisirlatib yer ekan, ushoqlari tomog'iga tiqilib qolgani uchun erinchoqlik sirtmoqlarini birma-bir yechib, choy qo'yishga majbur bo'ldi. Ammo konservani isitishga majoli yetmadi. Divanga cho'zilar ekan, doktorning ayanchli qiyofasi, ingranib aytgan gaplari xayolida minginchi bor jonlandi. «Uning yuziga nima surtilganini bilib bo'lmayapti. Shuning uchun zax olib ketish xavfi bor».

«Seni hech qachon tashlab qo‘ymayman, Zabarjad. Hech qachon xor bo‘lmaysan. Sen uchun jonimni ham ayamayman. Sen uchun so‘nggi chaqamni ham tikaman. Seni teatrga men olib keldim. Sen men tufayli hasadgo‘y ilonlarning zahriga yo‘liqding. Sen bir kunda teatr sahnasining porloq yulduziga aylanding. Sening bu g‘alabang qancha odamlarning yuragini kuydirib yubordi. Sen alam va nafrat qurboniga aylanding. Men seni sevaman va hech qachon xor qilib qo‘ymayman, Zabarjad. Sen mening qalbidagi olovsan. Sen ko‘zlarimning qarog‘isan, sen jonimning titrog‘isan, sen umrimning ardog‘idasan. Endi, bu teatrdagi seni sahnaga chiqazishmas ekan, meni ishdan haydar ekanlar, «Rodopis» degan kino ishlayman, sen malika obrazini yaratasan, seni noming butun olamga yoyiladi. Bu kinoni yaratish uchun men uyimni sotaman, televizorimni sotaman, kimga nimam kerak bo‘lsa, hammasini sotaman, seni davolayman, seni bu falokatlardan eson-omon olib chiqaman».



Shifoxona. Yuziga doka o‘ralgan Zabarjad boshini quyi egib o‘tiribdi. Qarshisida taskin beruvchi so‘z topolmay joni halak Shohrux.

— Qo‘ying, yig‘lamang Zabarjad. Hammasi yaxshi bo‘lib ketadi.

— Yo‘q, hammasi tugadi. Endi teatrga qayta bormayman.

— Hali, tuzalib ketasiz. Siz juda chiroylisiz.

— Chiroydan asar qolmadi. Endi nafaqat teatrdagi, ko‘chada ham yurolmayman.

— Sizing anketalaringizni Bollivudga jo‘natgandim, to tuzalguningizcha, javob kelsa ajab emas.

— Qo‘ying, ustimdan kulmang.

— Men sizni yaxshi ko‘raman.

— Siz ishingizni yaxshi ko‘rasiz. Sizing ishingizni bajarib turganim uchun ham, ko‘zingizga yaxshi ko‘rinardim. Endi hammasi ortda qoldi. Ertaga spektaklingizda Mohichehrami, Gulbadanmi o‘ynaydi. Muvaffaqiyat keltiradi. Shu bilan ular ham ko‘zingizga yaxshi ko‘rinadi. O‘shalardan birini yaxshi ko‘rib, yana andarmon bo‘lasiz. Meni yaxshi ko‘rganingiz,

xotiralarigizdagina qoladi. Endi meni umrim kadr ortida, dublyajlardagina o'tadi.

Aktyorning omadi — go'zalligidadir.

— Men sizni benihoya go'zal qalbingiz uchun yaxshi ko'raman.

Faqat tashqi go'zalligingizga qiziqqanimda, sizni bu qadar yaxshi ko'rmasdim. Nima, Mohichehra chiroyli emasmi? Gulbadan go'zal emasmi? Ularning ortidan halloslagan itday yugurganim yo'q-ku. Aktrisaning go'zalligi bu hammaniki. Sahnaning beshafqatligi shundaki, aktrisaning go'zalligidan hamma zavq oladi, hamma bahramand bo'ladi, hamma uni o'ziniki qilib oladi. Aktrisa ham bu bahramand bo'lguvchilardan husni-malohatini qizg'anmasligi shart. San'at — qurbonlik talab qilishining mohiyati — shu. Holbuki, men sizni yaxshi ko'rar ekanman, tashqi ko'rinishingizga emas, qalbingizgagina egalik qilishdan boshqa choram qolmaydi. Qalbingizgina mening bo'lsin deya olaman. Sizni hali-hanuz sevishimning isboti shuki, avval ham qalbingizni sevganman, hozir ham. Yuzingizga tushgan chandiq men uchun hech narsani o'zgartirolmaydi.

— Siz yaxshi ko'rish deganda nimani tushunasiz? Axir, dunyoda yaxshi ko'rishdan-da balandroq tuyg'ular borku? — dedi Zabarjad xomush tortib.

— Uylanish haqida gap ochishimni istayapsizmi? Hali, bu haqda gapirishga erta. Chunki hali meni yaxshi ko'rishingizni bilmayman. Men hali sizdan hech qanday mehr ko'rmadim. Siz menga bir umr vafodor bo'lishingizga ham ko'zim yetmaydi. Sizdan o'zimga tegishli biror iliq so'z ham eshitganim yo'q. Oila qurishimiz uchun faqat mening yaxshi ko'rishim kamlik qiladi.

— Men teatrni tashlab, butunlay qishloqqa ketmoqchiman. Balki aktrisalikni ham tashlab yuborarman. O'qituvchi bo'lib ishlayman. — U bu so'zlarni Shohruxni ko'zlariga tik qarab aytdi.

— Nega? Bir hafta-o'n kundan keyin mutlaqo tuzalib ketasiz. Chandiqning o'rni qolmaydi. Hech narsa ko'rmaganday bo'lib qolasiz, — Shohrux uning ikkala qo'lini mahkam ushlab turardi.

— Lekin men ketsam ham, jo‘n ketmayman. Avvalo bu ishni kim qilganini topaman. Undan o‘ch olaman. Keyin butunlay ketaman. Siz bilan ham boshqa ko‘rishish niyatim yo‘q.

— Birinchidan, bu ishni kim qilganini bilish juda qiyin. Sizning xonangizni kaliti farroshda bor, rahbarda bor. Sizdan avval turgan aktyorlarda ham bo‘lishi mumkin. Ularning qaysidir biri bu kislotani upadonga kechasi quyib ketgan. Ikkinchidan, teatrdan ketishingiz burgaga achchiq qilib, ko‘rpani yoqish bilan barobar bo‘ladi. Uchinchidan, men bilan boshqa uchrashmaslik niyatingiz borligi, nima, meni jazo-lashmi? — Qaysi aybim uchun?

— Sizni ayblayotganim yo‘q. Endi men bu holatimdan keyin sizga noloyiq bo‘lib qoldim. Men sizdan ketmasam, baribir bir kunmas bir kun siz mendan ketasiz.

— Sizdan ketmasligimni isboti sifatida istaysizmi, men ham xuddi shunday kislotani yuzimga suraman.

— Xalqimizda «Xashakdan hasham bichma, yolg‘ondan qasam ichma» degan naql bor.

— Demak, Siz rozisiz? — Shohrux Zabarjadning qo‘lini bir siltab qo‘yib yubordi-da, xonada zarda bilan kezina bosh-ladi. U nimanidir axtarayotganday edi. Uning shashti shu qadar baland edi-ki, hozir qo‘liga zahar tushsa, ichib yuborishga ham tayyor edi.

— Men sizga gard yuqishini istamayman. Agar men uchun shunday qiladigan bo‘lsangiz, sizni bir umr kechirmasligim aniq.

— Bo‘lmasa, teatrdan ketish fikridan qayting. O‘tgan ish o‘tdi. Kavlashtraverishning keragi yo‘q. Dushman baribir topilmaydi. Topilganda ham u sizga do‘st bo‘lib qolmaydi. Mabodo topilsa, u sizga ochiq dushmanga aylanadi.

— Agar, topmasam, u bu ishni yana takrorlashi mumkin. Balki unisi bundan ham ayanchliroq bo‘lib chiqar.

— Bilib qo‘ying, dushmanni topaman deb, do‘stlarni yo‘qotib qo‘yishingiz mumkin.

— Do‘stingiz Isfandiyor uylanish haqida ancha vaqtdan buyon meni qistovga olib yurgandi.

— Voh, yaramas!



— Esingizda bo'lsa, bizni u tanishtirgandi. U bu gaplarni bizni tanishtirmasdan oldin aytgan.

— Siz nima dedingiz?

— O'ylab ko'raman.

— Aslo unday qilmang!

— Nega?

— Negaki, u sizni sevmaydi.

— Sevishini sizni oldingizda aytmagani uchun ishonmayapsiz shekilli.

— Zabarjad, u spektakl qo'yayapti. Axir u Fir'avn Morenra emas, Isfandiyor-ku.

— U o'z so'zlari bilan: «Rozi bo'ling, Sizga uylanaman» — degandi.

— Zabarjad, rozi bo'lmang, yolg'onchi u. Siz meni sevasizku, u bilan qanday yashaysiz.

— Sizni yaxshi ko'rishimni qayerdan bilasiz?

— Ko'zlaringiz aytib turibdi, Zabarjad.

— Endi keting, gaplarimiz tugagan ko'rinadi. Odamlar kelib qolishi mumkin.

— Hali bekitiqcha ishni pishitib yuribsizmi?

— Ayol kishi hamisha sirli bo'lishi kerak.

— Undan boshqasi ham bormi?

— Ha, yana bir kishi taklif qilib yuribdi. — Zabarjad ikkinchi xotinlikka ma'nosida ikki barmog'ini ko'rsatdi.

— Bu gaplarni menga aytishga uyalmaysizmi?

— Bu gaplarni sizdan yashirish uyat! Endi keting.

— Ha, ketaman. Indamasam butun shaharni aytib chiqasiz shekilli.

— Ha, butun shahar menga oshiq!

— Jinni bo'psiz. Topganingizga tegib ketavering.

Shohrux o'rnidan turdi-da, shifoxona eshigini taraqlatib chiqib ketdi. Zabarjad chuqur xo'rsindi.



Teatrda spektaklni yana qo'yish-qo'ymaslik borasida qizg'in munozaralar ketardi. Sarvar Samandarovich bu xususda Zabarjadning fikrini bilish uchun yo'li tushganda shifoxonaga keldi.

— Sarvar aka, sizdan bir narsani iltimos qilsam maylimi?
Yana biror hafta kutishning iloji bormi?

— Nega? Axir hamma bu yerdan tezroq chiqsam deb, harakat qiladi-ku?

— Qani, biroz kutaylik-chi, axir ularning ham haqiqiy basharasi bordir.

— Aktyorlik qilmoqchimisiz?

— Ha, men aktyorligimga borib, hayotda ham rol o'ynayman.

Endi... ular meni qo'g'irchoqni o'ynatganday o'ynashlariga yo'l qo'yolmayman. Ular tuyg'ularimning ustidan kulishdi, ular o'y-xayollarim ustidan hukmronlik qilishdi. Endi atrofimdagi hayot nimadan iboratligini ko'rmoqchiman.

— Spektakl rejada turibdi. Uni to'xtatolmayman. Balki o'rningizga birov o'ynar.

— O'zingiz bilasiz. Hozir mening yuragimda ham, xuddi yuzimdagi singari jarohat bor. Menda kimning bu qadar xusumati borligini bilmasam bo'lmaydi.

— O'zingizni qiynamang, Zabarjad. Baribir hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi.

— Men ko'zimni yumib yasholmayman. Agar ko'zim mana shunday yumuq yuraversa, yana bir kun chohga tushib ketishim mumkin.

— Bu dunyoda ayblanmagan, adashmagan, chohga yiqilib, yurak bag'ri qon, abgor bo'lmagan odam bormi?

— Men sahnadagina ssenariyda yozilganini o'ynashga majburman. Hayotda emas.

— Hayotda ham... Xudo peshonangizga yozganini o'ynaysiz.

— Xudo mening peshonamni bir qarich yaltiroq qilib yaratgan. Nima yomonlik ko'rsam, bu — o'zimdan, nima yaxshilik ko'rsam, bu — Xudodan. Men Xudoga ishonaman.



Bir kun Sarvar Samandarovich Shohruxni chaqirib, ishdan haydamligini aytdi. Gap orasida «Rodopis» spektaklini ham onda-sonda qo'yib turishi mumkinligini uqtirdi. Bosh rolga Mohichehrani tavsiya qildi. Shohrux Sarvar Samandarovichning

tavsiyasini rad qildi. Bosh rolda faqat Zabarjad Zokirova o'ynaydi, dedi. Teatr rahbari Zabarjadning nomini eshitib, tortishib o'tirmadi. O'zing bilasan, dedi. Lekin ishxonadagi bu yengillik Shohruxning kayfiyatini ko'tarolmadi. U Zabarjad bilan arazlashib qolganidan so'ng, Zabarjadning telefon qilishini kutardi. O'zi telefon qilishga, shifoxonaga borishga g'ururi yo'l qo'ymas, yalinib borishga istihola qilar, shifoxona atrofini aylanib-aylanib ketar, to'satdan uchrashib qolsak qanday yaxshi bo'lardi deb orzu qilardi.

Qo'l telefoni ham tunu kun yoniq turar, Zabarjad telefon qilib qolarmikin deya, jiringlamasa ham bot-bot qarardi. Goh-goh uning mendan boshqa oshiqlari ham bor deya gumonsirar, bu shubha jahlini chiqarar, shifoxona skameykalarida o'tirgan shunday kezlar o'rnidan turib, ketib qolardi. O'ziga kelgan kezlar xayolan Zabarjadga o'z shartlarini aytardi: «Senga uylanganimdan keyin, mendan boshqa hech kim bilan gaplashmaysan. Menga alohida vaqt ajratasan. Menga g'amxo'rlik qilasan. Mehringni ayamaysan. Menga o'g'illar tug'ib berasan.

Faqat meniki bo'lasan. Faqat meni deysan. Faqat men bilan gaplashasan. Ko'zlaringni olib qochmaysan. Shirin gaplaringni ayamaysan. Husningga to'ygunimcha yonimda o'tirasan. Bir joyga borsang, so'rab borasan. Yo'q, yaxshisi faqat men bilan borasan. Faqat meni spektakllarimdagina o'ynaysan. Faqat ijobiy rollarda o'ynaysan. Meni qiynamaysan. Gap qaytarmaysan. Men nima desam ma'qullaysan va hokazo va hokazo».

Bir kuni uni qattiq sog'inganida tush ko'rdi. Tushida uning xarxashalari, injiqliklari achchiq-tiziq gaplari, inkorlari, kam-sitishlari, o'zini katta olishlari, mensimasliklari hamma-hammasini unutib, bosh egib borgan emish. Uning xonasiga kirishga yuragi betlamay, tashqaridan turib, birovdan aytirib yuborgan emish.

- Keling! — debdi Zabarjad jiddiy.
- Keldim. O'tgan safar kelganimda, sotovoyimni g'ilofi tushib qolibdi. Shuni olib ketmoqchiydim.
- Hech qanaqa g'ilof qolgani yo'q.
- Boshqatdan bir izlab ko'ring, balki qolgandir.
- Besh tiyinga unaqa g'ilofdan beshtasini beradi.

— Menga kim besh tiyinni beradi. Ko‘chada yotgan bo‘lsa aying, borib olay, olib beradigan oshiqlarim bo‘lmasa.

— Ajab bo‘pti.

— Betingizni oching, bir ko‘ray.

— Siz menga kimsiz, betimni ko‘radigan...

— Sizni yaxshi ko‘raman!

— Siz yaxshi ko‘radigan betim kuyib qolgan.

— Sizga uylanaman.

— Nima-a?!

— Men oxiri shu qarorga keldim.

— Qarorga kelishdan oldin men bilan maslahatlashdingizmi?! Men rozi bo‘lamanmi, yo‘qmi? Meni shartlarimni bajarasizmi? Hali sizni yaxshi ko‘rishim uchun tayyormisiz. Birinchidan, nima desam xo‘p deyishingiz kerak. Doim gapimni ma‘qullashingiz kerak. Gap qaytarmasligingiz kerak. Meni qiynamasligingiz kerak. Men ota-onamning erka farzandiman. Ular doimo men bilan maslahatlashishgan. Siz ham shunday bo‘lishingiz kerak. Menga doimo vaqt ajratishingiz kerak. Mehringizni ayamasligingiz kerak.

— Bo‘ldi, o‘chir ovozingni...

Zabarjad Shohruxning baqirig‘idan hayratlanib, ko‘zlari katta-katta ochilib ketdi.

Esankirab qolgan Zabarjadni quchoqlab, lablaridan qattiq o‘pa boshladi. U Shohruxni do‘pposlay ketdi. Ancha vaqt do‘pposlab turdi-da, Shohrux qo‘yib yubormagach, jimib qoldi.



Teatrdagi hayot yana o‘z izmiga tushib ketgandi. Sarvar Samandarovich yana «Rodopis» spektakli qo‘yilishi haqida topshiriq bergach, aktyorlar g‘imirlab qolishdi. Rodopis rovida Mohichehra o‘ynaydigan bo‘ldi. Qizg‘in repetitsiyalar davri boshlandi. Zabarjad haqidagi shov-shuvlar, mishmishlar chetga surildi. Shohrux ham hammasini unutayotganday edi. Aktyorlar bilan spektakl haqida munozaralar yuritar, avvalgi dovrug‘i so‘nmasligi uchun jon-jahdi bilan harakat qilardi. Hatto bir kuni Mohichehra bilan sahna ortida gaplashib turishganida,



ariza yozish uchun teatrga kelgan Zabarjadni ko‘rib salom berdi-yu, Mohichehraga qarab yana gapini davom ettiraverdi. Ularning oldidan tez-tez yurib o‘tib ketgan Zabarjad alam va iztirob alangasida qoldi. Sarvar Samandarovichning qabuliga kirish uchun biroz poyladi-da, kutishga ortiqcha toqati yetmay qabulxonadan chiqib ketdi. Qo‘lidagi arizasini esa yirtib tashladi. So‘ngra teatr sahnasi tomon yurib ketdi.



Teatrd aynan «Rodopis» spektaklining repetitsiyasi bo‘layotgandi. Har bir xatti-harakati, har bir so‘zi o‘ziga tanish bo‘lgan manzarani ko‘rib eti jimirlab ketdi. Teatr katta dargoh edi. U bo‘lmasa ham teatr hech narsa yo‘qotmasdi, o‘z izmida ketaverardi. «Men bo‘lmasam, teatr hayoti to‘xtab qoladi» — degan odam yanglishardi. Nafaqat Zabarjad, nafaqat Shohrux, hatto Sarvar Samandarovich bo‘lmasa ham teatr hayoti o‘z izmida, bir maromda ketaverardi.

Lekin Zabarjadning yuragida spektaklni sahnalashtirishga izn bergan Sarvar Samandarovichga nisbatan ham va ayniqsa, bu spektaklni sen uchun, ha faqat sen uchun sahnalashtiraman, degan Shohruxga nisbatan ham nafrati qo‘zib ketdi. Ularning har ikkisi ham ko‘ziga aldoqchi va xiyonatkor bo‘lib ko‘rindi. Ular bugun teatrd aldasha, ertaga hayotda aldashadi...

Zabarjad mana shunday alamli o‘ylar iskanjasida u yoqdan bu yoqqa yurarkan, go‘yo hech narsa bo‘lmaganday, go‘yo hamma o‘tgan ishlarga qo‘l siltab parvo qilmayotganday tutardi o‘zini. U uzoqda turgan Shohruxga bosh siltab, salom berdi-yu, Isfandiyor bilan uzoq so‘rashib ketdi.

— Qanday, yaxshimisiz Zabarjad...

— Yaxshi, rahmat. Tabriklayman. Gulbadanga uylanmoqchi ekanligingizni eshitdim.

— Ha. Sizga tishimiz o‘tmagandan keyin, nima qilaylik, qo‘ling yetgan shoxning shaftolisi shirin, deyishadi-ku.

— Yo‘q, yo‘q hech narsa deyaotganim yo‘q. Taslimman. Mana ikki qo‘limni ham ko‘tardim. Qizil gul ekkanning xirmoni bo‘lmas, yaxshini suyganning armoni bo‘lmas.

— Aytayapman-u, bo‘yi past odamning baland dorga osilishining hech hojati yo‘q. Biz kichkina odam bo‘lsak. Siz teatrdan birinchi darajali yulduz.

— Siz ham birinchi darajali bo‘lmaganingizda shoh rolini o‘ynarmidingiz.

— Yo‘q, men uzoq o‘ylab ko‘rdim. Men tabiatan ikkinchi darajali odam ekanman. Sizga qaraganimda ko‘zim qamashib, oyog‘im qaltirab ketaveradi. Shundan keyin bildimki, o‘zimbop qizga uylansam tuzuk ekan. Siz esa olovsiz, sizni temir qo‘llar ushlab turmasa, uncha-muncha qo‘llarni kuydirib yuborasiz.

— Qo‘ysangiz-chi. Keling, yoqangizni to‘g‘rilab qo‘yay.

Isfandiyor shohona kiyimda edi. Zabarjad uning kiyimlarini to‘g‘rilay boshladi. Uning Isfandiyor bilan juda iliq va xushchaqchaq gaplashib turganini ko‘rgan va betoqat bo‘lib, u yoqdan bu yoqqa borib kelayotgan Shohruxning alami bo‘g‘ziga tiqildi va joni chiqib ketar darajada o‘zini tutolmay qoldi. «Men uni teatrga olib keldim. Uni malika qiyofasida elga tanitdim. Uni mashhur qildim. Uni jonimdan ortiq sevdim. Kecha-yu kunduz faqat uni o‘ylab, uning uchun yashadim. Uning uchun ishdan haydalisimga oz qoldi. Uning uchun uyimni sotishimga oz qoldi. Bugun ham hamma ishlarimni yig‘ishtirib qo‘yib, dardi-xayolim faqat u bo‘lsa-yu, nega u yonimga kelib, salomlashishni ham o‘ziga ep ko‘rmayapti. Nega men unga xuddi begonadayman. Isfandiyordan nima ko‘rdi. Nega u bilan hiringlashib turibdi. Nahotki men shunchalik ahmoq bo‘lsam. Shunchalik fidoyiligim evaziga zar-racha e‘tibor topmasam. Nega, nega? Nega u meni bunchalik xo‘rlayapti. Nega, nega?»

Shohrux shaxd bilan ular gaplashib turgan joyga bordi-da, jahl aralash:

— Zabarjad, bir lahzaga mumkinmi, sizda gapim bor, — dedi.

— Yo‘q, hozir bandman. Ko‘rayapsiz-ku, gaplashib turibman.

Shohrux g‘azabini bosolmay, Zabarjadni qo‘lidan ushlab, sudray boshladi.

— Torting qo‘lingizni... — Zabarjad qo‘lini tortib olib ohularday chaqqon harakat bilan sahnadagi taxtning ustiga sakrab chiqdi. Shu topda, «Rodopis» spektaklini qo‘ygani va unda Mohichehra o‘ynagani uchun Shohruxni ko‘rarga ko‘zi, otarga o‘qi yo‘q edi. Buni hamma tushunib turardi.

O‘rtadagi vaziyatni yumshatish uchun gapga Isfandiyor aralashdi.

— Qo‘ysanglar-chi... Nega buncha janjal. O‘zingni bos, Shohrux.

— Sen jim tur. Hozir shu qilich bilan qorningni yoraman.

Shohrux shoh kiyimidagi Isfandiyorning belidagi qilichni shartta qinidan chiqardi: — Yo‘qol, ko‘zimdan.

— O‘zingni bos. Shohga qo‘l ko‘tarishga qanday hadding sig‘di...

— Hozir hazilning paytimas... Hayot sen uchun hazildan iborat bo‘lishi mumkin. Lekin men o‘z taqdirimga maynavozchilik bilan qarolmayman.

— Yaxshi yor yoddan chiqmas deng. Zabarjadni ko‘rib, hayajonlaringiz yangidan jo‘sh urib ketdimi... — dedi boyadan beri vaziyatni kuzatib turgan vazir qiyofasidagi Botir Boltayev. — Buning uchun sahnada janjal ko‘tarish shart emasdi...

— Sen o‘chir ovozingni... senga tegishli gap yo‘q bu yerda.

— Ha, u shu yerda janjal ko‘tarmasa bo‘lmaydi. Axir hammani oldida o‘zini oqlashi, o‘zini oppoq qilib ko‘rsatishi kerak-ku. Go‘yo hamma qora, u oppoq. Go‘yo u spektaklni qo‘ymoqchi emasdi, hamma majburladi. U Zabarjadga mana shuni tushuntirmoqchi — dedi Klara Iskandarovna. — Lekin shuni bilingki, agar siz istamaganingizda spektakl qo‘yilmasdi.

— O‘chiring ovozingizni... Menga dallolning keragi yo‘q.

— Bor gap shu. Agar haqiqatni berkitib, janjal-to‘polon, lo‘lilik bilan yengib chiqaman desangiz, marhamat, janjal ko‘taravering: Qo‘tir tana qo‘ra bulg‘ar.

— Men emas, siz va sizga o‘xshaganlar Badiiy Kengashda spektaklni sahnadan olib tashlashgan. Zabarjad yo‘qligida uni sahnaga qaytargan ham siz va sizga o‘xshaganlar.

— Nimani nazarda tutayapsiz, Shohrux Sultonov, — dedi sahnaga kirib kelgan Sarvar Samandarovich. — Nima gap o‘zi, bu nima to‘polon?

— Men, umuman hech narsani muhokama qilmoqchi emasman. Sizlarga aytadigan gapim ham yo‘q. Men faqat Zabarjad bilan gaplashib olmoqchiman.

— Meni siz bilan gaplashadigan gapim yo‘q.

— Men hozir bu yerdan indamay chiqib ketishim mumkin. Lekin sizga aytadigan bir og‘iz so‘zim bor, o‘ng qulog‘ingiz bilan ham, chap qulog‘ingiz bilan ham eshitib oling: Men sizni yaxshi ko‘raman.

— Yolg‘on. Siz o‘zingizni yaxshi ko‘rasiz. Spektaklni ham o‘zingiz uchun qo‘ydingiz. Agar u men uchun bo‘lganda, meni rostdan yaxshi ko‘rganingizda, hech qachon Mohichehrani chaqirmasdingiz.

— Qo‘yinglar, bitta rol uchun talashmanglar, shaxsiy munosabatlarni aralashtirmanglar, — dedi Sarvar Samandarovich. — Zabarjad, qani yuring, xonamga kiraylik.

— Zabarjad, agar hozir, men bilan ketmaydigan bo‘lsang, sendan mutlaqo yuz o‘giraman. Sen bilan boshqa hech qachon ko‘rishmayman.

— Menga shart qo‘yishga haqqingiz yo‘q. — Zabarjad ters o‘girilib, Sarvar Samandarovichning ortidan keta boshladi.

Klara Iskandarovna piq etib, kulib qo‘ydi:

— Lo‘lining chirimdasi yorilsa, gardishi maymunga o‘yinchoq bo‘larkan, — dedi u istehzo bilan Zabarjadning ortidan.

Shohrux, alam va nafrat bilan qo‘lidagi qilichni yasama taxtga urib, taxtni qoq ikkiga bo‘lib yubordi. Isfandiyorning boshidagi tojni olib, yerga uloqtirdi. So‘ngra nayzani g‘azab bilan unga sanchdi.



Spektakl avvalgidek gavjum bo‘lmasa-da, har qalay ancha odam to‘plandi. Birovlar unga avvalgi dovrug‘i tufayli kelgan bo‘lsa, birovlar yangi ko‘rinishi qanday ekan deb, ba‘zilar esa, qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar kelgandi.

Dimog‘i chog‘ Mohichehra spektakldan so‘ng Shohruxni uyiga taklif qildi. Shohrux gapni cho‘zib o‘tirmadi. Unga ergashib yo‘lga tushdi.

— Qanday yaxshi bo‘ldi. Bir kunda butun O‘zbekiston ahliga tanildim. Nihoyat talantim yuzaga chiqdi, — Mohichehra tinmay gapirib borardi. — Odamlarning qarsagini aytmysizmi? Yigitlarning qanchasi telefon nomerlarini berishdi. Umrim bino bo‘lib buncha gul olmagandim.

— Siz haqiqatan ham chiroylisiz, Mohichehra. Bu talantingiz bilan juda katta rejissyorlar bilan ishlashga loyiqsiz, — Shohrux Mohichehrraga xuddi bugun tanishayotganday hayratlanib qarardi.

— Nahotki shu gaplarimga ishonadi deb o‘ylasangiz?

— Ishonasiz. Siz o‘zingizni go‘zalligingizni ham bilasiz.

— Yo‘q-yo‘q. Siz bu gaplarni Zabarjadga ayting. Uni ko‘rib telba bo‘lib yurganlaringiz esimda. Mana shu spektaklni ham aslida Zabarjad uchun qo‘ydingiz.

— Qo‘ying, u bilan ish bo‘yicha gaplashardim. Oramizda hech qanday jiddiy gap bo‘lmagan.

— Agar Zabarjadni yuzi kuyib qolmaganda, u bugun ham shu spektaklda o‘ynardi.

— Yo‘q. Bosh rolda u o‘ynagani uchun spektakl Badiiy Kengashdan o‘tmadi. Spektakl mana endi o‘zining bosh qahramonini topdi.

— Agar meni ham yuzim o‘shanday chandiq bo‘lib qolsa, mendan voz kechib ketmaysizmi?

— Yo‘q.

— Agar sizni menga qaytishingiz uchun, o‘sha ishni men qilgandim desam-chi?

— Bo‘lishi mumkin emas.

— Bo‘lishi mumkin. O‘sha ishni men qilganman. Bo‘lmasa bugun siz mening yonimda bo‘lmasdingiz. Lekin yonimdan ketmasligingiz uchun o‘zimning yuzimni ham o‘shanday kuydirishga tayyorman.

— Qo‘ying, kerakmas. — Shohrux hayratdan dong qotib qolgandi. — Balki hazillashayotgandirsiz.

— Yo‘q, bu hazil emas. — Mohichehra to‘xtab Shohruxni ko‘zlariga tik boqdi — Men sizni yaxshi ko‘raman.

— Qasam iching.

Mohichehra sumkachasidan kichkina shisha idishni oldi:

— Xohlasangiz, nafaqat yuzimga surtishim, ichishim ham mumkin.

— Qani iching-chi?

Mohichehra qo‘lida shisha bilan biroz ikkilanib turdi. U nima qilishni bilmasdi. Shishani Shohruxni yuziga otishni ham, yoki uni ichishni ham bilmasdi.

Mohichehra qo‘lida kislota shishasini stol o‘rtasiga qo‘ydi.

— Xo‘p, mayli. Lekin mening ham bir shartim bor.

Men sizni yaxshi ko‘rishimni bilasiz. Lekin qiz bolaning yaxshi ko‘rishi hech qanaqa ahamiyatga ega emasligini, u hatto yaxshi ko‘rishini ham ochiq aytolmasligini ham bilasiz. Lekin men bugun sizga bu gapni ochiq aytmoqchiman: Men sizni yaxshi ko‘raman. Bu bugun yoki kecha paydo bo‘lgan gap emas. Bu siz bilan birinchi bor uchrashganimizdan beri bor gap. Va o‘ylaymanki, u mening so‘nggi nafasimgacha davom etadi.

Mohichehra shishani qo‘lga olib gapni davom etdi. Uning vajohati, sevgi izhor qilayotgan kishidan ko‘ra alamzada odamning asabiy, ko‘ngil faryodlarini eslatardi:

— Aytingchi, siz kimni sevasiz?

Shohrux Mohichehraning titrayotgan qo‘lidagi shishaga tikilib turardi. Hozir u Zabarjadning nomini atashi bilan, bu kislota yuziga sepilishini sezib, yuragida vahima o‘rimalardi. Nihoyat, jim turishga toqati yetmay gap boshladi:

— Mohichehra, balki teatrda aktyor sevishganlar qiyofasini yarata olishi mumkindir, lekin qalbida sevgini yarata olmaydi. Inson o‘z qalbiga mana shu odamni sevgin deb buyruq bera olmaydi. Inson hali bironta tirik jonzotni yarata olmagan kabi muhabbatni ham o‘z qo‘li bilan yarata olmagan. Kishiga haqiqiy muhabbatni ham Xudo beradi. U kishi yuragiga olov bo‘lib keladi va olov bo‘lib bir umr yurakda yashaydi. Men Zabarjadni mana shunday muhabbat bilan sevaman va bir umr unga fido bo‘lib yashayman. Seni hech qachon sevmaganman va hozir senga yolg‘on ham gapira olmayman.

Mohichehra qo'lidagi shishani baland ko'tardi.

— Essiz, xor bo'lgan umrim, xor bo'lgan yoshligim, xor bo'lgan tuyg'ularim, iztiroblarim, orzularim. Men bir kunmas bir kun baribir menga qaytasiz, deb o'ylagandim. Afsuski, siz makkor, toshbag'ir va qaysar bo'lib chiqdingiz. Endi siz bilan bizning oramizdagi munosabatlarga so'nggi nuqta qo'yiladigan payt keldi. Siz bu o'yinda g'olib chiqdingiz. Lekin men ham mag'lub bo'lganim yo'q. Men bu hodisaga shunchaki befarq qarolmayman. Yashasin qasoskor va bevafo hayot! Yashasin, ichganing sari zahri to'ydirmaydigan muhabbat! Men ushbu zaharni sizlarning orangizdagi buyuk muhabbat uchun ichaman!

Shohrux Mohichehra kislotani uning ustiga sepib yuborsa kerak, deb jon hovuchlab turgandi, biroq o'z og'ziga olib borayotganini ko'rib, esankirab qoldi va bir zumda uning qo'liga otildi. Kislotani Mohichehraning bo'yniga, kiyimlariga, Shohruxning qo'liga sachradi. Kislotani tekkan yerlar bir zumda jizg'anak qilib kuydira boshladi. Shohrux dod solib uning bo'yinlarini, iyagini artishga shoshildi.

Shohrux Mohichehraning hamma kiyimlarini yechib tashladi. U qip-yalang'och bo'lib qoldi. Shohrux uning oppoq siynalariga qararkan, nima qilishini bilmay, tek turib qoldi. Mohichehra kulib, uning istiqboliga peshvoz chiqa boshladi va qo'llarini uning bo'yniga qo'yib, tamanno bilan jilmaydi.

Shohrux sekin ortga o'girilarkan: — Meni kechir — dedi va xonadan chiqib keta boshladi. U o'zini qo'lga olish, ehtiros-larini jilovlash uchun lablarini shu qadar qattiq tishlaganidan, og'zining bir chetidan qon sizib chiqa boshladi.



Zabarjad qishloqqa ketish uchun hamma kiyim-kechak-larini yig'ishtira boshladi. Ijara haqini to'ladi. Teatr jamoasi bilan xayrlashishga borgandi, lekin ketishi haqida hech kimga hech narsa deya olmadi. Teatr bir daryo misoli o'z o'rnida sokinlik bilan to'lib-toshib oqib yotardi. Zabarjad undagi bir baliqcha kabi yuzadan qaraganda bor-yo'qligi ham bilinmasdi. Mana shu narsa, uni «Men teatrdan ketayapman» deyishga yo'l qo'ymadi. Ketsa, nima o'zgarardi. Unga kim «ketma» deyardi.

«Ketma» degani bilan, unga kim ketmasligi mumkinligini tushuntirib bera oladi. Tushuntirgani bilan, tushunishga arzirli narsa topilarmikan? Zabarjad Shohruxni o‘yladi. Teatrda Shohrux bo‘lmaganida ham qolishi mumkin edi. U Shohruxga qasdma-qasd ketishga shaylandi. Axir Shohrux emasmi uni ko‘kka ko‘targan, uning muhabbatini qozongan, uning yuragiga iztirob va shijoat solgan va oxir-oqibatda, muhabbat cho‘q-qisidan tashlab yuborgan. Mana, bu teatrdan abgor va mag‘lub ketar ekan, ko‘z tikkan, ishongan va sevgan bir odamning oldiga borib, yana o‘zining mag‘lubiyati haqida gapirolmasdi.

Isfandiyor esa bu holatdan mustasno edi. U Shohrux bilan tanishishga, demakki teatrga kelishiga sabab bo‘lgan. Isfandiyor bilan xayrlashmay keta olmasdi.

Isfandiyor oqshomga yaqin keldi.

— Nima bo‘ldi?

— Uyga qaytmoqchiman. Mabodo bitta-yarimta mard chiqib qoladigan bo‘lsa erga tegib, oila qurmoqchiman.

— Teatr nima bo‘ladi? Axir shu sohada besh yil o‘qiding, diplom nima bo‘ladi? Diplomni ham qo‘ya turaylik, axir aktrisa bo‘lish bir umrlik orzuig edi-ku, orzularing nima bo‘ladi. Nahot hayotingni butunlay o‘zgartirmoqchi bo‘lsang?!

— Men qattiq adashgan ekanman. Men san‘at sohasiga go‘zallikni, mehr-muhabbatni, fidoyilikni, insondagi barcha buyukliklarni targ‘ib qilish uchun kirib kelgandim. Lekin afsuski, men san‘atkorlar orasida faqat razolatga, xiyonatga duch keldim. Men avvalo insonlardagi buyukliklarni o‘z boshimdan kechirib, uni keyinchalik sahnaga olib chiqmoqchi edim. Men sahnada yolg‘ondan o‘ynolmayman. O‘zim baxtni ko‘rmay, yolg‘ondan baxtiyor qiyofasida chiqolmayman. O‘zim sevilmay sevishgan yor qiyofasida chiqolmayman. Xiyonatkor, qasamxo‘r, yolg‘onchi odam bo‘la turib, halollik, rostgo‘ylik, mardlik haqida gapirolmayman. Men teatrdan razolatning hamma turini ko‘rdim. Sizlarning oldingizda qolsam, ertaga Xudoning oldida javob berishga qo‘rqaman. Bu botqoqda cho‘kishga ortiqcha toqatim yo‘q.

— Ketsang ketaver. Bilib qo‘y, teatr ham changalzor qonuniga bo‘ysunadi. Unda faqat kuchlilar g‘olib chiqadi. Ayyor

bo'lasanmi, ablah bo'lasanmi, mard bo'lasanmi, har qanday qiyofaga kirishngdan qat'iy nazar, yashab ketolsang kuchlisan va bir kuni marraga yetasan. Senga o'xshagan ojizlar, yig'loqilar, hardamxayollar, nima qilishini aniq bilmaydiganlar, o'z maqsadi yo'lida ayovsiz kurashishni bilmaydiganlar o'z-o'zidan bu chig'iriqdan chiqib ketadilar. Teatrdan ketishing bu sening mardliging emas, zaifligingdandir.

— Bu javob, sizning o'z yuragingizdan chiqqan javob emas. Sizda yurakning o'zi yo'q. Sizning yuragingiz mana shu jamoaga allaqachon kushanda bo'lib bo'lgan. Siz endi jamoaning umumiy yuragi bilan yashayapsiz. Sizning mardlik haqidagi tushunchangiz ham boshqa. Insoniylik tushunchasini ham, bu boshqalarga o'rgatiladigan tushuncha deb qabul qilgansiz. Siz, hatto muhabbatni ham kitoblardagi narsa deb qabul qilgansiz va o'zingiz hayotda hech kimni sevishga intilmagansiz, sizni sevganlarni ham tushunmagansiz. Shuning uchun mening savollarimga ham sizda hech qanday javob yo'q. Javobingiz faqat inkor etish, kamsitishdan iborat.

— Har kimning go'ri boshqa-boshqa. Men nimaiki qilgan bo'lsam o'zim javob beraman. Boshqalar ham shunday.

— Siz ham, boshqalar ham bir kun javob berishni unutib qo'ygansizlar. Tashqarida ko'rgan odam sizni mashhur odam deydi. Havas qiladi, lekin o'z hayotingizda qilayotgan ishlarni bir kunmas bir kun bilib qolsa, eng yaramas odam ham bu qadar tuban bo'lmasligini ko'rib yoqa ushlaydi.

— Sen bunday xayollar bilan bizning oramizda yasholmaysan. To'g'ri o'ylabsan, bitta-yarimtasi seni o'ldirib qo'ymasidan bu yerdan ketganing ma'qul. Er top, oila qur, bola-chaqa o'stir. Senga eng yaxshi yo'l — shu.

Xayr, men ham ketdim. Yaxshi qol.

— Xayr.

Isfandiyor ters burildi-da, o'girilmay xonadan shahd bilan chiqib ketdi.



Bir kun, yoz kunlarining birida, kechki salqin tushgan payt Sarvar Samandarovich xotini, o'g'lini olib, Bo'zsvuning ovloq

bir go'shasiga cho'milishga bordi. U paytlar o'g'li endigina ikki-uch yoshlar chamasi, Sarvar Samandarovich ham hali yosh edi. Xotini va o'g'li sohil bo'yida dasturxon tuzashga qoldi. Sarvar Samandarovich esa o'zini suvga otdi. Yaxshi suzishni bilmasa-da, Bo'zsvuning keng, buralib oqadigan joyiga borib qoldi. Suv o'rtasiga yetganida, ortga qaytishni ham, oldinga ketishni ham bilmay, esankiradi, so'ngra, «cho'kib ketsam-a» degan fikr xayolidan o'tib, ortga qaytmoqchi bo'ldi. Lekin, negadir, ortga qaytishni istagan sari, suv oqimi uni o'rtaga tortardi. Sarvar kuchi boricha intilib, ortga oshiqdi va bir necha soniyadan so'ng, barcha xatti-harakatlari zoye ketayotganidan dahshatga tushdi. Buralib oqayotgan suv uni pastga tortardi. Bexosdan uning tomog'iga alam va o'kinchlarga to'la hayqiriq keldi: «Voy-dod! Qutqaringlar! Yordam beringlar, cho'kayapman!» Sarvar qirg'oqda hech kim yo'qligini bilardi. U cho'milayotgan joy Bo'zsvuning ovloq joylaridan biri edi. Cho'milguvchilar ham kun botib, atrof qorong'ulashayotganligi sabab ketib qolishgan, qirg'oqda xotini va o'g'lidan boshqa hech kim yo'q edi. Xotini esa qirg'oqda bamaylixotir unga qarab turar, hazillashayaptimi deganday dasturxoniga andarmon edi. Sarvar jon holatda yana baqirdi: «Cho'kayapman, voy-dod, qutqaringlar».

Shundan so'ng u qo'llari akashakday qotib, qimirlamasdan, suv ichiga kirib ketdi. Oyoqlari ham, qo'llari ham xuddi muzlab qolganday qimir etmas, faqat miyasigina charx urib ishlab turar, miyasida turli fikrlar g'ujg'on o'ynardi:

«Nega dod solib baqirmaydi. Nega odamlarni chaqirmaydi?

Nega, nega? Nega uvvos solib yig'lamaydi. Nega joni uzulguday yugurmaydi. Men o'layotganimni sezib, hatto, afti ham burishgani yo'q. To'g'ri-da, men o'lsam, u nima ham yo'qotardi. Hech narsa. Tayyor uyim-joyim unga qoladi. Yiqqan boyliklarim umrini oxirigacha yeb yotsa ham yetadi. Men unga kerakmasman. Men kimga kerakman. O'g'lim ham o'z kunini ko'rib ketadi. Faqat onamgina dog'i firog'imda adoyi tamom bo'lishi mumkin. Yo'q, yo'q onajon, mening dog'imni hech qachon ko'rmang. Men hali yashayman, onajon. Men hali tirikman onajon». Sarvar yana bor kuchini to'plab, suv yuziga qalqib chiqdi: «Voy-dod, onajon».

Sarvar jon-jahdi bilan tipirchilar, bu harakatlari qirg'oqqa chiqish uchun emas, bor yo'g'i, suv yuziga qalqib chiqish uchungina edi.

O'shanda uni qayerdandir paydo bo'lib qolgan militsionerlar guruhi qutqarib qolgandi. Oradan bir hafta o'tib, u sog'ayib ketdi-yu, yuragida xotiniga bo'lgan shubha va nafrat bir umrga qoldi. Endi u xotini uni yaxshi ko'rishiga ishonmasdi. Ishontirishni istagan kezlar ham bo'lib o'tgan haqiqat oldida ojiz edi.



Bir kun Zabarjad Shohruxga telefon qilib, erta-indin shahardan butunlay ketishini aytdi. Uning bu so'zini eshitib, Shohrux xapriqib ketdi.

— Zabarjad, hozir qayerdasiz?

— Uyda. Ijaradagi uyimdaman. Yo'qligimga bu yer ham huvillab qopti.

— Biron joyda uchrashsak nima deysiz?

— Ketar jafosigami?

— Ha.

— Balki keragi yo'qdir.

— Kerak, kerak.

— Shuncha uchrashdik, shuncha gaplashdik. Yetar endi.

— Zabarjad, sizni yaxshi ko'rishimni bilasiz-ku, nega meni yomon ko'rasiz.

— Chunki, sizda haqiqiy muhabbat borligiga ishonmay qo'ydim. Siz men izlagan odam emassiz. Sizga mehr berdim-u, ko'ngil berolmadim. Garchi oson bo'lmasa-da, irodamni ishga solib, mehr berishni ham to'xtatmoqchiman.

— Zabarjad, bizni ko'ngil bog'lab turmaganmidi?

— Bir hamdard do'st sifatida sizga bog'lanib qolgandim. Siz meni yupatardingiz, yashashga ham, sahnada ham kuch berardingiz, eng asosiysi kelajakdagi yorug'lik haqida uqtirardingiz. Garchi ko'ngilda dog' qolsa ham, bu iplarni uzishga majburman. Majburman!!!

— Zabarjad, nega sizda bu tushkunlik birdan paydo bo'lib qoldi. Nega yolg'iz o'zingiz ikkalamizning munosabatlarimizga xulosa chiqarayapsiz?

— Sof muhabbatga hech qaysi erkak qodir emas ekan. Men o‘zim izlagan insonni topa olmaganimdan, buning hech iloji yo‘qligidan o‘zimni qo‘yarga joy topolmayapman. Mana teatr ham tugadi, jar yoqasiga ham bir borib, zo‘rg‘a omon qoldim. Ota-onam ham, shaharda qachongacha yolg‘iz daydib yurasan deb qo‘yishmayapti.

— Agar hozir sizga sevgi izhor qilsam ishonasizmi? Bu sizni qolishingizga dastak bo‘la oladimi?

— Men kafolat beramanki, siz hech kimni haqiqiy sevmagansiz. Sevgi izhorini ham osongina uddalashingiz aniq. Uchragan qiz oldida buni bajara olishingizga aminman. Jumladan, mening oldimda ham.

— Qo‘ysangizchi, shunaqa gaplarni. Agar sizni aldayotgan bo‘lsam, avvalambor o‘zimni aldayotgan bo‘laman-ku? Shu haqda hech o‘yladingizmi?

— Shifoxona menga juda katta maktab bo‘ldi. Siz odamlarga teatr qo‘yib bergan bo‘lsangiz, men shifoxonada odamlarni tomosha qildim. Men tomosha qilgan sahna meni chilparchin qildi. Siz meni o‘z safingizdan juda tez chiqarib yubordingiz. Albatta, sizning ijodingizga hissa qo‘shmaydigan odam siz bilan yonma-yon yurolmaydigan odam, sizga mutlaqo kerak emas. Buni tushunsa bo‘ladi. Lekin men hali o‘lganim yo‘q. Hali so‘nib ham tugaganim yo‘q. Endi, muhabbat masalasiga kelsak, muhabbat bu siz uchun — ijod. Men uchun esa hayot-mamot. Siz kimnidir sevasiz, ilhomlanib ijod qilasiz, hayotingizdagi iztiroblar maydonida turib kurash olib borasiz. Men esa unday qilolmayman. Siz meni emas, mening teatrdagi qiyofamni yaxshi ko‘rardingiz. Endi esa bu qiyofa yo‘q. Shundan so‘ng meni sevmasligingiz aniq bo‘lib qoldi. Men endi sizga ishonmayman. Siz yana kimnidir topasiz. Ijod davom etaveradi. O‘z tuyg‘ularingizni o‘ynaysiz, rivojlantirasiz, malakali sevgibozga aylanasiz. Plastinka to‘xtamaydi: Tanishuv, telefon qo‘ng‘iroqlari, avrashlar, xushomadlar, ko‘kka ko‘tarib maqtashlar, sevib qolganday ko‘rsatishlar, yolg‘on qiynoqlar, iztiroblar...

— Zabarjad, sizda menga nisbatan buncha nafrat qayerdan paydo bo‘ldi? To‘g‘ri, ko‘p gaplaringizga qo‘shilaman. Lekin, siz voqealar rivojini tezlatib yuborayapsiz. Siz balki sizga

uylanaman deyishimni kutayotgandirsiz va bu gapni aytmaganim uchun mendan nafratlanayotgandirsiz. Ishoning, mening sizga bo'lgan ishqiy munosabatim samimiy va hech qanday o'yin asosiga qurilmagan. Shuni yaxshi bilingki, men sizni sevishim, sizga uylanishim uchun yetarli asos bo'lolmaydi. Siz ham meni sevishingizni istayman. Siz ham meni jon-dildan yaxshi ko'rib qolganingizdan keyingina men bu taklifni aytmoqchi edim. Ayting-chi, siz ham menga biror marotaba o'z munosabatingizni ochiq-oydin bildirdingizmi? Siz meni sevishingizni biror marta ko'rib, ko'nglim to'q bo'ldimi? Axir, men sizni, meni seving deb majburlay olmayman-ku? Meni sevmagan odamga, sizga uylanaman deb ayta olmayman-ku. Sizning oldingizdagi, bittayu bitta aybim, sizga uylanaman deb aytolmaganim, fursat kelishini kutganim xolos. Xohlasangiz, yana bir bor takrorlayman: Sizni yaxshi ko'raman.

— Bu o'sha, plastinkaga yozilgan gaplar. Balki javob berishimni ham keragi yo'qdir. Ammo, xayrlashishda, yana aytсам ayta qolay. To'g'risi, boshda tanishganimizda sizdan umidim katta edi. Menga xayrixoh va sevimli inson topilganidan osmonda yurardim. Sizni men ko'pchilik yomonlarning orasidan ajratib olgandim. Hayotimdan joy bergandim. Keyin bilsam siz ham o'sha yomonlarning biri ekansiz. Endi, taassuflarimning nihoyasi yo'q. Yaxshi insonni topish qiyin ekan. Garchand siz bunga da'vogarlik qilsangizda, yaxshi insonlik darajasiga narazimda hech qachon erisholmaysiz.

— Zabarjad, bo'ldi bas. Men haqimda shunchalik xayolga borgan ekansiz, demak, oramizdagi munosabatlar so'ngiga yetibdi. Nima ham derdim. Xayr. Shuni yaxshi bilamanki, meni bu qadar tahqirlashingiz uchun sizda hech qanday asos yo'q. Modomiki, bu so'nggi suhbatimiz ekan, men ham sizga ochiq aytib qo'ya qolay. Siz tengi yo'q go'zalsiz. Sizni yaxshi ko'raman. Sizning yuragingizni, otashin qalbingizni, fikru o'ylaringizni yaxshi ko'raman. Agar siz istaganingizda, siz mening tuyg'ularimga peshvoz chiqqaningizda, siz menga qalbingizni ochganingizda, siz hech ikkilanmay, meni o'z hayotingizga olib kirganingizda, sizning bir iltifotingizga ming iltifot bilan javob berardim. Men butun jonu jahonim bilan Sizning izmingizga

tushib ketardim. Holbuki, endi hammasi tugadi. Sizdan nafratlanaman. Xayr!

Shohrux telefon trubkasini nafrat bilan joyiga qo‘ydi. Asabiy holatda xona keza boshladi.



Sarvar Samandarovich Zabarjad bilan tanishganida dastlab bir talantli aktrisa qaraganday qaradi. Keyinchalik uning go‘zalligini, latofatini, uning aqlu farosatini, shu bilan birga u Sarvar Samandarovichning yordamiga muhtoj ekanligini ko‘rgach, uni o‘ziga o‘ynash qilib olishni istadi. Zabarjad, ma‘shuqa bo‘lmasligiga ko‘zi yetgach, unga uylanish taraddudiga tushdi.

Sarvar Samandarovich Zabarjadni yaxshi ko‘rib qoldimi, yo‘qmi o‘zi ham bilolmas, ko‘rsa quvonib ketar, yo‘q bo‘lsa qayg‘u botqog‘iga cho‘kardi. Faqat shunisi aniq edi-ki, qars ikki qo‘ldan chiqadi deganlaridek, Sarvar Samandarovich Zabarjadning hamma istaklarini ruhan bajarishga tayyor, Zabarjadning unga bo‘lgan munosabatini esa bilib bo‘lmasdi.



Zabarjad teatrdan ketaroldi Sarvar Samandarovichning qabuliga kirdi.

— Keling Zabarjadxon! Sizni yana teatrdan ko‘rganimdan behad xursandman.

— Rahmat! Lekin men siz bilan ham, teatr bilan ham xayrlashish uchun keldim.

— Nega?!

— Mana men o‘ynaydigan rolni ham olib qo‘yishdi. Menga qasd ham qilishdi. Badiiy Kengashdan ham o‘tolmadim.

— Qo‘ying, hammasi yaxshi bo‘lib ketadi. Bu rol bo‘lmasa boshqasi. Hali yoshsiz, kaltak yeb-yeb katta bo‘lib ketasiz... Men endi sizga yordam beraman.

— Qanaqa yordam.

— Siz teatrning past-balandini bilmaysiz. Muomalani bilmaysiz, murosa-yu madora qilishga o‘rganmagansiz. Qolaversa, Toshkentda uy-joyingiz ham yo‘q. Yeb-ichishingiz, yaxshi kiyinishingiz kerak.



— Evaziga nima so‘raysiz...
— Men bilan bo‘ling. Men hamma narsangizni qilib beraman.
— Ikkinchi xotin bo‘lishim kerakmi... O‘ynash bo‘lishim kerakmi yoki yashirin oshiq-ma’shuqmi...

— Bunisini o‘ylab ko‘ramiz... Biz o‘zimizni taqdir hukmiga tashlaymiz. Qani, muhabbat to‘foni bizni qay manzillarga boshlar ekan.

— Buni aytish sizga oson. Siz nima yo‘qotasiz. Hech narsa. Sizning oilangiz bor. Farzandlaringiz bor. Men badnom bo‘lsam, keyin meni kim oladi. Hatto shon-shuhrat cho‘qqisida turganimda ham menga toza ko‘ngil bilan uylandigan mard topiladimi? Yo‘q. Men bolaligimda qanchalik beg‘ubor orzular bilan san‘at yo‘liga qadam tashlagan edim. Afsus, orzularim sarob bo‘lib chiqdi. Men buni endi tushunib yetdim va bu sohadan ketishga qaror qildim.

— O‘zingiz bilasiz. Siz ketganingiz bilan teatr hech narsani yo‘qotmaydi. O‘rningizga boshqasi keladi.

— Xo‘p, xayr! Navbat kutib turganlarga shu o‘rinni in‘om qilganim bo‘lsin.

Sarvar Samandarovich Zabarjadning qat‘iyligidan yuragi o‘rtanib ketdi. So‘ngra, «Men izlagan qiz mana shu» — degan qarorga keldi va uni uyigacha kuzatib qo‘yishga ahd qildi.



Sarvar Samandarovich ko‘cha boshiga yetganida mashinani to‘xtatdi. Xayrlashish uchun mashinaning oldingi o‘rindig‘ida o‘tirgan Zabarjadni o‘pmoqchi bo‘ldi. Zabarjad o‘zini obqochdi.

— Nega o‘pishimni istamayapsiz, Zabarjad.
— Xohlamayman.
— Nega?
— Keyin nima bo‘ladi?
— Keyinini gapirib nima qilasiz?
— Nega endi kelajakni o‘ylamasligim kerak?
— Kelajakka yetish uchun bugundan harakat qilish kerak. Sizni yaxshi ko‘rishimni bilasizmi...

— Bilmayman.

— Menga sizning qalbingiz yoqadi. Biz ikkimiz bir odamning ikki ko‘ziga o‘xshaymiz. Men hayotimda juda ko‘p odamlarni ko‘rganman. Lekin ayollar ichida qalbi yuragimga bu qadar yaqin birorta ayolni uchratmaganman. Sizni uchratganimdan so‘ng bir pulga qimmat hayot kechirganimni tushunib yetdim. Ortimga qarasam go‘yo hech narsa yo‘qday. Bitta-yu bitta farzandim ham meni tashlab qaynonasinikiga ketdi. Xotiningma ming yolvordim, yana bitta tug‘ib ber deb yalindim. Yillar davomida poyi-patagi bo‘ldim. Bitta kalishga shuncha yalinganimda, menga allaqachon tug‘ib berardi. Ammo yillar davomida men butun jonu jahonimni ayamagan xotinim menga begonalik qildi. Loaqal zarracha mehri bo‘lganda, meni zarracha yaxshi ko‘rganda, holimga achinganidan ham tug‘ib berardi. Ammo u, bag‘ritoshlik qildi. Boshqa tug‘ishni istamadi. Hayotim esa sovurilib boryapti. Agar istasangiz sizga uylanaman. Yana farzand ko‘rishni istayman. Men sizni sevaman. Tanimdagi har bir hujayra faqat sizning ishqingizda olovday gurkirab turibdi. Menga baxtli hayot ato eting. Meni boshi berk ko‘chadan olib chiqing. Men so‘nggi nafasimgacha sizni baxtli qilish uchun yashayman.

— Sarvar aka, men hozir bu haqda bir narsa deymayman. Lekin rostini aytсам, menga teatr ham, spektakllar ham kerak emas. Uyda o‘tirishni, farzandlarim bo‘lishini istayman. Dunyoda ayollik baxtidan, onalik baxtidan ulug‘roq baxt bormi? Farzand odamning shoh asari bo‘ladi. Chunki uni Xudo yaratadi. Teatrda men asar yaratganimda, obraz yaratganimda ham nimani yaratardim. Lekin, sizning taklifingizga keladigan bo‘lsak, men bu haqda o‘ylab ko‘rishim kerak. O‘ylashimning sababi, men sizga ishonmayman. Siz meni yaxshi ko‘rishingizni bilaman. Lekin bu narsa bizning baxtimizga kafolat bo‘lolmaydi.

— Sizni ishontirish uchun nima qilay? Bir ko‘zimni o‘yib beraymi?

— Ishonch ko‘zda emas, yurakda bo‘ladi.

— Yuragimni sug‘urib beraymi?

— Qo‘lingizdan kelmaydi.

— Agar qo‘limdan kelmasa, shu qo‘llarimni sindiraman.



- Qo‘ying, kichkina darddan katta fojia yasamang.
- Ishonmasangiz buni isbotlayman.
- Mayli, yaxshi boring. Bu haqda yana gaplashamiz. Axir bugun hayotimizning so‘nggi kuni emas-ku.



Sarvar Samandarovich o‘sha kun tuni bilan uxlolmadi. O‘z-o‘ziga gapirib chiqdi: «Zabarjad, to seni ko‘rgunimcha, menda bunday xayollar yo‘q edi. Seni ilk bor ko‘rganimdayoq yuragim tok urganday o‘rtanib ketgandi. Va oxir-oqibatda seni butunlay sevib qolaman deya hech o‘ylamagandim. Sen umrimning bahorisan. Sen hayotimning eng go‘zal faslisan. Men seni ish-qingda yuragimga xanjar sanchilib, yuragim tipirchilashdan ham, qimirlashdan ham mahrum, chorasiz, yarador bemor holatidaman. Nima qilay, sensiz na nafas olishga qurbim yetadi, na sen tomonga qo‘l cho‘zishga madorim bor. Sen shunday bir yuksaklikdasanki, sen tomonga qarab, seni izlab topay desam, ko‘zlarimning nuri yetmaydi. Senga qarab so‘ray desam tomog‘imdan so‘z o‘rniga jonim chiqib ketadiganday talvasadaman. Zabarjad, seni bir marta qarashingga shunchalar zormanki, yuz yil zulmatda yotib, quyoshning chiqishini yuz yil kutib, uning chiqib kelishini ham bu qadar sog‘inch va ilhaqlikda, jonsarak kutmasam kerak. Ayt, nima qilay? Seni ko‘zlaringga to‘yib-to‘yib termulishim uchun ruxsat berishing uchun, nima qilay. Seni so‘zlaringni, sening mehringni qozonishim uchun nima qilay? Mening quyoshim chiqib, botar chog‘itomon tobora shiddat bilan ketib bormoqda. U hademay ufqiga botadi. So‘ngra olamni zulmat qoplaydi. Keyin yana quyosh chiqadi. Lekin u quyosh mensiz chiqadi. Hayot o‘z izmida davom etaveradi. U yorug‘ olamda esa men bo‘lmayman. Mening senga bo‘lgan muhabbatim esa tillarda doston bo‘lib, abadulabad yashaydi. Bunday muhabbatni hali tarix ko‘rmagan».



Sarvar Samandarovich Zabarjad o‘z tug‘ilgan kunini nishonlamoqchi ekanligini teatr jamoasiga berilgan taklifnomadan bildi. Taklifnoma Sarvar Samandarovichga ham alohida

berilgan bo'lsa-da, nega Zabarjad unga o'zi aytmaganligiga hayron qoldi. Xodimlardan Zabarjad qayerdaligini so'ragan edi, hech kim aniq javob berolmadi. Birozdan so'ng xonasiga uning o'zi telefon qilib qoldi.

— Taklifnomani oldingizmi?

— Ha. Nega bu haqda shu paytgacha indamagandingiz?

— To'g'risi, men tug'ilgan kunimni nishonlamoqchi emasdim. Umuman olganda, hali ham shu fikrdaman. Men tug'ilgan kunimda, teatr bilan xayrlashuv kechasini o'tqazmoqchiman. So'ngra, Toshkentdan butunlay ketaman.

— Yo'q. Men bunga yo'l qo'ymayman. Sizni endi hech kimga hech qachon xo'rlatmayman. Sizni ko'z qorachig'imday asrayman. Teatrning eng to'ri ham sizniki bo'ladi.

— Endi kech. Qarorim qat'iy. Men ketaman. Siz bu so'zlarni menga juda kech aytyapsiz.

— Men axir nima deyishim mumkin edi. Siz meni yaxshi ko'rasizmi, yo'qmi haligacha bilmayman. Hozir, bir og'iz ayting, sizni yaxshi ko'raman deng, hoziroq oldingizga yetib boraman.

— Endi kech. Foydasi yo'q, Sarvar Samandarovich.

— Menga so'nggi imkonni bering. Mayli, bu so'nggi uchra-shuvimiz bo'la qolsin. Lekin xo'p deng.

— Xo'p, mayli. Sizga so'nggi imkonni beraman.

— Unda, tug'ilgan kuningizni, men aytgan joyda, eng zo'r restoranda qilamiz.

— Buni karmonim ko'tarmaydi.

— Bu mening hisobimdan bo'ladi.

— Sarvar Samandarovich... Siz meni sevishingizni bilaman.

Lekin sizning oilangiz bor. Men uchun ulardan voz kecholsaysiz-ku.

— Bu haqda keyin gaplashamiz. Bizga muhabbatning o'zi yo'l ko'rsatadi. Agar bizning sevgimiz haqiqiy va mustahkam bo'lsa, eng to'g'ri yo'l o'z-o'zidan topiladi.

— Sarvar aka, men o'z qismatimni, kelajagimni taqdir izmiga tashlab qo'yolmayman.

— Siz taklifnomadagi manzilni o'zgartiring. «Silk Road Hotel» deb yozdiring. Va iltimos sizdan, bir og'iz ayting. «Sizni

sevaman» deng. Mana shu soʻz, menga barchasi uchun kifoya qiladi.

- Aytolmayman.
- Iltimos, sizdan, bir ogʻiz ayting.
- Xoʻp, yaxshi aytdim.
- Yoʻq, «Sizni sevaman» deb ayting.
- Sizni sevaman, Sarvar aka!
- Men ham sizni sevaman.
- Xoʻp, xayr. Qoʻngʻiroqlashamiz.
- Albatta.



Zabarjadning tugʻilgan kuniga butun teatr jamoasi, yaqin dugonalari, hamkasb doʻstlari — hammasi yigʻilgan edi. Hashamatli restoran stol-stullari did bilan bezatilgan, restoran oʻrtasida Zabarjadning boʻyi baravar keladigan savatli guldasta — Sarvar Samandarovichning sovgʻasi tantanaga alohida koʻrk berib turardi. Tabriklar, qutlovlardan soʻng, hamma oʻyinga tushib ketdi. Sarvar Samandarovich oʻyinga tushmasada, Zabarjaddan koʻzini uzmas, kelgan mehmonlarni ham nazardan qochirmas, ulardan qaysi birlari Zabarjadga oshiqlikini bir-bir xayolidan oʻtkazib oʻtirardi. Umuman olganda, mana shu tantanada boʻlayotgan voqealarning oʻzi bitta spektaklga jamlasa sigʻmaydigan voqealar edi. Kimdir kimga muhabbat izhor qilar, kimdir kimnidir gʻiybat qilar, kimdir kimdandir oʻchini olish uchun payt poylardi. Nihoyat, tantanaga kelgan mashhur xonanda valsga oid qoʻshiq kuylay boshladi. Sarvar Samandarovich oʻrnidan qoʻzgʻalib, Zabarjad sari yura boshladi. Biroq, u hali ikki qadam ham tashlamay Isfandiyor irgʻib turdi-da, Zabarjadni belidan ushlab, oʻyinga sudrab ketdi. Sarvar Samandarovich ortga qaytishga noqulay boʻlib, goʻyo sigaret chekib kelishga turgan kishiday, restoran tashqarisiga chiqib ketdi. Uning qoʻlida tilla zanjir, tilla zanjirga osigʻliq, yangi ikki xonali uyning kaliti bor edi. Sarvar Samandarovich bu sovgʻalarni Zabarjadning boʻyniga osib qoʻymoqchi edi. Biroq, hali mavridi kelmagan ekan, na iloj.

Sarvar Samandarovich Isfandiyordan jahli chiqib, ancha vaqt ko'chada tentirab yurdi. Tashqari sovuq edi. Izg'irin shamol issiq joydan terlab chiqqan Sarvar Samandarovichning etini junjiktirar, shamol aralash yomg'ir-qor, ko'p fursat o'tmay a'zoyi badanini qaqshatib yubordi.



Yana avvalgidek go'zal va maftunkor bo'lib ketgan Zabarjad yal-yal yongancha, har bir stoldagi o'tirganlar bilan qadah urishtiraverib, tabriklarni qabul qilaverib va ularning har biri bilan bir ho'plam-bir ho'plamdan ichaverib oxiri mast bo'lib qoldi. O'z stoliga kelib o'tirarkan shirakayf holatda yana qadah ko'tarishlarini so'radi.

— Kelinglar, mana shu qadahni qisqa, ammo betakror hayot uchun ko'taramiz. Bir yil avval hammasi, xuddi mana shu restoranda boshlangan edi. Spektakl bir yil davom etdi. Endi men bu sahnani tark etaman. Anavi meni (u Shohrux o'tirgan stolga ishora qildi) teatrga olib keldi. Mana bu ham, (u Mohichehrani ko'rsatdi) hasaddan yuzimga kislotaga surtdi. Mana bu esa (u Gulbadanni ko'rsatdi) o'ynashlarini qizg'anib, meni spektakldan olib tashladi. Mana bu esa (u Sarvar Samandarovichning qiyofasini havoda chizib ko'rsatdi) meni teatrdan haydadi. Mana bu esa (u Isfandiyorni ko'rsatdi) otasiday yurak xastaligiga yo'liqmaslik uchun mendan yuz o'girdi. Lekin, men hammani kechiraman. Chunki hayot o'zi shunday. Kelinglar, qisqa, ammo betakror mana shu hayot uchun ko'taramiz. Yashasin biz sevgan, ammo bizni sevmagan hayot! Siz meni mag'lub bo'lishimni istar edingiz. Ammo men hamisha g'olib bo'ldim. Bugun esa sizning oyoqlaringiz ostiga xor bo'lib yiqilishimni ko'rasiz.

Alvido!

Zabarjad qo'lidagi qadahni dast ko'tardi. Bundan bir xavfni va dahshatni sezgan Shohrux yashin tezligida stollarni yiqitib unga tashlandi va uning qo'lidagi zaharli margumush solingan qadahni chetga surib yubordi. Qadah yerga tushib, chil-chil sindi. Hamma, sarosima va dahshat ichida baqirib yubordi. Shohrux

Zabarjadni ko'chaga sudradi. Ba'zilar ketishga shaylandi. Bu voqeadan bexabarlar esa bamaylixotir yeb-ichishar, tantana sehridan mast bo'lib, dunyoni unutishgandi. Shohrux esa, bir so'z aytmas, tashqarida yomg'ir-qorga qaramay, hozirgina o'lim changalidan saqlab qolingan Zabarjadni yuz ko'zlaridan tinmay o'par, uni bag'riga bosganicha, o'kirib yig'lardi.

Sarvar Samandarovich restoranga kirarkan, hamma gurros-gurros o'yinga tushayotganini ko'rdi. Lekin o'ynayotganlar orasida Zabarjad yo'q edi. Bundan xafsalasi pir bo'lgan Sarvar Samandarovich, o'z o'rniga borib o'tirmoqchi edi, Mohichehra uni o'yinga tortib qoldi. Sarvar Samandarovichning o'ynagisi yo'q edi. Ayniqsa, Mohichehra bilan o'ynashni istamas, u bilan o'ynasa, xuddi o'tgan kunlar, u bilan bo'lib o'tgan voqealar yana takrorlanadiganday o'zini olib qocha boshladi.

— Yangi yor topilganda, eskisidan tonmoq kerak deng.

— O'tgan ishga salovat. U kunlarni unutib yubor.

— Biz bilan yana bir o'ynasangiz, asakangiz ketmaydi, Sarvar Samandarovich. O'ynashingizni bir ko'rib qo'yishsin. Qani turing, men ham o'ynashimni bir ko'rsatay.

— Bo'ldi bas. Seni o'ynashing kimga kerak.

— Yuragingizni ko'p siqmang. Men hali ko'ksimdan itaradigan darajada keraksiz bo'lib qolganim yo'q. Ishonmasangiz, yuring buyoqqa.

— Bo'ldi bas. Hozir mavridi emas.

— Hozir ayni mavridi. Bilasizmi, siz ko'zingizni tikib o'tirgan Zabarjad hozir qayerda. Yuring ko'rsatay. Sarvar Samandarovich dik etib turdi-da, Mohichehraga ergashdi. Uning yuragi birdan bezovta bo'lib ura boshladi. Mohichehra esa uning qo'lidan ushlab, shiddat bilan, restoran tashqarisiga yurib ketdi. Sarvar Samandarovich hali o'zini o'nglab olmagan ham ediki, restoran tashqarisida, burchakda, qorong'ulik qa'rida bir-birining pinjiga suqulib olgan ikki qorani ko'rdi. Ularning biri Shohrux, biri Zabarjad edi. Shohrux Zabarjadni qattiq quchoqlab olgan, uni yutaqib o'par, Zabarjad ham uning bag'riga singib ketgandi. Mohichehra Sarvar Samandarovichni ularni oldigacha olib borish uchun, qo'llaridan zo'r berib tortar,

ammo Sarvar Samandarovich bir qadam ham tashlolmay, joyida qotib qolgandi. So‘ngra, Mohichehra, — Mana ko‘ring ularni — deya baqirdi. Uning baqirig‘ini eshitib, Zabarjad ham, Shohrux ham yalt etib qarashdi.

— Mana ko‘ring, siz sevgan, siz joningizni bermoqchi bo‘lgan odamning qiyofasini. Zabarjad kel, yaqinroq kel. Sen ham bu odamning ko‘ziga tik qara. Tik qaraganda, rostini gapir. Bu odamning yuragida hech qachon yonmagan muhabbat, endi bir marta yongan edi. Mana shu muhabbatni sen xor qilding.

Sarvar Samandarovich chirt burilib, oyoq ostiga qaramay qadam tashlagan edi, qorong‘ulikda chuqur ariqni ko‘rmay, yuztuban yiqildi. Hamma unga qarab engashdi.

Sarvar Samandarovich boshiga tekkan qattiq zarbadan hushini yo‘qotdi. Og‘zi-burniga to‘lib qolgan ariqdagi suv, Bo‘z-suvdagi cho‘kib ketgan holatini yodiga soldi. U o‘shanda ham mana shunday, suvga cho‘kkan va hushini yo‘qotgan edi. U paytda, qirg‘oq bo‘yida, dod solib, hech kimni yordamga chaqirmagan, erini cho‘kib ketishi mumkinligiga ishonmagan xotini, o‘g‘li bilan turardi. Hozir esa, qirg‘oqda Zabarjad va Shohrux turishibdi. Hozir Zabarjad ham dod solmaydi, baqirmaydi. Sarvar Samandarovichning o‘lib ketishi mumkinligiga ishonmaydi. Mayli, ishonmasa ishonmas. Haqiqatan ham, hali o‘lmayman. Xudo xohlasa o‘lmayman. Men ham yashashim kerak. Men o‘lsam, mening dog‘imda kuyib ado bo‘ladigan onam uchun ham hali yashashim kerak. Men uchun, hali jonini berishga tayyor mehridaryo bir qiz borligi uchun ham hali yashashim kerak. Nega bir umr mehrga bunchalik zor o‘tayapman. Ey, Xudo meni ham sevadigan bir insonni ro‘baro‘ qilsayding! Men unga butun jonu jahonimni bermasmidim. O‘shanda nega meni qutqarib qolding. Bir umr o‘zimning qalbidagi yonayotgan daryoda azoblanganlarim yetmasmidi? O‘zimning qalbidagi daryoga necha bor cho‘kanlarim yetmasmidi. Men senga nima yomonlik qildim, Zabarjad. Sen uchun hamma yaxshiliklarni qilmoqchi edim-ku. Ishon, seni sof va beg‘ubor muhabbat bilan endi-endi seva boshlagan

edim. Agar qo'llarimdan tutganingda sen bilan sen istagan muhabbat diyoriga bosh olib ketardim!

Ey, hayot! Bir umr suyganimga yarasha, sen ham meni bir bor suyganingda edi, bir bora shafqat qilganingda edi, ey meni bir umr o'ziga begona bilgan, meni doimo o'z mehridan darig' tutgan, hayot! Lekin bilib qo'y, men sendan bir umr umidvor yashayveraman, bir umr sendan imdod kutaman, baxt kutaman, muhabbat kutaman, ey aziz hayot!

Sarvar Samandarovich, kimlardir uning qo'ltig'idan olib, mashinaga mindirayotganini g'ira-shira ilg'adi. Tomog'iga nima-dir qattiq tiqilib, nafas olishga qo'ymasdi. Oradan ancha vaqt o'tib, mashinaning qattiq-qattiq bosilgan signalidan biroz hu-shiga kelib, ko'zini ochdi. Ko'zi oldida o'zining bahaybat temir darvozasi namoyon bo'ldi. So'ngra, zulflarni sharaqlatib, xotini darvoza tabaqalarini ocha boshladi.

AGAR SENI ALDASA HAYOT...



Hikoya

Javharbek ko'l bo'yida xayol surib o'tirardi. Ko'lga botayotgan quyoshning qip-qizil shu'lasini tushib turardi. Gala-gala bo'lib uchib yurgan chag'alaylar betinim qichqirishar, suv yuzasida sakrab o'ynayotgan baliqlarni tutib olishga oshiqishardi.

Hakkalarning, maynalarning, bo'zto'rg'aylarning, olashaq-shaqlarning, boyo'g'lilarning, qirg'iylarning, chumchuqlarning, qirg'ovullarning, bepoyon sahroda uchraydigan yana yuzlab turdagi qushlarning yotoq oldidan bir-birlarini qo'nalg'alariga g'amxo'rlik bilan chorlab qilgan navozishlari, ayniqsa, hozir Javharbekning yuragini o'rtab yuborayotgandi. Axir u yaqinginada uylandi. Eskichasiga aytganda, hali chillasi ham chiqqani yo'q. Oyisi yangi kuyovsan, qorong'uda yurma deb necha qayta tayinladi. Lekin xizmatchilik ekan, nima qilsin, berilgan bir oylik ta'til tugadi. Xo'jayini, endi ishga chiq, deb qistalang

qilavergach, ishga chiqdi. Vazifasi ko‘p ham og‘ir emas. Baliq yetishtiriladigan mana shu ko‘lda nazoratchilik qilish. O‘tgan yil maktabni bitirib o‘qishga borgandi, omad undan yuz o‘girdi. Bu yil ham borib uddalolmadi. Uyda yolg‘iz o‘g‘il edi. Otasi bor topganimni hammasini beraman, odam izla, pul bilan bo‘lsa ham o‘qishga qo‘yaman dedi. Lekin bunga Javharbek ko‘nmadi. «Poraxo‘rlik jamiyatni qurt kabi yemiruvchi illat» — degan aqidaga amal qildi. Qurt bittaga bo‘lsa ham kamayishini istadi. Ana-mana harbiyga ketaman deb turgan paytda otasi uylantirdi-qo‘ydi. Zora, kelinim o‘g‘il tug‘ib bir o‘g‘lim ikkita bo‘lsa deya orzu qildi.

Oftob qip-qizarib ufqqa singib borardi. Javharbekning xayoliga Lolaruh keldi. Kelayotib unga eshikni mahkam tambalab o‘tir degandi, bunga javoban Lolaruh: «Birov taqillatib kelsa-chi» — degan karashmali so‘z qildi.

— Birov kelsa, meni yo‘q deb ayt, lekin eshikni ochma, — deya yolg‘ondan dag‘dag‘a qildi Javharbek.

«Agar tilanchi bo‘lsa-chi», deya navozishini qo‘ymadi Lolaruh.

— Sadaqani teshikdan ber-u, o‘zingni ko‘rsatma, — dedi Javhar Lolaruhga birovning nazari tushishidan hadiksirab.

— Tilanchining ko‘zi ko‘r bo‘lsa-chi, shunda ham eshikni ochmaymi, — dedi iltijo bilan Lolaruh.

— Uni ko‘zi ko‘r bo‘lsa, seniki ochiq-ku, — dedi Javharbek keskin.

— Voy o‘lay, qo‘rqmang, meni ko‘zim sizdan boshqa hech kimni ko‘rmaydi, — dedi Lolaruh.

— Shunday bo‘lsin. Sen mening ko‘z ochib ko‘rganimsan. So‘nggi nigohim ham senga qaragan bo‘ladi, — dedi Javhar. Bunday so‘zni nega aytdi o‘zi ham bilmaydi. Balki baxtdan, muhabbat masrurligidan aytgandir.

Negadir uydan oyog‘i tortmay chiqdi. U Lolaruhdan tashvishlanmasa ham bo‘lardi. Chunki ota-onasi qo‘shni hovlida yashashar, o‘rtadagi devorning yarmi olib tashlangan edi. Qolaversa, qayinsingillari birga yotar, Lolaruhni har tomonlama qo‘riqlaydigan odamlar tayin edi. Bundan havotirlanmasa ham

bo'lardi-yu, Javharning o'zining ishga borishga ishtiyoqi yo'q edi.

Ko'l juda katta edi. Uni mototsiklda aylanib chiqmasa, yayov yurib qo'riqlab bo'lmasdi.

Atrofni qorong'ulik qoplagandi. U ko'l bo'ylab mototsikl haydab borarkan, ko'l qirg'oqlarini o'rab olgan quyuc qamish-zorning shovullashiga quloq tutar, shu bilan birga o'nqir-cho'nqir yo'ldan ham ko'z uzmasdi.

Yo'lda suvdan chiqib o'ralib yotgan ilonlar bo'lishi mumkin edi.

Ko'l oxirlariga borganda, kimlardir gulxan yoqayotganiga ko'zi tushdi va mototsikl rulini o'sha tomonga burdi.

Gulxan atrofida uch kishi va bir ayol kuymalanishardi. Aftidan, ularning kelganiga ancha vaqt bo'lgan, dasturxonlarida aroqdan bo'shagan shishalar, konserva bankalari, g'ajilgan suyaklar, olma po'choqlari uyulib yotar, olovini miltiratib qozonga ovqat osishgandi. Ko'l bo'yida qarmoqlari ham ko'rinar, kesilgan baliq boshlari, dumlari, qanotlari, tozalangan tangachalari o'choqdan uzoqqa itqitilmagandi.

— E, hormanglar,— dedi Javhar ularga yaqinlasharkan.

— Kel, uka,— dedi ulardan biri— Nima qilib yuribsan?

— Ha, aylanib yuruvdim. Men shu ko'lning nazoratchisiman.

— E, shunaqami?! Kel, uka bir piyola choyimizdan ich. Biz ham begona emasmiz. Shu atrofning odamlarimiz. Mana bu Mirzoulug' akang, mana bu Uyg'un. Kamina Daryodil. Bu opang esa Gulruksor yangang. Bir dam olaylik deb chiqqandik. Ikkita baliq ushlagan bilan ko'lning barakasi uchib ketmaydi. Kel o'tir. Ellik-ellik olaylik.

— Rahmat, aka. Bu yerda baliq ushlash taqiqlangan. Men esa shu nazoratchiligim uchun maosh olaman.

— Qancha maosh olasan uka. Kel, o'shani men senga bera-man, — dedi Uyg'un.

— Gap puldamas. Xo'jayin qattiq tayinlagan. Qani bu yerdan ketinglar, — dedi Javharbek.

— Ko‘rinishing tuppa-tuzugu, ahmoqqa o‘xshaysan, — dedi Daryodil va uni mototsiklidan sudrab tushirib, dasturxon boshiga yetaklab bordi, — o‘tir bunday.

Javhar o‘tirmasdan ketmoqqa shaylandi:

— Men xizmat vazifamni bajaryapman. Sizlarga jarima solaman deyayotganim yo‘q. Ketinglar, men sizlarni ko‘rganim yo‘q, sizlar meni.— Javhar shu so‘zlarni gapirarkan, ichidan qo‘rquv aralash qaltiroq o‘tdi. U janjal chiqishini sira istamasdi. Qo‘lida, guvohnomadan boshqa hech narsasi yo‘q edi. Baliq xo‘jaligida nazoratchilarga qurol berishmasdi. Bilagiga latta bog‘lab olish esa kulguli edi. Nima, miltiq berganda otisharmidi? Buning Javharbekka hech keragi yo‘q edi. Ikkita baliq uchun janjallashish odamgarchilikka to‘g‘ri kelmasdi. Lekin bu yerdan indamay ham ketolmasdi:

— Agar hozir ketmasanglar, militsiya chaqiraman — dedi nihoyat.

— Iye. Bu qiziq bola ekan-ku, — dedi Mirzoulug‘ unga yaqinlashib va to‘satdan Javharning qorniga tepdi-da, yerga yumalatib tashladi.— Bu bolaning o‘lgisi kelganmi, deyman. Hozir buni qo‘l-oyog‘ini bog‘lab suvga tashlab yuboraman: — Arqonni olib kel.

— Gapga ko‘nmaydigan bolaning jazosi o‘lim, — dedi Uyg‘un. U tizzasi bilan yerda yumalanib yotgan Javharning bo‘ynidan bosdi-da, qo‘lini qayirib, qayish bilan mahkam bog‘lab tashladi:

— Ana endi, ko‘ramiz kimni boshlab kelarkansan.

Javhar kaltak zarbidan qo‘rqib, sarosimaga tushib qolgandi. Shu bilan birga yigitlik hamiyati qo‘zib, o‘zini tutolmaydigan darajada jahli chiqa boshladi.

— Yaxshilikcha qo‘yvoringlar. Bo‘lmasa hammalaringni, bittama-bitta ushlab, qirib tashlayman. O‘liklaringni baliqqa yem qilaman. Qo‘yvoringlar. — Uning qo‘rqmasligining bir sababi, qonun o‘zi tarafda ekanligini anglab turardi.

— Qani, sho‘rvani tezroq qaynatinglar. Bu itvachcha, g‘ingshib, ishtahani harom qildi. Tezroq ketsak keta qolaylik. Erta-

labgacha shunday yotsa, yo och bo‘rilarga yem bo‘ladi, yo daydi itlar talab, go‘ishtini burda-burda qiladi.

— Qaysi go‘rdan kela qoldi o‘zi bu, tuppa-tuzuk o‘tiruvdik-a, — dedi Uyg‘un.

— Ajal boshlab kelganda— dedi oxir-oqibat ayol ham tilga kirib. U goh Uyg‘unning pinjiga kirar, goh Mirzoulug‘ning sochlarini silardi.

— Senlarni ajal boshlab kelgan, — dedi Javhar hayqirib. U o‘kirarkan o‘z ovozi o‘zi cho‘chib ketdi. Xayoliga olmafurush voqeasi keldi: Bir olmafurush bozorda olma sota-yotsa ajal farishtasi kelib, tayyorgarlik ko‘rishini so‘rabdi. Olmafurush o‘g‘liga yuzlanibdi-da, olma narxi besh yuz so‘m, agar bir so‘m kam sotsang, sendan rozimasman, — deb qattiq tayinlabdi va ajalga yuzlanib: — Mana, men tayyor bo‘ldim, endi jonimni olsang, olaver — degan ekan. Nahotki, men ham shu olmafurushga o‘xshasam — deya o‘ylay boshladi Javhar. Nahotki olma narxini o‘z umri, hayoti narxidan qimmatroq bilgan olmafurush singari ikkita baliqni deb o‘z umrimga o‘zim zomin bo‘lsam. Ikkita baliq bahosini o‘z umrim bahosidan baland qo‘ysam va shu ikkita baliqni deb narigi dunyoga ravona bo‘lishga rozi bo‘lsam. Bu qanday ahmoqlik? Yaxshisi turib kechirim so‘rasammikan?! Bir og‘iz, akalar kechiringlar, yoshlik qilibman desam, olam guliston. Asakam ketadimi? Ikkita sassiq baliq ota-onamning bir tomchi ko‘z yoshiga arziydimi? Lolaruhning nigoron yo‘l poylab, bir lahza kutib o‘tirishiga arziydimi? Yo‘q, men shu yerdan oylik olib, ro‘zg‘or tebratayapman. Men davlat mulkini qo‘riqlayapman. Indamay ketishim, dayuslik bo‘ladi. Vijdonsizlik bo‘ladi. Hech qachon bunday qilmayman.

Javharning ingrog‘ini mast-alast davraning qahqahasi bosib ketdi:

— Menda ham latifaning bir yangisi bor, — dedi Mirzoulug‘. — Bir nomozxon, seribodat so‘fi bor ekan. Bir kun uyda yolg‘iz o‘tirsam, eshik taqillab qolibdi. Borib qarasa ketvorgan juvon turganmish. — «Ha, singlim sizga kim kerak», desa, — «E, otaxon yo‘ldan adashib qoldim, bir kecha uyingizda tunashga

joy berolmaysizmi?» — debdi ayol. — Uyda hech kim yo‘q edi-ku, ayolim ham, bolalarim ham mehmonga ketishuvdi-ku, qanday bo‘larkin — debdi. — Hechqisi yo‘q ota, siz boshqa xonada, men boshqa xonada tunayveramiz, iltimos, bir g‘arib, musofirga shafqat qiling, yaxshiligingizni Xudo ko‘rib turibdi, debdi. Otaxon noiloj eshikni ochibdi va juvonna ichkari kiritibdi. Kiritib yaxshiroq razm solsa, shunday bir ofatijon turgan emishki, hang-mang bo‘lib qolibdi. Lekin sir boy bermabdi. Ayolni yaxshilab mehmon qilibdi-da, qo‘shni xonaga kirib ketibdi. Kirib ketibdi-yu, hech uyqusi kelmabdi. So‘ngra turib eshik tirqishidan qarasa ayol oppoq badanlarini ko‘rsatib, olamjahon bo‘lib yotganmish. Otaxonning uyqusi tamom qochibdi. Joyiga qaytib yotibdi-yu, to‘lg‘ona boshlabdi. Shu payt qo‘shni xonadan ayolning ham sokingina ingragani, yurakni qinidan chiqarib yuboruvchi oh-vohlari eshitila boshlabdi. Otaxon quloqlarini mahkam bekitibdi-da, ko‘rpaga o‘ranib olibdi.

Shu payt mayda qadamlar tashlab, ming bir navozish bilan ayol u yotgan xonaga kirib kelibdi va sekin ko‘rpani tortibdi:

— Aka, u xonada bir o‘zim yotishga qo‘rqib ketyapman, poygakka joy to‘shab yotsam maylimi? — debdi.

Otaxon ayolni to‘lg‘oq sochlarini o‘z yuziga tushib turganini ko‘ribdi-yu, hushini yo‘qotibdi va uni qanday qilib o‘z bag‘riga tortganini bilmay qolibdi. Butun tun shu ko‘yi huzur-halovatda o‘tibdi. Otaxon tongda turib, bomdodga shoshilibdi. Bomdodni o‘qib, yoniga o‘g‘irilib qarasa boyagi ayol shayton qiyofasida yonida kulib turganmish.

— E ota, o‘ttiz yillik toat-ibodatingiz bir pul bo‘ldi-ku, — desa, otaxon ham o‘zini yo‘qotmay: — Ha, o‘ttiz yildan beri sen shaytonni la‘natlardim, bir kun qo‘limga tushsang, qilar ishimni qilaman deb yurardim, mana qo‘limga tushding, qilar ishimni qildim, niyatimga yetdim, degan ekan.

Gurr qahqaha ko‘tarildi.

— Hoy, itdan tarqagan shaytonlar, meni qo‘yib yuboringlar, — deya qichqirdi Javhar, — ichgan aroqlaring, burnilaringdan buloq bo‘lib chiqadi, hali.

— Nima, sening pulingga ichayapmizmi, tirrancha.

— Bunaqasi ilgari zamonda bo‘lardi, bu o‘shalarning oxirgi vakili shekilli — dedi Daryodil.

— Kelinglar buni, qayiqqa solamiz-da, ko‘lga qo‘yib yuboramiz, qani boshi oqqan tarafga bir aylanib kelsin, ko‘-raylik, — dedi Uyg‘un.

— Yaxshisi buni qo‘l-oyog‘ini yechinglar-da, qo‘liga to‘rt so‘m, besh so‘m pulini tutqazinglar, o‘zi ketadi, nima qilaszlar boshni og‘ritib— dedi Mirzoulug‘.

— Hamma narsaning davosi pul, sal ko‘proq chiqarib bering, o‘zi mana bu yerda o‘tirilib bizga baliq tutib beradi.

Gurr kulgu ko‘tarildi.

— Tadbirkorsan-da, Mirzo... tadbirkorsan! — Ilojini topsang, ko‘ldagi baliqlarga ham pul ulasharding, o‘zlari bitta-bitta kelib, qarmoqqa ilinib turishardi.

— E, har bitta baliq bilan savdolashib, pachakilashib o‘tiradimi, yaxshisi shu ko‘lning o‘zini sotib oladi, qo‘yadi, mana bunaqa cho‘rtan baliqlar keyin xizmatini qilib yuraveradi, ko‘p sakramay,— dedi Uyg‘un Javhar tomonga masxaromuz qararkan.

Shusiz ham alam va xo‘rliklar Javharning jon-jonidan o‘tib yotardi. O‘zining bunday zabun va tang holatidan u nafaqat hozir, hatto Lolaruh bilan bo‘lgan chog‘larida ham, hozirgidan o‘n karra og‘irroq azoblanardi. Lolaruhning muhabbati, fidoyiligi uni haqiqiy shahzodaga aylantirardi. Kechalari Lolaruh uni suyub erkalar, jonu jahonini bag‘ishlar, uning oldida lolu hayron edi. Uning bunday ma‘sumligi, shu qadar katta mas‘uliyat uyg‘otar ediki, Javhar uning oyoqlarini quchoqlab yolvorar, seni albatta baxtli qilaman, seni dunyoda eng saodatli malikaga aylantiraman, bir umr quling bo‘laman, bir umr sen uchun yashayman, eng qudratli, eng kuchli odamga aylanib, istagan orzuingni amalga oshiraman. Sening sevgingga, sening muhabbatingga, sening suyub-erkalashingga loyiq tengsiz shahzoda bo‘laman va bir kuni menga qilgan bu mehribonchiligingga loyiq odam bo‘laman va bularning barini o‘n hissa ortig‘i bilan bajaraman, menga ishon, — deya yolvorar, ko‘zidan duv-duv yosh oqardi. Lolaruh esa undan

hech narsa talab qilmas, hech narsa so‘ramas, mana shu olovli, otashin tunlarning o‘ziyoq, dunyoning eng oliy shahzodalari, malikalari ham orzu qiladigan tunlar ekanini xayoliga ham keltirmasdi.

Lekin, bunday tunlarda Javhar o‘zining oqizligini, omadsizligini, oddiy nazoratchiligini, o‘qishga ham kirolmagan noshudligini yaqqol anglab qolar, og‘rinar, to‘lg‘onar, ulkan jasoratlarga shaylanardi. Hozir ham qo‘l-oyog‘i bog‘liq yotar ekan, yurak-yuragi zirqirab, ovozi boricha hayqirdi:

— Ey, nafi buzuv ajdarholar, qo‘yib yuboringlar meni. Senlar, hammang tirnog‘imga ham arzimaysanlar!

— Iya, hali ham tirikmi? — degan ovoz keldi davradan va to‘rtovlonning biri uning yoniga kela boshladi. — Iya, hali biz ichib, sen quruq qoldingmi, bolakay, qani og‘zingni ochchi! — Uyg‘un, qo‘lidagi aroq butilkasidan uning og‘ziga aroq quya boshladi. — Ertaga xo‘jayiningga, biz bilan to‘yib ichib to‘polon ko‘tardi, deymiz, tamom vassalom. Ichib olganingdan keyin bizdan ortiq joying qolmaydi. Qani, qani og‘zingni ochchi!

Uyg‘un Javharning og‘ziga shaqirlatib aroq quya boshladi. Achchiq ichimlik yigitning yuzi aralash to‘kilib, og‘ziga quyila boshladi, keyin tomog‘ini achitib, ichiga ketdi. Javhar umrida aroq ichmagandi. Badbo‘y hiddan nafasi bo‘g‘ildi va jon holatda yotgan joyida ikki oyoqlab Uyg‘unni tepdi. Uyg‘un ag‘darilib tushdi. So‘ngra turib, yerda yotgan butilkani oldi-da, jon-jahdi bilan Javharning boshiga urdi.

Javhar og‘riq azobidan bir ingradi-da, so‘ngra yuziga issiq suyuqlik oqib tushganini, so‘ngra miyasiga qon quyulganini sezib yotdi, so‘ngra butunlay hushini yo‘qotdi.



Uning jasadini keltirishganda kattakon hovli bir zumda yig‘i-sig‘i, dod-voyga to‘ldi.

Javharbek yolg‘iz o‘g‘il, ota-onasining yolg‘iz umidi, shu xonadon chirog‘i edi. Uning opasi turmush qurib ketgan, u ham, singlisi ham Javharbekka onaday mehribon edi.

Lolaruh ham jasadni ko‘rib shashqator yoshlarini oqizaverdi. Bir zumda butun dunyo zim-ziyo qorong‘ulikka aylandi. Hali chillasi chiqmagan kelinchakni qop-qora libosda ko‘rish, nafaqat qarindosh-urug‘ni, yetti yot begonalarning ham yuragini ezib yubordi. Aza ochilgan xonadonda Lolaruh murdadek tentir ekan, nima qilayotganini bilmas, tovush chiqarib yig‘lay desa, ovozi og‘irlik qilar, ichida yig‘lay desa, o‘ksik nolalar ichiga sig‘may, o‘rtab yuborar, o‘zini tutolmay dodlashga, ingrashga majbur bo‘lardi: «Siz bilan nikohdan o‘tgan kunimiz Parvardigorimning ulug‘ kitobi Lavhul-Mahfuzda nahotki qismatimiz abadulabad birga bo‘ladi, deya yozilmagan bo‘lsa?! Nahotki bizning qismatimiz baxtli taqdirlar qatorida yozilmagan bo‘lsa?! Nahotki, Parvardigorim bizni suyub qovushtirmagan bo‘lsa? Nahotki, bizning to‘yimiz bo‘layotgan muborak oqshomda, arshi a‘loda farishtalar ham bazmu jamshid qurishib, Qur‘on o‘qilib, duolar aytilgan, oliy tilaklar bildirilgan to‘yimiz kechasi, nahotki mening baxtli hayotim bu qadar qisqa, bu qadar muxtasar ekanligi ayon edi. Nega?! Nega farog‘atga, saodatga to‘la damlarimiz bu qadar tez barham topdi. Bu nima jazo?! Bu nima ko‘rgulik?! Axir, baxtdan, muhabbatdan entikib, shukronalar aytib yashagan menmasmidim? Axir, farzandlar ko‘ramiz, uvalijuvali bo‘lamiz deya ahdu paymon qilgan bizmasmidik? Bizning ziyonimiz kimga tegdi. Men endi nima qilaman? Men endi qanday yashayman. Men endi mas‘ud damlarimni, siz bilan kechirgan huzur-halovatimni qaydan topaman. Men hayot ostonasiga qadam tashlayotib, nega yuztuban yiqildim. Nega? Eh, Xudojon, vujudimda shu odamdan zurriyod bormikin? Men uni dunyoga keltirardim, men uni parvarishlardim, o‘stirardim, butun umrimni shu dilbandimga bag‘ishlab o‘tkazardim. Shu odamga mehrim, muhabbatim, sadoqatim haqqi javob ber, Ey Xudo, menga uning zurriyodini ato qil. Uning chirog‘ini yoqib yashay, uning yodi bilan yashay, u bilan kechirgan qisqa, lekin bir umrga arziydigan farog‘at haqqi men uni sevaman, bir umr shu uyning cho‘risi bo‘lib yashayman. Eh Xudo, nolalarim yetib borarmikan, ohu zorlarimga quloq tutarmikansan?!

Lolaruh qaynonasi istiqboli sari yurar ekan, o'zini uning oyoqlari ostiga tashladi. Qaynonasining ham sochlari bir kechada oppoq bo'lib oqarib ketgandi.



Tez kunda sud jarayoni boshlandi. Sudda bor-yo'g'i bir kishi — Gulruksor qatnashdi. Sudda ko'z ko'rib, quloq eshitmagan, ko'z ko'rsa ko'r bo'ladigan, quloq eshitsu, quyushqonidan chiqaradigan gap-so'zlar bo'layotgandi.

Sudda Gulruksor asosiy jabrlanuvchi sifatida ko'rsatma berardi:

Kechki payt Javhar meni baliq oviga taklif qildi. To'yi bo'lishidan oldin u mendan ming dollar qarz olgandi. Shuning uchun mendan minnatdorligini, o'zi baliq xo'jaligida ishlashini, bir dam olib kelishimizni, qilgan yaxshiliklarimni hech qachon unutmasligini, bir pas o'tirib, baliq ovlab, dam olib qaytishimizni iltimos qilib turib oldi. Yo'q deyolmadim. Borib o'tirdik. Ziyofatga ko'p narsa olib borgan ekan, ozroq ichdik. Men bo'yimda homilam borligini, icholmasligimni aytсам ham, zo'rlab turib oldi. Keyin ozgina-ozgina ichdik. Kun botayotgan payt edi. Endi uyga qaytaylik desam, hech ko'nmadi. Va aksiga olib, asta-sekinlik bilan tegajaklik qila boshladi. Yosh bola emasmi, qoni qaynoq, yo'q deyishimga qaramay, qo'limni qayirib, bog'lab tashlashga urindi. «Dod» deb baqirdim. Biroq hech kim eshitmadi. Ovloq, qorong'u joy edi. Uning xatti-harakatlaridan qo'rqib qoldim. Men o'zimga yarasha pokiza insonman. Hali shu paytgacha birovni o'zimga tekkizdirmaganman. Birov qo'limni ham ushlagan. U qo'limni ushlaganda ham seskanib ketdim. Men bunday haqoratni ko'tarolmasdim. Kuchim boricha unga qarshilik qila boshladim. Ammo u yosh edi, gapga quloq solmasdi! Uning xatti-harakatidan uning nafaqat niyati buzuqligini, u meni o'ldirmoqchi ham ekanligini, bergan qarzimni hech joyda rasmiylashtirmaganim uchun meni gumdon qilib, qarzidan qutulib ham qolmoqchiligini tushunib qoldim. Va unga bergan qarzidan voz kechishimni, hali unaqa pullardan ancha yuqori turishimni, men hayotimni juda ham qimmat baholashimni aytdim.

U «— Yo‘q, seni o‘ldirmasam tinchimayman» — deb turib oldi va zo‘rlash uchun butun ko‘ylak, lozimlarimni yirtib tashladi. Men jon alfozda qochishga urindim.

U mening qo‘l-oyog‘imni bog‘lab tashlamoqchi bo‘lganda, o‘zimni qutqarish, o‘limdan qutulish uchun, behosdan, o‘zim bilmay, sekingina uning boshiga, uning o‘zi ichib olgan butilka bilan urdim. Kutilmaganda shisha uning boshiga qattiqroq tegib, u o‘lib qoldi. Men nima qilishimni bilmay qo‘rqib qoldim. Axir or-nomusni hatto o‘z o‘limimdan ham baland qo‘yadigan odamman. Men o‘zim o‘lib ketishim mumkin edi, lekin men nomusim toptalib, odamlarga gap-so‘z bo‘lib, o‘lib ketishni istamadim. Agar u meni shunchaki, nomusimga, sha‘nimga tegmay o‘ldirmoqchi bo‘lganda ham, mayli edi, men uni o‘ldirguncha o‘zim o‘lib ketsam, maqtula nomini olguncha, jabrdiyda bo‘lib o‘lib ketsam mayliydi. Mana bu yerda javob berib o‘tirgandan, kimnidir qotili nomini olgandan, o‘zim o‘lib ketsam mayliydi. Lekin nima qilay, o‘z sha‘nimni asradim, bag‘rimdagi, yuragim ostidagi norasidani asradim. O‘zim o‘lib ketsam ham, hali yorug‘ dunyoga kelib, ko‘z ochib ko‘rmagan begunoh bolamni asradim. Uni dunyoga kelib tug‘ilishini istadim, aytinglar men nima qilishim kerak edi? Aytinglar, men qornimdagi bola bilan o‘lib ketishim kerakmidi? Men tang ahvolda qoldim. Mening bor-yo‘q gunohim, o‘zimni asramoqchi bo‘lganim, qochib qutulmoqchi bo‘lganim, shu bolaga g‘amxo‘rligim, mehrim, onaizorligim tufaylidir. Axir sizlar ham o‘zbeksizlar, tushuninglar axir?!

Gulruxsor yig‘lab so‘zini tugatdi. Shunda Lolaruh otilib turib, so‘z so‘radi. Sud unga so‘z bermoqchi emas edi, lekin u o‘rnidan turdi-da, minbarga chiqib, iltijo bilan gapira boshladi:

— Bu hammasi yolg‘on. Tuhmat. Qip-qizil bo‘hton. Men Javharbek akamni yaxshi bilaman. U kishi hech qachon besh vaqt namozni kanda qilmagan. Hech kimdan hech qachon qarz olmagan. U kishi hech qachon aroq ichmagan. Hech qachon boshqa ayollarga ilakishmagan. Men buni juda yaxshi bilaman. U kishi ayollarga qo‘l ko‘taradigan, birovni o‘ldirish tugul, ko‘ngliga ozor beradigan odam emas edi. Men Gulruxsor opani qo‘liga Qur‘onni olib qasam ichishini talab qilaman.

Men hatto bu odamni qasam ichganda ham, baribir bironta gapiga ishonmayman. Men Javhar akamga ishonaman. Uning begunohligiga, uning yomon odamlar qo'liga tushib qolganiga, uning davlat mulkini himoya qilayotib, qasddan o'ldirilganiga va bu ayol uni o'ldirayotganida yolg'iz bo'lmaganiga ishonaman.

Aytsin, kimlar edi uning sheriklari?! Aytsin, avval qo'liga Ollohning muqaddas kalomi bo'lmish Qur'onni olib, qasam ichib aytsin.

— O'tiring joyingizga, Lolaruh Sharofova, o'tiring, hali sizga hech kim so'z bergani yo'q. Qolaversa, Ollohning kalomini aytib, bu yerda hammani qo'rqitaman deb, ovora bo'lmang. Bu yer masjid emas, bu yer davlat idorasi.

Qani, Gulruksor Bobosoqiyeva, ayting-chi, siz, ko'l bo'yi-ga bir o'zingiz borganmidigiz yoki sheriklaringiz ham bormidi? Axir, u yerda bir mototsiklning va yana bir yengil mashinaning izlari bo'lgan?

— Men u yerga, Javharning mototsikliga mingashib bordim. Mash'um voqea sodir bo'lgach, men yolg'iz qo'rqib qoldim va shaharga qaytib kelib, tanishlarim, Uyg'un aka, Mirzoulug' aka, Daryodil akalarga bo'lgan voqeani gapirib berdim. Ulardan najot so'radim. Javharjon hali o'lmagan bo'lsa, mashinalarida shifoxonaga keltirib, «Tez yordam»ga olib kelishlarini o'tinib so'radim. Ular ham, bir og'iz gapimga yo'q demay, uyqularini buzib, tezroq yordam beraylik deb, yetib kelishdi. Biroq, biz yetib kelganimizda, umri qisqa ekan, o'lib qopti, bechora. Keyin, biz hammamiz birgalashib, marhumni uyiga olib bordik. Xabaringiz bo'lsa kerak, melisaga ham men o'zim birinchi bo'lib, borib murojaat qildim. Mening bu tashabbusim inobatga olinadi va yukim yengillashadi deb umid qilaman, o'rtoq sudya.

— O'rningizga, o'tiring jabrlanuvchi Bobosoqiyeva. Bugun sud o'z ishini yakunlaydi. Sud qarori sizlarga ma'lum qilinadi. Sud zalini bo'shatishlaringizni iltimos qilamiz.



Yaqinginada to'y bo'lib, bazmu jamshid qurilgan, to'ydan so'ng ham uning fayzi, tarovati hukm surgan xonadon endi

motam azobini tortayotgandi. Uylar huvillab yotar, Lolaruh xuddi sharpaday kirib-chiqar, ko'ngil so'rashga kelganlarning o'qigan tilovatlarigina baland ovozda yangrar, qolgan so'zlar pichirlab gaplashilardi. Lolaruh Javhar bilan har kuni xayolan gaplashar, har kuni uning ruhi yonidan jilmas, birga yurib, birga o'tirardi.

«Meni nega tashlab ketdingiz, Javhar aka!

— Men ketganim yo'q. Men sen bilan birgaman.

— Nima bo'ldi o'zi? Aytib bering.

— Qo'y, yuragingni siqma. Adolatsizlik senu mengacha ham davom etgan, bizdan keyin ham bo'ladi. Bir rivoyatni aytib beraymi?! Eshit. Bir o'g'ri qozining oldiga kelib, ochlikdan o'lmay qolish uchun qo'shnining tovug'ini o'g'irlab yeganini, endi bu gunohini yuvish uchun nima qilishi kerakligini so'rabdi. Qozi og'ir bosh chayqab:

— Bu juda og'ir gunoh— debdi.— Bundan qutulish qiyin. Zero, birgina yo'li bor. Ulkan xarsang tosh ustiga chiqasan-da, boshingdan suv quyib yuvinaverasan, to ostingdagi xarsang, sen yuvingan suvdan yemirilib, tugaguncha, — debdi.

O'g'ri o'ylab qarasa, bu ishni sira amalga oshirib bo'lmaydigan. Keyin bir hamyon tillani qoziga tutibdi-da, taqsir, mushkulimni biroz yengillatishning iloji bormi? — debdi. Qozi hamyonni o'smoqchilab ko'ribdi-da, ha mayli, oyog'ing ostiga kichkina kesakni olda, yuvinib ko'r, kesak erib, loyqalanib ado bo'lgach, shu bilan gunohdan ham forig' bo'lasan, — degan ekan.

Bugungi kunimizning qozilari ham shunday. Ular sudyaga juda ko'p pul olib borib berishdi. Gulruksor homilador bo'lganligi uchun uni qamashmasligini oldindan bilib, hamma ishni u orqali bitqazishdi.

To u farzand ko'rib, qamash muddati kelganda esa, umumiy afvga tirkab qo'yishadi. Mayli, sen ular bilan yoqalashib, sudlashib yurma. Baribir hech narsaga erisholmaysan. Foydasi yo'q. Mana, men ikkita baliq uchun, million-million baliqlarning ikkitasini qizg'onib, o'z umrimni, hayotimni boy berdim. Ular bilan kurashaman desang, seni ham bir baloga giriftor etishadi. Yaxshisi, Xudodan panoh so'ra. Yomondan asrasin, yaxshilarga



yo‘liqtirsin. Ibodatdan qolma! Iso alayhissalomdan bir rivoyat bor: «Boylikdan hazar qil. Zero, u harom yo‘l bilan keladi, — dedi Iso alayhissalom.

— Agar, halol yo‘l bilan kelsa-chi? — dedi havoriylar. Halol yo‘l bilan kelsa, baribir haromga ishlatiladi, — dedi Iso. Agar, haloldan topib, halolga ishlatilsa-chi, — dedi havoriylar. Boylik, baribir harom — dedi Iso. Sen o‘sha, haloldan olib halolga ishlatayotganingda, ibodatdan qolgan bo‘lasan, — dedi».

Men bu rivoyatni senga aytayotganimning sababi, sen yovuzlar bilan, makkorlar bilan olishib, yengib chiqaman deb hech qachon o‘ylama. Ularni hech qachon yengolmaysan. Toki, ularning qalbida iymon nuri porlamas ekan, toki Oллоh taoloning o‘zi ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlab, yuraklarida adolat tarozusini o‘rnatmas ekan, sen hech qachon adolat o‘rnatolmaysan. Nafaqat sen, balki biror qonun ham, farmon ham, ularning badkor, nahs bosgan qalblarini tozalay olmaydi. Xudoning kalomi aralashmagan har qanday qomus, har qanday axloq majmuasi odamzotning yovuz va badkor xulqi oldida ojiz. Sen Xudo bilan bo‘lsang, hech narsadan qo‘rqma. O‘zingni yolg‘iz sezma. Sen qudratlisan. Sen buyuksan. Men ham hamisha sening yoningdaman. Sening joningdaman. Sening qoningdaman. Men yaqinda sening yuraging ostida, murg‘ak jon bo‘lib, o‘g‘lim qiyofasida, farzanding qiyofasida dunyoga kelaman va sening umidlaringni, sening muhabbatingning timsoli bo‘lib, tug‘ilaman. Men bir kuni Fir‘avnni taxtdan qulatgan Muso alayhissalom singari dunyoga kelib, meni o‘ldirgan, yovuzlik taxtida hukm surayotgan barcha Fir‘avchalarni Yaratgan Oллоh taolo yordamida yer bilan yakson qilaman. Zero, haq yo‘lida yurgan har bir kimsa, Muhammad alayhissalomning ummati, Iso alayhissalomning, Muso alayhissalomning izdoshlaridir. Balki, farzandimiz hech kimdan o‘ch olmas. Lekin uning tug‘ilishining o‘ziyoq qaro zulmat qo‘ynida qolgan xonadonimizdagi yorug‘ chiroqdir. Bizning yengilmaganimizning nishonasidir. Zero, Oллоh yer yuzida o‘rnatgan saltanat hech qachon barham topmagay! Zero, Oллоh bor joyda insonning insonga muhabbati, muruvvati, do‘stligi, buyukligi bor. Zero, Xudosiz jamiyat razolatga yuz tutgay. Hech qachon ibodatdan qolma! Men sening ibodatingdaman. Men sening muhabbatingdaman! Men sening yaxshilik yo‘lidagi har bir qadamingdaman!»

Lolaruh dushmanlardan o'ch olish fikridan qaytar ekan, o'zini birdan yengil his qildi, zilday yukdan xalos bo'lganini sezdi. Yuzida tabassum uyg'ondi. Vujudini paypaslab ko'rar ekan, tanasidagi o'zgarishlar bekor emasligini anglab, qaynonasi-ning istiqboli sari shoshila boshladi.

O'sha kundan buyon ko'rpa-yostiq qilib yotib qolgan qaynonasi kelinini xushhol ko'rib, joyidan siljidi. Lolaruh qaynonasining muzday qo'lidan o'pdi.

— Oyijon, xushxabar keltirdim. Endi mening bu xonadondan ketmaslikka asosim bor. Bo'yimda borligi ayon bo'ldi, oyijon!

Necha kundan beri qimirlamay yotgan ona o'rnidan turdi.

— O'g'lim seni qanchalar yaxshi ko'rishini bilardim... Kel, qizim, duo qilay.

BAHORNING ENG SO'NGGI LOLASI




Telenovella

Mana... senga bag'ishlangan hamma she'rlarimni birma-bir o'tga tashlayapman. Sen bilan kechgan xotiralar, seni sevib, ardoqlab, sog'inib, yurak-yuragimni zirqiratgan tuyg'ularim bitilgan va endilikda birmuncha sarg'ayib ketgan kundalik xotiralarimni ham yoqib yuboryapman.

Men ularni sen bilan tanishgan 9—10-sinf paytlarimda yozgandim. Birinchi she'rim ham faqat senga atalgan. Yodingdami, bu she'rlarni o'qib, tilimda aytmagan gaplarni aytardim va sendan sevgimga javoban, «ha, men ham sizni yaxshi ko'raman», — degan so'zni kutardim. Sen esa xuddi hech narsa bilmaganday, pinagingni buzmasdan: — «Sizdan yaxshi shoir chiqadi» — deyar eding.

Ko'chalaring boshida shovullab turgan baland terakzor bo'lar, kechalari oyning oppoq yog'dusi ariqlarda jilvalanar, daraxt barglarida, maysalarda, umuman chor atrofdagi kumushday tovlanardi. Men deyarli har kech ko'chang boshidagi temir yo'l relsiga o'tirib, derazangni poylardim. Goho-goho imkon



topganingda, bir necha soniyagagina yonimga chiqarding. Imkon topolmaganingda, chiroqni al-lamahalgacha yoqib qo'yarding. Ana shu oy, ana shu terakzor, ana shu osmon to'la yulduzlar men shirin entikish bilan eslaydigan mangu osmon bo'lib qoldi.

Yodingdami, men o'ninchi sinfni bitirayotgan yilim qirga lola tergani chiqdik. May oyi oxirlagani uchun ikkalamiz harchand izlasak-da, birortayam lola to-

polmadik. Lolaqizg'aldoqlar qip-qizil gilamday yoyilib ketgan, lekin lola topilmas, ikkimiz hansirab u yoqdan-bu yoqqa chopganimiz-chopgan edi. Tabiatning rahmi keldimi, kun botay-botay deganda bir donagina lola topdik. U kattagina, tanasi yo'g'on, barglari qalin edi. Biz bolalardan ancha uzoqlashib ketgan, ularni ko'zimiz zo'rg'a ilg'ar, biz yurgan qirda esa hech kim yo'q edi.

Holdan toyib, yerga cho'kar ekanmiz, bexosdan bir-birimizga suyanib qoldik. Men o'shandagina birinchi bor bahor gullarining muattar bo'ylari kelib turgan yuzingni engashib, yoqutday qip-qizil va kuydiruvchi lablaringdan bo'sa oldim. Yuragim qiniga sig'mas, bu bo'sa ta'midan butunlay sarmast va saodatli edim. Qilig'imdan ranjib yugurib ketding. Jonim halqumimga kelib, ortingdan chopdim. Yetib olib, ko'zlarimga uzoq termulgan ko'yi pichirladim:

— Biz birga bo'lamiz, umrimning oxirigacha faqat seni deyman, faqat seni...

— Siz mening butun hayotimsiz, — degan eding.
— Biz faqat bir-birimizni sevamiz, — deya hayqirdik keng adirlarda.

O'sha kuni kech qaytarkanmiz, avtobusdagi barcha qizlar birgina sening qo'lingda qip-qizil, cho'g'day lolani ko'rib, qanchalik havas qilgan edi.

Yoz keldi... Men maktabni tugatib, Toshkentga o'qishga ketdim. Ehtimolki, sen tufayli, senga muhabbatim tufayli imtihonlardan o'tgandirman? Faqat sen tufayli bolaligim tugab, o'zimni ulg'aygan, katta bo'lib qolganday his etardim. Kap-katta daraxtni yoz chillasida boshqa joyga ko'chirib eksalar, ildiz olib, unib ketishi qanchalar qiyin bo'lganidek, men ham o'sha yoz sensiz ma'vosidan ayrilgan ildizdek qanchalar qiynalغانman.

Sog'inch va iztiroblar ichida bir yil o'tib ketdi. Bu vaqt ichida bir necha bor ko'rishdik, sanog'iga yetolmayman. Biz uchun bu uchrashuvlar baxtu farog'atga limmo-lim kunlar edi.

Keyingi yili maktabni bitirib, o'qishga kelding. Rosti, qanday kelganing, qanchalik izlaganingni bilmayman. Ammo meni juda-juda axtarganingga hech qanday shubham yo'q. Keyin, eshitishimcha, sen mening eng yaqin sinfdoshim, sirdosh, sen va mening oramizdagi hamma gapdan boxabar, xatlarimizni tashib yurgan do'stim Ilhom bilan kelibsan. O'sha kunlari men yozgi amaliyotda bo'lganim uchun ishdan keyin, talabalar yotoqxonasiga kelib qolarsan, deya juda ko'p kutdim. Afsus... Keyin... keyin eshitdimki, Ilhom sen uchun ijaraga bir uy olgan. Bir kuni seni aldab... va... bizning yo'llarimizni mutlaqo o'zgartirib yuborgan fojiali voqea yuz bergan. Iffating toptalgan...

Seni axtarib qishloqqa borganimda, bu gap allaqachon hammayoqqa tarqalgan edi. Qishloqda bir daqiqa turolmay, Toshkentga qaytdim. Faqat oradan bir qancha vaqt o'tib, azob-larga chidolmay yana qishloqqa bordim. Meni umringning oxirigacha sevishingga ishonardim. Lekin sen bilan ko'rishishga yuragim betlamasdi. Endi... sening jisming Ilhomniki.

Yarim tunda Ilhomlarning darvozasidan oshib tushdim. Qo'limda pichoq, ko'zlarim qonga to'lgan. G'azab va nafrat

shu qadar telba qilib qo'yarkanki, hech nimani idrok qilolmas, o'zimni to'xtatolmay hansirardim. Yoz edi, odamlar tashqarida yotishardi. Qorong'uda farqlolmay, birinchi to'shakda yotgan odamning ko'rpasini ko'tardim. Ilhomning akasi ekan. Vajohatimni ko'rib, sapchib o'rnidan turdi. Bo'y-niga pichoq tirab baqirdim:

— Ilhom qani?

Meni tanib, suykali boshlab it ham vovullay boshladi. Ilhomning onasi, otasi ayyuhannos solib, qo'limga yopishdi. Men esa o'sha nobakor do'stimni so'rab dodlardim. Ilhom ham shu orada yotgan ekan, urushish uchun hezlanib kela boshladi. Xanjarday o'tkir po'lat pichoqni dast ko'tarib, unga tashlandim. O'shanda yo tisarilib qoldi, yo omad kulib boqdi, pichoq shuvillab yonboshidan o'tib ketdi. Qo'limni orqaga qayirib, pichoqni tortib oldilar. Baqir-chaqir allamahalgacha davom etdi...

Keyin... o'rtalaringizdagi voqeadan hamiyati qo'zigan aka-ukalaring, qarindoshlaring Ilhomni yo o'ldirib ketamiz, yo qamatamiz deb janjallashavergach, oqsoqollar ikki yoshni unashtirib, to'ylaringni o'tkazishdi.

Shu-shu boshqa ko'rishmadik. Qishloqqa juda kam boradigan bo'ldim. Bir borganimda ajrashganingni, keyingi borganimda yarashganingni eshitib yurdim. Nihoyat, farzandli bo'lganingni ham bildim. Ilhom menga bitgan bir dasta xat-laringni topib olib, rosa urgani ham qulog'imga chalindi...

O'qishim bitgach, qishloqqa qaytib bormadim. Dardu hasrat olovida yonishga toqatim, sabru bardoshim qanday yetsin?

Nihoyat, taqdir taqozosi bilan yoshim o'ttizga yaqinlash-ganda hamkasb bir qizni yoqtirib qoldim. Ishimiz bir bo'lgan-ligi uchun u bilan fikru o'ylarimiz, dunyoqarashimiz mos kelardi. Gapimiz qovushar, bilgan-bilmaganlarimiz bilan bir-birimizni to'ldirardik.

Keyin e'tibor bersam, u senga o'xshagan ekan. Yuz-qiyofang, xatti-harakatlaring, gapirish-kulishlaring hammasi mujassam. Men sendan keyin hech kim bilan hatto gaplashib ham o'tir-magan odam Dildorani beixtiyor yaxshi ko'rib qoldim. Ko'chasi boshidagi shovullagan terakzor oy yorug'ida sen bilan kechir-

gan sof va beg'ubor davrlarimizni eslatar, jimirlagan oy yog'dusi, kap-katta yulduzlar Dildoraga muhabbatimni yanada oshirib yuborgandi.

U bilan faqat ana shu terakzor bo'yida uchrashardim. Bir kuni uzoq qolib ketdim. Dildora quchog'imda yo'q bo'lib ketganday edi. Men hamma narsani unutib yuborganday, baxtiyor va mas'ud damlarni kechirayotgandim. Sevganingdan keyin hech qanday gapni yashirmas ekansan. Chor-atrofni kumushrang qiyofaga kirgizgan oyga boqib, Dildoraga sen haqingda, ko'chalarining boshidagi terakzor va o'smirlikning bedor tunlari haqida gapirib berdim. Hammasini kulib eshitdi. Men dahshatli xatoga yo'l qo'yganimni, ayol kishi uchun bundan kattaroq haqorat bo'lmasligini keyin, oradan ancha kunlar o'tgach angladim.

Dildora asta-sekinlik bilan men sezmaydigan darajada mendan o'zini torta boshladi. Buni lola terishga taklif qilganimdan so'ng qaltiroq va ayanchli ovozda, «men birovning soyasi bo'lishni istamayman», deya shartta burilib ketganidan va uchrashuvlarni butunlay to'xtatib qo'yganidan so'nggina angladim. O'zim bilmagan holda sen bilan lola sayliga chiqib, ahdu paymon qilganimizdek, Dildora bilan ham men uchun ardoqli bo'lib qolgan xotiralar diyoriga qaytamiz, deb xayol qilibman. Sening o'rningda Dildora bilan manguga ahdlashib, birga bo'lishni niyat qilgan ekanman. Men unga sen haqingda gapirib bermaganimda, balki shunday bo'lmasmidi. Endi boshimdan o'tkazayotgan azoblarni it o'z boshidan kechirsa, til tortmay o'ladi. Men Dildorani endi-endi seva boshlagandim. U men bilan boshqa uchrashmadi. Yodingdami, o'shanda gilamday yastanib yotgan qip-qizil qizg'aldoqlar to'shalgan baland qirda, «biz umrimizning oxirigacha faqat bir-birimizni sevamiz», deya hayqirganimiz? Bilaman, sen hozir ham meni sevasan. Men ham. Lekin...

Mana, hamma she'rlarimni, xotira daftarlarimni birma-bir olovga tashlayapman. Men faqat senga atab she'rlar yozgandim. Xotira daftarimning boshidan adog'igacha faqat sensan. Bular yonib bo'lgach, menda hech narsa qolmaydi. Yolg'izlik naqadar dahshat! Gohida menga sen ham yolg'izday tuyulasan va imo

qilgan zahotim yonimga keladigandaysan. Lekin hech qachon imo qilmayman. Menga bitgan, lekin jo‘natmagan mak-tublaringning hammasini yoqib yubor. Men haqimda hech kimga hech qachon gapirma. Men ham sen haqingda gapir-mayman.

O‘ttizdan oshdim. Endi istasam-istamasam, hech kimni seni sevganchalik sevolmayman. Kimga bo‘lsin, uylanib, oila quraman. Sendan keyin sevishga urinib, xato qilgan ekanman. Sen — bahorimning eng so‘nggi lolasisan! Hayotimning eng so‘nggi lolasi! O‘sha qirda eng so‘nggi lolani topgan paytimizdagidek yuragimning tub-tubida o‘sha so‘z mangu turaveradi: biz umrimizning oxirigacha faqat bir-birimizni sevamiz!



BOSHIMDAGI TOJIM — ONAM!



(Tugallanmagan badia)

*Yer yuzidagi barcha
onalarga bag'ishlanadi!*

SO‘ZBOSHI

Bir kuni «Bekajon» gazetasining bosh muharriri Nargiza Roziqova: — «8-mart yaqinlashayapti, onangiz haqida chiroyli bir asar yozib bering», — deb qoldi. Nargiza bilan do‘st edik, xo‘p dedimu, qo‘limdan kelmaydigan ishga va‘da berib yuborganimni keyinroq onam haqida yozishni boshlaganimdan so‘ng bilib qoldim. O‘ylab qaragam, onam haqida ko‘p joyda intervyu beribman-u, lekin biron jo‘yalibroq asar yozmagan ekanman. Keyinchalik, negaligini o‘ylab qaragam bu juda qiyin ish bo‘lgani, kichkinagina hikoyalar yozib yurgan havaskordan roman yozishni, shabadadan bo‘ron bo‘lishni, musichadan burgutday uchishni, ariqdagi oy aksidan olamni yoritishni, ninachining ko‘zlarida yosh ko‘rishni talab qilishday gap ekan.

Men Amerikada bor-yo‘g‘i o‘n besh kun bo‘lib, Amerika haqida kitob yozgan odam, Yevropa, Afrika, Osiyo davlatlari, Xitoy, Hindiston, Afg‘oniston, Indoneziya, Yangi Gvineyada bo‘lib, shunchaki taassurotlar tufayli o‘nlab badialar yozgan odam, har bir o‘y-xayolim, fikrlarim, tuyg‘ularim tutashib ketgan, jonu jahonim bo‘lgan onam haqida rostdan ham shu paytgacha hech narsa yozmagandim. Meni o‘lim bo‘sag‘asiga yetaklab borgan, yana o‘zi shafqat qilib qaytarib kelgan va halihanuzgacha yuragi men uchun sirliligicha qolgan bir dilafgorni madh etib o‘nlab she‘rlar yozdim-u, meni hamisha himoya qiluvchi farishtaday bo‘lgan onamni madh etib, ikki qator she‘r yozmabman. Hamisha notinch, sarosimali, ertangi kuni jumboq bo‘lgan alg‘ov-dalg‘ov hayotim haqida, o‘zim haqimda

o‘nlab asarlar yozibman-u, meni tetapoya qilgan, yiqilganimda suyagan, yurganimda yo‘ldosh bo‘lgan, quvonganimda alqagan, o‘zimdan ham, o‘zidan ham meni ko‘proq suygan onam haqida hech narsa yozmabman. Nega?

80-yillar Afg‘onistonga harbiy xizmatga chaqirishganda, onamning ko‘z yoshlari to‘kilmasin deb, vokzaldan qaytmaganmidim?! Besh yillik viza berib, Amerikaga ishga chaqirishganda onamni sog‘inib qolaman deb, yo‘ldan qaytgan men emasmidim?! Bir umrlik orzuyim bo‘lgan Moskvadagi Jahon adabiyoti instituti eshiklaridan qaytib, u yerda o‘qigandan ko‘ra keksa onamning duolarini olib qolay degan menmasmidim?! Qirq yil yashab, hayotda biron marta so‘zini qaytarmaganim, ko‘ziga tik qaramaganim, qilcha shodligimni ham, qilcha qayg‘uyimni ham qirqqa bo‘lib ko‘rsatganim, qirq bor xabardor qilgan, qirq bor qayg‘urtirib, qirq bor quvontirganim, bolalarimga bildirmaganimni bildirganim, bolalarimga bermaganimni berganim, yaxshidan yaxshi, yakka-yu yagona insonim bo‘lgan onam haqida yozishim uchun nega o‘zimda kuch, qudrat topolmayman. Qachongacha topolmayman?!

Hayot menga abadiy berib qo‘yilganmi? Qirqqa kirganimda kirmagan aqlim qachon kiradi?

Hademay 8-mart ham keladi. Nargizaga biron bahonani ro‘kach qilarman. Ammo o‘zimga qanday bahona topaman? O‘zimni qanday aldayman. O‘zimning vijdonim yo‘qmi? O‘zimni o‘zim aldasam, dunyoda mendan ham razilroq odam bo‘ladimi?!

O‘ylab ko‘rsam, o‘zimni o‘zim shu paytgacha aldamagan ekanman. Shu paytgacha buyuk odamlar haqida buyuk asarlar yozish kerak, degan o‘yda bu mavzularga qo‘l urmagan, chetlab yurgan ekanman.

Bu safar esa yurak yutib, shu mavzuga qo‘l urayapman, yozgandan ko‘ra yozmagan yaxshi deyuvcilar uchun oldindan bir hikoyatni aytib beramanki, meni yozishim ham xuddi mana shu chumolining hikoyatiga o‘xshaydi:

— Odamlar yo‘lda ketayotsa, bir chumoli qarshisida turgan tog‘ning toshlarini yelkasiga ortib, chetga chiqarayotgan emish. Undan nega bunday qilayotganini so‘rashibdi.

— Tog‘ning narigi yog‘ida onam bor. Onamning oldiga bo-
rib-kelishim uchun tog‘ning o‘rtasini yorib, o‘zimga yo‘l qila-
yapman, — debdi.

Odamlar: «Bu sening qo‘lingdan kelmaydi-ku!», deyishsa,
— Qo‘limdan kelmaslik bahona bo‘lolmaydi, — degan ekan.

Men uchun ham xuddi shunday. Onam haqida buyuk asar
yozishga harakat qilaman. Buyuk asar yozolmasam, buyuk
mehr-muhabbat bilan yozishga harakat qilaman. Mehr-muhab-
batimni bor bo‘yicha izhor qilolmasam, yaxshi yoritolma-
sam ham baribir yozaman. Yaxshi yozolmasligim endi bahona
bo‘lolmaydi.



Ulkan daryolarning boshi qayerdan boshlanadi?

Buloq qaysi joyda ko‘z ochadi? Vatanni madh etgan
qo‘shiqlar alifbosini shu yurtning odamlari qalbidan olinadi-
dimi, cho‘llarning sukunatidanmi, bog‘lardagi shitirlashlar-
danmi, tog‘lardagi gulduroslardanmi? Uning alifbosi dar-
yolarning toshqinlaridanmi, shaharlardagi shiddatdanmi,
yigitlarning jasoratidanmi? Yo onalarning mehri-yu, qizlar-
ning husni-latofatidanmi? Mana shularni so‘zga aylantiro-
lmagan odam Vatanni madh etuvchi qo‘shiqlar yoza oladimi?
Mana shu alifboni o‘rgangan odam shoir bo‘ladimi?

Men uchun Vatan onamning yuragidan boshlangan.
Mening shoirligim shu yurakning tarbiyasida voyaga yetdi.
Shu yurak haroratidan taft oldi, shu taft qo‘limga qalam tut-
qazdi.



Onam qishning uzun kechalari oyog‘ini sandalga tiqqancha,
paxtani chigitdan sitib o‘tirardi. Men esa onamning sochlariga
turmaklangan Nikolay tangalarni o‘ynab shildiratardim.

— Alhamdu, deginchi, — derdi onam.

— Alhamdu... — derdim men.

— Lillahi...

— Lillahi... bu nima degani, — derdim nima deyayotga-
nimni tushunmay.



— Bu hamma bilishi kerak bo‘lgan kalima. Payg‘ambaramiz g‘orda o‘tirganlarida, farishta Jabroil «O‘qi» deb buyruq bergan.

— Farishta qanaqa bo‘ladi?

— U har bir odamning o‘ng va chap yelkasida bo‘ladi. Kim urishsa, so‘kishsa, singillarini turtib o‘tirsas chap yelkasidagi farishta, kim kattalarni ko‘rganda «salom» bersa, molga xashak solsa, maktabdan «besh» olib kelsa o‘ng yelkasidagi farishta yozib o‘tiradi. Keyin ikkovi hisoblab chiqadi. So‘ng odam uzun arqon tortilgan dordan yurgiziladi. Kim yaxshi bola bo‘lsa dordan o‘tib ketadi. Yomon bola esa dordan yiqilib, olovning ustiga tushadi...

— Hoy, Juman so‘fining qizi, yosh bolani kechasi qo‘rqitma, — derdi mudrab yotgan otam u yoqdan bu yoqqa ag‘darilarkan.

— Esi ko‘p bola dordan o‘tib, bir boqqa tushadi. Bu bog‘da bir ariqda sut, bir ariqda asal oqib yotadi. Kim qancha xohlarsa shuncha ichadi.

— Sigirning sutimi?! — deyardim tamshanib.

— Undan ham shirin sut. Qani endi «Alhamdu» degin-chi!

— Alhamdu...

— Lillahi...

— Lillahi...

— Robbil alamiyn...

— Robbil alamiyn...

Men, onam menga alla aytganlarini eslolmayman. Chaqaloq bo‘lganim uchundir, onam aytgan allalar esimda qolmagan. Yuqoridagi so‘zlar xotiram sahifasiga yozilgan birinchi so‘zlardir.



Bolalikdan kaptar ishqibozi edim. Maktabdan keldim deguncha, kaptarxonaga yugurar, qafas eshiklarini ochib, ularni uchirardim. Uchishda, o‘ynashda, ko‘rkamlikda kaptarlarimga teng keladigani bu yaqin atrofda yo‘q edi. Xovosning hamma kaptar ishqibozlari kaptarlarimning ishqibozi edi. Ular kaptarlarim uchishini poylab o‘tirishar, sollanib, qarsillatib o‘yna-

shini maroq bilan kuzatishar, zavqlanishar, jo'shib ketganidan hushtak chalishar, to'p-to'p bolalarning hushtakbozligi olamni buzardi. Go'yo o'zim uchganday charchog'im tarqab ketardi.

Bir kun kaptarxonani tozalayotganimda qattiq shamol esib, to'fon ko'tarildi. Galalashib uchayotgan kaptarlarim har to-monga to'zg'ib ketdi. Shamol shu qadar kuchli ediki, ba'zisi zo'rg'a yetib kelib, qo'noq yog'ochlariga qapishib o'tirib oldi, ba'zilari har qancha pastlab uchsalarida, yetib kelisholmasdi. Ularni axtarib ko'chaga otildim. Ne ko'z bilan ko'rayki, kaptarlarimning toji hisoblangan yoldor kaptarim simyo-g'och ustuni tagida qonga belanib yotardi. Uni qo'lga olar ekanman, kimdir roгатka bilan urib, o'ldirganini bildim. Alamdan ingrab yubordim. Ikki kun tuz totmay yurdim. Kim o'ldirganini bilsam, qattiq o'ch olish niyatida edim. Shunda onam yoniga chaqirib:

— Taxtga erishishdan ko'ra uni tutib turish qiyin. Chiroyli xotinga uylanishdan ko'ra, u bilan ro'zg'or qilib ketish qiyin. Yaxshi kaptarga egalik qilishdan ko'ra, asrash qiyin. Hasad qiluvchilar kecha ham bor edi, bugun ham bor. Ular ertaga ham bo'ladilar. Shuni yaxshi bilginki, suv qattiq joyda turadi. Olma shoxi ko'chaga chiqib himoyasiz qoldimi, tamom, unga qo'l cho'zguvchilar, albatta, topiladi. Agar quyosh hammaniki bo'lmay, kimnikidir bo'lganda, yo quyoshni urib tushirishgan, yoki o'sha odamni allaqachon o'ldirishgan bo'lardi.

She'r ham kaptarga o'xsharkan. Tarix takrorlanmoqda. Hayotimning dovulli kunlarida goh eng yaxshi she'rimdan ajrab qolaman. Gohida biror asarim ikki kishiga yoqib qolsa, buning uchun kimdir boshimga tosh otishini bilaman. Gohida yozgan asari minglab odamlarga yoqqan yozuvchining yozgan asariga emas, unga otilgan toshlarga bardosh berganiga qoyil qolaman. Shunda onamning so'zlari yana yodimga keladi: Hasad qiluvchilar kecha ham bor edi...




Otam qazo qilgan yillar edi. Biz uch kishi Toshkentda o'qir, qolganlar maktab o'quvchisi, onam akam bilan dehqonchilikka chiqib ketgan, yer olish, urug' ekish, ariq qazish, chopiq qilish,

hammasi katta xarajat talab qilganidan ilik uzildi payt kelgan, qozon suvga solib o'tirilgan vaqtlar edi. Hali qovun pishig'iga ancha fursat bor, daromad kutiladigan joy ko'rinmasdi.

Ro'zg'or birgina sigir orqasidan o'tib turardi. Suti peshma-pesh ichilar, qatig'i uyutilar, yog'i ovqatga ishlatilardi. Hammamizning es-hushimiz shu sigirda, suv berardik, o't tashlardik, nimaiki yemish topilsa og'ziga tutardik. Bir kun ertalab turib, dong qotib qoldik. Sigir qorni shishib, oyog'i osmonda bo'lib yotardi. Yaqin qarindoshimiz o'lib qolgan-day hamma qiy-chuv, yig'i-sig'iga tushdi. Ma'lum bo'lishicha, paxtazorga qo'yilgan selitra solingan suv kechasi ariqlarni buzib, sigir bog'langan joygacha kelgan va sigir suvdan ichgan-u, zaharlanib o'lgan.

Ayniqsa, singillarim onamning ro'zg'or tebratish uchun qiynalayotganligini bilganidan, hamma og'irlik yana onamning bo'yniga tushayotganidan yuraklari ezilib yig'lashardi.

— Qul o'lmay rizqi kamimas. Rizqimiz shu sigir orqasidan kelib turgandi. Endi boshqa yoqdan kelsa ajabmas. Xudoning rizq berishiga ishonmaslik, Xudoga ishonmaslikdir, — dedi onam. Hayot ekan, yiqilganimda, goh kimdir aldab ketganida, goh bir og'iz iliq so'zga zor bo'lib qolganimda, dunyo ko'zimga qop-qora ko'rinib yashashdan ma'no qolmaganida, yashash faqat azobdan iborat ekan, degan xulosaga kelib bir



yorugʻ kundan umidim uzilgan kezlar onamning oʻsha paytdagi holatini, matonatini, aytgan gaplarini eslayman va oʻzimda yashashga qaytadan ishtiyoq uygʻotaman. Ha, qul oʻlmay rizqi kamaymas ekan. Bir kun saodati ham yoʻqlab kelar ekan.

Qaysidir, men suyangan odam xiyonat qilganda oʻsha sigirni eslayman. Suyanganingda yiqitib ketadigan odamlar koʻp boʻlar ekan. Shunda onam bergan saboq yodimga keladi: — «Sigirlarga emas, har doim rizq berib turuvchi Xudoga suyan, bolam. Sigirlar oʻlib qolaveradi, Xudogina abadiy».

Oʻsha yili shunday boʻldi. Bizning qovunlarimiz hamma-nikidan oldin pishdi. Yarim mashina qovunni Andijon bozo-riga eltgandik, rastalar boʻshab turgan payt ekan, akam ikka-lamiz olib borgan qovunlarimizni kechgacha sotib tugatdik.

Qaytib kelganimizdan keyin akam onamning koʻngli joyiga tushsin, uyimizdagilarning xotirasidan oʻchib ketsin deb, boʻy-basti, rang-roʻyi xuddi oʻlgan sigirimizga oʻxshab keta-digan qoramol sotib oldi.

BIRINCHI MUHABBATIM



Bolalikda, maktabni bitirayotgan paytlarim bir sinfdoshim bor edi. Bir-birimizdan bir soniya ajralmas, maktabda birga yurar, darsdan keyin ham yo u biznikiga, yo men ularnikiga borib kunni kech qilardik. Taqdir oʻyinini qarangi, ikkalamiz bir paytda, bitta qizga koʻngil qoʻydik.

U buni ochiq aytar, men esa bildirmasdim. Qiz ham buni bilar, lekin koʻngli kimga moyilligini yashirardi. Vaqti kelib, ular orasidagi sir hammaga oshkor boʻlgach, chetga chiqishga, doʻstim uchun sevgidan voz kechishga qaror qildim. Yuragim esa bunga boʻysunmas, sevishda davom etardi.

Keyinchalik u qiz doʻstimga sevmasligini aytib, boshqa birovga tegib ketdi. Uchalamiz, mana yigirma besh yil oʻtdiki, shu ajralganicha biron marta koʻrishmadik. Mening unga boʻl-

gan muhabbatim esa bir soniya bo'lsin so'ngani yo'q. Biz hozirgina ajralishganday yuragimdagi jarohatlar qoni silqib turibdi. Men uni hamon sevaman, men o'zimdan hali hamon nafratlanaman. Men do'stimni deb muhabbatga xiyonat qilgandim, do'stligimizdan ham kuchliroq bo'lgan muhabbatni oyoqosti qilgandim. Men muhabbatni e'zozlaganimda, do'stligimiz balki bundan ham kuchayishi mumkin edi, bilmayman, ammo hali-hanuz yuragimda sevgilimning o'rni bo'm-bo'sh ekanligini, hech kim egallolmasligini, hech kim men uchun uningchalik qadrli va sevimli bo'lolmasligini bilaman va yolg'iz qolgan chog'larim bu ayriliq hasratidan ko'zimga yosh keladi.

DO'STLARIM



Men hayotda do'stlarim ko'pligidan, bolalikdagi do'stlarimdan ham, keyin orttirgan do'stlarimdan birontasi bilan ham ajralishib ketmaganimdan faxrlanaman. Bunga ham onam sababchilar. Bo'lib o'tgan o'sha voqeadan so'ng, onamning bir rivoyat aytib berganlari esimda:

— Bir odam imorat qurayotganda, farishta Azroyil kelib, jonini olishini aytadi. Odam, qurayotgan uyim bitay deb qoldi, faqat mehmonxonagina bitmagan, odamlar kelib-ketib turishi uchun biroz muhlat ber, sendan o'tinib so'rayman, — debdi. Farishta Azroyil Olloyi taolodan maslahat so'rash uchun ko'kka ko'tarilibdi. Olloyi taolo bandasining o'zi uchun so'ramayotganidan, mehmondo'stligidan mamnun bo'libdi va:

— Borib ayt, yer yuzida do'stlari qancha bo'lsa, so'nggi do'sti qolguncha yashayversin, deb rozilik bildiribdi. Farishta Azroyil kelib, u odamga bo'lgan gapni aytib beribdi.

Shunda haligi odam: — Kel, jonimni ol, qanchalik razil ekanman, shuncha yashab birorta do'st orttirmabman. Do'stlikning martabasi shunchalik ulug'ligini bilmabman. Bu kunimdan o'lganim afzal, — deya jonini haqqa topshirgan ekan.

Hayotda do'st orttirish ham katta gap. Katta boylik. Xudo odamga bitta yo ikkita do'st beradi, shuni ushlab qolsa ushlab qoldi, bo'lmasa umri so'ppayib o'tadi, — degandi. Onamning shu gaplaridan keyin hamisha do'st orttirishga, do'stlarga sadoqat ko'rsatishga, ulardan uzilmaslikka tirishib keldim va hayotimda bitta, ikkita do'st bor ekan, bu onamning o'sha o'gitlarini unutmaganim hosilasidir. Gohida do'stlarim bormi, degan savol oldimga ko'ndalang bo'ladi. Yo indamay o'lib ketaversam bo'ladimi? — deyman o'zimga o'zim. Nega men odamlarni bilolmadim? Ularni ko'nglini ololmadim, deyman va atrofimdagi odamlarga e'tiborliroq bo'lishga, ularni o'rganishga, ularning yuraklaridagi so'zlarni eshitishga harakat qildim. Va hayot sarhaddari men uchun kengayib bordi. Hayot aynan odamlarni bilganing, sevganing, yuragingdagi rishtalarni ularning yuraklari bilan bog'laganing, bu rishtalar bir-biri bilan bog'lanib, qancha uzun bo'lsa, taqdir yo'llaring, umring shunchalik uzun bo'lganiday gap ekan.

Bolaligimda onam aytib bergan o'sha rivoyat menga bir umrlik saboq bo'ldi. Birov to'satdan do'sting bormi, bo'lsa ayt, bo'lmasa o'lib ketaver, deganday tuyulaveradi. Shunda do'st axtarishga tushaman va bu odatim bora-bora meni yozuvchilikka — insonlar qalbini o'rganuvchi fan sari yetaklagan bo'lsa ajab emas.

BIRINCHI SHE'RIM



Birinchi she'rlarimni universitetni bitirgach, yana ikki yil ijara uyga qamalib olib, faqat ijod bilan shug'ullanganimdan so'nggina chop ettirganman. Adabiy muhitning talabi shunday edi. Qolaversa, birinchi chiqishimga juda jiddiy e'tibor berganman va bu favqulodda hodisa bo'lsa kerak, deb qaraganman. Qolaversa, o'sha paytning mashhur shoirlaridan biri, so'zboshi yozganidan boshim osmonda edi. U paytda adabiy davrada tanilish uchun bir turkum she'rlar bilan chiqishning o'zi kifoya qilardi. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida



birinchi she'rlarim chop etilganda, quvonchim ichimga sig'may yugurganman. Harqalay bu — adabiyotdagi g'ayrioddiy hodisa bo'lmasa-da, bu — ijodiy yo'limning ochilishi, bu — ilk uchirmalarim, bu — shoir sifatidagi ilk aytgan so'zlarim — shahodatnomam edi.

Gazetani qo'ltiqlab, darhol Xovosga yo'l oldim. Ularni onamga ko'rsatishim kerak edi. Harqalay, o'qishni bitirganimga ikki yil bo'lgan, ikki yilki bironta rasmiy joyda ishlamas, biron joydan maosh olmas, nima qilayotganimni, nima ish bilan mashg'ulligimni birov bilmas, she'rlarimning gazetada chiqishi, nima bilan bandligimni ko'rsatuvchi ashyoviy dalil edi. Shu paytgacha birovga she'r yozib yuribman deb aytolmas, bu yumush yuragimning tub-tubidagi sirim bo'lgani uchun she'r yozishimni hammadan yashirar, bu she'r yozishni mayda ish deb qaraganimdan emas, eng ardoqli, eng ulug' ish men uchun bundan ham muhimroq, bundan ham azizroq yumush yo'q deb qaraganimdan, she'r yozishimni aytsam, nahotki shu ish sening ham qo'lingdan keladi, deb ustimdan kulmasliklari va birinchi chiqishimdanoq odamlarning hafsalalarini pir qilmaslik uchun edi.

Xovosga kelganimda, mening sevinchimni ko'rib, onam mendan ham ortiq sevinib ketdilar. Singillarim she'rlarimni onamga o'qib bera boshladilar. She'rlar o'qib bo'lingach, onam gazetani qo'llariga oldilar-da, rasmimni uch bora o'pib qo'ydilar va «Yasha, o'g'lim» — deya alqadilar. Men onamdan she'r qanday ta'sir qilganini, ma'nosi nimaligini so'ray boshladim. Onam she'rlarimning ma'nosini aytib berishga qiyinalib qoldilar.

Gap shundaki, u paytlar tushunarsiz va murakkab she'r yozish urfga aylangan va men ham «modern» she'rlar yozaman deb, bor salohiyatimni «tiyiqsiz tuyg'ular tasvirlangan telbavor tushkunlik tashvishlari tarixi»ga qaratgandim. Onamning, o'sha kungi holati menga juda qattiq ta'sir qildi va men uchun eng aziz inson tushunmagan she'rlarni men uchun hech qanday qadri yo'qligini anglab yetdim va endi faqat tushunarli, oddiy va sodda she'rlar yozaman, deb qat'iy ahd qildim. Onamning yuzlariga balqib chiqqan ifoda, ijodimni

mutlaqo oʻzga oʻzanga burib yubordi. Boshqacha boʻlishi mumkin emasdi. Men hozirgacha nimaiki yozsam, onamga oʻqib berishga, u kishining fikrlarini olishga, hech boʻlmasa, kitobim yoki mening asarlarim asosida suratga olingan videofilmlarni koʻrsatib, xursand qilishga va shu holatgina hayotimga mazmun bagʻishlashini yaxshi bilaman. Koʻpincha yozuvchilardan kim uchun yozasiz? — deya soʻrashganida, muxlislarim uchun, yoki adabiyot uchun, yuragim buyurgani uchun, — deya turlicha javob berishadi. Ularniki ham toʻgʻri. Men esa koʻpincha onam uchun yozaman. Gʻarbga taqlid qilishdan, chet ellik yozuvchilarning uslublarini oʻzlashtirishdan oʻzimni tiyaman. Onamning koʻnglini koʻtarish, onamga koʻproq yoqish, yuragimning toʻrida meni hamisha qoʻllab-quvvatlovchi ardoqli inson boʻlgani uchun yozaman va onamning juda koʻp soʻzlarini «oʻgʻirlab» asarlarimga kiritaman va hamisha ayollarni ulugʻlab yozganim uchun hamma ayollar, avvalambor onamdan minnatdor boʻlishlari kerak, deb oʻylayman. Chunki onam ayol ulugʻligining dalili sifatida hamisha koʻz oldimda turadilar.

Oʻsha kuni onam tushkunlikka tushib qolganimni koʻrib, duo qildilar va bu sheʼrlarning tagida juda katta maʼno yotganini, shoir odamning niyati hamisha yaxshilikka boʻlishini taʼkidlab, bir rivoyat aytib berdilar.

— Emishki, bir banda jannatga tushibdi. Undan bogʻ yaratgani uchunmi, imorat qurgani uchunmi, qaysi xizmatlari uchun bunday sharafta noil boʻlganini soʻrashibdi.

— Ha, bogʻ yaratdim, lekin savobi bogʻbonga ketdi, imorat qurdirdim, savobi meʼmorga ketdi. Men bor-yoʻgʻi ularga yaxshi tilaklar bildirdim, niyatim obodonchilik ekanini aytdim, yaxshi istaklarim uchun jannatga doxil boʻldim, degan ekan. Shoir ham yaxshi niyat kuychisi, yaxshilik tarafdori, bu xizmatlaring, bu sheʼrlaring albatta el orasida eʼzoz topgay va yaratgan egam, bu intilishlaringni savobi deb, marhamatini darigʻ tutmas. Men shundan xursandman. Endi shoirning onasiman deb, hamma joyda maqtanib yuraman, — dedilar.

Men yana Toshkentga qaytdim. Oʻzim yozgan sheʼrlardan, aniqrogʻi sheʼr yozish uslubimdan yuz oʻgirdim. Oʻz

dunyoqarashimdan voz kechdim. O‘zimda onamning dunyoqarashini tiklashga kirishdim. Bu haqiqiy o‘zbekona dunyoqarash, o‘zlikka qaytish edi. Men aslimga qaytishni istar, lablarim Hazrat Jomiyning ushbu so‘zlarini pichirlardi: «Onangdan bosh tovlama, oshmasin dardi, sharaf toji erur oyog‘in gardi».

TANQID

Bir gal she‘rlarimni juda qattiq tanqid qilishdi. Ishdan ham bo‘shatishdi. Agar she‘rlarimni yig‘ib olmasam, vaziyat bundan ham jiddiylashib ketishini, hamma tomon yonib ketishi mumkinligini aytishdi. Boshim karaxt bo‘lib, hech joyga sig‘may qoldim.

Oilam bag‘riga ham, yor-do‘stlar davrasiga ham, ustozlar panohiga ham sig‘may qoldim. Ikki yarim million aholi yashaydigan shaharda bitta onamga teng keladigan odam topilmadi.

Yarim kechasi uyga kirib bordim.

Onam: — Yaxshi yuribsanmi? — dedilar.

— Tuzuk, — dedim.

— Nima bo‘ldi, ishdan haydashdimi? — dedi onam.

— Yo‘q, hamma ishlarim joyida, — dedim.

— Seni ishdan haydashibdi, ahvoning ham chatoq, nima bo‘ldi — dedi onam.

— Hech narsa bo‘lgani yo‘q, — dedim, zo‘rg‘a ovozim chiqib:

— Aytaver endi, ishing yaxshimasligini rang-ro‘yingga qarab bilib turibman, — dedi onam.

— Endi qishloqqa qaytib kelaman. Toshkentda men uchun hayot tugadi, — dedim.

— Yo‘q, sen hali O‘zbekiston xalq yozuvchisi bo‘lasan, noming tarixda qoladi, odamlar sen yozgan asarlarni asrlar osha o‘qib yurishadi. Toshkentda ishlamasang ishlama. Lekin o‘sha yerda ijod qilasan, kitob yozasan. Seni ham, bolalaringni ham o‘zim boqaman. O‘zim har oyda pul yetkazib turaman. Hech narsaga zoriqmaysan. Sen pulning ketidan quvma, pul sening ketingdan quvsin. Hammayam shoir bo‘lavermaydi.

Seni hech qachon birovga xo‘rlatib qo‘ymayman. Ana, akangni mashinasi turibdi, oborib sot-da, pulini yeb yotaver. To ishing o‘nglanguncha, Xudo poshsho. Endi, aytib ber-chi, qaysi ko‘ngli qora battol izingga tushdi.

Men bo‘lgan voqealarni aytib berdim. Xovosda bir oyga yaqin qolib ketdim. Onam bilan aziz-avliyolarni ziyorat qildik, Samarqandga, Buxoroga bordik. Akamni mashinasida juda ko‘p ziyoratgohlarni kezib, Xudodan yomon kishilarga insof, yaxshilarga rushdu hidoyat so‘radik. Bir kun Toshkentdan meni yo‘qlab, qo‘ng‘iroq bo‘lib qoldi. Yaqinlarim hamma xavf-xatar o‘tib ketganini, endi ishim qayta tiklanishi mumkinligini aytishdi. Men safar tadorigiga tushdim.

Onam dushmanlarimdan o‘ch olmasligimni, indamay yuraverishimni, ularni ko‘rganda o‘zimni xuddi hech narsa bo‘lmaganday tutishimni qayta-qayta tayinladilar. Dushmani dushman ekanini yuziga solsang, ochiq dushmanga aylanadi va uni dushman deb bilishingni unutilmay do‘stlik qo‘lini cho‘zmaydi. Dushmanning dushman ekanligini o‘ziga bildirmasang, u dushmanligimni bilmaydi, deya do‘st bo‘lib kelishi osonlashadi. Dushmaningni dushman ekanligini o‘zing bilsang kifoya va bu bilishingni hech kimga bildirma, dedilar va tilga ehtiyot bo‘lishim shartligini qayta-qayta tayinladilar.

Bu ta‘kidlar esimda qolishi uchun bir rivoyat aytib berdilar:

— Bir to‘ng‘iz yo‘lning o‘rtasini kesib o‘tayotgan ekan, uni ko‘rgan Rasululloh: — E, Xudo shu maxluqing, yo‘ldan eson-omon o‘tib olsin-da, — debdilar. Payg‘ambarimizning so‘zlarini eshitib turgan sahobai kiromlar:

— Yo, Rasululloh, bu to‘ng‘iz Xudo la‘natlagan maxluq bo‘lsa, nega uni alqayapsiz? — deyishsa, Rasululloh: — Uni ko‘rib, tilimga yomon so‘z kelmasligi uchun tilimni asrash uchun, tilimni yomon so‘zga o‘rgatib qo‘ymaslik uchun uni yaxshi so‘z aytib alqadim, aytganim to‘ng‘izni asrash uchun emas, o‘z tilimni bo‘lmag‘ur so‘zlardan asrash uchun edi. Sizlar ham har yomon narsani ko‘rganda yomon so‘z aytishdan tilingizni tiying, — degan ekanlar. Sen ham har yomon narsani ko‘rganda, shu narsa yomon deb aytishdan tilingni tiy. Tiling

hamisha yaxshilikka xizmat qilsin. Hayot ham xuddi katta ko'chaga o'xshaydi. Undan yaxshi ham, yomon ham o'tave-radi. Agar yomonga bir marta yomon desang, ikkinchi bor ko'rganingda ham yomon deysan. Shu bilan nazaring faqat yomon narsalarga tushadigan bo'lib qoladi. Shoir odam bu holatdan o'zini qutqarishi kerak. Yomonni yomon deyish, hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi. Yomonni faqat yaxshisan deb, yaxshilash mumkin. Hayot ko'chasidan to'ng'izlar kecha ham o'tgandi, bugun ham o'tadi, ertaga ham...

Shundan so'ng mening ijodimda hayotning qora tomon-larini ko'rsatuvchi lavhalar, birovni ustidan kuluvchi haqo-ratlovchi chiziqlar mutlaqo yo'qoldi. Bu onam bergan ilk saboqlar edi.

QARZ



Bir kun qishloqqa borganimda janoza ustidan chiqib qol-dim. Marhum tanish edi, bordim. Imom foniy dunyoning o'tkinchiligi haqida ma'ruza qildi, so'ng marhumning bo'ynida qarzi bor-yo'qligini so'radi. Tobut yonida rahmatlining amakilaridan biri turardi. Odatda, bunday paytlarda, qarz berganlar indashmaydi. Harqalay, voz kechib yubormasa ham, haq talashishning mavridi emasligini bilib, sukut saq-lashadi. Lekin Imom ham shu yerlik bo'lgani va marhumning bo'ynida juda ko'p qarzi borligini va qaytarilmagan qarzlari uchun marhum qattiq azoblanishini inobatga olibmi, savolni qayta-qayta bera boshladi. Qarz berib turganlardan biri mar-humning savlat to'kib turgan boy amakisidan najot kutib: — Marhum mendan qarzdor edi. Bunga guvohlarim ham bor, — dedi. Imom talabgorga qaradi va qarzi qanchaligini so'radi. Talabgor bor dardini to'kib soldi. U so'zini tugatar-tugatmas uning yoniga yana boshqa bir talabgor keldi. Imom marhum-ning amakisiga qarab murojaat etar-etmas, talabgorning soni ortdi. Olti kishiga yetdi. Ularning aytishi bo'yicha marhum o'tgan yili hammaning piyozini baholab, nasiyaga olgan va vagonga ortib Rossiyaga olib ketgan. Yo'lda piyozlarni sovuq

urgan. To manzilga yetib, bozorga tushirgunlaricha piyoz muzlab, chirib, ishlatishga yaroqsiz bo‘lib qolgan, sasib ketgan piyozlarni sotish tugul, yonidan pul to‘lab, chiqindi to‘kiladigan joyga ortib borib tashlashgan. Bir oy yurib-yurib zo‘rg‘a uyiga qaytib kelgan. Uyga qaytgach esa piyoz bergan dehqonlar har kuni birma-bir kelib haqlarini talab qilaverishgan. Uydagi hamma narsa sotib tugallansa-da, qarzning o‘rni qoplanmagan. Oradan bir yil o‘tsa hamki, o‘zini o‘nglolmagan odam shu bo‘yi o‘zini o‘nglolmay yurak o‘ynog‘i bilan olamdan o‘tgan. Hozir biz o‘sha odamning janozasi ustida bo‘layotgan janjalning guvohi bo‘lib turgandik. Imom marhumning amakisidan — «Qolgan qarzlarni to‘lashni o‘z bo‘yningizga olasizmi, marhum go‘rida tinch yotsinmi?!» — deya baralla ovoz bilan so‘radi. Amaki indamadi. Imom yana qayta so‘radi. Amaki: — «Bu juda katta miqdordagi pul, men mas‘uliyatni bo‘yningga olib, Xudo oldida yolg‘onchi bo‘lib qolishni istamayman. Ana marhumning o‘g‘li bor, omon bo‘lsa balki bir kun uzilib ketar», — dedi. O‘rtaga marhumning o‘g‘li chiqarildi. U chopon kiyib, belini bog‘lab olgan 10—12 yoshlardagi bolakay edi. Bolakay aftidan gap nimadaligini tushunib turardi.

— Mayli men otamning hamma qarzlarini bo‘yningga olaman, — dedi. Odamlar orasida norozi ohangdagi gap-so‘zlar eshitildi: «Bu qachon katta bo‘ladi-yu, qachon pul topib haqimizni to‘laydi?»

Imom ham o‘z vazifasini ado etib bo‘lganini anglaganidan yelkasidan tog‘ ag‘darilganday shosha-pisha janoza o‘qishga tushdi. Lekin bo‘lib o‘tgan holat juda ayanchli holat edi. Bunday savdo hech kimning boshiga tushmasin. O‘z hayotini bunday yakunlanishini hech bir bandangga ravo ko‘rma, ey, Tangrim!

Janozadan so‘ng tobutni yerga qo‘yar ekanmiz, hamma bir siqim, bir siqim tuproq olib, go‘ringda tinch yot, Oллоh mushkulingni yengil qilsin deb, duo qilib, lahadga tashladi.

Shunda qarz berganlardan biri baland ovozda: «Shu odam bizning qarzimizni to‘lolmay olamdan o‘tdi, qarz o‘rniga jonini berdi, men bergan qarzimdan kechdim, shu odam go‘rida tinch yotsin, qiyomatda men uchun yarim tanasi kuygan

holda tirilmasin, tanasi butun bo‘lib tirilsin, Olooh yo‘liga bag‘ishladim!» — dedi. Uning bu gapidan ruhlangan keksa oqsoqollar: «Barakalla, balli, umring uzun bo‘lsin, qani yana kim bor, qarzdin kechadigan», — deya sado berdi. Qarz berganlar birin-ketin «Men ham kechdim, men ham kechdim, shuncha pulim bor edi, bahridan o‘tdim», deya rozilik berishdi.

Butun jamoat xuddi boshlaridan tog‘ ag‘darilganday yengil tortdi. Go‘rga tuproq tashlovchilarning ketmon tortishlari jadallashdi.

JIGARGA TEKKAN QAMCHI



Bir kuni, u paytlar universitetni endigina bitirgan, ish izlab yurgan, tuzuk-quruq ovqatlanish tugul, ijara haqini to‘lashga hech vaqosi yo‘q, lekin erta-yu kech kitob o‘qish, ijod bilan band kunlarning birida meni yo‘qlab qishloqdan yaqin qarindoshimiz kelib qoldi. U paytlar shunday odat bor edi. Shaharga tushgan o‘ziga to‘q kishilar talaba qarindoshini o‘rtoqlari bilan yig‘ib restoranlarning birida ziyofat berar, o‘qishlariga omad tilab, qo‘llariga 3—4 so‘m pul tashlab ketardi. Bizning qarindoshimiz ham o‘rtoqlarimni yig‘ib katta ziyofat berdi va ketar oldi: «Turkiyaga boradigan yo‘llar ochilibdi, bitta yo‘llanma topib ber» — deya qo‘limga 300 so‘m tutqazdi. 300 so‘m o‘sha paytning hisobi bo‘yicha katta miqdordagi pul edi. «Xo‘p» deya olib qoldim.

Albatta, oqibati nima bilan tugashini bilganimda, olib qolmasdim.

Oradan bir haftalar o‘tib, sahar chog‘i, hali hamma uyquda, tong ham yorishmagan payt, eshigimiz taqillab qoldi. Eshikni hamxonam ochdi.

Ne ko‘z bilan ko‘rayki, xona o‘rtasida g‘azab va vajohat bilan onam turardi. Ustimda kiyimim bo‘lmagani uchun turishdan istihola qilib onamning oshxonaga o‘tishini kutib turdim.

Ammo onam pol yuvishga mo‘ljallangan tayoqni olib, ura ketdilar. Men: «Hoy nima qildim, nega urasiz» — deya

baqiryapman, baqiryapman. Onam esa to'xtay demasdilar. Boshimga, qo'llarimga tushgan zarblardan suyaklarim sinib, maydalanib ketdi, deb o'yladim, ammo onam to'xtay demasdi. Va oxiri urishdan charchab: — «Nega falonchining pulini olding, nima men seni qarz olib, katta qilganmidim. Boshimdan shuncha qiyinchilik o'tdi, birovning eshigiga sarg'ayib borganimni ko'ruvdingmi, endi hammasi o'tib, ro'shnolik ko'raman desam, sen birovdan qarz olib, meni isnodga qo'yadigan bo'ldingmi, falonchi bolalarini boqolmay, qarz so'rashga o'tibdi degan nasdaqqa qoldiryapsanmi meni, bu kuningdan o'lganing yaxshi emasmi, bo'ynimga shunday gapni ortishdan ko'ra, to'ruva xalta osib qo'ysak yaxshi emasmi? — deya dod solib yig'lay boshladilar. Men hech kimdan qarz olmaganimni, pul tashlab ketgan qarindoshimiz o'zining ishi uchun, Turkiyaga borishi uchun tashlab ketganini ming bor qayta-qayta aytsam ham tushunmasdilar. Tushungisi kelmasdilar. Nihoyat, «Qani, o'sha pul?» dedilar. Men pul turgan joyini ko'rsatdim. Onam pulni olib, hozir olib borib ber, — dedilar.

Shunday qilib, tong otmay ona-bola yo'lga tushdik. Ma'lum bo'lishicha, qarindoshimiz qishloqqa borgach, Toshkentdagi «vallomatliklari» haqida maqtangan, Turkiya haqida gapirganmi-yo'qmi bilmadim-u, lekin pul tashlab kelganini u yoq-bu yoqda qistirib o'tgan. Bu gap esa, albatta, onamning qulog'iga yetib borgan.

Men hozirgacha onamning bu kaltaklari uchun ming bor rahmat aytaman, ming bor minnatdorman. O'shanda hech qachon, hech kimdan qarz olmayman deb ahd qildim va bu ahdda sobit saqlagan va muhtoj onlarimda ham qarz olmasdan ham yashash mumkin bo'lgan yo'llarga boshlagani uchun Parvardigori olamga shukronalar aytaman.

Odam sidqidildan harakat qilsa, Xudo iltijolarini qabul qilarkan. Bunga men o'z hayot tajribamda amin bo'ldim. Zotan, kishi o'z muhtojligini birovdan qarz olish evaziga yopmasligi kerak ekan. Zotan, qarz so'ragan odamning eshigidan muhtojlik hech qachon ketmas ekan. Bu balki Olloh taoloning qonunidir. Olguvchining boyligi hech qachon ko'paymas, berguvchiniki hech qachon kamaymas ekan. Onam: — Eshigingga o'lim

taqillatib kelsa kelsinu, birov qarzini qistab taqillatib kelmasin! — degandilar. Shuning uchun har kuni Xudodan soʻrayman, umrimni uzoq qil, boshimga muhtojlik musibatini solma, boʻynimga qarzdorlik boʻyinturugʻini ilma, meni olib ketgani oʻlim kelsa kelsinu, birov qarzini soʻrab kelmasin!

Onam aytib bergan rivoyat bir-bir xayolimdan oʻta boshladi.

Bir bola bilmay ayb ish qilib qoʻygan ekan, Qozi uni va onasini oʻn darradan urishni buyuribdi. Dastavval onasini oʻn darra uribdilar. Ona indamay koʻz yoshi toʻkibdi. Soʻngra navbat bolaga kelibdi. Ona chinqirib yuboribdi.

Kaltaklovchi toʻxtab: — Nima boʻldi, shuncha urdim, chidading, bolangga birinchi darra urishdayoq nega buncha dodlaysan? — dedi.

— Sen meni urganingda, qamchi badanimga tegardi, bolamni urganingda esa toʻgʻridan-toʻgʻri jigarimga tegayapti, — degan ekan.

Onamning bu soʻzlarini koʻp xotirlayman. Boshimga tushavergan kaltaklar mendan koʻra onamga koʻproq azob berishini, oʻzimni onam uchun asrashim kerakligini, bu kaltaklar mening vujudimdan koʻra onamning jigariga koʻproq azob berishini his qilaman. Va bu tuygʻu meni xuddi tumor singari balo-qazolardan asraydi.

ICHISHNI TASHLAGANIM



Bir kuni yaqin oʻrtogʻim uylanadigan boʻlib qoldi. Yosh edik, oʻynab-kuladigan paytlarimiz edi. Toʻy rosa avjiga chiqdi. Oz-ozdan ichdik, oʻrtogʻimga hurmatim shu qadar balandligidan oʻrtada oʻynayverib-oʻynayverib charchadim. Bu fidoyiligim, sidqidilligim, jonimni berar darajadagi mehrim, iltifot koʻrsatganim uchun hanuz oʻzimni kechirolmayman.

Kelinni toʻyxonadan olib chiqayotganda, qorongʻu boʻlgani, kelin-kuyovga qarab oʻynab, orqasida chuqur xandaq borligini koʻrmay, zovurga tushib ketdim va temirga boshimni

urib, hushimni yo‘qotdim. Hushimga kelganimda shifoxona-ning reanimatsiya bo‘limida yotardim. Yorilgan boshimni tikishgach, doka bilan qattiq tang‘ib bog‘lashgan edi. Shu ko‘yi bir oy yotdim.

Shu bir oy ichida uylangan o‘rtog‘im bir marta holimni so‘rab kelmadi. Hatto biror kishi orqali «ahvoli yaxshimi?» — deb qo‘ymabdi. Bu qattiq alam qildi. Men uning to‘yida bir o‘limdan qolsamu, u hatto bir og‘iz so‘zini ayab, ko‘nglimni so‘ramasa?!

O‘sha kunlari har kuni onam boshimda o‘tirib, yig‘lab chiqardi.

Odamning boshi ketib, miyasi kirdi-chiqdi bo‘lib, savdoyi bo‘lib qolishi, bu o‘limdan ham ayanchliroq, achinarliroq bo‘lishi va bunga bir bahya qolganligini anglab yetar va «Bo‘ldi, boshqa ichmayman» deb o‘z-o‘zimga va‘da berar, lekin bu va‘dalar shunchaki so‘zlar edi.

Va onam shunda hech kimga, hech qachon aytmagan, ayti-shi rahmatli otamning xotirasiga, ruhiga haqorat bo‘lishi mum-kin bo‘lgan, meni ichishdan to‘xtatgan sirni aytib berdi:

— Bir kuni Dushanbe bozoriga qovun olib bordik. Kun bo‘yi savdo yaxshi bo‘ldi. Kechqurun otang go‘sh t qovurtirib, bir butilkani bir o‘zi ichib oldi. Keyin sovuq bo‘lsa ham, rasta boshida qovunni qo‘riqlab yotdik. Yarim kechasi taqir-tuqurdan uyg‘onib ketdik. Ikkita yosh bola bitta-bitta qovunni ko‘tarib qochib keta boshladi. Otang tura solib quvishga tushdi. Kayfi bor emasmi, muzga toyg‘anib beton ariqqa yiqildi, qarsillagan ovoz eshitildi. Shu yiqilganda oyoq suyagi cho‘rt sinib ketgan ekan. Darrov do‘xtir chaqirtirdik. Hamma tomon baqir-chaqir bo‘lib ketdi. Men qovun boshida bir o‘zim qoldim. Ertasiga otang mendan xavotirlanib, oyog‘iga gips bog‘lagan cha yetib keldi. Musofir joy, kun sovuq, qovun ha deganda sotilavermay bir-ikki kun qolib ketdik. Shu bo‘yi otang vaqtida davolanolmay, qorason kasaliga uchradi. Bir yil shifoxonama-shifoxona yurdik. Otang azob torta-torta olamdan o‘tdi.

Odamning joni mo‘rt bo‘larkan. Kichkinagina bir bahona sabab, hamma ishi orqaga tortib ketarkan. Men otangning

o'lganiga bir achinsam, bolalarining rohatini ko'rmay ketganiga siqilaman. Katta-katta to'ylar qilib, qiz uzatdik, katta-katta to'ylar qilib o'g'il uyladik, Xudoga shukur, akang toparmon-tutarmon bo'ldi, uy qurib, mashina oldi, shularni ko'rmay ketganiga ichim bir achiydi. Agar shularni ko'rganda, yuragi yorilib ketardi.

Shundan beri aroqni ko'rsam, cho'chqani siydigini ko'rganday bo'laman, shuni birov ichib o'tirganini ko'rsam cho'chqani siydigini ichib o'tirgan odamni ko'raman.

Meni demasang ham, oilangni demasang ham hech bo'lmasa shu otangning hurmati, umrining oxirida aroqni la'natlab o'tgan otangni xotirasi uchun, otang bolalarim aroq ichmasin deb qayta-qayta tayinlagani uchun ichma, buning hech foydasi yo'q, ichgan odam shaytonning sherigi bo'ladi, — deya tayinlay boshladilar. Boyagina ko'z yoshi to'kib turgan onam bora-bora zug'um qilayotgan, agar taslim bo'lmasam, urib yuborgudek vajohatlari bor edi.

O'shanda shaxdim singandi, yuragimda aroqqa nisbatan tiyiqsiz nafrat uyg'ongan va bu nafrat hali-hozirgacha o'z kuchini yo'qotmay, menga, mening ichimdagi shaytonga kuchlilik qilib turardi.

Onam so'zlarini tugatar ekanlar, aytib bergan bir rivoyatni o'z hayotimning dasturilamali qilib olganman.

— Bir odam Haj safariga boribdi. Ka'batulloni ziyorat qilibdi. Navbat shaytonga tosh otish amalini bajarishga kelibdi. Hamma qatori u ham qo'lga tosh olib otibdi. Ammo otgan toshi o'ziga qaytib kelibdi. Hoji hayron bo'libdi, yana tosh otibdi. Otgan toshi yana o'ziga qaytib kelibdi. Hoji uchinchi bor tosh otibdi. Toshi ustunga borib tegibdi-yu, u yoqdan bir sado eshitilibdi: — «Hoy betovfiq, o'z sherigingga ham tosh otasanmi?»

Sen yozuvchisan, shoirsan. Yozgan asarlaringni odamlar o'qiydi. Har bir yozgan asaring bu — shaytonga qarab otilgan toshga o'xshasin. Chunki sen yaxshilik haqida, odamgarchilik haqida yozasan. Odamlar yozuvchining asarini o'qib, shaytoniy hirs-havaslarga, shaytoniy qilmishlar bo'lgan yol-g'on-yashiqqa, hasadga, kibrga qarshi kuch topsinlar, nafrat topsinlar. Agar sen o'zing ichsang, o'zing shaytonning yo'lidan

yursang, sening yozganlaringni o‘qigan odamlar bir kuni, «Hoy, nega o‘z sherigingga tosh otayapsan» — deb aytmaydilar mi?

Xudo senga ilm berdi, yozish, odamlarni yaxshilikka boshlash fasohatini berdi. Ammo endi bunga o‘zing amal qilmasang, bilasanmi nima bo‘ladi, bo‘lmasa bilib qo‘y: Qiyomat kuni bir odamni do‘zaxga tashlar ekanlar. Uning ichaklari qornidan otilib chiqar ekan. Tegirmon toshi burab aylangani kabi ichaklari buralib, butun a‘zoyi badaniga azob beraverar ekan. Shunda do‘zaxiylar o‘rab olib, nima gunoh qilgansan deb, so‘rayverar ekan. U odam esa ingragancha: — Birovlarni yaxshilikka chorlardimu, o‘zim bu yomonliklardan qaytmasdim.

O‘zim bilganimga amal qilmaganim uchun jazoyimni olayapman, — deyar ekan.

O‘sha yili shifoxonadan chiqar ekanman, yana ko‘p yillar boshim og‘rib yurdi, lekin ichishni mutlaqo tashlab yubordim, shu kasalimga davo topdim va bu kasallik menda boshqa hech qaytarilmadi. Uylangan o‘rtog‘imni esa bir yildan keyin, farzandi tug‘ilib, uni «yuvish»ga aytishga kelganida ko‘rdim. O‘rtog‘imning oqibatsizligini yuziga solmadimu, lekin o‘tirishiga bormadim.

Zotan, men umrimning oxirigacha yetadigan saboq olgan edim.

— Shu bilan birga yaxshilik qilgin-u, darrov unutib yubor, — dedi onam. — Unutmasang, o‘zingni qiynaganing qoladi. Minnat azobi — og‘ir azob. Zero, birovga yaxshilik qilishdan hech qachon to‘xtama. Zero, bir sha‘m boshqa sha‘mni yoqqani bilan nuridan hech narsa kamayib qolmaydi. Qilgan yaxshiliging baribir bir kunmas bir kun qaytib keladi. U sen kutmagan joydan keladi. Olloh u hisob-kitobda hech qachon adashmaydi. 2397 ta yaxshilik qilsang, xuddi shuncha yaxshilik o‘zingga qaytadi. Qilgan yaxshiliklaringning sonini ham sanab yurma. Baribir adashib ketasan. Hech qachon, hamma narsaga o‘z aqlim bilan erishaman deb o‘ylama. Sendan ming bora aqllilar ham Xudo yo‘l bermasa hech narsaga erisholmaydi. Podsholar ham o‘z aqlim tufayli podsho bo‘ldim desa, adashadi. Tangri sening taqdir yo‘lingni shunday chizib qo‘yganki, baliqlar qanot chiqarib, osmondan daryoning boshi qayerda-yu, oxiri

qayerda tugashini ko‘ra olmaganiday, sen ham taqdiring yo‘lini yuqoridan turib ko‘ra olmaysan. Zero, ko‘rishning baliqqa keragi yo‘q. Senga ham!

MULOHAZA



«Siz hamon o‘shasiz...» kitobim chop etilgan kezlar edi. Kitobda asosan muhabbat mavzusi yoritilgandi.

— Shular bari rost gaplarmi? — so‘radi oyim xuddi o‘zi uchun qorong‘u xislatlarimni kashf etganday.

— Odamlar hozir ko‘proq shu mavzuga qiziqadi, — deya javob qildim.

— Nimagadir odamlarning qiyinchiligi haqida bir og‘iz so‘z yo‘g‘-a, — dedi oyim men xuddi odamlardan uzilib qolganday.

— U mavzular boshimga qiyinchiliklar olib kelishi mumkin, — dedim sirim fosh bo‘lib qolishidan qo‘rqib.

— Ertaga o‘g‘il-qizlaring katta bo‘ladi. Sening yozganlaringni o‘qib, ular ham o‘ldim-kuydimga tushmaydimi?

— Yozsam faqat o‘zimni emas, boshqalar hayotini ham yozaman. Etikdo‘z faqat o‘zining etigini yamamaydi-ku! Mening ham kasbim etikdo‘znikiga o‘xshaydi. Faqat men etik tikmayman. Kim nimani ko‘tarib kelsa, yamab beravermayman. Ko‘nglimga yoqqanini yamayman, yangicha turdagi, yangi fasondagi etiklarni yarataman. Bisotimda hali hech kim kiymagan etiklar ham bor. Ularni ertangi kun odamlari kiyadi.

— Yozsang, faqat rost narsalarni yoz. Rostgo‘yiliging odamlar senga bugun ham, ertaga ham ishonishiga kafolat. Sen o‘zingning hayotingda bo‘lmagan ko‘p narsalarni ham yozgansan.

— O‘zimni hayotimda bo‘lmagan, lekin hayotda bo‘lgan, bittayam yolg‘on qo‘shmaganman. O‘zi hayotdan olib yozsangiz, hech kim ishonmaydi, hech kim ishonmadimi, demak men yomon yozuvchiman.

— Bir cho‘pon bo‘lgan ekan. Yaylovda qo‘y boqib yurib, «Qani, qo‘ylarimni bo‘rilar bo‘g‘izlayapti deb, dod solsam

odamlar yordamga kelarmikan» — deb o‘ylabdi va odamlarni sinash uchun yolg‘ondan baqira boshlabdi. Birov belkurak, birov panshaha ko‘tarib, yordamga yuguribdi.

Yaylovga odam uyulib ketibdi. Cho‘pon, bo‘rilar qochib ketdi deb, yolg‘on gapiribdi va odamlarni laqillatgani-dan ich-ichidan zavqlanib kulibdi. Bir haftadan so‘ng bo‘lib o‘tgan voqealarning xumori tutib, yana odamlarni yordamga chaqiribdi. Mol achchig‘i — jon achchig‘i deganlaridek yana odamlar to‘planib kelibdi. Cho‘pon qanchalik qudratli ekanli-gini his qilib, yana o‘zidan g‘ururlanibdi. Lekin bo‘lib o‘tgan voqeadan bir hafta o‘tmay, bo‘rilar rostdan suruvga hujum qilib, qo‘ylarni bo‘g‘izlay boshlabdi. Cho‘pon dod solib, baqiribdi. Odamlar, cho‘pon bizni bu safar ham aldayapti deb, yordamga shoshilmabdi. Cho‘pon nima qilishini bilmay u yoqqa yugu-ribdi, bu yoqqa yuguribdi, oxiri taqdirga tan beribdi.

Odamlar kelgach, o‘zini ularning oyoqlari ostiga tashlabdi. Odamlar bo‘ri qolib, cho‘ponni rosa savalashibdi.

Yozuvchining ishi ham shu cho‘ponning hoyu havasiga o‘x-shaydi. Odamlarni o‘zimga jalb qilaman, ularning e‘tiborini qarataman deb, yolg‘ondan dod-voy qilsa, bir kunmas-bir kun siri fosh bo‘ladi va bor-yo‘g‘idan ayrilib, tayoq ostida qoladi. Agar u bo‘rilar hujum qilganda baqirsa edi, ziyrakligi uchun odamlar olqishiga sazovor bo‘lardi, ham suruvini omon saqlab qolardi.

Men hayotda birovni shunchalik kuyib-pishib yaxshi ko‘rga-ningga ishonmayman, agar rostdan shunday bo‘lganida, men buni bilgan bo‘lar edim, — dedilar onam.

— Muhabbat haqida hamma yozganlarim bu — mening or-zularim, armonlarim. Bu — mening yuragimning isyonlari. O‘z hayotimdan noroziliklarim, lekin qancha isyon qilmay o‘z hayotimni o‘zgartirishga jur‘atim, jasoratim yetmadi.

Oilam shu qadar mustahkam qo‘rg‘on ekanki, mingta bom-ba portlasa ham butun qolaverdi.

Muhabbat haqida yozganlarimning hech yolg‘oni yo‘q. Bu muhabbatlar mening taqdirimni o‘zgartirib yuborishga quvvati yetmadi, xolos. Shuning uchun ham balki soxta tuyular, lekin unsiz yig‘layotgan odamni soxta yig‘layapti deb bo‘lmaydi, — deya o‘zimni oqlashga tushdim.

NEGA SHE'R YOZAMAN?



Nega adabiyotga kirib keldim, nega she'r yozaman, buni o'zim ham bilmayman. Bunga adabiyotni yaxshi ko'rganim sababdir. Onam tungi chiroq yorug'ida qiynalغانlarimni ko'rib ba'zida: «Bizning urug'imizda bo'lmagan, sendan shoir chiqmaydi, shoir gana-gana odamlardan chiqadi, ular tug'ma bo'ladi, gap quyulib kelaveradi ularga», derdi. Bu gap meni hozirgacha o'ylantiradi.


Shuning uchun hech bir joyda shoirlik ham, yozuvchilik ham talab qilmayman. Gohida yozganlarimni maqtab qolishsa, shubhalanib qarayman, lekin yozuvchi bo'lmasligim mumkin-midi?

Tasavvur qilolmayman. Yozuvchi bo'lmaganimda hayot yo'lim izdan chiqqan, ichkilikka berilgan, oilasi bir necha bor buzilgan, abgor va ruhiy dardmand odamga aylanardim.

Men rostdan ham tug'ma shoir emasdirman, lekin meni adabiyotga yetaklab kelgan birgina narsa bu odamlarga bo'lgan cheksiz muhabbatimdir. Bolaligimdan jo'shqin, ehtirosli, zavqu shavqqa to'la, ko'nglim hammaga ochiq va ko'nglimda nimaiki gap bo'lsa, hamma bilan ochiq-oydin o'rtoqlashadigan bola edim.

Hech kimdan yashiradigan sirim yo'q edi. Mening bu ko'ngli ochiqligimni ko'rganlar, samimiy gaplarimni eshitganlar, bundan albatta shoir chiqadi deyishar edi. Holbuki, u paytda she'r ham, hikoya ham yozmasdim. Yozish nimaligini ham bilmasdim. 7-sinf paytlarimdayoq men o'qigan romanlarning soni 500 dan oshgan. Butun oilamiz qora mehnatdan qishin-yozin bo'shamasdi. Paxta chopig'i, yig'im-terimi, poliz tashvishlari bir-birini quvib kelardi. Onam meni ayab, ko'p ishlatmasa-da, ketmon sudrab umrimni o'tkazmayman deb, o'z-o'zimga so'z berardim.

Mirzacho'l odamlarining zahmatli mehnati, tong yorishmasdan qaro tungacha daladan beri kelmasliklari, sodda va to'pori turmushlari, qalblarining cho'l kengliklariday ulkanligi, bolaligimdanoq esimni tanir-tanimas ular bilan birgaligim va ularga cheksiz ehtimomim, muhabbatim mening qo'limga



qalam tutqazgan birinchi turtki edi. 7-sinfdaligimdayoq tuman gazetasida cho‘l odamlari haqidagi birinchi maqolam bosildi. «Sahroyi gullar...» deb atalgan birinchi hikoyam ham aynan mana shu odamlar haqida bo‘ldi.

Dehqon o‘z dalasida ketmon chopib qancha mehnat qilsa, men ham qog‘oz ustida shuncha mehnat qilib charchamadim. Zero, bu men uchun shu qadar maroqli mehnat ediki, qanchalik ter to‘ksam, shuncha huzur qilganman.

Men o‘qishga kirgan yilim otam to‘shakka mixlanib qoldilar va hayotlarining so‘nggi kuni meni yonlariga chaqirib:

— Mana, Rashidov ham o‘ldi. Do‘xtirlar olib qolsa, shunday odamni olib qolardi. Mening ham kunim bitganga o‘xshaydi. Xudo umr berganda yashardim. Sening shoir bo‘lib yurganingni ko‘rardim. Sendan umidim katta edi. Yozgan she‘rlaringni o‘qib yurmoqchi edim. Endi qiyomatda ko‘rishamiz. She‘rlaringni o‘qib berasan. Nafas olishdan to‘xtasam, ko‘zlarimni o‘zing yopib qo‘y! — dedilar.

Negadir o‘shanda o‘lim haqida hech qanday tasavvurga ega bo‘lmaganimdanmi, otamning gaplarini o‘lim oldidan aytayotgan so‘nggi so‘zlari deb o‘ylamaganman. Otamga taskin berishga harakat qilganman:

— Ota, siz hali o‘lmaysiz, yoshsiz, baquvvatsiz, men siz bilan hamma joyda faxrlanib yuraman. Sizday otam borli-

gidan hammaga maqtanib yuraman. Sizni Toshkentdagi katta do‘xtirlarga qaratamiz. Hali ko‘p yillar yashaysiz. Qizlaringizni uzatasiz. Gala-gala nevaralaringizni yetaklab yurasiz. Menga o‘zingiz kelin tanlab berasiz. Siz aytgan odamning qiziga uylanaman. Toshkentdagi katta shoirlarning oldiga o‘zingiz yetaklab borasiz. Siz mening suyangan tog‘imsiz! Sizchalik menga ishongan odamni ko‘rmaganman, otajon! Mening shoirligimdan sizchalik quvongan odamni ko‘rmaganman, otajon! Meni shoir bo‘ladi deb yurgan bitta sizsiz-ku, otajon!

Otamning tobora muzlab borayotgan qo‘llarini ko‘ksimga bosib isitolmasdim. Uning yumuq ko‘zlaridan yosh sizib chiqardi. Otamning ko‘ksiga boshimni qo‘yib qancha yig‘ladim, bilmayman, onamning qattiq o‘kirigidan hushimga kelganimda, hammasi tugaganini tushundim. Xonaga odamlar yopirilib kirdi va ayanchli qiy-chuv ko‘tarildi.

OTAMNING SHA‘NI



Qishning izg‘irinli kunlari edi. Bu izg‘irin hayotimizga ham kirib kelgan edi. Qahraton bo‘lishiga qaramay otamning qabriga borib yum-yum yig‘lardik.

Onamning sochlari bir kunda oqarib ketdi. Bo‘sh-bayovgina, lallayib yuradigan akamning qaddi bir kunda ko‘tarilib, turmush tashvishlari yelkasiga tushgan, jiddiy odamga aylandi. Akam endigina institutni bitirgan, hali biron joyda ishlamasdi.

Ikkita opacham va men Toshkentda o‘qirdik. Singillarim maktabda edi. Otam uyni sotib bo‘lsa ham, bolalarimni o‘qit, degani uchun onam bizni o‘qishdan ketishimizga yo‘l qo‘ymadi. O‘zi maktabga pol yuvuvchi bo‘lib ishga kirdi. Akam ishga kirdi. Toshkentga o‘qishga boraman deb yurgan singlim 8-sinfni tugatib, ishga kirdi.

Gohida yomon she‘r yozgan kunlarimda o‘sha vaqtlarni eslayman. Bor-yo‘q yozganim shu bo‘lar ekan, o‘shanda o‘qishimni sirtqiga o‘tqazib, ishga kirib ketsam bo‘lardi o‘shanda,

onamning pol yuvib, bizning o'qishimizni davom ettirish uchun yuborgan pullariga bu she'rlar arziydimi deya o'zimni koyiyman. Singlimning maktabni tashlashiga arziydimi deya o'ylayman. O'shanda, bizga ko'pgina qarindoshlarimiz yordam qo'lini cho'zgandi. Lekin onam bunga yo'l qo'ymadi. «Ertaga, otasini bizning pulimizga ko'mgandi, ma'rakasini biz ko'targandik, deya yuzimizga soladi, — dedi. Hamma ma'rakani el qatori kamaytmay qildi. Janoza marosimlarining xarajati to'y-nikidan ko'proq bo'lar ekan.

O'shanda, o'qishga ketishimizdan oldin, onam bir hikoyat aytib bergandilar:

— Bir qishloqqa yov bostirib kelibdi. Qishloqda yoshu qari erkaklar o'z yurtlarini qo'riqlash uchun jangga shaylanibdilar. Hamma ketib bo'lgach, bir yosh bola: «Men ham boraman!» debdi-da, otni keltiribdi, ammo harchand urinmasin, otga minolmabdi. Shunda, qishloq oqsoqollaridan ikkita chol kelib, bolani oyog'idan ko'tarib, otga ming'azib qo'yibdilar. Bola otga qamchi urib shiddat bilan joyidan qo'zg'alar ekan, bir-ikkita mayib-majruh odamlar uning ustidan kulib: — Seni ikkita odam bitta otga zo'rg'a mindirdi-yu, jangga qanday yaraysan? — debdi.

Shunda bola: — Meni ikkita odam otga mindirgan bo'lsa, endi bu otdan meni ming kishi ham tushurolmaydi, — degan va jang tomonga otini uchirib ketgan ekan.

Odamning boshiga tushgan kulfat ham bostirib kelgan yovga o'xshaydi. Otam qabrida tinch yotsin, desanglar, yaxshi o'qinglar, toki birov ustilaringdan kulmasin, toki birov otasi o'lib, bular bebosh bo'lib ketdi demasin. Otangning or-nomusi tirik bo'lganda, o'z bo'ynida edi, endi uning sha'ni ham, or-nomusi ham, nomi ham sizlarning bo'ynilaringda. Dunyoda marhumning sha'nini himoya qilish ham, oqlab, ko'kka ko'tarish ham jasorat. Tirik odamning yuzini yerga qaratishdan ko'ra, o'tgan odamning yuzini yerga qaratish og'irroq, ayanchliroq, kechirilishi qiyinroq. Hayotda ko'z-ko'zga tushib xursand bo'lishdan ko'ra, qiyomatda bir-biriga yorug' yuz bilan qarash quvonchliroq. Otangning yuziga yorug' yuz bilan qarash hammamizga nasib etsin! — dedilar.



U paytlar uchinchi yo to'rtinchi kurslarda o'qirdim. Ta'til chog'i uyga bordim. Ertalab o'rnimdan tursam, onam joylarida yo'q. Maktabda pol yuvuvchi bo'lib ishlardilar. Rosti onamning bu ishidan oriyatim kelardi. Istihola qilib bo'lsa-da, biroz ko'maklashish uchun maktabga bordim. Maktab direktori farroshlarni yig'ib, dag'dag'a qilib turgan payti ekan, meni ko'rib biroz hovuridan tushdi. Tuman, viloyat gazetalarida uncha-muncha maqolalarim bosilib turardi, shularni inobatga oldimi, «Ismoilova, siz boravering», — deya himmat ko'rsatdi. Men direktor bilan so'rashgan bo'ldim-da, onamning oldiga bordim.

— Ona, qo'ying shu ishlarni. Hamma ustimizdan kulayapti. Ochimizdan o'sak o'laylik, o'qishni tashlasak tashlaylik, qo'ying, shu yerda ishlamang. Bizni hamma taniydi, sirtida aytmasa ham, ichida aytib ustimizdan kulayapti. Xovosga kelsam hamma shuni yuzimga solayotganga o'xshab ketaveradi. Bosh ko'tarolmay qoldim. Ertaga qizlaringizni uzatasiz. Bu turishda birov eshigimizni ham taqillatib kelmay qo'yadi, — dedim-da, suv to'la paqirni onamning qo'lidan tortib olib, otib yubordim. — Ey, yuring, biz hali tirikmiz, o'lib qolganimiz yo'q, sizni ham, singillarimizni ham boqib olishga kuchimiz yetadi. Yuring, ketdik. Bizni sharmanda qilmang, — deya onamning qo'lidan tortqiladim. Bizning baqir-chaqirimizni eshitib, maktab bolalari to'planib kela boshladi.

Men qizarib ketgan, ko'zimga g'iltillab yosh kelayotgandi. Onam meni gap bilan to'xtatolmasligiga ko'zi yetdi shekilli, yuzimga shapaloq tortib yubordi.

— Nima, men o'g'irlik qilayapmanmi, birovni aldayapmanmi, oriyating keladi. Nima, men birovning eshigiga qarz so'rab bordimmi, yuzing shuvit bo'ladigan?! Qora qozonim qaynasin deb, peshonamdagi terni sidirib, o'lay deb, pul topayapman. Birovdan kam yemasin, birovdan kam kiymasini, o'rtoqlari yeganda, chetda labi gezarib turmasin deb, shu paqirlarni ko'taraverib, emacham uzilib ketdi-ku. Xudoyimni rahmi kelib, bir yorug' kunni ko'rsatar axir. Bolalarim katta bo'lib qolsa,

bir-birini qo‘llab-qo‘ltiqlab, suyab ketar-ku. Kambag‘alning ko‘z yoshi do‘zax olovini o‘chirarkan, senday otasizni ham peshonangga yorug‘ kun bitar-ku!

Men alamdan o‘krab yig‘lagancha o‘tirib qolaman.

Bolalardan biri narida yumalab yotgan paqirni tepib ketadi.

Maktab direktori meni yupatish uchun onamga ertaroq javob berib yuboradi.

Yaxshiyam onamdan mana shu saboqni olgan ekanman. Bu mening hayotimdagi bir umrlik dasturilamal bo‘ldi. O‘g‘irlik bilan, ta‘magirlik bilan, poraxo‘rlik bilan topilgan ming so‘m puldan ko‘ra, halol mehnat bilan topilgan bir so‘m afzal ekanligini bildim va doimo shunga amal qildim. Ichimdagi kibrni o‘ldirdim. Bir kunda direktorlikdan tushirilib, oddiy xodimga aylanib qolganimda ham og‘rinmadim, qora mehnat bilan topilgan sarmoyaning halovati direktorlikda topilgan daromaddan ko‘ra barakaliroq ekanligi doimo ko‘nglimga taskin berardi.

Direktorlikda topilgan ming so‘mni ham xuddi farroshlikda bir so‘mlab yiqqanday, har bir so‘mini mehnat bilan topishga harakat qildim. Direktorligimda ham deyarli har kuni ertalab, bir marta mardikor bozoriga borar, mana shu mardikorlardan hech bir jihatdan ustun emasligimni, men ham bir kunning ichida mana shu mardikorlarning ichiga tushib qolishim mumkinligini, Xudoning marhamati bilan direktor bo‘lib turganligimni, buning uchun Xudoga ming bora shukronalar aytishim kerakligini, mardikor bir so‘mni qanchalik mehnat va zahmatlar bilan topsa, men ham shuncha aziyat chekishim, o‘zimni mehnat qilishdan tiymasligimni har kuni o‘z-o‘zimga takrorlar, baxt ham, baraka ham tekin daromadda emas, halol topilgan kichkina sarmoyada deb bilar, harom-xarish topilgan boylikning kasri bir kuni o‘zimga ham, bolalarimga ham urishidan qo‘rqardim. O‘sha voqeaning bo‘lib o‘tganiga ham yigirma yildan oshayapti. Uni bir lahza bo‘lsin xayolim ko‘zgsusidan qochirganim yo‘q. Bu voqeani yana yigirma yil unutmasam kerak. Bu bora-bora xuddi oxiratga tayyorlanishga o‘xshab ketadi. Men xuddi farroshday hayotim ostonasini hamisha toza va pokiza saqlashim uchun, mehnat qilaman va bu zahmatni sharaf deb hisoblayman. Zero, mazlumning ko‘z yoshlari do‘zax

olovini o'chirishiga ishonaman. Zero, oxiratga tayyorgarliksiz borish dengizga kemasiz tushishday gap. Zero, o'shanda onamning maktab ostonasini yuvib-tozalashlari, bizning hayot ostonamizni, hayot yo'limizni toza va pokiza bo'lishi uchun poydevor emasmi? Zero xoh shoir bo'laylik, xoh farrosh bo'laylik, xoh vazir bo'laylik bizdan talab qilinadigani, bor yo'g'i, rizqni halol yo'l bilan topishning sharafligi an'anasini davom ettirish onamiz tutgan yo'ldan, onamiz o'rgatgan saboqlardan og'ishmaslikkina xolos.



Katta opacham o'qishni bitirib kelgandan so'ng uyimizda to'yga pinhona tayyorgarlik ko'riga boshladi. Akam, sovchilar kelib qoladi, deb uyimizni oqlab chiqdi. Onam qo'ni-qo'shnilarni chaqirib, hovlida pat to'qiy boshladi. Singillarim har kuni hovli supurib, suv separd. Men esa qo'radagi qo'ylarga har doimgidan ko'ra ko'proq o't tashlardim.

Opachamni bolaligidanoq bir qarindoshimizning o'g'liga beshikkertdi qilib qulog'ini tishlatib qo'yishgandi. Bu ishning boshida katta enam turgani uchun hech kim onamning ra'yini qaytarolmas, enam, o'lar chog'i bordi-keldimiz uzilib ketmasin deb, onamning qulog'iga quyib ketgandi. Opacham sodda, qo'li ham, ko'ngli ham ochiq, ko'hlik qiz edi. Uni so'rab-surishtirganning keti uzilmas, lekin onam urf-odatlarimizga sodiq qolib, u beshikkertdi qilingan oiladan odam kelishini kutib, tong otqizardi. Nihoyat bir kuni onam opachamning yo'lini boylab turishni istamay qarindosh-urug'lar orqali o'zi og'iz solib yubordi. Qarindoshimiz o'sha paytda boy, urug'imiz ichida obro'-martabali, onam ham shu urug'ning vakili sifatida, albatta uning ra'yiga qarar, shu bilan birga u bilan quda-anda bo'lishni yashirincha bo'lsa-da, orzu qilardi. Nihoyat javob ham keldi. Boy ota:

— Kuya boylab, bit boqib o'tiribdi-yu, shularni nimasi bilan quda bo'laman, — debdi.

Buni eshitgan onam qarq'andi:

— Otasi uyub-uyub mol topganda, hammasi uymalashib o'tirib yer yedi. Endi ular boy, biz kambag'al bo'ldikmi?!

Onamning yuz xotirini qilib, unga qiz beraman desam, u noz qildimi?! Ko'chada qiz tugul, tezak qolmaydi, kambag'alning peshonasiga mol bitmaydimi? Urug'imni o'ylasam, o'zagimni o'ygani shumi? Qizimni shunday yerlarga uzatay, qizim ko'rgan to'ylarni o'g'li qirq yilda ham ko'rmasin. Borib aytinglar, bir haftadan keyin biznikiga to'yga kelaversin. Men qizimni undan boyroq, undan martabaliroq xonadonga uzataman, u kelib, to'yda oftobada suv ko'tarib, xizmat qiladi. O'zi ham, o'g'li ham bir umr pushaymonda o'tadi.

Haqiqatan ham shunday bo'ldi. Bir hafta deganda opa-chamni tagi taxtli joyga katta to'yu tantana bilan uzatdik. Qarindoshimizning o'g'li esa mana yigirma yildan ortiq vaqt o'tayapti, negadir hali uylangani yo'q.



80-yillarning oxiri edi. Ijara uyda yashardim. Sochim yelkamga tushgan, hech joyda ishlamas, kunim yo pivoxonada she'r o'qish bilan, yo qaysidir kutubxonada kitob o'qish, yo ustozu shogird «shoirbachcha»lar yig'ilishib bahsu munozara bilan kunni kech qilar, tunni tongga ulardik. She'r uchun yashardik, she'r yozish uchun kim bilandir urishardik. O'zimizni odam emas, shoir deb bilardik. Shoir uchun hamma narsa mumkin edi.

Qishloqda xotinim, bolalarim borligi esimga kelmas, dunyoqarash jihatidan ular menga, men ularga mutlaqo begona edim. Shu ketishda bilmadim qayga borardim, ammo o'sha paytda o'sha yo'l men uchun eng to'g'ri yo'l bo'lib ko'rinardi.

Men bilan qattiq kurashishga bel bog'lagan shekilli, ijara uyimga onam kelib qoldilar. Sumkalarida yog'dan tortib, kartoshka-piyoz, go'sht, xullas ro'zg'orbop hamma narsa bor edi. Mening xonam esa sigaret tutunidan burqsib yotar, bo'shagan vino shishalari-yu, qiya kesilgan konserva bankalari, kir-chir sochiqlar uyilib ketgandi.

O'shanda onam aytgan gaplar hech qachon esimdan chiqmaydi:

— Nega xotiningni, bolalaringni holidan xabar olmay-san? Ertaga Xudo sendan qanday shoir eding deb so‘ramaydi, qanday er eding, qanday ota eding, uy-ro‘zg‘oringni qanday tutding, bolangga qanday tarbiya berding, nima yeb-ichqazding deb so‘raydi. Xotiningni nikohingga olganmisan?! Olgansan. Erkak odamning birinchi vazifasi xotinini boqish. Xotiningni olib kelib, ro‘zg‘oringni butlamas ekansan, hech qachon biring ikki bo‘lmaydi. Sen avvalo Xudoning oldidagi vazifalaringni bajar. Avvalo yaxshi odam bo‘l. Yaxshi gap — yaxshi odamdan chiqadi. O‘zing nochor — yo‘ling nochor bo‘lsa, mingta kitob yozsang ham, hammasi savdoyi odamning vasvasasi bo‘lib qolaveradi. Yozsang, o‘tkinchi narsalar haqida emas, abadiy narsalar haqida yoz. Shunda, yozganing o‘tkinchi emas, abadiy bo‘lib qolaveradi. Hamma kitobni tashlab, bitta kitob, Kalomulloni o‘rgan. Mana shu kitob to qiyomatgacha turadi. Yozganlaring qiyomatgacha turishini istasang, shu kitob ko‘rsatganlarini, shu kitob buyurganlarini, shu kitobga amal qilganlarni, shu kitobga amal qilish kerakligini yoz. Shu kitobga ergashsang, seni Xudo qo‘llaydi. Seni Xudo qo‘llasa, hech kim yiqitilmaydi. Yozganlaringda Xudoning zikri bo‘lmas ekan, bo‘ying barobar kitob yozsang ham, hammasi xazonda vaqt shamolida sovurilib ketaveradi. Ko‘zing nuri ketadi, soching oqaradi, beling bukchayadi, oxiri Xudoga nola qilasan: — Ey, Xudo, shuncha yozganlarimdan, nega hech bo‘lmasa bir varag‘ini qoldirmading! — deysan. Xudo sening oldingga o‘zing yozgan bir varaqni tashlaydi. Bir varaqni ko‘tarib u odamning betiga tutasan, bu odamning betiga tutasan, odamlar qaramay, yuzini teskari burib ketaveradi. Chunki sening yozganing zamon xandag‘idan nariga o‘tolmay, sen o‘zing yashagan davr iskanjasida qaro yer qa‘riga kirib ketadi. Shoirning o‘z zamonidan nariga o‘tolmay unut bo‘lib ketishi o‘zidan oldin bolalari o‘lgan onaning holidan yaxshiroq emas. Iste‘dod shunday noyob narsaki, u hatto podsholarda ham bo‘lmasligi mumkin. Mabodo, Xudo senga shunday iste‘dodni bergan bo‘lsa, uni asrash, to‘g‘ri yo‘lga solish kerak. Yaxshi odamdan yaxshi shoir chiqishi mumkin, lekin avval shoir bo‘lib, keyin yaxshi

odam bo‘laman deyish, bu, «men odamlarning ichida oyog‘imni osmonga qilib, qo‘l bilan yuraveraman» — deganday, Xudoning odamni qanday yaratgan bo‘lsa, uning hukmiga teskari ish tutganiday gap. Qo‘l teskari alfozga uzog‘i bilan bir kun chidashi mumkin. Hali hech kim oyog‘ini osmonga qilib yashagani yo‘q. Xuddi shuningdek, hali hech qachon yomon odamdan yaxshi shoir chiqqani yo‘q. Sen ham balki yomonlik tarafidamasdirsan, lekin bu «it yotish, mirza turish» yaxshilikka olib kelmaydi. Xotiningni olib kel, bolalaringni olib kel, uy qil, joy qil, ichishni tashla, ishga kir, el qatori odam bo‘l!

Menga bu gaplar hozir aqidaga aylangan bo‘lsada, o‘sha paytlar yangilik edi. Onamning gaplaridan qanchalik hayratlanganim esimda.

Tez orada uy olish taraddudiga tushdim. Ro‘zg‘orimga, hayotimga fayz , qut-baraka kira boshladi.

Umuman olganda, Navoiy nega uylanmagan?!



Onam haqida gapirishim kerak bo‘lganda, xuddi yuragimdagi sirlarni birma-bir oshkor qilayotganday, ko‘nglim qa‘ridagi hammadan yashirgan asrorlarni avra-astarini chiqarib, yoyayotganday bo‘laveraman. Ishoning, bu men uchun og‘riqli hodisa. Xuddi, birovlar meni majburlab, yuragimni yorib, operatsiya qilayotganday bu o‘z ixtiyorimdagi tabiiy holat emas. Men majbur bo‘layotganday bo‘laveraman. To‘g‘risini aytsam, men xalq deganda birinchi o‘rinda onamni tushunaman. O‘zbek deganda, millat deganda hatto Vatan deganda ham birinchi o‘rinda onam ko‘z oldimga keladi. Hatto o‘zbek tili nima deganda ham, avvalo onamning gapirishi, talaffuzi, shevasi, ohangi ko‘z oldimga keladi. Men onamning gapirishini o‘zbek tili shu bo‘lsa kerak deb bilaman. Qohiraga ketayotganimda, magnitafon lentasiga onamning gaplarini o‘zbek tilini so‘g‘inganimda, eshitib yuraman, — deya yozib olganman.

Ishonaman, agar onam Sirdaryodan Toshkentga ko‘chib kelsalar, Toshkent men uchun kindik qonim to‘kilgan yer bo‘lib

qoladi. Iшонaman, agar men adabiyotga onamning obrazini olib kirsam, men adabiyotga yana bir o'zbek ayolining obrazini olib kirgan bo'laman. Lekin bu men uchun yulduzlardan-da yiroqdagi erishib bo'lmaydigan orzu bo'lib tuyuladi. Ona xalqimning birinchi vakili bo'lgan onamga yoqadigan asar yozmaydigan bo'lsam, yozishning umuman keragi yo'qday tuyuladi. To'g'ri, men ham asarlarim butun dunyo xalqlari til-lariga tarjima qilinishini istayman. Butun dunyo xalqlari o'qi-shini, mening asarlarim ham jahon adabiyoti namunalaridan bo'lishini istayman. Lekin o'sha adabiyot sari olib boriladigan yo'l, har bir yo'lning boshi bo'lganiday men uchun bu yo'l xalqimning eng katta xazinasi — onamning yuragidan boshla-nadi. Albatta, men bu yurakka quloq tutar ekanman, yozuvchi sifatida, sizlarga juda ko'p javohirlar tuhfa etaman, mangu qolguvchi duru gavharlarni hadya etaman.

Onam aytadilar: — Dunyoni so'z yaratgan! Olloh taolo, «Yaral» — dedi, Yeru osmon paydo bo'ldi. Dunyoda birinchi yaralgan narsa so'z bo'ladi. Shuning uchun so'zdan ehtiyot bo'l. So'z xuddi afsungarga o'xshaydi. O'zi ko'rinmasa-da, aytilgan narsa yaralaveradi. Agar «men yaxshiman» — desang, yaxshi bo'lib ketaverasan. Mening atrofimdagi odamlar yaxshi odamlar desang, atrofingga yaxshi odamlar to'planaveradi. Tes-karisini aytasang, teskarisi bo'laveradi. Kasbing so'z ekan, faqat yaxshi narsalarni niyat qil, faqat yaxshi so'zlarni so'zla. Odam-lar yaxshi so'zlaringni yod olib, dunyoga yaxshilik urug'ini sochsinlar. Dunyoni faqat yaxshilik qutqaradi.

Men onamning bu so'zlarini eslab, xuddi gapirishni ona-sidan o'rganayotgan go'dakdek chug'urdayman:

— Ey, Xudo, onaginamning umrini uzoq qil, o'z panohingda asra, elim tinch, yurtim farovon bo'lsin!



Qahraton qish. Uch kundan beri uzluksiz yog'ayotgan qor tinay demas, sovuq qattiq, havo muzlab qolganday edi.

Suyakni sindiruvchi izg'irin zabti yuragimda ayanchli og'riq uyg'otardi. Shunday bo'ronli kunlarda otamni yerga qo'ygandik.

Eshik oldida bel bog'lab turar ekanman, ko'nglimni o'rtagan qaqshatqich motam tufayli go'yo olam ham sovuqdan uvil-lardi.

Ko'chada ketayapman-u, ko'zlarimdan yosh o'z-o'zidan sizib chiqayapti. Oradan yigirma besh yil o'tsa-da, qish o'ta qattiq kelsa, mana shunday haqir, o'ksik va notavon ahvolga tushaman.

O'shanda, hapriqib, yer tepinib yig'layotgan onamning boshidagi ro'molini izg'irin uchirib ketgandi. Va men onamning sochlari bir kunda oqarib ketganini ko'rgandim.

Ko'chada ketayapman-u, rutubatli sovuq ruhimni sindirib, tushkunlik chohiga tobora qulata boshlaydi. Onam o'lib qolsa-ya, degan qo'rquv butun vujudimni qamrab oladi. Bexosdan onam, hozir o'lib qoladiganday ingrab yuboraman va u kishi-ning istiqboliga yuguraman. Yaxshiyam dunyoda onam bor. Siz mening boshimdagi tojimsiz, onajon! Sizensiz men boshim-dagi tojdan ayrilib gadoga aylanaman, onajon! Siz mening ko'rar ko'zimsiz, sizsiz men so'qirga aylanaman, onajon! Siz mening qalbidagi fig'onimsiz, sizsiz bu yurak kesakka ayla-nadi onajon! Sizensiz men to'g'ri yo'lda yurolmaydigan cho'-loqqa aylanaman, onajon! Sizensiz men nur nimaligini bilmay-digan chuvalchangga aylanaman, onajon! Sizensiz men onasi oppog'im demaydigan qo'ng'izga aylanaman onajon! Meni bunday abgorlikdan, bunday nochorlikdan, notavonlikdan o'zing asra Parvardigor! Onamning umrini uzun, sihat-salomatligini bardavom qil, Yaratgan qodir egam!



YANGI OY CHIQQAN KECHA



Kinoqissa

Malika eshik taqillashidan cho‘chib uyg‘ondi. Soat tungi ikkilar bo‘lgandi. Ro‘molini boshiga ilishga ulgurmay qo‘ng‘iroq jiringladi.

— Hozir!

Odatda, eri Sanjarni ayab, qo‘ng‘iroqni bosmasdi. Hozir ishi shoshilinch, shekilli.

— Keling!

— Keldim, hozir ketaman. Buxoro amirining qilichi qani?

— Joyida turgandir.

— Tez top!

Malika ko‘rpalarni yiqitib, sandiqni ochmoqchi edi, eri «qoch» deganday, uni chetga surdi.

— Kerak bo‘lib qoldi.

Qosimxon qilichni qinidan chiqararkan, o‘tkir tig‘ chiroq nurida yarqirab ketdi. Malika erining gandaraklab turganidan kayfi borligini, lekin aroq hidi yo‘qligidan miyasiga sovuq fikr keldi: «Nasha chekdimikan?»

Qosimxon qilichni o‘ynab, xonasiga kirib ketdi. Malika ko‘rpalarni taxlarkan, tashqari eshik qattiq yopilganini eshitdi. «Yana ketdimi?»

Malika erining xonasiga kirdi. Derazadan pastga qararkan, Qosimxon mashinaga o‘tirayotganini ko‘rdi. «Qilich qolib ketibdimi?» U eriga ko‘r-ko‘rona itoat qilardi. Qilichni ko‘targancha, mashina ortidan yugurdi. Tor yo‘lakdan zo‘rg‘a burilib olgan mashina yuray deganda, eshikka tirmashdi.

— Mana bu qolib ketibdi!

Orqa o'rindiqda o'tirgan Qosimxon qo'lini yonidagi qizning bo'ynidan olib, unga o'girildi. Qo'lida qog'ozga o'rog'liq narsa bor edi.

— E, opke!

— Bu kim?

— O'rtog'imning xotini.

— Nima, o'rtog'ingizning xotinini quchoqlab o'tirasizmi?

— Bunga farqi yo'q, kim quchoqlasa quchoqlayveradi.

— Menga esa farqi bor. Erim hammani quchoqlab ketaverishiga yo'l qo'ymayman.

— He, kamayib qolarmidim?

— Kamaymaysan, kamaymaysan, — gapga aralashdi qiz.

Qosimxon erkalab uning yuzidan o'pdi:

— Asalim...

— Ayt, bu chuvrindi uydan ketsin! — dedi yana qiz.

— Eshityapsanmi, «ket» deyapti.

— Nima, men ketaymi?

— Ket, ket, ket! — Qosimxon bu gaplarni qat'iyat bilan aytmasa-da, «e-bor-e» degan tarzda aytdi. Malika uning tizzasida turgan qilichga yopishdi. Qosimxon hali qilichni tortib olishga ulgurmay, eshikni qars etib yopdi.

— Haydang, shofyor aka, bo'lmasa bu tentak bizni bir narsa qilib qo'yadi.

Shofyor jonholatda gazni bosdi.



Malika uyga qaytgach, g'azab va nafratdan tang holatda edi. Mashinaning ortidan quvib borolmasdi. Ko'chaga tungi ko'ylakda chiqqandi. Mashina yollashga puli yo'q. To'rt yashar o'g'li uxlab yotgandi. Uy uy bo'lgani bilan to'rtta devordan boshqa hech narsasi yo'q. Uyda ochlik hukm surar, yeyishga bir to'g'ram non topilmas, Sanjarning xarxashalari ko'cha xandon eriga nisbatan nafrat hissini qo'zg'atardi. Qo'ni-qo'shnilardan qarz so'rayverib, boshini ko'tarolmay qolgan, nimaiki bo'lsa onasinikidan tashirdi. Eri oyligini bermas, bolaning nafaqa puli esa hech narsaga yetmasdi.

Qosimxon institutni bitirganlaridan so‘ng uni ishlatmadi. Dastlab farzand ko‘rdilar. Bola boqish muddati tugab, Sanjarni bog‘chaga berganlaridan so‘ng ham eri uni ishlatishga unamadi. Malika erining avzoyiga qarab rozi bo‘ldi. Eri vrach bo‘lsa-da, shifoxonaning xo‘jalik ishlariga o‘zini urdi. Ko‘proq topaman, deb o‘yladi shekilli, lekin topish-tutishida baraka ko‘rinmasdi.

Oila zo‘r-bazo‘r kun kechirardi. Qosimxon uyga hech narsa ko‘tarib kelmas, goho mast holatda Malikani urar, so‘kardi. Malika kunu tun oilam buzilib ketmasin, degan tashvish bilan yashardi. Oilam buzilmay tursa, hammasi iz-iziga tushib ketadi, hammasi bir kunmas bir kun yaxshi bo‘lib ketadi, degan xayolda edi.



Malika stol ustiga ishga kirish haqidagi arizani qo‘yarkan, bosh vrachning ko‘zlarida erini hamisha rashk va sarosimaga solgan qandaydir tiyiqsiz ishtiyoqni ko‘rdi.

— Mayli, singlim, arizani tashlab keting-chi, biror chorasini toparmiz.

— Javobini qachon bilsam bo‘ladi?

— Ertagayoq ishga chiqavering. Sal qiynalib qolgan ko‘rinasiz.

— Rahmat. Bu yaxshiligingizni unutmayman.

— Rahmat.

Malika uning bu javobini «Rozi bo‘lganligingiz uchun ol-dindand rahmat», — degan ma’noda qabul qildi. Lekin nimaga rozi bo‘ldi u, uning istaklarini qondirishgami? O‘ldimi, unchalikka bormas?!

Malika ertasigayoq ishga chiqib ketdi.

Qosimxon o‘sha kuni emas, ertasiga kun oqqanida xuddi hech narsa bo‘lmaganday ko‘chaning gaplarini gapirib kirib keldi. Eshik oldida jimgina turgan Malika ichida «voy, razil-ey», deb qo‘ydi. Indamay turganiga yana bir sabab, ishga kirish uchun Qosimxonning roziligini olish edi. Qosimxon Sanjarni erkalab ko‘tarayotganida:

— Ishga kirmoqchiman, — dedi.



Qosimxon agar hozir rozilik bermasa, katta janjal boshlanishini sezib: «O'zing bilasan», deb qo'ya qoldi. Malika oshxonaga yugurdi.



Bosh vrach Shuhrat Ahadovich dastlab uni ko'rganda anchayin beparvo edi. Keyinchalik sezilar-sezilmas iltifotlar qila boshladi. Malika ham bu iltifotlarni kesib tashlamadi. Ishni yumshoqqina qilib, orqaga surib kelaverdi.

Bir oy bo'lmay, bosh vrach uni operatsiya stoli tepasiga keltirdi-da, chiqib ketdi. Malika operatsiyani muvaffaqiyatli yakunladi.



Malika aqlni lol qoldiradigan darajada go'zal ayol edi. 17—18 yosh qizlar ham uning qo'g'irchoqday qomati oldida nadomatda qolishardi. Hech kim uni yigirma yettiga kirgan, deb o'ylamasdi. O'g'lini yetaklab yurganida, ukasini o'ynatayotganidir-da, deyishardi.



Malika xonasiga kirib, kiyimlarini almashtirmoqchi bo'lgan edi, eshik chertildi.

— Kiring.

Eshik oldida birinchi kurs talabasi, shifoxonaga amaliyotga kelib yuradigan Sobitjon ismli yigit turardi.

— Ish tugadimi?

— Ha, ketmoqchi bo'lib turuvdim.

— Kuzatib qo'ysam maylimi?

— Biron gapingiz bormi?

— Bor.

— Shu yerda aytavering.

— Shunchaki yo'l-yo'lakay aytiladigan gap emas-da. Agar kuzatib qo'yishimni xohlamasangiz, imkon topilganda aytarman.

— Erim kelib qolishi mumkin.

— Nega darrov eringiz haqida gap boshladingiz?

— Men eri chizgan chiziqdan chiqmaydigan ayollardanman, Sobitjon.

— Har qalay, mening gapim sizni bu chiziqdan chiqarib yubormasa kerak.

— Unda oddiy gap ekan-ku, aytavering.

— Meni gapim oddiy gap emasku-ya, lekin siz uni oddiy gap, deb qabul qilishingizdan qoʻrqaman.

— Menga bunchalik sirli gap aytish fikri sizda qayerdan paydo boʻlib qoldi?

— Bilmayman. Lekin sizga aytmamam boʻlmaydi. Boshqa ilojim yoʻq.

— Qoʻying, Sobitjon, hammasi oʻtib ketadi.

— Men esa oʻtib ketishini istamayman. Umuman, mendagi bu his-tuygʻular oʻtib ketmasa kerak. Toʻgʻrisini aytsam, sizni yaxshi koʻrib qoldim.

— Sobitjon, unday demang. Hammasini koʻrib-bilib yuribman. Axir, siz hali yoshsiz. Harbiy xizmatga ham bormagansiz. Oʻqishni ham bitirmagansiz. Men sizdan qancha kattaman, bilasizmi?

— Buning ahamiyati yoʻq. Axir, sizni yaxshi koʻraman-ku.

— Yaxshi koʻrganingizda bunchalik tez sevgi izhor qilmas edingiz.

— Hozir oʻz holatimni yashirib oʻtiradigan darajada emasman.

— Unda sizga qiyin boʻladi.

— Malika, iltimos, mening taklifimni yana bir bor oʻylab koʻring.

— Nimani taklif qilyapsiz?

— Agar xohlasangiz, sizga uylanaman.

— Axir, boshimda erim bor-ku?

— Eringiz allaqachon sizga xiyonat qilib boʻlgan.

— Sobitjon, hayotimizga bunchalik chuqur aralashasiz, deb oʻylamagandim.

— Endi sizning hayotingiz meniki boʻladi.

— Buni osongina gapirib boʻlmaydi. Meni sevish huquqini sizga kim berdi?

— Nima uchun yashayotganimni anglolmay yurardim. Endi bilsam, sizni baxtli qilish uchun tugʻilgan ekanman.

- Sobitjon, iltimos, shu yerda xayrlashaylik.
- Faqat ertagacha!
- Xayr!
- Yaxshi yetib oling.



Qosimxon o‘zidagi noxush o‘zgarishlar asta-sekin zo‘rayib borayotgandan, og‘riqlar alamidan tang holatga tushib, endi kasalni yashirishning ortiqcha iloji qolmagani tufayli shahar chetidagi «Teri-tanosil kasalliklari shifoxonasi»ga yo‘l oldi. Vrach yigit Qosimxonni tekshiruvdan o‘tkazarkan, laboratoriya bergan natijalarni yashirib o‘tirmadi.

- Bu kasal sizda qachon paydo bo‘ldi?
- Chamamda, 15 kunlar oralig‘ida.
- Oxirgi marta kim bilan yotgansiz?
- Xotinim bilan.
- Undan oldin-chi?
- Ikkita-uchtasi bilan.
- Bir kundami?
- Yo‘q, ikki-uch kun oralatib.
- Bu kasalni kimdan yuqtirgansiz?
- Bilmadim.
- Uni ham topish kerak. Bo‘lmasa, u sizga o‘xshaganlarga yuqtirib yuraveradi.

— Ularning aniq manzilini bilmayman. Qolaversa, menga desa o‘lib ketmaydimi, qaysi birini sudrab yuray?

— Hech kimni olib kelmasangiz ham, yangani olib kelishingiz shart.

— Nega?

— Axir, yaqin kunlar ichida u kishi bilan jinsiy munosabatda bo‘lgansiz-ku, bu juda yuqumli kasallik. Xotiningizga yuqqan bo‘lishi tabiiy. Agar uyda tozalikka rioya qilmasangiz, bolangizga ham yuqishi mumkin.

— Xotinimni bu yerga qanday olib kelsam ekan-a?

— Bu kasallik faqat jinsiy aloqadan so‘ng paydo bo‘ladi. Yuqtirishning boshqa yo‘li yo‘q. Siz esa kasal ayolning qo‘yniga

kirgansiz. Bilasiz, ayollar hamma kamsitishlarni kechirsa ham, xiyonatni kechirmaydi. Sizdagi kasallik esa xiyonatning aniq dalili.

- Siz qaysi kunlari ishda bo‘lasiz?
- Mana, kun tartibim quyidagicha belgilangan...



Shuhrat Ahadovich ish kuni tugayotganligi sababli qabuliga kiruvchilarning siyraklashib qolganidan, o‘zi ham ancha toliqqanidan deraza ortida botayotgan quyoshga qarab, biroz tin olish niyatida kresloga suyanganicha xayolga botib o‘tirardi. Eshik ohista taqilladi.

- Mumkinmi?
- Keling, Malika Murodovna...
- Yaxshimisiz, Shuhrat Ahadovich, charchamadingizmi?
- Yo‘q, qaysi shamollar uchirdi?
- Sizning yaxshi shamollaringiz!
- Xo‘sh, xizmat?

— Men bir taklif bilan oldingizga keluvdim. Bizning shifoxonaga borganingizda siz haqingizda juda ko‘p yaxshi gaplarni eshitganman. Shu tufayli qo‘llab-quvvatlab yuborasiz, degan umiddaman.

- Agar imkon bo‘lsa, bajonidil.

— Men o‘z soham bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini yozmoqchiman.

— Juda yaxshi taklif. Men ham siz haqingizda juda ko‘p yaxshi gaplarni eshitib yuribman. Operatsiyalaringizning hammasi muvaffaqiyatli chiqayotgan ekan. Buni maqtamay iloj yo‘q.

- Maqtovlaringiz, albatta meni, quvontiradi.

Shu payt eshikdan bexos shoshilib bir kishi kirib keldi.

— Shuhrat Ahadovich, bo‘lmaysizmi endi, pastda kutib turibmiz-ku...

- Xo‘p, hozir, nima gap o‘zi?
- Boya kelishdik-ku, ular ham kelgan.
- Kim u, ular...

Shuhrat Ahadovich Malikaning oldida hech narsadan xabari yo‘qdek turardi.

— Anavi ikkalasi-da, o‘zingiz aytgan!..

Malika xonadan otilib chiqib ketdi. Shuhrat Ahadovich sarosimaga tushib, uning ortidan irg‘ib turarkan, biror so‘z aytishga ulgurolmay qoldi. Yo‘lak oynasidan uning pastda yugurib ketayotganiga qarab, og‘aynisiga o‘shqirib berdi:

— E, bor-e, galvars, odam o‘tiribdi ham demaysan-a... Shu gapni sal yotig‘i bilan aysang bo‘lardi-ku.

— E, shoshib turgandan so‘ng...

— Endi o‘zing ketaver. Men bormayman.

— Shuhrat Ahadovich, axir, ular qarab turishibdi, shunaqa jononlar...

— Ularning javobini berib yubor.

Shuhrat Ahadovich qalbiga bahor nafasiday iliqlik olib kirgan Malika haqida o‘ylar, yuragi yovvoyi sarxushlikni sezib, mayin entikib ketardi.



Malika erining so‘zlarini eshitib, hammasiga tushundi. Demak, eri kasal, eri o‘z kasalini unga ham yuqtirgan. Bolaligida odamning boshi toshdan, desa tushunmasdi. Oilasidagi g‘ur-batlar, janjallar, xo‘rliklar, ko‘chadagi fisqu fasod gaplar. Kimdir boshingga mana shunday ko‘rguliklar tushadi desa, ishonmasdi. Bunchalik sitamlarni ko‘tarolmasam kerak, deb o‘ylardi. Lekin boshga tushganni ko‘z ko‘rar ekan. Ko‘rganda ham shu qadar ko‘rdiki, nazarida dunyo ostin-ustun bo‘lib ketadiganday edi. Hayotning charxpalak aylanishidan ko‘z oldi tinib ketdi, uni bu dunyoda olib qolgan kuch nazarida faqat hali tirik ekani, hali yashashga majbur ekani, hali kuch-g‘ayratining borligi-yu, yoshligining tiyiqsiz shijoati unga hayotning bu qadar achchigligini ko‘p ham sezdiravermasdi. Hayot uni toshlarga ursa-da, hali irodasi sinmagan, hali ko‘zlari ham ko‘r bo‘lmagan edi. U mana shularning hammasini iztirob bilan o‘ylar ekan, hali shunday yashayinki, odamlar omad nima ekanligini mening timsolimda ko‘rib qo‘yishsin, deya o‘ziga taskin izlardi.

Ular kasalxonaga qariyb bir oy qatnab yurishdi...





Shuhrat Ahadovich uzun yo‘lak bo‘ylab ketar ekan, muyu-lishda shundoq qarshisidan chiqib qolgan Malikani ko‘rib taqqa to‘xtadi, og‘iz juftlashga ulgurmay, uning shiddat bilan o‘girilib ketganini ko‘rib, esankirab qoldi. Bir fikri, ortidan yugurmoqchi, xonasida ro‘y bergan xosiyatsiz vaziyat uchun kechirim so‘ramoqchi ham bo‘ldi. Lekin yoshgina juvonning ketidan yugurib yurishni o‘ziga ep ko‘rmay, hasrat bilan miyig‘ida kulib qo‘ya qoldi. Ko‘nglida menga nisbatan nimadir bor shekilli, achchig‘i chiqib yuribdi, bo‘lmasa mening boshqa juvonlarga borishimni bunga nima daxli bor? Bir joyda o‘tirib, ahdu paymon qilishmagan bo‘lsak. Meni yaxshi odam, deb o‘ylab yuribdi shekilli. Yoki ko‘ngli bormikin-a?! Qaniydi, shunday bo‘lsa!



Malika Sobitjonning qistovlaridan keyin «uchrashishga» va‘da berdi-yu, o‘zining bo‘shangligidan, rahmdilligidan, itoatkorligidan o‘zi ranjidi. «Bekorga va‘da beribman, nima keragi bor edi?», — deb o‘yladi. Agar hozir bu xatoni tuzatishning iloji bo‘lsa, albatta tuzatardi. Keyin yana o‘ylab qoldi. «Qani, bir gaplashib ko‘ray-chi, yana nima der ekan? Buyam bir o‘yin-da...»

Malika Amir Temur xiyoboniga borganida soat beshdan oshgandi.

Sobitjon unga ko‘zi tushishi bilan qo‘lidagi guldastani silkitib, tez-tez qadam tashlab kela boshladi. Malikaning nazarida u yugurib kelayotgandek tuyuldi. «Qiziq, guldasta ko‘taradigan zamonlar o‘tib ketdi desam, bu an‘analari haliyam borgan o‘xshaydi. Bir paytlar Qosimxon ham ortimdan mana shunday yugurib yurardi. Keyin u o‘zgardi...»

— Keldingizmi, xayriyat!

— Sobitjon, agar va‘da berib qo‘ymaganimda kelmasdim.

— Nega?

— Nima keragi bor, axir, tushunasiz-ku, men oilali ayolman, erim, farzandim bor. Hozir bizni birov shu holatda ko‘rib qolsa, nima deb o‘ylaydi?

- Men esa sizni keladi, deb ishongandim.
- Sizda bu ishonch qayerdan paydo bo‘ldi?
- Menga gapirayotganingizda ovozingizda moyillik bor edi.
- Sizga achingan bo‘lishim mumkin.
- Balki o‘zingizga achingandirsiz?
- O‘z umrimga achinganim bilan davosini, balki sizdan izlamasman.
- Nega?
- Nega deganda, sizdan siz o‘ylagandan ko‘ra ko‘proq narsa talab qilishim mumkin.
- Meni bajarolmaydi, deb o‘ylaysizmi?
- Qo‘lingizdan kelmaydi, degan istiholadaman.
- Malika, ochiqroq aytavering, mendan nimani istaysiz.
- Sobitjon, keling, shu yerda xayrlashamiz.
- Nega?
- Gap-so‘zdan qo‘rqaman. Yaxshisi, telefonlashamiz.
- Malika, sizga uylanaman va nimaiki kerak bo‘lsa, qilaman.
- Meni yaxshi ko‘rasizmi?
- Sizsiz yashasam ichgan ona sutim harom bo‘lsin.
- Sobitjon, unday demang. So‘zingizni qaytarib oling.
- Yo‘q, endi so‘zimdanda ham, qiladigan ishimdanda ham qaytmayman.



Bir kuni Shuhrat Ahadovich ishdan qaytishida qo‘yarda-qo‘ymay uni mashinasiga mindirib oldi. Harqalay, boshliq aytgandan keyin yo‘q deyish uchun mingta bahona ham kamlik qilarkan.

— Malika, rostini ayting, nega salom bersam alik olmaydigan bo‘lib qoldingiz? Yoki anavi og‘aynimning gapidan xafa bo‘ldingizmi? O‘sha kuni u aytgan joyga bormadim. Siz boshqachasiz, Malika!

— Nega unday deysiz? Men ham hammaga o‘xshaganman. Men ham hammaga o‘xshab sizni ko‘rganda qulluq qilib salom beraman.

— Endi men sizga salom beraman, xo‘p deyavering.



— Nega endi?

— Men boshqalarga qilgan muomalamni hech qachon sizga qilolmasligimni tushundim. Sizni taniganimdan beri negadir yoshligim, beg‘ubor yillarim yodimga tushadi. Men ham qachonlardir kimnidir sevganim, mehr qo‘yib, uning ortidan ko‘z yoshlar to‘kkanim esimga tushadi. Xuddi qarib qolgan sher o‘zining chaqqon, abjir, kuchli paytlarini eslab, eti uvishganday qo‘limdan hech narsa kelmaydigan bo‘lib qolgan bo‘lsa ham, erkalik qilib kuzatib qo‘yishga jur‘at etdim.

— Yo‘g‘-ey, sizni hali juda yosh deb bilaman va bir marta kuzatib qo‘yish bilan cheklanishingizga ko‘zim yetmaydi.

— Albatta, agar sizda moyillik bo‘lsa, har kuni kuzatib qo‘yishga tayyorman.

— Yo‘q. Bo‘yningizga hech qachon bunday mas‘uliyatni yuklamoqchi emasman. Chunki bunday manziratlar hech narsani belgilamaydi.

Men uchun osonrog‘i shu-da. — Shuhrat Ahadovich jilmayib, najot kutganday Malikaning qo‘lini siqib qo‘ydi. — His-hayajonga berilishdan qo‘rqib qolibman.

— Yuragingizni yog‘ bosishdan saqlang. — Malika ishva bilan jilmaydi.

Shu payt qora «Volga» kelib, mashina oldini kesib chiqdi va «to‘xtating» ishorasini qildi. Shuhrat Ahadovich mashinasini chetga olib to‘xtatdi. Qora «Volga»dan Qosimxon tushib kela boshladi:

— Ha, boboy, o‘lging keldimi? Nega mening xotinimni olib yuribsan?

— Tort qo‘lingni, eshshak!

— Ko‘zoynak taqqan ko‘zingni o‘yib olaymi?

Shuhrat Ahadovich Qosimxonni itarib yubordi:

— Yo‘qol. Qo‘l ko‘tarishga yoshlik qilasan. Umuman, bu shahardan sening izingni quritib yuboraymi?

— Nima, nima? — Qosimxon Shuhrat Ahadovichning yoqasidan ushlab, kapotga bukchaytirib oldi. Malika har ikkisini ajratib qo‘yish taraddudida mashinadan tushdi.

— Qosim aka, esingizni yedingizmi, bu kishi boshlig‘i-miz-ku...



— Boshliq bo'lsa ishxonada boshliq. Mening xotinimga ko'chada ko'z olaytiradigan boshliqning onasini...

— E, qo'yoring... — Malika Qosimxonni siltab-siltab Shuhrat Ahadovichni uning ostidan chiqarib oldi. Shuhrat Ahadovich mashina ichida turgan uyali telefonni olib, raqamlarni tera boshladi:

— Allo, Burhon O'ktamovich, bu yerda bir mast bezori bizga hujum qilmoqda, inspektorlaringizdan jo'nating, tartibga keltirib qo'yishsin. Ha, ha. Qodiriy ko'chasi, Markaz 14-ning muyulishidan o'tgach o'ng qo'lda... Rahmat, rahmat.

— Bolakay, hozir shu yerda tura tur. Ozigina jismoniy tarbiya darslarini o'tashga to'g'ri kelib qoldi. Mabodo qochadigan bo'lsang, hozir GAIga telefon qilaman, mast holatda rulga o'tirganing uchun jazoyingni berishadi. Bilib qo'y, tiz cho'kib oyog'imni o'psang ham seni kechirmayman.

— Sendan kechirim so'raydigan ahmoq yo'q. Mesh qorningni yorib qo'ymaganimga shukur qil. Hali shaharga egalik qilishga qo'ling kaltalik qiladi.

Shu payt aylana chiroqlarini chirillatib, militsiya mashinasi ko'rindi. Undan tushib kelgan inspektorlar Shuhrat Ahadovichga salom berishdi. Shuhrat Ahadovichning yoqasi ochiq, tugmalari uzilgan, shimlari changga belangan edi. Ular Qosimxonni ushlab, mashinaga sudrashdi. Malika Shuhrat Ahadovichga yalinib, qo'yvorishlarini o'tina boshladi. Shuhrat Ahadovich «Mayli, qo'yvorishlar» ishorasini qilgach, inspektorlar chetlashdi. Malika Qosimxonning mashinasiga minib, jo'nab ketdi.



Sobitjon xonasiga kirib, o'zini karavotga tashladi. Necha kunlardan buyon uni o'ylantirayotgan masala kundan kun chigallashsa chigallashdiki, yechimi topilmasdi: «Malikani qayerga olib kelaman? Shu uch xonalik uygami? Bu uyda dadasi, oyisi, akasi, yangasi, singlisi, akasining ikki yashar o'g'li — yetti kishi yashaydi-yu, Malika o'g'li bilan ularga qo'shimcha bo'lib keladimi? Avvalo, Malika unga tegishga rozi bo'ladimi? Hech qachon rozi bo'lmasa kerak. Uni rozi qilishning birgina yo'li— bir xonalik bo'lsa ham uy sotib olish. Keyin bir amallab ko'n-

dirsa bo'ladi. Lekin uyni qayerdan olaman? Qaysi pulimga? Stipendiyamgami? Dadamning oyligigami? Axir oylik jonivor ham ro'zg'orning u yog'idan bu yog'iga zo'rg'a uchma-uch yetib turibdi-ku. Yoki ijaraga uy olib chiqib ketsammi? Bunga kim rozi bo'ladi? Qolaversa, Malikaga kichkinagina to'y qilib uylanish kerak. Bu to'yga kim rozi bo'ladi? Dadammi? Hech qachon. Oyimmi? Hech qachon. Yo'q-yo'q. Ularni ko'ndirish mumkin. Malikaning biror aybi bormi? Buzuqmi? G'ilaymi? Yo'q, u har qanday o'n sakkiz yashar qizdan pok va tarbiya ko'rgan qiz. Men ko'rgan, men tanigan qizlarning biron-tasi unga na husnda, na muomalada, na mehr-oqibatda tenglasha oladi. Undan chiroylirog'ini, undan aqllirog'ini hech qachon ko'rmaganman va boshqa ko'rmasam ham kerak. Nima qilib bo'lsa ham unga uylanishim kerak.

Sobitjon turib, magnitafonni qo'ydi. Magnitafondan qo'shiq taraldi:

«Men yo'qsil, ne bo'lib uni suyubmen,
Uningchun yonibmen, yonib kuyibmen.
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,
Men suyib, men suyib kimni suyibmen?
Men suygan suyukli shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal».



Qosimxon uyga kirib kelarkan, g'azabdan o'zini bosib ololmasdi.

- Qani ayt, kim u?
- Birga ishlaymiz. Bosh vrachimiz.
- Nega minding mashinasiga?
- Shunchaki, bekatda turuvdim, to'xtadi.
- Aytib qo'yay. Men bunaqa isnodni ko'tarolmayman. Agar sen haqingda bir gap eshitsam, chavaqlab tashlayman.
- Avval o'zingizni bilib oling. Kechalari daydib yurib, kimlar bilan nima ishlar qilganingizni o'z ko'zim bilan ko'rganman. O'sha ishlar uchun sizni hech qachon kechirmayman.
- Kechirmasang, yo'qol bu yerdan.
- Kerak bo'lsa, siz yo'qolasiz bu yerdan. Uy meniki. Uyning buzilishiga ham siz birinchi sababchisiz.

— Agar sen men bilan tenglashmoqchi bo‘lsang, xato qilasan. Bilib qo‘y, er kishi adashsa, ayol hamma vaqt kechiradi. Lekin ayol adashsa, erkak hech qachon kechirmaydi.

— Menda endi sizni kechirishga undaydigan biror fazilatingiz ham, biror xislatiningiz ham, qadr-qimmatiningiz ham qolmagan. Besh yil davomida hammasini ichib-chekib, harom-xarishlar bilan ayshu ishrat qilib tugatib bo‘ldingiz. Menda endi sizni kechiradigan sabru toqat ham, rahmu shafqat ham qolmagan.

— Hali shunaqami?

— Shunaqa!

— Shunaqa bo‘lsa, endi o‘zingga boshqa er topib ol! — Qosimxon kostumini yelkasiga ildi-da, eshikni taraqlatib chiqib ketdi.



Shuhrat Ahadovich ertasiga ertalab Malikani o‘z xonasiga chaqirdi:

— Malikaxon, nima bo‘ldi, tinchlikmi, kechasi bilan uxlo olmay chiqdim.

— Erim o‘zi shunaqa, jahli sal tezroq.

— Uyda janjal ko‘tarmadimi?

— Yo‘q. Hammayoq tinchlik. «Sal qizishib ketibman, Malika, birga ishlar ekansizlar, juda noqulay bo‘ldi-da», deydilar. Men ham ikkinchi birovning mashinasiga o‘lsam ham minmayman deb, va‘da berdim.

— Juda to‘g‘ri qilibsiz. Endi hech qachon birovning mashinasiga o‘tirmang. Odamlar darrov gap qiladi. Tili bilan yuradiganlar ko‘p. Lekin mening tuni bo‘yi jahlim hech bosilmadi.

— Nega?

— Aytaveraymi?

— Ayting.

— Agar sizga shu so‘taqo‘zi eringiz qo‘l ko‘taradigan bo‘lsa, o‘zim uylanishga ahd qilib qo‘ydim. Bilib qo‘ying, shu gapim gap. Gapimning isboti sifatida ertagayoq qo‘lingizga yangi «Neksiya»ning kalitini tutqazishim mumkin. Agar pasportingizni tozalab kelsangiz, ikki xonali uy meniki deya-

vering. Hechqisi yo‘q, sizni boqib olishga ham, sizga yoqib qolishga ham qurbim yetadi.

— Voy, Shuhrat aka, nima deyapsiz. Erimdan ajralish fikri menda umuman yo‘q. O‘lsam ham erim bilan birga o‘laman. Lekin sizga ham rahmat. Hayotimda men uchun shunchalik saxiylik qilgan odamni sira uchratmagandim. Xudo boyligingizni bundan ham ziyoda qilsin.

— Malika, gap boylikda emas. Men sizni yoqtirib qoldim. O‘lay agar, negaligini sira bilmayman. Sizni eslasam, butun borlig‘imni quvonch egallab oladi. O‘zimda yo‘q shodlanib ketaman. Shuncha yil umr kechirdim. Ammo hayotimning baxtli damlari endi boshlanayotganday. Butunlay yasharib ketgandayman. Hayotimdagi bu yangi davr uchun sizdan minnatdorman, Malika.

— Shuhrat aka, unday demang. Men hali o‘zim baxtga zorman. O‘zim butun umr quvonch nimaligini bilmay o‘tyapman. Men haqimda bunchalik shirin xayollarga berilib, xato qilyapsiz. Boshimda erim bo‘laturib, siz bilan savdolashib o‘tirishimning o‘zi ahmoqligimni bildirmaydimi? O‘z erini baxtli qilolmagan, ko‘cha-ko‘yda urishtirib yuradigan menday notavondan hafsalangiz pir bo‘ladi hali.

— Malika, o‘ylab ko‘ring. Men o‘zimning qat‘iy qarorimni aytdim.

— Shuhrat aka, bu o‘ylab ko‘radigan gap emas. Sizdan boshqa odam aytganida bu kunimdan o‘lganim afzal derdim. Lekin siz...

— Malika, hozircha ishingizga boring. Men ham majlis chaqirganman. Yana bafurja gaplashamiz, xo‘pmi?

— Yaxshi qoling.

— Qo‘ng‘iroq qilaman.

Malika bir haftadirki erining uyga kelmayotganidan xavotirda edi. Sanjarni har kuni bog‘chadan o‘zi olib kelar, o‘g‘li yo‘l-yo‘lakay «Nega dadam kelmayptilar?» — deya harxasha qilgani qilgan edi. Erini hamma qarindosh-urug‘, yaqin o‘rtoqlaridan so‘rab chiqdi. Hech kim ko‘rdim demaydi. Milit-siyaga qo‘ng‘iroq qilay desa, gap-so‘z ko‘payib ketishidan istihola qiladi. Ishxonadagilar esa, «Javob so‘rab ketgan, qayoq-qaligi noma‘lum, xotini bo‘lib, siz bilmasangiz, biz qayoqdan

bilaylik?» — deydi. Dugonasi Maryamga dardini ochuvdi: «Yur, folbinga boramiz», — deb qoldi. Qiziq, «Folbinga balo bor-mi?» — deydigan odam yo‘q. Boshqa birov bilan yashab yurgan bo‘lsa-ya? Qosimxon boshqa birovning qo‘yniga kirib ketgan bo‘lsa-yu, uni bu yo‘ldan qaytarib olish o‘rniga lallayib o‘tirsal!

Eshik qo‘ng‘irog‘i jiringladi. Malika eshikni ocharkan, Maryamni ko‘rib, dardi yengillashganday bo‘ldi.

— Yur, boramizmi?

— Uning uyi qayerda?

— Yursang-chi, o‘zim olib boraman.



Folbin o‘zining ruhlari bilan gaplashib, hammasini ochiq-oydin aytdi-qo‘ydi.

Qosimxon shu atrofda yurganmish. U xotinini yaxshi ko‘rar ekan. Ammo oralaridagi mojarolar hali ancha cho‘zilar ekan. Bu qo‘ydi-chiqdildan Qosimxon qattiq xafa. Uni ikkita dushmani yiqitishga payt poylab turganmish.

— Qizim, kel, yelkalarini qoqib qo‘yay. Atrofingda insu jinslar ko‘payib ketibdi. Ulardan ehtiyot bo‘lmasang, yomon ahvolga tushib qolasan.

— Mayli, xolajon, bilganingizni qiling. Iloji bo‘lsa, erimni o‘zimga isitib bering. Balo-qazo nari ketsin. Xudoyim tuhmatdan asrasin.

— Qizim, atrofingda ko‘p gaplar aylanib yuribdi. Seni bu gaplardan voqif qilmasam bo‘lmaydi. Agar istamasang, aytmayman.

— Yo‘q, aytavering, xola. Boshimda bor ekan, oldindan bilganim yaxshi.

— Qo‘y, aytmaganim ma’quldir.

— Ayting, xolajon, endi baribir, eshitmasam ko‘nglim joyiga tushmaydi.

— Qizim, ko‘ryapsanmi, oy bugun yangi chiqdi. Hali uning chiqqaniga bir soat ham bo‘lgani yo‘q. Mening parilarim aytyaptiki, mana shu oy to‘lganida, sen to‘ppa-to‘g‘ri jahan-namga giriftor bo‘lasan. Seni do‘zax o‘z qa‘riga tortib ketadi.

Mana, aytmay desam, aytting, endi o'zing shu gapga qarab tadorigingni ko'raver. Balki ehtiyot chorasi chiqib qolar. Balki omon qolarsan. Yaratgan egam tavba qilganlarni kechirguvchidir. Shoyad, mag'firat topsang... Malikaning qulog'iga ortiq gap kirmadi. Bir oy umri qolganligini eshitib qaltirab ketdi. Butun a'zoyi badanini titroq bosdi. Folbin kampirni qarg'ab, chang solmoqchi ham bo'ldi, lekin insu jinlar bilan aloqasi bor parixonga teginib bo'larkanmi?

Faqat Maryamgina eshikdan chiqar-chiqmas:

— O'zing o'sha jahannamga ravona bo'l, qari kampir, — deya qarg'andi.

Kampir ham javoban:

— Oyoqni to'g'ri bosish kerak, oyimtillalar, har kim o'zi uchun javob beradi. Bu dunyo o'tkinchi, har ikki dunyo saodatini ko'ruvchilargina baxtiyor insonlardir.



Malika folbinning gaplariga dastlab parvo qilmadi. «Menga bu dunyoning o'zida chekkan jafolarim yetmasmidi, — deb o'yladi.— Axir, folbinga ishonish g'irt ahmoqlik-ku? Bir oylik umrim qolgan emish. Oy to'lganidek, sening ham paymonang to'lib boradi emish. Qani, oyga bir qaray-chi? Oy bo'yoqchining chizig'iday ingichka. Tavba, umrim bino bo'lib, oyga e'tibor bilan qaramagan ekanman. Oyning go'zalligini qarang. Buncha chiroyli! Men esa bir oydan keyin bu go'zallikning baridan mahrum bo'laman. Yer tagida adoyi tamom bo'lib, qurt-qumursqalar yemishiga aylanaman. Sho'rlik onam mening hasratimda g'am-g'ussaga botib qariydi. Qolgan sochi ham oqarib, azob-uqubatdan ko'zlari kirtayadi. Hech bo'lmaganda, onam dard chekmasligi uchun hali yashashim kerak. Unga kim qaraydi? Bechora o'g'lim! Shunday shirin o'g'limni kimga tashlab ketaman? Yo'q-yo'q, men hali yashashim kerak. Qosimxon-chi, Qosimxon, u uylanadi. U shuni kutib yuribdi.

Yo'q, u hech qachon mendan boshqaga uylanmasligi kerak. Yo'q, yo'q, hech kim bilan xayrlashmayman, hech kim bilan!



Malika uyg'onarkan, o'zida chuqur xokisorlikni his qildi. Qabulga kelgan bemorlarni shu qadar muloyimlik, shirinsuxanlik, ochiq chehra bilan kutib ola boshladiki, bu so'zamoligidan o'zi ham hayron qoldi. Hatto ko'ziga parda tushgan bir bemor kirganida, ustomonlik bilan ochiqdan-ochiq operatsiya uchun yuz ming so'radi. Ko'zi yuz foiz tiklanishiga kafolat berdi. Malikaning mehribonligidan amaki ham xursand bo'ldi. O'g'illariga pulni keltirishni buyurdi. Malika, «Bir oy bo'lsa ham yaxshi yashashim kerak», — deb o'zining bu qilmishini oqladi.



Kechqurun kuzatib qo'yish uchun Sobitjon keldi. Sobitjon ochiqdan-ochiq: — «Yangi uy sotib olsam, men bilan yashaysizmi?» — dedi. Malika kulib yubordi: — «Siz bilan yashayman?» «Shunday, men sizga uylanaman, xohlasangiz to'y qilamiz. Nikohdan o'tamiz, hammani to'yga chaqiramiz». — «Sobitjon, es-hushingizni yig'ib oling. Hali boshimda erim bor. Ajrashmaganmiz. U ko'nadimi-yo'qmi, hali noma'lum». «Sizchi? Siz o'zingiz rozimisiz?». «Men sizni yaxshi ko'raman. Chunki sizning yaxshi ko'rishingizga endi ishondim. Lekin bu — siz bilan birga bo'laman degani emas. Siz hayot haqida juda jo'n fikrlaysiz. Hammasi siz o'ylaganchalik oddiy emas. Hayotning bu murakkabliklari meni adoyi tamom qildi». «Malika, bir umr sizni qo'limda ko'tarib yuraman. Sizga gard yuqtirmayman. Siz uchun jonimni, butun hayotimni bag'ishlayman. Faqat meniki bo'ling. Faqat men bilan birga bo'ling. Yonimdan bir qadam ham siljimang. Ertadan-kechgacha ko'zingizga qarab o'tirishga tayyorman». «Sobitjon, siz yuragi toza yigitsiz. O'zingizni ehtiyot qiling. Bu hayot qalbi bu qadar pokiza odamlarni hech qachon kechirmaydi. Balo-qazolar gohida shunday beayov ulotirib yuboradiki, men ham yomonlikni ozgina o'rganib olsam bo'larkan, deb orzu qilib qolasiz!». «Malika, unday demang. Hali biz siz bilan baxtli bo'lamiz, shu qadar baxtli bo'lamizki, hayotning bu qadar go'zalligidan yuragimiz gupurib



ketadi». «Sobitjon bo'ldi, bas qiling. Orzu qilish yaxshi, lekin men baribir sizga tegmayman». «Tegasiz!». «Men sizning tengingiz emasman». «Siz mendan baribir yaxshisiz!». «Agar yaxshi bo'lganimda, siz bilan bunday gaplashib o'tirmagan bo'lardim. Odamlar ko'rsa nima deydi?». «Men yaqinda bir joydan ozgina qarz ko'taraman. Keyin birgalikda uy izlaymiz. Bir xonalik bo'lsa ham mayli. Keyin birga yashaymiz». «Sobitjon, xayolingizga erk bermang». «Qarorim qat'iy». «Yaxshi boring!»

«Tunu kun faqat sizning xayolingiz bilan yashayman. Shuning uchun xayrlashishimizga hojat yo'q. O'zingiz bu yerda qolsangiz ham, baribir xayolimda men bilan ketasiz. Men siz bilan hech qachon xayrlashmayman, hech qachon».



Qosimxon Malikaning keyingi hayotidan, uning tabiatidagi qat'iyatdan o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Respublikadagi eng katta shifoxonalardan birida uning birdaniga bu qadar baland obro'-e'tiborga ega bo'lib ketishini, shifokorlarning ham, bemorlarning ham og'ziga bu qadar tez tushishini, uni hurmat bilan gapirishlarini sira kutmagandi. Albatta, u Malikaning talabalik paytlari ham juda zakovatli, bilimdonligiga qoyil qolardi. Lekin o'qish payti kimlar a'lochi bo'lmagan. Qolaversa, u Malikani a'lochi bo'lgani uchun yaxshi ko'rmagandi. U Malikani Malika bo'lgani, Xudo uni xatosiz yaratgani, unda birorta aybni ko'rmagani, undan ortig'i bu dunyoda boshqa bo'lmasligini bilgani uchun uni yaxshi ko'rgandi, sevgandi, butun borlig'i bilan uning poyiga o'zini tashlagandi. Lekin keyingi yillarda u haqiqatdan ham Malikaga xiyonat qildi. Agar buni xiyonat deb emas, shunchaki boshqalar bilan ko'ngilxushlik qildi deb atalsa, to'g'ri ta'rif berilgan bo'lardi. Chunki Qosimxon hatto birovning qo'yniga kirganida ham hech qachon Malika haqida yomon o'yg'a bormagan, zarracha bo'lsin unga mehru muhabbati sovumagan, uni hamisha va hamma joyda sevgan, ardoqlagan, hurmat qilgan. Hatto bu haqda o'ynashlariga ham aytgan. Ba'zilarining bundan jahli chiqqan bo'lsa, ba'zilar haqiqiy erkaklar ham bor ekan-ku, deb xursand bo'lgan. Qosimxon ularning hammasini o'zining tabiatidan kelib chiqib qilgan.

O‘zining sho‘xligidan, beboshligidan, gohida shunchaki, bular Malikaga xiyonat emas, deb bilganidan bu rasvoyi jahon ishlar bo‘lib o‘tgan. Lekin oqibatini hech qachon o‘ylamagan. Malika undan naqadar yiroqlashib ketganini u birinchi bor xotini Shuhrat Ahadovichning mashinasida ketayotganida tushundi.

Tushundi-yu, a‘zoyi badaniga og‘riq yugurdi. «Nahotki Malika unga xiyonat qilishi mumkin bo‘lsa? Nahotki qachonlardir Malikaning orqasidan zir-zir yugurgan yigitlarning to‘poloni besh yildan so‘ng yana qaytadan boshlansa? Nahotki Malika uni, Qosimxonni chetga surib, undan zo‘rrog‘ini, undan chiroyli, undan kelishganrog‘ini topa olsa? Bu, axir, xiyonatku? Demak, mening ham boshqalar bilan yurishimni bemalol xiyonat deb atayversak bo‘lar ekan-da. «Bekorga pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa birovga ur» deyishmas ekan. Malikaning menga xiyonat qilishiga hech qachon yo‘l qo‘ymayman, hech qachon. U o‘ligimning ustidan hatlab o‘tibgina xiyonat qilishi mumkin, lekin tirikligimda hech qachon bunga yo‘l qo‘ymayman».

Qosimxon Shuhrat Ahadovichning mashinasini kesib o‘tib to‘xtatganida shunday azoblar alangasida edi.



Malika ish kuni tugab, endi yo‘lga otlanmoqchi bo‘lib turganida, Maryam kelib qoldi.

— Eshitdingmi, Malika, anovi bola bor-ku, sening orqangdan yugurib yurgan praktikant bola, o‘sha qamalib qopti.

— Voy, qaysi bola?

— Anovi-chi, gul ko‘tarib, oldingdan chiqardi-ku, chiroyli bola, Sobitjonmidi, bir marta menga, iltimos, bugun men Malikani kuzatib qo‘yay, siz boshqa kun gaplasharsiz, degan.

— Nima qipti, unaqa yomon bolamasdi-ku?

— Fakultet dekaniga militsiyadan xat jo‘natishibdi. Qanaqa bola u deb, domlalardan so‘rab chiqibdi. So‘ng voqeani ham-maga aytib beribdi.

— Nima bo‘lgan ekan?

— U xolasinikigami, tog‘asinikigami, ishqilib bir boy qarindoshinikiga qarz so‘rab boribdi. Bir marta borganda bermabdi. Ikkinchi marta borganidan keyin ham qaytarib yubo-

ribdi. Sobitjon «qarz so‘rab kelganimni uyimdakilarga aytmang» deb iltimos qilibdi. Xullas, bir kuni yana borsa, hovlida hech kim yo‘q ekan, uyni tit-pitisini chiqazib, pul, tillo taqinchoqlarni olib, endi o‘g‘irlab ketayotganda, kelini kelib qolibdi. Sobitjon kelinni urib qochibdi. Kelin hushiga kelib, militsiyaga telefon qilibdi. Militsiya uyni obdon tekshirib, «O‘g‘rini taniysizmi desa, ha, taniyman, falon qarindoshimiz, uyi falon joyda» deb hammasini aytib beribdi. Sobitjonni darrov ushlab, qamab qo‘yishibdi. Qarindoshlari, «da‘vomiz yo‘q» desa ham, qo‘yib yubormayotgan emish. Kelin boshi yorilib, shifoxonada ekan, eri: «Sobitjon chiqsa, sog‘ qo‘ymayman», deb oyoq tirab turgan emish. Odam ham shunchalar pastkash bo‘ladimi, yaxshigina bola deb yurardim.

— Unaqaga o‘xshamasdi-ku.

— Qayoqdan bilay?

— O‘zi rostmi shu gaplar yoki vahimami?

— Nima, men birovning ustidan shuncha tuhmat qilib, aqldan ozdimmi?

— Unga pul nega kerak ekan?

— Bu haqda hech narsa demabdi. Uning ota-onasi ham zor yig‘lab, dekaning oldiga kelgan ekan, dekan men u bola haqida ijobiy tavsifnomalar yozib beraman, deyayotgan emish.

— Maryam, biz Sobitjonning oldiga borsak, bizni qo‘yi-sharmikan?

— Jinnimisan, nima deb boramiz?

— Bechoraga javr bo‘pti-da, yaxshi bola edi, endi kesilib ketsa kerak.

— Bu ishni hech kim shunday qo‘yib qo‘ymaydi. Endi jazosini tortishi aniq.

— Bechora, sizni yaxshi ko‘raman, deb yuruvdi. O‘lay agar, men ham yaxshi ko‘rib qolgandim.

— Jahannamga tushishing rostga o‘xshab qoldi. O‘zingni tutib ol.



Shuhrat Ahadovich ikki kishilik o‘rindiqla yastanib yotarkan, lablaridagi issiq haroratdan, sarxush kayfiyatdan, xayolidagi

xotirasiga qattiq oʻrnashib qolgan maʼsum soʻzlarning takroridan mast boʻlib yotar ekan, hozirgina chiqib ketgan Malikaning orqasidan yugurgisi, koʻzlariga termulib oʻtirgisi, shirin soʻzlarini yana va yana eshitgisi kelar edi. U qachonlardir xuddi Malikaga oʻxshagan qiz bilan uchrashishni, unga uylanishni istardi. Agar ular bundan yigirma yillar oldin uchrashganida Shuhrat Ahadovich Malikaning orqasidan zor-zor yugurgan, jonu jahonini unutib sevgan boʻlar edi. Lekin afsuski, Shuhrat Ahadovichning hayotiga bunday qiz juda kech kirib keldi. Bu paytlar u oʻgʻlimni uylantiraman, qizimni uzataman deb yurgan paytlar edi. Biroq koʻngil yosh boʻlib qolaverar ekan. Harqalay, yigirma yil oldingiday boʻlmasa-da, bu koʻngilning iztirobga tushishi, Shuhrat Ahadovichday odamni esankiratib qoʻyishi uchun Malikaning bir ogʻiz soʻziyu qiz bolaga xos bir qiligi kifoya qildi. Dastlab Shuhrat Ahadovich kuzatib qoʻyish bahonasida Malikani anhor yoqasida ikki ogʻiz soʻzlashib oʻtirish uchun taklif qildi. Malika orqa oʻrindiqa edi. Keyin Shuhrat Ahadovich ham orqaga oʻtib oldi. Besh daqiqaga toʻxtagan mashina shu taxlit uch soatga yaqin turib qoldi. Suhbat soʻngida Shuhrat Ahadovich Malikaning qoʻlini oʻpmoqchi boʻldi.

— Qarshimda naqadar katta dushman turganligini his qilib turibman, — dedi Malika.

— Nega unday deysiz?

— Yuragingiz allaqachon toshga aylanib ketgan boʻlsa kerak. Unda oʻzimga nisbatan mehr uygʻotgunimcha necha yillar kerak boʻladi.

— Buni men ham bilmayman, Malika. Lekin yolgʻon soʻzlab oʻzimni ham, sizni ham aldamoqchi emasman. Hozir sizga, sizni sevib qoldim desam yolgʻon boʻladi. Bundan keyin ham balki sevishim gumondir. Balki ertaga sizni bir daqiqa koʻrmasam turolmaydigan boʻlib qolarman. Buning barini oldindan aytish qiyin. Lekin shuni hozir aniq aytishim mumkinki, siz menga yoqasiz. Sizning har qancha ogʻiringizni koʻtarishga tayyorman. Hozirning oʻzidayoq siz mening doʻstim-siz, deya chor tarafga jar solishga tayyorman. Chunki sizning yuragingiz, qalbingiz menga oʻz bolaligimni, yoshligimni, oʻy-xayollarim, qilgan ishlarimni yodga soladi. Men qachonlardir

xuddi sizga o‘xshardim. Shuning uchun bugun o‘zimni qancha hurmat qilsam, sizni ham shuncha hurmat qilishimga yetarlicha asos bor.

— Men ham sizning ko‘ngil odami ekanligingizni bilardim. Negadir uzoqdan qarab, bir kuni siz bilan bunchalik yaqin bo‘lib o‘tirishimizni hech xayolimga sig‘dirolmagandim. Qo-laversa, sizning qarshingizda ozgina bo‘lsa-da, qadr topaman deb sira o‘ylamagan ham ekanman. Endi men ham hech bilmay qoldim. Biz bu o‘yinlarni nega boshladigu, u nima bilan tugaydi? Siz bilan mana shunday gaplashib o‘tirishimizning nima keragi bor?

— Men ham shu haqda ko‘p o‘yladim. Lekin hech bir xulosaga kelolmadim. Bunday savolni biror narsa xarid qilayotganda bersa tuzuk ekan. Lekin siz bilan hech narsani savdolashmayap-miz. Hech kim hech qanday foydani ham ko‘zlayotgani yo‘q. Qaytanga ikkalamizning ham atrofimizda gap-so‘z ko‘payishi mumkin. Lekin nima qilay, zo‘r berib u ishni boshini tutsam ham, bu ishga o‘zimni andarmon qilsam ham sizni o‘ylay-veraman. Sizni sog‘inaman. Ko‘rgim keladi. Bexosdan telefon go‘shagini ko‘taraman. Yoki siz ishlayotgan bo‘limga oyog‘im tortib qoladi. Keyin nima bo‘lsa bo‘ldi deyman. Axir, odam o‘z ko‘ngli, qalbi uchun yashamasa nima uchun yashaydi? Xudo insonga nima uchun ko‘ngil beradi? Inson nega o‘zining ixtiyorisiz sevadi? Odam hayotga nima uchun keladi? Yashashdan ma‘ni nima? Eng to‘g‘ri yashash balki sevib yashashdir. Nima bo‘lganda ham endi sizsiz turolmay qoldim.

Shundan so‘ng Shuhrat Ahadovich egilib, Malikaning titroq lablaridan o‘pdi.



Malika tun yarmida uyg‘onib ketdi. Qosimxondan hali-hanuz darak yo‘q edi. Qo‘rquv va vahima aralash derazadan yuqoriga qaradi. Oy ikki enlik bo‘lib kattalashgandi. Folbinning gaplari yuragining tubida xuddi zaharday butun tanasiga, aql-idrokiga, gap-so‘zlariga, qilayotgan ishiga ta‘sir ko‘rsatayotgandi. Ayniqsa, bu zahar kechasi, u o‘zi bilan o‘zi yolg‘iz qolganda ko‘proq

yuragini chaqardi. U charchoqning zo'ridan uxlar, aslida buni uyqu deb bo'lmasdi.



Maryamning aytganlari to'g'ri chiqdi. Buning hammasini Malika sudda o'z ko'zi bilan ko'rdi, o'z quloqlari bilan eshitdi. Panjara ichida o'tirgan Sobitjonni ko'rib, alamdanda «dod» deb yuborishiga oz qoldi. Sobitjonga pul nima uchun kerak bo'lib qolganligini faqat Malikagina bilardi. Balki yana kimlarningdir bundan xabari bordir. Lekin sudda bu haqda hech kim og'iz ochmadi. Sobitjonning onasi zor qaqshab yig'lab o'tirdi. Dadasi boshini ko'tarolmasdi. Shu ikki soatlik sud mobaynida Malikaning sochlariga oq tushdi. Sobitjon unga juda ko'p qaradi. Iltijoli qaradi. Umid bilan qaradi. Meni kutgin, deya qaradi. Malika xayolan uni kutishga qasam ichdi. Sud Sobitjonni uch yil ozodlikdan mahrum qildi. Malika uch yil kutishga qasam ichdi. Shuning uchun oradan bir hafta o'tib, Sobitjondan kelgan xatga javoban quyidagi maktubni yozdi:

«Azizim Sobitjon!

Boshimizga tushgan bunday ko'rgulikni ko'rgandan ko'ra ko'zim ko'r bo'lgani yaxshi edi. Lekin, nima qilaylik, odamning boshi toshdan ekan, boshga tushganni ko'z ko'raverar ekan. Avvalo, bu falokatga chiday olmasam kerak deb o'ylagandim. Lekin mana, o'lib qolganim yo'q. Kun o'tishini poylab yotibman. Shuning uchun «vaqt — hakam» der ekanlar-da. Siz mendan kutishimni so'rab yozibsiz. Albatta, sizni intizorlik bilan kutaman. Men uchun shuncha falokatlarga yo'liqdingiz. Bularning hammasini fidoyilik deb bilaman. Men sizni sevaman. Sizning asirangiz Malika».

Malika tilida hech qachon iqrora bo'lmagan muhabbatga maktubida iqrora bo'ldi. Vaziyat shuni taqozo qilardi.

Qosimxon tunu kun Shuhrat Ahadovichdan qanday qilib o'ch olish mumkinligi haqida o'ylardi. Rashk o'ti butun tanasini kemirar, mulohaza qilishga yo'l qo'ymasdi.

O'shanda jahl bilan uydanda chiqib ketdi-yu, bir-ikki kundan so'ng hech bir og'aynisi, hech bir qarindoshining uyiga

sig‘masligini tushundi. Keyin ijaraga uy topib, yaxshilab o‘rnashib oldi. Ichkilikka ruju qo‘ydi. Do‘sti Rahimga ko‘nglini yordi.

— Balki ayb o‘zingdadir, — dedi Rahim Qosimxonning ko‘ngliga botmaydigan qilib, — Malika nima uchun seni yomon ko‘rib qoldi? Sen Shuhrat Ahadovichdan o‘ch olgan taqdiringda ham Malika yana seni yaxshi ko‘rib qolishiga ishonasanmi? Balki yana boshqasini yaxshi ko‘rib qolar. Keyin nima qilasan, undan ham o‘ch olasanmi? Hozirgi zamonda birovnini bir chertsang, seni qayerga o‘tqizib qo‘yishlarini yaxshi bilasan. Sen u yerda bitingni terib o‘tirganingda, Malika mashaqqat qilib yurgan bo‘ladi. Shuning uchun, avvalambor, Malikaning ko‘nglini top.

— Malika meni sevadi. Men uning qonuniy eriman. Malika mendan boshqasini yaxshi ko‘rishini tasavvur ham qilolmayman. Mendan zo‘rini ikki dunyoda topolmaydi.

— Topibdi-yu?

— U aldab yuribdi. Yaxshi gaplar bilan laqillatyapti. Niyatiga yetgach, tashlab ketadi. Lekin u Malika bilan yotadigan bo‘lsa... Malika menga hech qachon kerak emas. Uni qo‘yvoraman.

— O‘g‘lingni o‘yla. Malikaning oldiga bor. UZR so‘ra. Endi men qilgan xatolar qaytarilmaydi de. Tinchgina, osuda hayot kechiraylik de, yupat.

— Men u topgan o‘ynashdan o‘ch olmay qo‘ymayman. Qasdimni olganimdan so‘ng Malikaning o‘zi kelib, kechirim so‘raydi.

— Agar kelmasa-chi?— Rahimning so‘z ohangida Qosimxonga g‘amxo‘rlilik, yon bosish bor edi.

— Agar kelmasa, Malikadan ham o‘ch olaman.



Shuhrat Ahadovichning kayfiyati chog‘ edi. Qo‘lida «Neksiya»ning kaliti o‘ynar ekan, Malikaning ishxonadan chiqishini poylab turardi. Nihoyat, o‘ziga oro berib, bir-bir qadam bosgancha yo‘lakda Malika paydo bo‘ldi.

— Malikaxon, bu sizga sovg‘a.

— Nima bu?

— Bu «Neksiya»ning kaliti.

- Mengami?
- Sizga!
- Voy, rahmat!

Malika, katta ko‘chada, tanish-bilishlarning o‘tgan-ketganiga qaramay, Shuhrat Ahadovichning bo‘yniga osilib, yuz-ko‘zidan o‘pa boshladi. Shuhrat Ahadovich ham xuddi shunday bo‘lishi kerakday Malikaning belidan quchoqlab, dast ko‘tardi-da, bir aylantirib yerga qo‘ydi:

— Sizga shu narsani sovg‘a qilayotganim uchun o‘zim ham behad xursandman. Xudoga shukur, shunday kunlarga yetkazganiga shukur.

— Voy, men haydashni bilmayman-ku. Faqat institutda o‘qib yurgan paytlarim dadamning «Jiguli»sini haydaganman.

— Bo‘pti-da, bu unchalik qiyin emas. Orasida farqi kam, o‘rganib ketasiz.

— «Mashinani qayerdan olding?» deb so‘rganlarga nima deyman?

— Lotoreyadan yutdim deysiz, tamom-vassalom.

— Ha, juda ham ishonishadi-da.

— Ishonmasa, ko‘nikib ketishar.

— Ko‘nikishmasa-chi?

— O‘zlariga qiyin.

— Erimga-chi, erimga nima deyman?

— Eringiz bilan ajrashing, endi u odam bo‘lmaydi.

O‘zim sizni xotin qilib olaman.

— U ajrashib bo‘pti. Keyin, ja-a indamay ketaveradiganlardan emas.

— Indamay ketmasa, gapirib ketsin. Menga farqi yo‘q!

— Sud arizamizni qabul qilmasa-chi?

— Men aytaman, qabul qiladi.

— Ajrashib ketsam, qanday yaxshi bo‘lardi-a! Hech qachon afsuslanmasdim. Agar eson-omon ajrashib olsam, xalqqa qo‘y so‘yib, xudoyi qilib berardim.

— Xudoyining kattasini to‘yda qilamiz.

Shuhrat Ahadovich Malikani qizil «Neksiya»ga o‘tirgizdi.





— Nima, boshingda ering tirik turib, uni mashinaga almashtirib yubordingmi?— Maryamning jahli chiqib ketdi.— Ertaga ko'rsa nima deydi?

— Ko'rsa ko'rar. — Malika qilgan ishidan pushaymon emasdi. — O'zi o'n besh kundan beri yo'q-ku, arvohidan so'raymi?

— O'zi bo'lsa, bo'lmasa er. Hali javobingni bermagan. Qonuniy nikohidasan. Qolaversa, u lallayib, bu qilmishing uchun seni kechirib qo'yadiganlardan emas.

— Nima, men kechirib qo'yamanmi? Kechasi hatto uyimgacha o'ynashlarini yetaklab kelsa. Besh yil cho'riday xizmatini qildim. Oilasini oila o'rnida ko'rmasa, bolasini bola o'rnida ko'rmasa, kiyishga kiyim tugul, yeyishga non topolmay o'tirardik. Bizdan ko'ngli sovib, qo'ltig'iga urganiga ancha bo'lgan. Endi men ishga kirib, ro'zg'or tebratishni boshlagandan keyin qiladigan g'amxo'rliqi o'ziga siylov.

— Juda haddingdan oshma. Oladigan oyliging ko'zingga tog' bo'lib ko'rinmasin. Agar oylik erdan yaxshi bo'ladigan bo'lsa, xotin zoti er tutib o'tirmasdi. Oilaning butunligi har qanday mol-dunyodan ustun turadi. Chunki mol-dunyo topiladigan narsa. Ammo oila bir buzilsa, uni butlab bo'lmaydi. Oilangni saqlab qolaman desang, hoziroq borda, mashinani qaytarib ber.

— Mashinasini nega oldim, bilasanmi? Chunki uni yaxshi ko'rib qoldim.


— Yolg'on, o'zingni aldama, Malika, — Maryamning dahshatdan ko'zlari olayib ketdi.— Axir, kechagina Sobitjonni sevaman, demaganmiding?

— Sobitjonni yaxshi ko'rar edim. Agar uning uyi bo'lganida unga tegardim ham. Endi bir kun bo'lsin, yaxshi yashayman deb, o'zim yaxshi hayot uchun, uning har bir daqiqasi uchun jonimni garovga qo'ysam-u, endi uni uch yil kutish zarur keptimi?

— Bo'lmasa, sevaman deb katta ketma.

— Nima deyay?





— Shuhrat Ahadovichga o‘ynash bo‘lib qoldim, buyog‘i buzuqchilik deb qo‘ya qol.

— Yo‘q, bu sen aytganchalik, ja-a unaqa buzuqchilik emas. Sevgiga o‘xshaydigan nimadir bor. Agar men ZAGSga borib, nikohimni bekor qildirsam, u menga uy ham olib beradi. Qonuniy ikkinchi xotini bo‘lvolaman. Kim menga nima deydi?

— Qosimxonni ham Layli-Majnun bo‘lib sevganding-ku. Agar u ertaga mashina olib bersa, qaytib kelasanmi?

— Bu ishning yaqin o‘rtada bo‘lishi gumon. Men esa oyning to‘lishini kutyapman. Agar folbinning gaplaridan esonomon o‘tib olsam, elga osh berib, xudoyi qilaman.

Malikaning so‘nggi so‘zlarida iztirob aralash qo‘rquv bor edi.

— O‘tib bo‘psan.— Maryam vajohat bilan unga o‘girildi. — Sen albatta do‘zaxga tushasan. O‘ylab ko‘rsam, kampir seni o‘lishingni emas, do‘zaxga tushishingni bashorat qilgan ekan. Sen shunchaki do‘zaxi bo‘lib tirik yuraverasan. Qachon ajaling yetsa, do‘zaxga tushasan.

— Rostdanmi, men hali o‘lmaymanmi?

— Rostdan. Yana bilmadim.

— Jon, dugonajon, hali o‘lmaysan de!

— O‘lmaysan-u, lekin do‘zaxi bo‘lish undan yomon.

— Endi bu Xudoning ishi. Yana yashab ketsam, balki jannatga tusharman. Tirik qolsam bo‘ldi.

— Bo‘pti, men ketdim. Yana yaxshilab bir tanangga o‘ylab ko‘r. Qosimxonni, Sanjarni o‘yla. Oilangni, mahallako‘yni o‘yla. Uzoqni o‘ylab ish qil. Men esa sening yaxshi-yomon kuningda ham sodiq dugonangman. Xayr.

Maryam uzoq xayrlashmay, Malikaning uyidan chiqib ketdi.



O‘sha kuni Malikaning uyi shodiyonaga to‘la edi. Hamma kelib, Malikani «toychoq» bilan muborakbod etar, topgan kimxob baxmal, gilam, topmagan shoyi belbog‘ tashlab, mashina ustiga yopardi. Malika shunday shodiyonada jilla qursa onasiga Shuhrat Ahadovich haqida gapirgisi kelar, lekin bayram boshqacha tus olib ketishidan cho‘chirdi. Bu tan-

tanalarda Qosimxonning qorasi ko‘rinmasdi. Malika erining kelishini istamas, uni yaxshi ko‘rmayman deb, o‘zini qattiq ishontirmoqchi bo‘lar, lekin yetarlicha nafrat bilan qaray olmasdi. Bu esa ko‘ngil rishtalari hali uzil-kesil uzilib ketmaganidan dalolat berar edi. Uning bir xayoli Qosimxonning ham mana shu tantanalarda ishtirok etib, hayratdan yoqa ushlab qolishi, Malikadan kechirim so‘rab, sening qadringga yetmagan men tentakni kechir deb tiz cho‘kishi, keyin Malika uni haydab yuborishi, u esa voy-dod ketmayman deb, hamma tomonga jar solishini ko‘rish, keyin uni o‘zi istamagan holda kechirishi xayolining bir chetida turar edi.



O‘sha kunlari Malika Sobitjondan xat oldi. Xatni hammadan yashirib o‘qimoqchi bo‘ldi. Uyda hech kim bo‘lmasa-da, yotoqxonaning eshigini yopib, titroq qo‘llari bilan konvertni yirtidi.

«Azizim Malika!

Salom! Avvallari juda g‘o‘r ekanman. Hayotning xuddi tanga singari teskari tarafi ham mavjud bo‘lishini hech o‘ylamagan ekanman. Katta, yorug‘ yo‘lda ketayotib, birdan chuqurga tushib qolganday, dunyoning qaltis o‘yinlaridan yuragim zirqiraydi. Bu yerda ayollar haqida juda yomon gap aytishadi. Lekin men ozodlikda yurganimda sizni yanada ko‘proq sevmaganimga afsuslanaman. Nega beparvo yurganman, nega yoningizga ko‘proq bormaganman, nega har bir kunimni faqat siz bilan o‘tkazmaganman? Shunday xayollar meni qiynaydi. Albatta, katta xato qildim. Sizni ham, ota-onamning ham yuzini yerga qaratdim. Bunday bo‘lishini istamagandim. Lekin, ming afsuski, falokat oyoq ostida ekan. Agar kutsangiz, sizni bir umr baxtli qilishga qasam ichardim. Faqat siz uchun yashagan bo‘lardim. Endi uy olsak, halol topgan pulimizga olamiz. Men endi oddiygina yashashning o‘zi oliy ne‘mat ekanligini tushunib yetdim. Boriga shukur qilganimda bunday abgor holatga tushmagan bo‘lardim. Sizni sevib, javob xatini intizorlik bilan kutib qoluvchi Sobitjon».



Malika shu paytgacha bunchalar go‘zallik to‘la osmonni ko‘rmaganiga hayron edi. Bulutlar shamoldek yelishar, gumbazday qop-qora osmonda oy suzib yurardi.



Qosimxon Malikaning mashina olganini eshitdi. Bu uning nafratini battar alangalatib yubordi. Endi u ayb Shuhrat Ahadovichda ekanligini, Malikaning unga xiyonat qilganligini anglab yetdi. Mashina ularning orasidagi munosabat qay darajada ekanligini ochiq-oydin oshkora etdi. Toki, mashina bor ekan, Malikaga shunchaki yetolmasligini, shunchaki uyiga kirib borolmasligini ochiq-oydin tushunib turar edi. Qosimxon endi Malikadan o‘ch oladigan bo‘lsa, Malikaga shunday tuh-falar qilolmagani uchun alamdand o‘ch olayotganday bo‘lib chiqardi. Lekin Malika olmayman desa, Shuhrat Ahadovich mashinani zo‘rlab bermasdi-ku. Demak, Malikaning Qosim-xonga bo‘lgan munosabati o‘zgargan. Ayb kimda. Qosimxondami?

Qosimxon uyida yotgan Buxoro amirining qilichini esladi. Endi shuncha chigallikning ichidan haqiqatni topib bo‘lmaydi. Haqiqatni mana shu qilich topadi. Qosimxon haqiqatni topmas ekan, yer yuzida yashashga joy qolmadi. Bunday sharmandalik bilan yashagandan yashamagan, bosh ko‘tarib yurmagan afzal. Yer yuzida birorta ayol Malikaning o‘rnini bosolmaydi. Malikaga achchiq qilib, mingta ayolga uylansa ham, mingtasi Malikaga teng kelolmaydi. Malika yo faqat uniki bo‘lishi kerak, yo hech kimniki. Bu dunyo odamlari bo‘lak mulohazani tan olmaydi.



Shuhrat Ahadovich Malikani quchoqlar ekan: «Menga vafodor yor bo‘lasanmi?» — deya va‘dasini olmoqchi bo‘lar edi.

— Sen chiroyli qizsan, Malika, shuning uchun oshiqlaring ham ko‘p bo‘ladi. Senga gap otuvchilar, seni sevuvchilar ko‘p bo‘ladi. Men esa injiq odamman. Xotinimning xiyonat qilishini

ko'tarolmayman. Shuning uchun menga so'z ber. Sizdan boshqaga qaragam, ko'zlarim teshilsin de. Sizdan boshqaga so'zlasam, tillarim kesilsin de. Agar aytging kelmasa, aytma. Agar o'zingga ishonmasang, aytma. Faqat menga xotin bo'lishdan oldin o'ylab ko'r. Yo'q, sizga faqat o'ynash bo'laman desang ham, o'zing bilasan. Mana, mashinani minib yuraver. Uyingga hamma kerakli narsalarni yetkazib berib turaman. Alohida-alohida bo'lsa ham yashab yuraveramiz. Bir-birimizga muhabbatimiz tugagan kuni ajralib ketaveramiz. Men sendan hech narsani talab qilmayman. Axir, ko'ngilga buyruq berib bo'lmaydiku. Faqat menga xotin bo'lishdan avval chuqur o'ylab ko'r. Xotinlikning yo'rig'i boshqa.

— Shuhrat aka, men ertagayoq Qosimxonni izlab topaman. Ajralish to'g'risida sudga ariza berishga uni ko'ndiraman. Men endi u bilan yashashni istamayman. Undan nafratlanaman. Faqat sudga bir og'iz aytib qo'ysangiz bo'ldi. Bizning arizamizni paysalga solmay, tezroq hal qilib berishsin. Keyin men butunlay sizniki bo'laman. Faqat sizni deb yashayman. Sizni sevib yashayman.

— Malika, meni aldama!

— Shuhrat aka, men yaxshi yashashim kerak. O'g'lim ham sizni ota deydi. Istasangiz, to'y qilamiz. Juda katta to'y. Istasangiz, shu haftadayoq, oy oxiriga yetmasdan. Bir og'iz nima desangiz, men bariga tayyorman.

— Mayli, ishondim. Avval ering bilan munosabatlarni bir yoqli qilib olaylik, keyin to'y qilamiz. Nikoh o'qitamiz. Qur'onga qo'lingni qo'yib, hech qachon xiyonat qilmaslik haqida qasam ichasan.

— Xo'p, Shuhrat aka, xo'p. — Malikaning ko'zlari quvonchdan chaq nab ketdi.



Malika Qosimxondan ajralish to'g'risidagi arizani osonlikcha ololmasligini yaxshi bilardi. Shuning uchun dastlab uning ishxonasiga qo'ng'iroq qildi. Go'shakni ko'targan Qosimxon o'ziga juda tanish, umrining bir bo'lagiga aylanib ketgan ovozni eshitib qaltirab ketdi.

— Yaxshimisiz, Qosimxon aka!
— Ha, Malika, nechuk?
— Men boshqa odamga turmushga chiqayapman. Sudga ajralish to‘g‘risida ariza bersak. Iltimos, arizani shu bugunoq bersak degandim.
— Bu haqda hech o‘ylab ko‘rmagan ekanman. Nega bunchalik tez? Nega bir og‘iz fikrimni ham so‘ramayapsan?
— Endi fikringizning qizig‘i yo‘q.
— Bas qil. Mening qo‘yadigan xotinim yo‘q. Sen meni yaxshi ko‘rishingni unutib qo‘yyapsan.
— Men sizni allaqachon unutib bo‘lganman. Xiyonat qilganimga ham ko‘p bo‘ldi.
— O‘chir!
Malika telefonning qo‘yilgan ovozini eshitdi. So‘ngra bir nafas o‘ylanib turdi-da, Qosimxonning boshlig‘iga qo‘ng‘iroq qila boshladi.



Ariza yozdirib olish bir haftaga cho‘zilib ketdi. Oy oxirlayotgandi. To‘y kunini belgilashga ulgura olishmadi. Malika oy to‘lishgan sari yuragidagi vahima ulg‘ayib, kichkinagina bo‘lsa-da, shu kunlarning ichida to‘yni o‘tkazib yuborish taraddudida edi. O‘ylab qarasa, to‘yni kichkina qilishning sira ham iloji yo‘q ekan. Kamida yuz-yuz ellik odamni aytish shart ekan.

Sud ajrim qog‘ozini berganda Malika juda xursand bo‘ldi. Talog‘ni ham so‘ramoqchi edi, o‘zi nima-yu, bergan talog‘i nima bo‘lar edi deb, indamay qo‘ya qoldi. Shuhrat Ahadovich yangi uy olib beraman deb va‘da qilgandi, hali yangi uy ham izlash kerak.

Malika yangi sarpolar sotib oldi. Sanjarni kiyintirdi. Uyini muborak bo‘lsinga keluvchilar uchun yangi uslubda ta‘mirladi. U xuddi qanot chiqazgudek uchib yurardi. Ishxonada ham qo‘li qo‘lga, oyog‘i yerga tegmasdi. Uni ko‘rganlar tabriklashar, u yaqinda to‘yimiz bo‘ladi, hammangizni taklif qilaman, deya shodligini baham ko‘rmoqchi bo‘lardi.





Oyning eng so‘nggi kuni Malika Shuhrat Ahadovichni tunab qolishga taklif qildi. Oy to‘g‘risidagi gaplardan Shuhrat Ahadovichning xabari yo‘q edi. Zero, folbinning gapi bo‘yicha bu tun Malikaning hayotidagi so‘nggi tun bo‘lishi kerak edi. Oy o‘sha tun osmonda juda tez ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Birpasda hammayoqni qorong‘ulik qoplab oldi. Baribir Malikaning ko‘ziga uyqu kelmadi. Shuhrat Ahadovich bilan gaplashib o‘tirib, tong otib qolganini ham bilmadi. Tun xuddi bir daqiqaday o‘tib ketgan edi. Malika tong otganini ko‘rib, ustidan og‘ir yuk ag‘darilganday tosh qotib uxlab qoldi.



Malika bir-ikki kundan so‘ng vahimadan xalos bo‘ldi. Shuhrat Ahadovich ikki kecha qoldi-da, so‘ng o‘z uyiga ketdi. Bugun yangi oy chiqishi kerak edi. Uning juda ingichka bo‘lib chiqqanini ko‘rgan Malika o‘z hayotida yangi davr boshlanishidan darak bergani kelgan hilolni ko‘rib, yanada suyunib ketdi. Lekin shu bilan birga diliga mahzun bir kayfiyat o‘rnashib qoldi. «Nega Sobitjonni yo‘ldan qaytarmadim? Nega yosh bolaning abgor bo‘lib ketishiga sababchi bo‘ldim? Uning yuragini qizdir-maganimda bu baloga yo‘liqmasdi-ku?» — deb o‘ylay boshladi. «Nega Shuhrat Ahadovichga bu qadar qattiq yopishib qoldim? Nega sevaman deb yolg‘on va‘dalar berdim? Nega oilamni buzdim? Agar Qosimxon hozir kechirim so‘rab kelsa, kechiramanmi? Agar Shuhrat Ahadovich ertaga amalidan ketsa, men kim bo‘lib qolaman? Yana boshqani sevib qolmasligimga kim kafolat beroladi? Shunday ekan, nega hammani aldab yuribman? Ertaga Sanjar katta bo‘lsa, unga nima deyman? Abgor bo‘lgan hayotim, kechir meni. Men seni risoladagiday boshqara olmadim. Kechir meni, Qosimxon! Men senga yaxshi xotin bo‘la olmadim. Onajon, kechiring. Men uchun chekkan aziyat-laringizga arzimasa bo‘lib chiqdim. Kechir meni Maryam. Sen meni do‘st deganding, do‘st bo‘lib do‘stligingga loyiq bo‘la olmadim. Eh, Xudojon, men gunohkorni kechir. Yaxshi-yomon

kunlarim uchun baridan minnatdorman. Baxtli kunlarim ham bisyor bo'ldi. Saodatli damlarga ham ko'p marotaba guvoh bo'ldim. Bari-barisi uchun sendan minnatdorman. Yana bir marta yolvorib so'rayman, kechir meni, Xudojon!»

Malika derazadan oyga mahliyo bo'lib turar ekan, eshik qo'ng'irog'i jiringlaganidan cho'chib tushdi. Kim ekan? Onasimi? Maryammi? Shuhrat Ahadovichmi? Xayoliga hech bir yomon fikr kelmay, yugurib borib eshik zulfini bo'shatdi. Tashqarida Qosimxon turar edi.

Malika esankirab ortga chekindi.

— Keling!

— Mana, men keldim!

Qosimxonning qo'lida Amir Olimxon davridan qolgan qilich yaltirardi. U ichkariga kirib eshikni berkitdi...



TO SO'NGGI NAFASGACHA ...



Qissa

Hammasi kutilmaganda yuz berdi. Oyisi Ruhiddin degan bolaning uyidan sovchilar kelishganini, bugun ular uchrashishlari kerakligini aytganda, Hafiza ikkilanib qoldi. «Ha» — deyishga istihola qilar, «yo‘q» — deyishga botinolmasdi.

Kechga yaqin ming bir xayollar bilan aytilgan joyga chiqdi.

— Sizni ancha paytdan buyon ko‘z ostingga olib yurardim, qarang-ki oyimning o‘zlari siz haqingizda gapirib qoldilar, — dedi Ruhiddin salom-alikdan keyin. Men, nima desangiz shu, deb qo‘ya qoldim.

— Avval men bilan uchrashsangiz bo‘lmasmi-di, — dedi Hafiza noxushlik bilan.

— Ming marta sevdim degandan bir marta sovchi qo‘ygan yaxshimasmi?! — dedi Ruhiddin.

— Uchrashsangiz, balki sovchi qo‘yish fikridan qaytardingiz, — dedi Hafiza.

— Yo‘q. Qaytmasdim. Negadir ko‘nglimga o‘tirishib qolgansiz. Yoki va‘da bergan joyingiz bormi?

— Men ota-onamning roziligisiz birovga va‘da bermayman. Ular aytishmaganda siz bilan ham uchrashmasdim.

— To‘yga rozilik beravering. Bir umrlik yo‘ldoshim bo‘ling, — dedi Ruhiddin. Hafiza boshini egdi.

Uyga qaytgach, oyisiga ham nima deyishini bilmasdi. «Yo‘q» — deyishga asos topolmas, «ha» — deyishga ko‘ngli chopmasdi. Oyisi qistayvergach, «o‘zlaring bilasizlar» — dedi.

Shu bilan barcha taraddud, tog‘dan ag‘darilgan ko‘chkiday, birin-ketin avj olib to‘y kunini boshlab keldi. Ruhiddinlarning

oilasi shaharchada o‘ziga to‘q, badavlat kishilar edi. Sarpoda ham, keltirilgan qo‘y-qo‘zida ham kamchilik bo‘lmadi. To‘yda eng mashhur qo‘shiqchilardan biri xizmat qildi. Ruhiddinning kayfiyati baland edi.

— Men orzuimga yetishdim. Men baxtliman, — deyardi tinmay. — Qaniydi, shu qizning oldiga borolsam, gapirsam, ko‘nglimdagini aytsam, menga bir marta, bir martagina jilmayib qarasa, deyardim. Ammo necha marta yo‘lingizni kesib chiqib, hech o‘zimga qaratomaganman. Bugun mana shu baxtga yetishdim, — deyardi u. To‘y esa davom etar, uning esa to‘y bilan ishi yo‘q. Oppoq liboslarga burkanib, tengsiz malikaga aylangan Hafizadan ko‘z uzmas, hayratlanib qarar, qo‘llari qaltirar, o‘zini qo‘yishga joy topolmasdi: — Men, hali o‘qishga kiraman, shaharning eng katta boylaridan bo‘laman, menga tekkaningizga hech qachon pushaymon yemaysiz. Menga tekkan kuningiz hayotingizdagi eng baxtli kun bo‘lib qoladi. Bu kunni bir umr eslab yurasiz. Vaqti kelib, siz uchun mendan ham azizroq, mendan ham qadrliroq inson bo‘lmaydi. Siz men uchun dunyodagi eng chiroyli, eng sevimli insonsiz! Qasam ichaman, sizni butun umr sevaman, butun umr, to jonim tanamni tark etguncha ardoqlab o‘taman!

Afsuski, baxtli lahzalarning umri qisqa bo‘lar ekan. Ertasi kuni xuddi shu paytda, Ruhiddin yarim yalang‘och holatda Hafizani go‘shangadan yetaklab chiqdi-da, chuvillashib o‘tirgan xotin-xalajga g‘azab va nafrat bilan baqirdi.

— Olinglar buni, men birovdan qolgan yuvindini ichmayman. Qaysi to‘shakdan kelgan bo‘lsa, o‘sha to‘shakka yotqizib kelinglar, bu j... ga bu yerda o‘rin yo‘q!

— Sen o‘zing hezalaksan, iflos — deya qichqirdi dahshatdan qotib qolgan Hafiza.

Kechagina to‘y bo‘lib turgan, hali tantananing issig‘i sovumagan xonadon, bir zumda ayanchli qiy-chuv, dod-voydan larzaga keldi. Xotinlarning urush-janjaliga Ramziddin akaning hayqirig‘i yakun yasadi:

— Qani, yo‘qollaring hammalaring! Men o‘g‘limga bir haftaning ichi to‘y qilib, qiz olib beraman. Halol yeb, halol

o‘stirgan bolalarimga haromni sherik qilmayman. Qo‘tir taka qo‘ra bulg‘ar. Yo‘qol, hammang!

Hafiza o‘sha paytda nima bo‘lganini yaxshi anglamagandi. O‘sha tun uyga qaytib kelgach, butun oilasini bir umrlik o‘chmas isnodga, peshonalarini tavqi la‘nat bo‘lib o‘yuvchi sharmandalikka yo‘liqtirganini angladi. U o‘zining bokiraligiga shubha qilmas, lekin ayni paytda buni qanday qilib isbotlashni bilmasdi. Onasi ming bor qarg‘ab, so‘roqqa tutdi. Akasi o‘lasi qilib urdi. U Qur‘onni qo‘liga olib qasam ichsa hamki, hech kim ishonmadi. Axir Qur‘onga amal qilmaydiganlar, Qur‘onga ishonmaydiganlar, qanday qilib, uni qo‘lga olib, yuz-ko‘ziga surtib qasam ichgan odamga ishonsin. Hammasidan ham otasi-ning talvasalari ortib tushdi. Yuragi sanchiq berdi-yu, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib oldi. Onasi ruxsat bermaganligi uchun Hafiza otasining oldiga kirolmadi.

Hafiza ertasi kuni do‘xtirga bordi. Doktor uning bokira ekanligini aytdi. Ma‘lumotnoma ham yozib berishi mumkinligini tushuntirdi. Shu bilan birga u maxsus operatsiyadan so‘ng o‘n ming so‘m pulga har qanday egri yo‘lda yurgan qizni bokiraga aylantirib, yozib berilishini ta‘kidladi. Bu ta‘kid uni Ruhiddinlarning uyiga eltuvchi yo‘ldan qaytardi. U shu kunlarda, Ruhiddinga xayolan ming bora murojaat qildi. Uni ming bor so‘roqqa tutdi. Unga ming bora yalinib-yolvorib tushuntirdi. Agar ko‘cha-ko‘yda uchratib qolganda ham, uning yo‘lini to‘sib chiqqan, unga pokiza ekanligini qasam ichib bo‘lsa ham, aytgan bo‘lardi. Biroq Ruhiddinni uchratmadi. Akasi ham qo‘yniga pichoq solib, Ruhiddin yashaydigan ko‘cha boshida tunu kun o‘tirar, qo‘liga tushsa, o‘ldirishini hech kimdan yashirmasdi.

Keyin Hafiza prokurorning yoniga bordi. Prokuror uning dardini eshitarkan:

— Sizni kim zo‘rlagan, ayting, o‘shani jazolaymiz, — dedi.

— Meni hech kim zo‘rlamagan. To‘ygacha hech kim tajovuz qilmagan. Unday odamning o‘zi yo‘q, — dedi Hafiza.

— Bo‘lmasa biz hech kimni jazololmaymiz, — dedi prokuror.



- Kuyovni-chi?! — dedi Hafiza.
- Kuyov hech qanaqa jinoyat qilmagan, — dedi prokuror.
- Meni sharmanda qilgani, or-nomusimni toptagani, isnodga qo‘ygani-chi?— dedi Hafiza.
- Kuyov bu ishni qasddan qilgani yo‘q. U o‘z sha‘nini pokiza saqlab qolgan xolos. Sizni tibbiy ko‘rikdan o‘tqazgandan keyin ham, uni turmush qurishga majburlay olmaymiz.
- Undan qanday qilib o‘ch olishim mumkin?!
- Ochig‘ini aytsam, buni birgina yo‘li bor. Siz menga yoqib qoldingiz. Nihoyatda ko‘hlik, kelishgan ayol ekansiz.
- Men ayol emasman.
- Agar rostdan ayol bo‘lmasangiz, buni menga isbotlab bersangiz, men uni qamoqda chiritaman.
- Sizga qanday isbotlab beray?
- Buni menga qo‘yib bering. Buning yo‘li juda oson, — dedi prokuror ayyorona kulib. — Mening shu shaharda alohida kvartiram bor. Borib o‘tiramiz, dam olamiz. Menga sizday cho‘rtkesar, mard qizlar yoqadi. Sizday qizning qadriga yetmaganligi uchun kuyovbola ishlaydigan korxonani tekshirtirib, bo‘yniga bir ayb yuklayman. Yoki borib mashinasidan nashami, geroyni, yoki biron qurol-yarog‘mi, yoki diniy varaqami toptirtirib kelaman, olam guliston, o‘n yilga qulog‘ini ushlab ketaveradi. Keling, asal qiz, men sizga so‘z beraman, bugun bir kecha mehmonim bo‘ling, maza qilamiz.
- Meni rostdan buzuqi deb o‘ylayapsizmi, meni be-korga badnom bo‘lmagan deyapsizmi? Bekor o‘ylabsiz. Men sizdan himoya so‘rab keldim. Najot so‘rab keldim. Mening o‘rnimga qizingizni qo‘yib ko‘ring. Singlingizni qo‘yib ko‘ring. Qizingiz biror-bir qonun himoyasidan najot so‘rab borsa, unga yordam berish o‘rniga, razolatga boshlasa, yaxshimi? Nahotki, qizingizning or-nomusi badnom bo‘lsa-yu, siz uni oqlash o‘rniga, pok jismini bulg‘amoqchi bo‘lsangiz. Sizda g‘urur bormi? Xudodan xabaringiz bormi? O‘zbekimiz-a, hech bo‘lmasa, bitta o‘zbek qizi qon yutib, o‘z nomusini saqlash uchun, ming bir istihola bilan eshigingizni qoqib kelsa-yu, sizda millat tuy-g‘usi uyg‘onmaydimi?

Sizda erkaklik iftixori yo'qmi? Qachondan beri ayollar sizlarning nazaringizda faqat to'shak cho'risi-yu, aysh-ishrat malikasi bo'lib qoldi? Qachondan buyon? Ayol sha'ni bulg'angan yurtni, yer yutsa arziydi. Agar odam o'zini o'zi o'ldirishi gunoh sanalmaganda men allaqachon o'zimni o'ldirgan bo'lardim.

Hafiza eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi. Uyga kelganida, uyining oldida ikkita mashina turar, yuk mashinasidan uning ko'ch-ko'ronini tushirishayotgan, «Tez yordam» mashinasiga esa otasini olib chiqishayotgandi. Hafiza otasi yotqizilgan zambilga tirmashdi-yu, uning qip-qizarib bo'g'riqib ketgan yuzini ko'rdi. Otasi nimadir demoqchi bo'ldi-yu, gapirolmadi. U tildan qolgandi. O'sha kun tunda esa uning jasadini keltirishdi.

Otasining qirqi o'tgach, Hafiza bu yerda qololmasligini tushundi. U kiyim-kechaklarini, tilla taqinchoqlarini, bor lash-lushlarini jomadonga joyladi-da, uydan chiqib ketdi. Uning ketganini hech kim bilmadi. U keyingi paytlarda hech kim bilan gaplashmay qo'yan, uni hamma yomon ko'rib qolgandi.

U tungi poyezdga chiqib, o'zi tug'ilib o'sgan qadrdon shahar bilan vidolasharkan, yuragida unsiz faryod hayqirar, ko'zlaridan duv-duv yosh to'kildardi. Zero, uning butun dunyosi ushbu shaharchada edi. U shu yerda tug'ildi. Shu yerda o'sdi. Shu yerda dugonalar orttirdi. Shu yerda o'qidi. Shu yerda turmushga chiqdi. Shu yerda uning butun dunyoga teng — onajoni bor, suyangan tog'i — akasi bor, suyub erkalagan — singlisi bor. Bu yerda tengsiz muhabbatining, cheksiz nafratining egasi Ruhiddin yashaydi.



Poyezd tong saharda Toshkentga yetib keldi. Hafiza vokzalda g'uj-g'uj odamlar orasida yurarkan, qayerga borishini, nima qilishini bilmadi. Ijaraga uy topishi kerak edi. Lekin uyni qayerdan qidiradi? Ish izlab topishi kerak edi. Ammo

ishni qayerdan topadi? U o‘zini o‘rab olgan taksi haydovchilariga ishonmay, shahar oralab yayov yurib ketdi. Keyin duch kelgan avtobusga o‘tirdi-da, shaharni aylana boshladi. Tushgacha avtobusma-avtobus sang‘idi. Agar og‘ir jomadoni bo‘lmaganda yana qancha yurardi, bilmaydi. Yo‘lovchi ayollardan uy bozori qayerda ekanligini so‘rab-surishtirdi.

Uy bozorda bir keksaroq kishi unga o‘z uyidan ijaraga joy berishini, narxi ham unchalik qimmat emasligini aytdi.

Otaxonning uyi yomon emas ekan, shu yerga joylashib qo‘ya qoldi. Ertasi kun ish axtardi. Biroq shaharda muqim yashashligini tasdiqlovchi ro‘yxatdan o‘tmaganligi uchun uni hech joyga ishga olishmadi.

Hafiza tibbiy kollejni bitqazgan, hamshiralik shahodatnomasi bor edi. Qolaversa, hamshiralikka beriladigan oylik ijara haqini to‘lashning o‘zigayoq yetmasdi. Shuning uchun onasi sepiga qo‘shgan bir toy atlasni qo‘ltiqlab, Chorsuga tushdi. Uning otasi bir umr do‘konda sotuvchilik bilan shug‘ullanib kelgan, Hafiza ham goh-gohida otasiga qarashib turar, xaridorlar bilan muomala qilishni, savdo sirlarini o‘rgangandi. Birinchi kuniyoq savdosi baroridan keldi. U dastlab shaharning o‘zida, u bozordan bu bozorga yuk sota boshladi. Taqinchoqlarini sotib, pulini savdoga qo‘ydi. Pul qancha ko‘p bo‘lsa, savdosi shuncha yiriklashardi. Gohida pulining yarmi bozor nazoratchilariga, soliqchilarga ketib qolar, gohida savdogarlarning o‘zi uni chetlatmoqchi bo‘lib, uning savdosini sindirmoqchi bo‘lishardi. Bir kun mirshablar uning pasporti Toshkentda ro‘yxatdan o‘tmaganligi uchun nazorat punktiga olib borib, qamab qo‘ymoqchi, uning hech kimi yo‘qligidan foydalanib, o‘z gumashtalaridan biriga aylantirmoqchi bo‘lishdi. Hafiza: «Hozir erim kelib, meni olib ketadi, mana pasportim, unda erim borligini tasdiqlovchi yozuv bor» — deb qat‘iy turib oldi va ochko‘z mirshabning pulga o‘chligini bilib, bir changal pul tutdi.

Kechqurun uyda yolg‘iz o‘tirgandi, uning xonasiga uy egasi kirib keldi. Hafiza ijara haqini berishi kerakligini tushundi va sumkasini axtara boshladi.

— Vaqti kelsa, o‘zim olib chiqib bermoqchi edim. Agar sizga zarur bo‘lsa, oldindan berib qo‘yishim mumkin, — dedi Hafiza.

— Yo‘q, hozir pul uchun kelganim yo‘q. Kel, yonimga o‘tir, senga aytadigan gapim bor.

— Nima gap, ota, — dedi Hafiza uning yoniga cho‘kkalarkan.

— Seni hamshira deb eshitganman. Yaxshi ukol ham qilasan. Bir belimni massaj qilib qo‘ymaysanmi?

— Yo‘q, ota uzr, unday qilolmayman.

— Sen ham yolg‘iz yashaysan, men ham yolg‘iz yashayman, bir qariyani xursand qilsang, osmon uzilib yerga tusharmidi?— dedi otaxon, — Kuchim ketib, avvalgi shahdim qolmagan, ko‘p ham qiynab o‘tirmayman.

— Ota, hozir namoz o‘qib kelayapsiz, shu gaplarni aytishga uyalmaysizmi? — dedi Hafiza.

— Yo‘q, uyalmayman. Istasang shu uy-joyning hammasini nomingga xatlab beraman, evaziga to so‘nggi kuningacha men bilan birga yashaysan. Men o‘lgach, hammasi o‘zingga qoladi. Menga tegsang, o‘z-o‘zidan shahar ro‘yxatiga ham ega bo‘lasan. Farzandlarim senga daxl qilolmaydi. Xo‘p deya qol, sendan nima ketdi. Sandiqda yiqqan pullarim ham bor. Agar tashlab ketmayman desang, hammasini senga beraman.

— Yo‘q, ota. Mening erim bor. Biz hali qonuniy ajrashmaganmiz. U taloq ham bermagan. Bergan taqdirda ham baribir sizga tegmasdim. Bir kun boshimga boshpana bitar, of-tob ham tegar.

— O‘ylab ko‘r. Men bu gaplarni kimgadir aytaman deb hech o‘ylamagandim. Seni ko‘rib menda yashashga ishtiyoq uyg‘ondi, yana yashagim kelib qoldi. Rosti, sendan boshqa ayol bo‘lganda, men hech qachon butun umr yiqqan boyligimni in‘om qilaman demasdim. O‘ylab qarasam, hamma yiqqan boyligimni kundan-kunga bir tiyinlik qadri qolmayapti. Men o‘lgach, mabodo oyog‘imga bir ip yopishib qolsa, shu ipni nega yopishib qoldi deb, olib qolishar ekan. O‘g‘il-qizlarimning rizqini men o‘lgach Xudoning o‘zi beraverar ... Ularga uy-joyimni vasiyat qilib qoldirdim nima-yu, qoldirmadim nima. Mana hammasi uy-uyiga

tarqab ketgan, haftada bir xabar olishadi, bo'lmasa yo'q. Men esa bir iliq so'zga muhtojman. Har kimning emas, faqat sening so'zlaringga muhtojman. Yo'q dema, hali kuch-qudratim joyida. O'lgunimcha faqat sen uchun yashayman. Mashinamni, uyimni, jamg'armadagi pullarimning hammasini senga beraman. Faqat men bilan yasha. Istasang nikohdan o'tamiz, to'rtta odam chaqirib, elga osh beramiz. Istamasang, yopig'liq qozon yopig'ligicha turadi-yu, birga yashayveramiz.

— Yo'q, otaxon. Men har qanday boylikdan baland turishimni, o'zimning ko'nglim bo'lmasa, meni sotib olmasliklarini bilaman. Sizni men bugungacha ijara uyimning egasi sifatida hurmat qilardim. Endi bu yerda turolmaydiganga o'xshayman. Agar xafa bo'lmasangiz, ertaga bu yerdan ketsam, — dedi Hafiza.

— Ha, meni ko'zimni kuydirguncha, bu yerdan ketganing ma'qul, — dedi otaxon va xayrlashmay xonani tark etdi.

Hafiza joylashgan ikkinchi ijara uy Shodiyona degan ayolning uyi edi. Shodiyonaning uchta yosh qizi bor edi. Eri, «iching to'la qiz» ekan deb uydan chiqib ketganicha, qaytib kelmagandi. Shodiyona tinimsiz kasal bo'lar, Hafizaning hamshiraligi sabab, uyiga kiritgandi.

Shodiyona o'ziga to'q, badavlat beva edi. Bir kuni yarim kechasi og'ir talvasa tutib qoldi. «Tez yordam» kelguncha Hafiza uning boshida o'tirib chiqdi. Zarur muolajalarni qildi. Shodiyona o'ziga kelib ko'zini ochganida, boshida uxlamay o'tirgan, besaranjom Hafizani ko'rdi va shu qiz bo'lmaganda, narigi dunyoga ravona bo'lishi mumkinligidan unga minnatdorchilik bildirdi va Hafizani o'z singlisiday yaxshi ko'rib qoldi. Shodiyona o'n kunlab shifoxonada yotar, uyini butunlay Hafizaga tashlab ketar, o'nlab tilla taqinchoqlari, dasta-dasta pullari uyida ochiq qolar, Hafiza hech qachon ularga ko'z olaytirmasdi.

Bir kun Shodiyona bitta yengil mashina sotib olishga yetarli pulni Hafizaga berdi va tijoratdan ko'rilgan foydani teng sheriklikka ishlatishni taklif qildi. Hafiza «sheriklik oshni it ichmas» — deya hazil qildi. Shodiyona, pulim bekorga taxmonda turibdi,

bankaga berib, foiz olsam, bir kun do'zaxga tushishdan qo'r-qaman, ishlataver, foydasidan bersang berarsan, bermasang, bir kun puling ko'payganda, o'zini qaytarsang ham roziman dedi.

Hafizaning katta savdoga qo'l urishi shundan boshlandi. Shaharning qoq markazida supermarket qurdi va ishga tushirib yubordi. Uning halolligi xuddi ko'zga ko'rinmas ohangraboday daromad keltirar, uning yolg'on ishlatmasligi, birovni aldamasligi boyligiga boylik qo'shardi. U shahardan o'ziga uy sotib olgan kuni, birinchi bor ko'ziga yosh keldi. Shaharga kelib qotib ketgan yuragi, birinchi bor yumshab, u g'alaba qozonayotganidan darak bergandi.



Oradan besh yil o'tgach, u o'zi tug'ilib o'sgan shaharchaga birinchi bor qadam bosdi. Shu paytgacha oilasi, akasi shaharga borib, uning holidan xabar olar, kelishga esa uni hech ko'n-dira olmasdi. U bu yerga o'zi kelin bo'lib tushgan uyning sotilayotganini eshitib kelgandi. U uyni sotib olish uchun mut-laqo begona odamlarni yolladi va hech savdolashmasdan, aytilgan pulga olishni tavsiya qildi. Birinchi qo'yilgan narx shaharchadagi xuddi shunday uylarning narxidan ikki barobar qimmat edi. Hafiza uyni ikki barobar qimmatiga sotib oldi va o'sha kuniyoq uni buzib tashlashga buyruq berdi. Uyni buzish uchun o'nlab odamlar jalb qilindi va bir haftadayoq hashamatli uy o'rni tep-tekis holatga keltirildi. Butun shaharchada duv-duv gap tarqaldi. Hafizaning o'ch olayotgani hammaga oshkor bo'lgandi. Bu o'ch Ruhiddinning naq yuragiga sanchilgandi. Bir haftada uylanaman degan odam hali uylanmagan edi. U o'zi tug'ilib o'sgan uyning tekislab tashlanishini bilganida edi, hech qachon sotmagan, qolaversa Hafizaga tilla bahosida ham sot-magan bo'lar edi. Lekin hujjatlar rasmiylashtirilgan, dalo-latnomani buzib bo'lmasdi...

Alam va uyat suyak-suyagidan o'tib ketgan, butun shahar-chaga kulgu bo'lgan Ruhiddinlar xonadoni ham o'ch olish payiga tushdi. Ruhiddin shaharchaning eng ko'zga ko'ringan,

kelishgan, gapga usta, Hafizani yaxshi taniydigan, unga yaqinlasha oladigan yigitlaridan biri Quddusni tanladi-da, uying hamma pulini unga tutqazdi. Mashinasining kalitini ham berdi.

— Quddus jo‘ra, — dedi Ruhiddin. — Uni albatta o‘zingga og‘dirib olasan. U menga tekkanidayoq qiz emasdi. Shaharda ham bir o‘zi shuncha boyib ketarmidi? Qancha o‘ynashlarni qo‘ldan o‘tqazgandir. Bir urinib ko‘r. Qancha sarflasang sarfla. Hammasi seniki. Faqat, o‘sha aysh qilib o‘tirganingning birinchi kechasi meni chaqirsang bo‘ldi, men shunday boraman-u, indamay chiqib ketaman. Boshqa sendan menga hech narsa kerakmas. Menga shuning o‘zi yetarli. Bir harakat qilib ko‘r. O‘n yilda ishlab topolmaydigan boylikni o‘n kunda topasan.

Ammo o‘n kun ham o‘tdi. Ruhiddin kutgan qo‘ng‘iroq hech jiringlamasdi. Tep-tekis yer o‘rnida ikki qavatli imorat shiddat bilan qad rostlar, Quddus kecha-yu kunduz imorat qurilishi bilan band, girdikapalak bo‘lib, Hafizaning atrofidan ketmas, unga yaxshi gapirar, dunyodagi eng shirin, eng yoqimli so‘zlarni marjonday tizar, xushomad qilishdan, Hafizani maqtashdan bir soniya bo‘lsin to‘xtamasdi.

Lekin shunday bo‘lsa-da, Ruhiddin orziqib kutgan qo‘n-g‘iroq ikki oydan keyin jiringladi. — Ruhiddin do‘stim kel, Hafizaning ishq sharobidan mast bo‘lib, qo‘ynimda ming nozu karashma bilan to‘lg‘anib yotganini ko‘rasan. Uning oppoq siynalaridan bo‘sa oldirganing uchun senga ming marta rahmat aytaman. Bilib qo‘y, endi uning oyog‘ining izini ham o‘pishingga ruxsat bermayman.

Biz «Sohilbo‘yi» mehmonxonasi 19-xonasidamiz. Eshik ochiq, taqillatmasdan kirib kelaver.

Ruhiddin shamol tezligida uchib, yo‘lga tushdi. U o‘zining haqligini yana bir bor ko‘rish ishtiyoqi bilan yonardi. Bu qadar kekkaygan, bu qadar o‘ziga bino qo‘ygan va undan o‘ch olayotgan Hafizaning ustidan kulmoqchi va o‘zining g‘olibligini yana bir bor elga namoyish qilmoqchi edi. Shu bilan birga o‘z qalbining qayeridadir hech qachon so‘nmagan muhabbat cho‘g‘ini o‘chirmoqchi, o‘zini qiynagan, azoblagan iztiroblar ustidan muzday suv quymoqchi va shu bilan birga o‘tmish xotiralari

ustidan tuproq solib, ko'mib tashlamoqchi edi. U dastlab Hafizaning kimgadir turmushga chiqishini kutib yurdi. Hafiza turmushga chiqqachgina, uylanaman dedi. Ammo Hafizaning turmushga chiqishining daragi hadeganda eshitilavermadi. Keyin u uni kim bilandir birga ko'rmoqchi bo'ldi. Va nihoyat mana shu istagi amalga oshishi ostonasida turibdi. Agar bugun Hafizaning Quddus bilan birga yotganini ko'rsa, uning ustidan qahqaha otib kulardi-da, o'zining yo'lini boshqa tomonga burardi. Shu bilan Hafiza haqidagi dahshatli, uni bir umr qo'rquv va og'riqqa solgan ertak yakun topardi.



Ruhiddin xonaga otilib kirdi-yu, dahshatdan angrayib qoldi. Mirzoulug' qo'l-oyog'i bog'lab tashlangan Quddusni ayamay tepar, bir yigit esa oyog'ini Quddusning boshiga qo'yib, bosib turardi. Hafiza esa kresloda yastangancha, Quddusga achingansimon qarab o'tirardi. Quddus Ruhiddinni ko'rduyu, qaytadan jon kirganday baqirib yubordi:

— Ana, ana o'zi keldi. Hammasiga u aybdor. Mana shu meni avradi. Qo'limga qirq ming dollarni tutqazdi-yu, qanday qilib bo'lsa ham Hafizaning qo'yniga kirasani. Uni aldab, yo'ldan ozdirasani dedi. To'g'rimi gapim, yo noto'g'rimi?! Bo'lmasa mening Hafizada hech qanday ishim yo'q edi. Men uni hurmat qilardim. Men uning yaxshi qiz ekanligiga hech shubha qilmaganman. Ruhiddin meni aldadi. Agar Hafiza bilan yursang, u bilan bir kecha birga bo'lsang, mana shu qirq ming dollar ham, mashinam ham seniki dedi. U, uning uyini buzib tashlaganlarning uchun sizlardan o'ch olmoqchi edi. To'g'rimi gapim. Ayt?! Nega meni bu g'alvaga tiqishtirding. Nega?! Men, Hafizani buzuq yo buzuq emasligi bilan ishim yo'q edi. Men faqat pulga uchdim, ochko'zlik qildim. Men Hafizani hurmat qilaman. Lekin men uni bu yerga yomon niyatda olib kelganim ham rost. Bunga sababchi Ruhiddin. Mana o'zi keldi, o'zi javob bersin. Meni qo'yib yuboringlar!

Hirillagan Quddusning ovozi o'chgach, xonaga bir soniya jimlik cho'kdi.



— Hali sen singlimdan o‘ch olmoqchimiding?! — dedi nihoyat Mirzoulug‘ asta-sekinlik bilan Ruhiddinning ustiga bos-tirib kelarkan.— Sening aybing tufayli singlim besh yildan buyon sargardonlikda, azob-uqubatda yurgani yetmasmidi?! Sen tufayli besh yildan buyon o‘z uyiga kelolmay, o‘z tug‘ish-ganlarining yuziga qarolmay yurgani yetmasmidi?! Sen tufayli butun oilamiz sha’niga dog‘ tushgani, sharmandalikdan bosh ko‘tarolmay yurganimiz yetmasmidi? Bizni oq yuvib, oq tara-gan, halol yedirib, halol ichirgan otamiz sen tufayli, sening qilmishing tufayli bosh ko‘tarolmay o‘lib ketgani yetmasmidi?! Otam bir umr el ichida mag‘rur yurib, biror joyda bitta gapi ikkita bo‘lmagan, birovning yuziga tik qarab, birovga bir og‘iz qattiq gapirmagan otam, qalbining duru javohiri bo‘lgan, hayo pardasiga o‘rab-chirmab senga tutqazgan qizini yomonotliq qil-ganing uchun Xudo in’om etgan bu yorug‘ olamdan ko‘z yumib ketdi. Shuni tushunasanmi? Sen mening singlimda or-nomus yo‘q deding. Senda or-nomus bormi o‘zi?!

Qirqqa kirgan onam sening badkorliging tufayli bir kunda qirq yilga qarib, saksonga kirgan kampirga aylandi. Buni sen tushunasanmi? Buni sen aqlingga sig‘dirolasanmi? Sen mening yigitlik g‘ururimni, sha’nimni sindirding. Men sen tufayli ko‘cha-ko‘yda emin-erkin yurolmay qoldim. Sen tufayli hamma joyda bitta gapim ikkita bo‘ldi, shaxdim sindi, burdim ketdi, yana sen o‘ch olishga keldingmi? Yana sen o‘lgan odamni ko‘kragiga xanjar sanchmoqchimsan? Endi men seni o‘ldiraman! Qirq joyingga pichoq tiqaman. Meni bu hayotda bunday qilmaslikdan hech narsa qaytarolmaydi. Chunki, men bundan besh yil oldin, sen sanchgan pichoqdan o‘lganman. Men agar bugun o‘lsam, shu paytgacha tirik yurgan paytimdagidan ko‘ra yuzim yorug‘roq, nomim azizroq bo‘ladi.

Kecha men o‘lik edim, bugun seni o‘ldiraman, shunda men qayta tirilaman.

Mirzoulug‘ qo‘ynidan dastasi uzun, tig‘i o‘tkir, ikki qarichlar keladigan yaltiroq po‘lat pichoqni chiqardi.

U bir qo‘li bilan Ruhiddinning yoqasidan ushladi-da, pichoqni uning qorniga tiradi.



— Mana, kuning bitdi. Al-qasos-u, minal haq, deydilar. Men uzoq yillar intiqib kutgan lahzalarga yetib kelganim uchun Allohga shukur. Alvido.

— To‘xtang, Mirzoulug‘ aka. Bu bizdan bunchalik oson qutulib ketolmaydi. Bu oldin bundan besh yil oldin bizning nikoh kechamizda nima bo‘lganini aytib bersin. O‘shanda u nima uchun, qaysi aybim uchun mendan bu qadar ayanchli o‘ch olganini aytib bersin. Uni siz eshiting. Mening yuzimni yorug‘ qilib bersin. Mening begunoh va bokira ekanligimni aytsin, bo‘lmasa odamlar bizni ayblashadi, o‘zlarining aybi bo‘lgani uchun o‘ldirgan deyishadi. Biz shu bilan to‘qiyomat-gacha Xudoning o‘zi yuzimizni yorug‘ qilgunicha badnom bo‘lib yuraveramiz. To‘xtang, akajon! Hech bo‘lmasa o‘limi oldidan haqiqatni gapirsin. Bizdan qo‘rqmasa ham, hech bo‘lmasa, ertaga qiyomatda qilgan tuhmati uchun javob berish azobi bo‘ynidan soqit bo‘lishi uchun rost gapirar axir.

— Hafiza, gapimni eshit! — dedi nihoyat Ruhiddin Hafizaning oyog‘i ostiga cho‘kkalarkan. — Men o‘sha kuni nima bo‘lganini rostdan bilmayman. Balki adashdim. Lekin sendan o‘ch olish uchun yoki biror yomon niyatda qilganim yo‘q edi bu ishni. Men o‘shanda shoshilib, yolg‘on xulosa chiqargandirman. Lekin ataylab qilganim yo‘q. Chunki men seni rostdan ham yaxshi ko‘rardim. Seni sevardim. Senga aytgan so‘zlarim yodingdami? Sen bilan butun umr birga bo‘lamiz, deya qasam ichgandim. Seni butun umr boshimda ko‘tarib yuraman deb qasam ichgandim. Lekin nikoh kechasi nega unday bo‘ldi, o‘zim ham bilolmayman. Keyin qilgan ishimga qattiq pushaymon yedim. O‘tgan besh yil ichida biron lahzam yo‘q-ki, seni o‘ylamagan, seni sog‘inmagan, sening huzuringga intilmagan bo‘lsam. Men seni hozir ham jonimdan ortiq sevaman. Agar sevmaganimda, butun mol-mulkimni tikib, seni sinash uchun nikoh kechasi, xato qilganman-mi, yo‘qmi, bilish uchun sening bokira yoki benomus ekanligingni bilish uchun ortingdan odam qo‘yarmidim?! Men ham besh yil vijdon azobida yashadim. Ham muhabbat, ham o‘z-o‘zimdanda nafrat azobida, shubha va gumon azobida yashadim. Men o‘zbek uchun or-nomus naqadar qimmat turishini bilaman. O‘zbek uchun or-nomus,

hamiyat, iffat o'limdan ham ustun turadi. Ayniqsa, ayol sha'ni, sevimli ayol sha'ni, turmush o'rtog'ining sha'nini erkak hamisha o'z sha'nidan baland qo'yadi. Men o'tgan yillar sen bilan yashadim, Hafiza. Otam, bir haftadan keyin, seni uylantiraman deb, qasam ichganman deb, to'y taraddudiga tushib ketdilar. Men boshqa uylanmayman, haqiqiy xotanim bor deb turib oldim. Men agar seni sevmaganimda, sen bilan ajrashgan bo'lganimda, nikohimizni bekor qildirgan bo'lmasmidim?! Talog'ingni bermasmidim?! Ajralish haqida sudga ariza yozmasmidim?! Men bularni birontasini qilganim yo'q. Loaqal, sening ortingdan, biron joyda, bir og'iz nojo'ya so'z ham aytmaganman. Hamisha seni kutib yashaganman. Agar kelmaganingda yoki boshqa odamga turmushga chiqqaningda, balki dunyodan yolg'iz o'tardim.

To'g'ri, senga juda ko'p ozor yetkazdim. Lekin o'zim ham rohatlanib yashaganim yo'q-ku. Sening hayoting teskari aylanib ketishiga sababchi bo'ldim. Lekin mening hayotim teskari aylanib ketmadimi? Odamlar mening o'zimni ayblay boshlashdi, men boshqa uylanmayman deb turib olgach, ayb o'zida ekan deb, ustimdan kulishdi, ko'chada boshimni ko'tarib yurolmay qoldim. Ularga seni kutayotganimni aytolmasdim. Aytсам, hammasi kulishardi. Agar seni sevmaganimda, senga befarq bo'lganimda, betimni qalin qilib, oldingga borardim. Seni sevganim uchun, seni jonimdan ortiq ko'rganim uchun oldingga borolmadim. Istayang, sen uchun o'lishga tayyorman. Hozir pichoqni olaman-u, o'zimni o'zim o'ldiraman. Lekin shariatda odam o'zini o'zi o'ldirishi taqiqlangan. Men faqat akangni qo'li qon bo'lishini, qotil bo'lishini, men uchun qamoqda chirishini va bundan sen azob tortishingni istamayman. To'g'ri, kasrimga otang o'lib ketdi. Lekin mening otam ham, o'lgandan beri bo'lib yuribdi. Istaysanmi, otangga men zahar berganman, qasddan o'ldirganman deb yozib beraman. Shunda meni qamashadi, qamoqda o'tirib chiqsam, bo'ynimga osilgan tavqila'natdan qutulamanmi? Ayt, nima qilay?! Axir hech qachon men sendan tonganim yo'q. Men seni shuncha kutganim, nahot gunohimni yuvish uchun yetmasa. Kel, o'tgan ishga salovat. Hammasi ortda qolsin. Ertagayoq qaytadan to'y qilaylik. Senga qaytadan uyla-

naman. Axir hali ham shar'iy nikohimdagi turmush o'rtog'imsan. Shu turmushni kel, bugundan boshlaylik. Hafiza, kechir meni!

Hafiza, oyog'i tagida yolvorib, yerga yiqilgan Ruhiddin-ga qarab taxtaday qotib qolgan, nima deyishini bilmas-di. So'ngra ortga tisarilar ekan, qat'iy javob qildi:

— Yo'q, aksincha, siz bugun mening javobimni berasiz. Men sizday odam bilan bir kun ham yasholmayman. Men bu haqda hech qachon o'ylab ham ko'rmaganman. Yo'qotinglar buni bu yerdan, qayta ko'zimga ko'rinmasin. Mana bu o'rtog'ini ham, bo'shatib, bu yerdan yo'qotinglar.

— Hafiza, sen menga ishonmayapsanmi?

Opke, pichoqni, o'zimni o'zim o'ldirsam ishonasanmi, opke, ma pichoqni ol, o'ldir, g'ing demayman, shuncha odam guvohligida, o'zimni o'zim o'ldirdim, deb yozib beraman. Quddus, mana sen guvohsan, men o'zimni o'zim o'ldiraman. Guvoh bo'lganing uchun, bergan hamma pulim o'zingga. Mana, Mirzoulug' guvoh, mana uning o'rtoqlari guvoh, men o'zimni o'zim o'ldiraman. Qani, opke, kel qo'lingga ushla, sening qo'ling tegsin. Men o'zimni o'zim o'ldirib, murtod bo'lib tirilishni istamayman.

Qani, kim mening o'limimga yordam beradi. Yordam be-ringlar. Men o'zimni o'zim o'ldirdim deb yozib beraman. Yordam beringlar. Kel, Hafiza, qo'lingga pichoqni ol, axir sen mendan qasd olmoqchisan-ku. Kel, axir sen menga ishonmaysan. Axir sen meni dunyodagi eng iflos odam deb bilasan. O'ldir meni, o'ldir!

Ruhiddin Hafizaning qo'liga pichoqni qo'yganicha, o'z qo'l-lari bilan uning qo'lini siqib, pichoq bilan qorniga, ko'kraklariga ura boshladi. Hafiza qo'lini tortib oldi. Pichoq yerga tushib ketdi. Hamma joyi qonga belangan Ruhiddin gursillab quladi.



O'sha kuni butun shahar oyoqqa turdi. Og'ir jarohat-langan Ruhiddinni shifoxoanga yotqizishdi. U ko'p qon yo'qot-ganidan hushiga kelolmas, uch kun o'tsa hamki reanimatsiya

xonasida yotardi. U yotgan bo'lim oldida barcha qarindosh-urug'lari kecha-yu kunduz uymalashib turishardi. Nihoyat, uchinchi kuni shifoxonaga oppoq mashinada Hafiza kirib keldi. U yurib kelarkan, Ruhiddinning barcha qarindoshlari xuddi najot farishtasi kirib kelganday uni o'rab olishdi va ichkariga o'tkazib yuborishdi. Hafiza xonaga kirganda, Ruhiddin osmonga qarab yotar, ko'zlari so'lg'in, ruhi tushkun, o'zi bemajol edi. Hafizaga ko'zi tushib, o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ldi. Lekin eplolmadi. Hafiza jimgina kelib, uning ko'zlariga tikildi. Bir paytning o'zida ikkisining ham ko'ziga yosh keldi. Ruhiddin Hafizaning ko'zlaridagi yoshni artish uchun qo'lini ko'tardi. Hafiza uning qo'lini ushladi-da, uning barmog'idagi qachonlardir o'zi taqqan nikoh uzugini tanib, uzukka lablarini bosdi. Ruhiddin ham uning qo'lini izlay boshladi. Hafiza Ruhiddin nima istayotganini sezib, nikoh uzugi taqilgan barmog'ini, uning qo'lga tutdi. Ruhiddin uning qo'lini o'parkan, beozor jilmaydi. Har ikkisi ham bu unsiz kelishuvdan xursand edilar.

TARADDUD



Kinoqissa

Orif ota kimdir chaqirib kelishidan hadiksirab o'tirardi. Tashqarida odamlar to'p-to'p o'tishar, qiy-chuv avjida edi. Bugun bir necha odam ehrom bog'lab Haj safariga otlanayapti. Mana uch yildirki Orif ota ham safar tadorigini ko'radi, ammo... to'rtta odamning orasida bekorga lavz qilgan ekan, hijolatga qoldi.

Lekin avvallari o'zini bugungiday g'arib sezmagani edi. Negadir hayhotday hovlida hech kim, nabirasi O'tkirjon ham, suyardigani, suyanadigan o'g'li Murodjon ham, kelini ham ko'rinmasdi.

Orif ota namozdan so'ng biroz xotirjam tortdi. So'ng-ra olib qo'ygani ehrom kiyimlarini bir-bir kiyib ko'rdi. Xomush tortib, hovliga chiqdi. Bolaxona etagida mung'ayib turgan

«Volga»ga ko‘zi tushib, hasrati yangilandi. Shu «Volga»ni sotib, Hajga bormoqchi edi. Uch oy har yakshanba bozorga chiqib, savdosi pishmadi. Xaridor arzon so‘radi, Murodjon u narxga ko‘nmay turib oldi. Orif ota: «O‘tishiga sotasan» — deb shart qo‘ydi. «Axir biz bu pul evaziga juda ulug‘ va savob ishni savdolashib qo‘ydik-ku! — dedi. Lekin Murodjon bu gaplar kor qilmadi. Agar shu mashinani uyga qaytarib borsang, yoqib yuboraman deb, po‘pisa ham qildi. Lekin Murodjon ko‘ngil-dagiday xaridor kelishini poylab yuraverdi.

Hovliga O‘tkirjon yugurib keldi: — «Ular ketishayapti». Orif ota nabirasi kimlarni nazarda tutayotganligini tushundi va javob qaytardi: «Ziyoratlari qabul bo‘lsin!»

— Sizni ham ketib qolasiz deb qo‘rqquvim.

— Qo‘rqma, dadang esini yo‘qotgani yo‘q. Baxilning qo‘lida oy bo‘lsa, olamni yoritmas.

— Bobong pulni havoga sovurmoqchi deydilar.

— Men Xudoning uyiga mehmonga bormoqchiman...

— Dadam Sizni uylantirmoqchi...

Orif ota bolaga ters o‘girilib oldi.

Orif ota o‘zini chalg‘itish uchun ho‘kizga xashak solayotgan-di, molxona eshigi yonida Murodjon paydo bo‘ldi:

— Ota ish pishdi, to‘y kunini belgilayvering!

Orif ota gap nimada ekanligini darrov tushundi.

— Kuyovdan imdod bo‘lmay, kelinlar rozilik beradigan zamon boshlandimi?

— E, kelinni rozi qilgunimcha ona sutim og‘zimga kel-di-yu!

— Onangni o‘rtaga qo‘shma.

— Siz uchun yangidan hayot boshlanadi ota. Siz Oltmishga kirayotgan bo‘lsangiz, kelin endi o‘ttizga chiqdi. 30 yilga yoshardim deyavering.

— Muomala zo‘r bo‘lsa, tuya ham cho‘kar. Rosa avragan ko‘rinasan...

— Ota, o‘zingizni o‘ylasangiz-chi?! Besh kunlik dunyoda mazza qilib yashamaysizmi? Farzandli bo‘lsangiz ham bosh ustiga. Oyim rahmatlikning o‘tganiga o‘n yildan oshdi. Bo‘ydoqning

bo‘ynini bit yer, topgan-tutganini it yer, qachongacha siqilib yashaysiz? Hajga borib kelsangiz mushkulingiz osonlashadimi? Siz u kelinni bir ko‘ring, ana chiroy, ana malohat. Jon otajon, yo‘q demang, uni ko‘rsangiz bu hayotga kelganingizga, yashayotganingizga rozi bo‘lasiz. G‘am-hasrat hammasi chekinadi. Hajni ham unutasiz.

— Yo‘q. Men bu ishlardan qo‘limni yuvib, qo‘ltig‘imga urganman. Yoshimni yashab, oshimni oshab bo‘ldim. Uni boshdan boshlash niyatim yo‘q.

— Ota, qo‘ying bu gaplarni. Siz uyga kiring. Kuyovlik sarpolar olib qo‘yganman. Yaxshilab kiyinib oling. Sizga kelinni ko‘rsataman. O‘g‘il bo‘lib sizni rozi qilmasam, ko‘zim ko‘r bo‘lsin, otajon!

Murodjon bo‘g‘riqqancha uydan chiqib ketdi.

Orif ota so‘rida boshini egib ancha vaqtgacha o‘ylanib qoldi.

Mana hademay Murodjon kelinni to‘g‘ri uyga yetaklab keladi, yoki bo‘lmasa bir ovloq joyda ularni uchrashtiradi. Hozir kiyinish, yasan-tusan qilish kerak.

Orif ota uyga kirdi. Kelini sandiqni titkilab yangi kostumshim olayotganini ko‘rdi. Sandiq atrofida bir qancha kelin sarpo uyilib yotardi.

Orif ota sarosima va tahlikada choyxonaga chiqib ketdi. Ulfatlar cholning ahvolidan xabardor edi. Gapni aylantirib kelib yana o‘sha mavzuga taqashdi:

— Bu xafagarchiliklar so‘qqaboshlik oqibati.

Mo‘ltoni mulla anqov elni aldab yer. Ziyoratga boraman deb tijorat bilan qaytganlar qancha?! Keling, bitta boshingizni ikkita, ikkita oyog‘ingizni to‘rtta qilib qo‘yaylik.

— Shaxsan men uylanib olgan bo‘lardim. Hoji bo‘lib, hozirdan tarki dunyo qilish qo‘limdan kelmaydi.

— Ichishni tashlash kerak — bu bir. Goh o‘ngga, goh chapga qarab qo‘yish kerak bo‘ladi — bu ikki.

— Ha, endi ularsiz hayot hayotmi!

— Taqvo bilan tirikchilik qilaman desangiz, qozonni suvga solib qo‘yish kerak bo‘ladi — bu uch.

— Rost gapirish, halol yeb-ichish... — E, sharti ko‘p rosa...

— Bu dunyo lazzatlariga qo‘l siltab, u yoqqa borish shunchalik zarilmi...

— Goho shayton yo‘ldan ozdirib besh vaqt namozimiz qazo bo‘lib ketadi-yu.

— Xudo ko‘ngilda bo‘lsa, bo‘ldi-da...

— O‘zimizning Samarqand, Buxoroni ziyorat qilish ham yarim haj. Yetimning ko‘nglini olish ham, bir miskinni dimog‘ini chog‘ qilish ham, to‘la bo‘lmasada, salkam haj hisoblanarkan...

Orif ota bu gaplarga ro‘yxushlik bermay rahmatli bobosini eslab ketdi:

— U kishi masjidida muazzin bo‘lgan ekanlar. Oyim gapirib bergan bir holat hech esimdan chiqmaydi. Dadam firqaga ergashib ketgach, bobomga azon aytirmay qo‘ygan ekanlar. Dadamning siyosatidan qo‘rqqan bobom bir kuni hovlimiz etagidagi tut kovagiga boshini suqib, azon aytganlar. Bobom azon aytmasdan turolmagan. Naslimga tortdim shekilli, bu yil Haj ziyoratini niyat qilib turibman.

— Menga ham tut kavagi kerak deng.

— Yo‘q, oxirat oldidan sarhisob kerak.

Orif ota ulfatlarining tergovlariga parvo qilmay, hazil-chin aralash yangi uylangan davrlari haqida gapira ketdi:

— Chillam chiqmay, harbiy xizmatga chaqirib qolishdi. Tartib-intizom qattiq. Vokzalda ur-to‘polon.

Birov yig‘lagan, birov siqtagan. Harbiy qo‘mondonlar u yoq-bu yoqqa yurib turibdi.

Yosh askarlarni tizib vagonga joylashtirishayapti. Xavfsizlik xizmati, harbiy tribunal, ichki ishlar, xullas hamma shu yerda. Harbiy xizmatdan bo‘yin tovlagan otib tashlansin, qamoqqa olinsin degan maxsus topshiriq bor. Meni esa ko‘zimda yosh. Bir yoqda onam yig‘lab turibdi. Meni kuzatishga chiqqan Hadicha yig‘lab turibdi. Ayni navqiron yigit paytim. Butun dunyo ko‘zimga qorong‘u. Hadichani tashlab ketishim mumkinligi tasavvurimga sig‘maydi. Usiz bir daqiqa turolmasdim. Meni esa uch yilga olib ketishayapti va nihoyat familiyamni o‘qib chaqirishdi. «Men» deb oldinga chiqdim. Vagonga solishdi. Vagonda turibman, butun a‘zoyi badanim zir titraydi.

Vokzalda esa nihoyat miting tugab hammaga qasam ichirib, harbiy xizmatni sharaf bilan o'tashlari uchun qutladilar. Vagon joyidan siljidi. Men esa Hadichadan ko'z uzmayman. Nihoyat poyezd 200 metrlar yurgach, es-hushimdan batamom ayrildim. O'zimni vagon eshigidan pastga otdim. Ortimdan baqir-chaqir boshlandi. Men Hadicha tomonga yugurayapman, yugurayapman. Nihoyat yetib kelib, bag'rimga bosdim. Onam kelib meni quchoqladi. Miltiq ko'targan soldatlar o'rab oldi. «Qochoq», «Dezertir» degan shovqinlar eshitildi. Men o'sha holatda hech narsadan qo'rqmasdim. Otib tashlashlariga ham rozi edim. Men ming-ming qo'shinga qarshi chiqqandim. Men o'zimni ularning baridan kuchliroq his etardim. Hech narsadan qo'rqmas, jaso-ratli, mard va shiddatkor edim. Men ularga qarshi isyon qilgan edim.

— Keyin nima bo'ldi?

— Nima bo'lardi. Bir hafta hibsonada do'pposlashdi. Ta'zirimni berib, xizmatga jo'natib yuborishdi.

— Bekor kaltak yeganingiz qopti!

— Yo'q, bu voqea yuz bermaganida Hadichaning qadrini, uni qanchalar sevishimni bilmagan bo'lardim. Hajga borsam, uning haqiga duo qilaman, Xudodan uni jannatga dohil qilishini so'rayman, qiyomatda yorug' yuz bilan ko'rishishimizni so'rayman.

Orif ota chuqur o'yg'a toldi. G'ofur ota jo'rasini kamsitilgan, tahqirlangan, aftoda va bechorahol ko'rib, yupatmoqchi, tushkun holatdan qutqarmoqchi bo'lgan, so'ngra voqeaning davomini o'zi boshqalardan eshitganicha davom ettirgan: «Askarlar gauptvaxtaga tushib qolgan Orifga pol yuvdirmoqchi bo'lishgan. Orif buyurilgan ishdan bosh tortib, qaysarlik qilib turib olgan. Soldatlar har yarim soatda urib, tepib, og'zi-burnini qon qilib, pol yuvishga majburlashgan. Lekin Orif bo'yin egmagan. Ikki soatdan keyin, «Это настоящий дурак» — deb, kaltaklashdan voz kechishgan. Chunki pol yuvish bor-yo'g'i o'n minutlik ish bo'lgan. Ular o'n minutlik ish uchun ikki soat kaltak yeyish shartmidi deya, hayron bo'lishgan.

— G‘ururning narxi shunaqa qimmat bo‘ladi — degan o‘sha kuni Sayid aka.

— Yoshlikda odam rohat-farog‘at uchun tug‘ilganman deya o‘ylar ekan, o‘rta yoshda, mehnat uchun yaralganman, deb nadomat chekarkan, keksayganida dardu xastalik uchun bunyod bo‘lgan ekanman, deb azob tortarkan — deya javob qaytargandi Orif ota.

— «Tug‘ildim-u keldim bozorga, kafanlik oldim-u, ketdim mozorga», — deya gapga gap kiydirgan G‘ofur aka. O‘sha kuni ular tashqariga derazadan bot-bot qarashgan. Tashqarida shovqin-suron tinmas, Hajga kuzatuvchilar soni yanada ko‘payar, kuzatuv marosimi tobora bayramona tusda avj olardi.

Burchakka biqinib olgan Orif otaning yuragida esa alam va qayg‘u ko‘lankasi tobora kengayar, shuurida yiltillagan kechinmalar zahri ich-etini sirqiratib kemirardi:

— Ey, Xudo, bu gaplarni senga xayolan aytayotganimning sababi bu to‘xtamga ancha kuch-quvvatim ketib, ko‘p ishlarga qo‘lim kaltalik qilib, avvalgi g‘ayrat va shijoatim so‘nib va istasam-istamasam ba‘zi bir kirdikorlarga yaramay qolganimda, xuddi shu to‘xtamga kelishga mahkumday majburlangan, o‘zga imkoniyatlarim birma-bir tugab borayotgan, sendan kechirim so‘rashning ahamiyati kamayayotgan paytda yetib keldim.

Inson bolaligida: «Har kimning hayotida ming-minglab voqealar bo‘lib turadi, hammasini Xudo ko‘rib o‘tiribdimi, deya kalta o‘ylaydi, lekin yoshi o‘tgan sari insonning butun hayoti xuddi kino lentasiga yozilganday, bu lentalarni bir necha soniyalar ichida xayolan «ko‘rib» chiqish mumkinligiga ko‘zi yetgach, endi Xudo uchun hammaning kechmishini ko‘rib chiqish bundan ham osonligiga iqror bo‘larkan.

Ey, Xudo! Barcha yumushlardan mosuvo bo‘lib, qanoti qayrilgan, umidi uzilgan, qachonlardir ko‘z yetmas ko‘klarda uchgan-u, endi u parvozlarni takrorlay olmas lochin holatidaman.

Adashuvlar, aldanuvlar oqibatida g‘am-g‘ussa xuddi mo‘ri malaxdek orqamdan quvayotgan, men sang‘igan bog‘larning gulla-

ri payhon bo‘lib, oyoq ostida hech kimsa havas qilmaydigan chakalakzor qolayotgan bir paytda safar tadorigidaman.

Ey, Xudo, sening borligingga hamisha ishongan bo‘lsam-da, umrim g‘aflatda o‘tdi. Sen gohida kechirding, gohida qattiq jazolading. Bundan bir necha o‘n yillar oldin nomahram ayol quchog‘ida yotar ekanman, o‘z-o‘zimga so‘nggi savolni berdim: «Bu harom-xarish ishlarning jazosi bor-ku?!» Bu savol shuurimga sanchilmay turib shaytoniy javob hozir bo‘ldi: «— Bunday ayshu ishrat uchun har qanday jazoga hozirman!» O‘sha tun uning og‘ushida to sahargacha qolib ketdim.

Tongga yaqin uyga qaytar ekanman, Hadichaning dod-faryodi ustidan chiqdim. Qilgan ishlarimning kasofati meni urgandi. Hali ikki yoshga to‘lmagan kenja o‘g‘lim Ma’sud meni kuta-kuta krovat ustida o‘ynab boshi bilan yerga yiqilibdi. Uning miyasiga qon quyilgandi. U bir oydan so‘ng jon berdi.

Hadicha, o‘shanda sen Ma’sudning boshida bir oy o‘krab-o‘krab yig‘lab chiqding-ku, «Nega menga siz aybdor-siz» — deb, bir og‘iz ta’na qilmading. O‘shanda, Hadicha meni o‘z tuqqan farzandidan, jigarbandidan ham ko‘proq yaxshi ko‘rgani uchun ayblamayapti deb o‘ylab yurardim. Endi bilsam, bu sukut ortida boshqa bir gap bor ekan: «Sen hukm chiqarishni Xudoga qoldirgan ekansan!»

O‘g‘lim, Ma’sud, sen mening kasrimga qolib, bu yorug‘ olamni bevaqt tark etding. Men ham bu foniy dunyoni tark etib, sen bilan yuzma-yuz bo‘lsam, sening yuzingga qanday qarayman. Senga nima deb javob beraman. Sening uvoling meni tilka-pora qilib yubordi-ku. Men sendan hatto kechirim so‘rashga ham haqqim yo‘q. Chunki men tufayli umr degan bebaho ne‘matdan mahrum bo‘lding.

Meni qarg‘a ming yil shol bo‘lib, o‘lim tig‘ida, ajal titrog‘ida qaltirab, qon qusib yotishga tayyorman.

«Xuddi dor tagiga borayotgan odamday siqilib o‘tirgandi» — dedi bir kuni G‘ofir ota, o‘sha kungi Orif otaning holatini ta’riflar ekan. Gunohimni qanday yuvay deganday, dam tashqariga, dam Sayidga qarar, mo‘ltiragan ko‘zlari qorachig‘ida ko‘p g‘alayonlar kechayotgani sezilib turardi».



«Gohida gaplarimizni eshitmay qolardi, — dedi Sayid aka. Biz hojilarning safarga tayyorlanayotganini, hademay hamma yig‘ilib avtobusga minishini sezdirmaslikka harakat qilardik. U odam esa hojilarning ichida emasligidan ezilardi. To‘g‘risi u bilan bunday sukutda o‘tirishga dosh berolmay qo‘zg‘algandik».

Orif ota o‘rnidan turishga taraddudlandi. Shom namozini o‘qib olish kerak edi. Choyxonachi ham bir nima demochiday g‘imirsinar, aftidan, yumushlari tugab, ozgina gurung qilish avzoyi bor edi.

— Gap niyatda. Xudo xohlasa, Sizga ham ulug‘ ziyorat nasib qilar — dedi Sayid ota.

— Nima mashinaning puli yetmadimi — dedi G‘ofur aka. Tursun cho‘loq, o‘g‘lingizga zaklad puli tashlab ketgan-mish-ku?

— Vaqt o‘tdi. Endi baribir, bu yilgi mavsumga ulgurisholmaydi.

— Men bu gapni eshitganimga ikki oydan oshdi.

— Balki o‘g‘lingiz savdoni atay keyinga surgandir.

Orif ota indamadi. Safar yildan-yilga orqaga surilayotgani yaxshilik alomati emasdi. So‘ngra, suhbatga bo‘yni yor bermay, choyxonadan chiqdi. Ko‘z oldiga mashinasi keldi-yu, baloday ko‘rinib ketdi.

Ko‘chadan burilarkan, uyi darvozasidan Tursun cho‘loq chiqib kelayotganini ko‘rib, yo‘lini to‘sdi.

— Ha, Tursunboy!?

— O‘g‘lingizda ozgina ovushtam bor edi.

— Men hech qachon bolamni birovdan qarz olishiga yo‘l qo‘ymaganman.

— Mashinani savdo qilgan edik, pulini olganiga ancha bo‘ldi. Olib ketay desam, biroz to‘xtang deydi. Yana qancha kutaman bilmadim.

— E, shunaqami...

Orif ota shart burilib ichkariga kirib ketdi. U g‘azabdan titrardi.

Demak, Murodjon uni Hajga jo‘natish o‘rniga ancha vaqtdan buyon to‘yga tayyorgarlik ko‘rib yuribdi. Demak, kelin sarpolar shu «Volga»ning puliga kelgan. Demak, Murodjon Tursunboyga:

«Haj mavsumi o'tsin, otam ozroq tinchlansin, keyin mashinani olib ketasiz» — deya kelishgan.

Mashinani olib ketib bo'psan! — dedi Orif ota ovoz chiqarib.

Uning ovozini uyda kelini eshitdi shekilli, asta darchadan mo'raladi. So'ngra, bir ish aytdi, eshitmay qoldim-mi, deb o'yladi chamasi, eshikni ochib chiqdi.

— Ota, bir nima dedingizmi? — dedi.

— Yo'q, hech qanaqa gapim yo'q!

— O'g'lingiz sarpolarni dadamga ko'rsat, o'zlari ham kiyinib tayyor bo'lib tursinlar degandi, — dedi.

— Kiyinmayman. Men hamma yaltiroq kiyimlarni kiyib bo'lganman. Mana shu xonadonda, bobom otamning siyosatidan qo'rqib, tut kovagiga boshini suqib azon aytgan ekanlar. Afsuski, u tutlar qirqilib ketdi. Men boshimni suqadigan tut kavagi ham endi yo'q.

— E, ota, nega unday deysiz...

— Kirsang-chi, ichkariga, shang'illaysan...

Orif ota hovlida u yoq-bu yoqqa yura boshladi.

Dardini eshitadigan odam yo'q edi. Xayolan Hadichaga murojaat qila boshladi:

« — Hadicha, dunyoda vaqt degan narsaning o'zi yo'q. Masofa degan narsaning o'zi yo'q. Men seni bir lahza ham unutmadim. Sen doimo ko'z o'ngimdasan. Umr o'tayapti. Zamon o'zgaryapti. Ammo bu dunyo tartib-qoidalarini bilmaydigan farishtalar sen bilan meni bog'lab turgan rishtani bir zumga uzganlari yo'q. Mana o'n yildirki, qalbimning ardog'idasan, ko'zimning qarog'idasan.

— Orif aka, men sizni ko'rmasdan oldin tanirdim.

Men sizni tanimasdan, so'zlaringizni eshitmasdan, fe'l-atvoringizni bilmasdan oldin yaxshi ko'rardim. To'g'rirog'i, sizning butun qiyofangiz, bizlar uchrashmasdan oldin yuragimga quyulgan edi. Keyin hammasi takrorlana boshladi. Men qachondir ruhimda, yuragimda his qilgan, butun vujudimni to'lg'antirgan so'zlarni, siz keyin, bizlar uchrashganimizdan so'ng takroran ayta boshladingiz. Men sizni ko'rmay turib, sizni qanchalik sevgan bo'lsam, sizni ko'rganimdan so'ng ruhimdagi g'alayonlar

ro‘yo emas, siz bilan kelajakda bo‘lib o‘tadigan hodisalar ekanligiga iqror bo‘ldim.

— Hadicha, odamlar ikki odamning tanasi qovushishini muhabbat deb, qanchalar yanglishadilar. Ular qovushgani bilan ularning atrofidagi pokiza farishtalar bazmu jamshid qurishib, birlashmas ekan, ular tezda uzilishib ketadilar. Ularning muhabbati o‘tkinchi bo‘lib qolaveradi. Farishtalar abadiy yashagani kabi, sen bilan biz, u dunyo bu dunyo mangu birgimiz. Bizlarni hech qanday kuch ajratolmaydi».

Keyin nima bo‘lganini o‘sha paytda hovlida yurgan O‘tkirjon gapirib berdi:

Hovliga chiqsam bobom shlanga tiqib mashinadan benzin olmoqchilar. U kishi benzinni ololmay rosa yo‘taldilar, so‘ngra qiynalib paqirni to‘latdilar.

— «Nima qilayapsiz, bobo» — deb borsam, avval indamadilar, so‘ng: — bor ichkariga qarachi, gugurt bormikan dedilar. Men, oshxonaga gugurt axtarib ketdim. Gugurt yo‘q ekan, oyimning oldiga kirib so‘rasam, «Nima qilasan?» — deb jerkib berdilar va haydab yubordilar. Keyin hovlimiz birdan yorishib, mashinamizga o‘t ketganini ko‘rdim. Baqirig‘imni eshitib, oyim otilib chiqdi. Qo‘shnilarimiz ham kela boshlashdi. Qayerdandir dadam paydo bo‘ldi».

Hovlida alangasi gurillab «Volga» mashinasi yonardi.

Mashinani o‘rab olgan odamlar biri qo‘yib biri ayyuhannos baqirardi. Orif ota uning atrofida g‘azab bilan aylanardi.

1-o d a m: — Chol qariganda esini yeb qo‘yibdi. Undan ko‘ra bir yetimga bersin edi.

2-o d a m: — Orif ota, o‘zingiz yoqdingizmi? O‘zingizni mashinangizni-ya?

3-o d a m: — To‘g‘ri qipti! Otaning gapiga kirmasa shunday bo‘ladi...

4-o d a m: — Gap sotgandan ko‘ra suv sepsalaring-chi!

5-o d a m: — Qochlaring, bakda benzin bor, hozir portlaydi.

1-o d a m: — Ustiga tuproq tashlanglar... Qo‘shni hovliga o‘tmasin.



2-o d a m: — Orif ota nega bizni haydaysiz. O‘tni o‘chiraylik axir.

3-o d a m: — Agar men o‘chirsam, mashina menikimi?..

4-o d a m: — Mashina Hajga niyat qilingan edi... Uni boshqa narsaga ishlatib bo‘lmaydi. Otani aldaganning ahvoli shu...

5-o d a m: — Bakda benzin bor. Qochinglar portlaydi. Ota, shuncha dardingiz bor ekan. Mahalla-ko‘y pul yig‘ib jo‘natar-dik.

1-o d a m: — Buzg‘unchilar shunaqa odamlardan chiqadi...

2-o d a m: — Og‘zimdan suv sepib o‘chiraman. Mashina sen-ga deng...

3-o d a m: — Yashang, ota... Qoyilman sizga... Haqiqiy Hoji Sizsiz.

4-o d a m: — Suv seplaring... Baqirmanglar, tinchlaninglar. Ertaga to‘y bo‘ladigan uyda bugun to‘polon-a...

5-o d a m: — Meni shunday otam bo‘lsa yelkamda ko‘tarib, Hajga olib borardim.

— Nima bo‘ldi, ota? — yugurib kelgan Murodjonning hayqirig‘i eshitildi.

— Yomonning bolasi yo‘lda yotib ot hurkitar! Yo‘limni to‘sma!

Baribir qaytara olmaysan! Yayov bo‘lsa ham ketaman. Menga boshqa hech narsa kerak emas. Tupurdim hammasiga. Senga ham, topgan keliningga ham. Korimga yaramagan mashinanggayam. Istasam, mana bu uyni ham yoqib yubora-man.

— Ota, o‘zingizni bosing. Nega yoqasiz... Mashinani nega yoqasiz?

— Men Xudoning uyiga bormoqchiman, o‘zim uchun, onang uchun tavba qilmoqchiman. To‘g‘ri turgan bo‘lsang, soyangning egriligidan qo‘rqma degan gap bor. Bundan keyin hayotimni toat-ibodatda o‘tkazmoqchiman. Meni bu yo‘ldan hech kim qaytarolmaydi, hech kim...

— Otajon...

G‘azabi qaynagan Orif ota qo‘liga tirmashmoqchi bo‘lgan Murodjonning yelkasiga musht tushirdi. Murodjon munkib ketib enkaygancha qocha boshladi. Orif ota yana urmoqchi bo‘lib

tashlandi. Qochib qolgan o'g'lining ortidan, ilkis sakramoqchi bo'lgan edi, uch-to'rt qadam tashlamay yerga yuz tuban yiqildi.

Ey, shuur, ong berguvchi, tasavvur yog'dusida,
Haq ko'zi-la hayotimga sololsaydim bir nazar.
Bir lahzaga anglay toki mavhumot qutqusida,
O'z umrimdan toki o'zim o'tganimni bexabar.
Toki ummon qa'riga, bir kuni cho'kar bo'lsam,
Toki hayot meni ham bir kun ko'rar bo'lsa ko'p.
Men qo'limni cho'zganda, toki qutqarmasa ham,
Hayotimda nimadir bo'lsin, ummondagi cho'p.

YULDUZLARI KUYGAN TUN



Kinoqissa

Onasi Turg'unga Muhayyo yashaydigan manzil yozig'liq qog'ozni tutgach, «Bor, tanish, seni shu qizga unashtirmoqchimiz, uyiga, ota-onasinikiga borib keldik, ish faqat senda qolgan» — deganida, Turg'un nima qilishini bilmay garangsib qoldi. Besh yil institutda o'qidi. O'qish mobaynida birovga ko'ngil qo'ymagan ekan, ko'z ostiga olganlari unga tegishga rozi bo'ladimi, yo'qmi buni ham bilmasdi. Fursat o'tib borardi. Onasi qistalang qilavergach, bir kun qosh qorayganda yo'lga tushdi. Aytadigan gapi aniq edi. «Singlim, men sizni tanimayman, sizni menga unashtirmoqchi ekanlar, yaxshisi, bu nikohga rozi bo'lmang. Men ham rozi emasman». Vassalom!..

O'shanda Muhayyo darvoza eshigidan beri kelmadi. Eshikni qiya ochib: — Nega keldingiz? — dedi. Turg'un esa nima deyishini bilmay qoldi. Muhayyo ro'mol o'rab olgan, yuzi ham yaxshi ko'rinmasdi. Uning ortidan bir emas, uchta ukasi, xuddi dushmanga hamla qilishga shayday g'azab va nafrat bilan qarab turardi.

- Bizni unashtirishmoqchi ekan shundan xabaringiz bormi?
- Yo'g'-a, bu gapni endi sizdan eshitishim?



Turg'un yana dovdiradi. U «Ha, xabarim bor», — degan javobni kutgan edi. Agar Muhayyo shunday desa, boyagi ko'ngliga tugib qo'ygan gapni aytmochi edi. Keyin orqaga tisarildi-da:

— Agar unashtirishsa, nima deysiz? — dedi kalovlanib.

— Keting, sizni ko'rishga ko'zim yo'q!

To'g'rirog'i, Muhayyoning gapidan battar dovdiradi. Qattiqroq gapirishga shaylandi-yu, «Bu hali hech narsadan xabari yo'q ekan, gap uqtirib bo'ladimi?» — deb o'ylab turgani-da, eshik qarsillab yopildi-yu, u tashqarida qolaverdi.

Alamdan hovli shiferlariga dang'illatib tosh otdi... So'ngra charchab holdan toyguncha qochdi.

Bir oy ham o'tmay, Muhayyo bilan to'ylari bo'ldi. To'y kuni Turg'unning kayfiyati ko'tarilib ketdi. Bazm tonggacha cho'zilishini istadi. Yoru do'stlari bilan davrada tinmay o'ynar, kular, dunyoda undan-da baxtiyor odam yo'qday edi.



Ular ikki-uch yil tinch-totuv yashashdi. Agar zebigardon mashmashasi aralashmaganda bu totuvlik yana cho'zilishi mumkin edi. Bir kuni Muhayyo uning qitiq patiga tegib, shunday deb qoldi:

— Ha, keyingi paytlarda juda xotirjam yuribsiz?

Turg'un biroz esankirab, qilgan ayblarini yashirmochi kimsaday zo'rma-zo'raki iljaydi:

— Ha, ko'rayapsan-ku, ishlar ko'payib ketdi. Uning ustiga sovuqni aytmaysanmi?

Muhayyoning makkorligi tutdi:

— Sovuqqa o'zimni oldirib qo'yaman, deb qo'rqayapsizmi?.. Oramizga sovuqchilik tushdimi?

— Yo'q, yo'q, nega unday deysan?

— Tirikchilik bor, ro'zg'or bor, keldi-ketdi bor, men yo'q-man, xolos.

— Sen borsanki, shu oila, shu turmush bor.

— Bitta zebigardon olib bering deb, ming yolvordim. Hamma dugonalarim oldi, faqat men qoldim. Nuqul sabr qil deysiz, sabr qil deysiz.

— Endi xotinim bo‘lganingdan keyin kam-ko‘stimizga ko‘nikishing kerak-da.

— Siz faqat sabr, sabr deyavermay...

Muhayyo yuzini teskari burdi-da, biroz dadillashib, ohista va qat’iy so‘zini tugatdi: — Meni ham yaxshi ko‘rishingiz kerak.

— Qo‘y, unaqa gaplaringni!

— Bular shunchaki gap emas. Hatto bizlarni unashtirishgan kezlar ham yaxshi edingiz. Meni odam deb qaradingiz. Fikrimni so‘radingiz. Ba‘zan hayiqardingiz. Aynib qoladimi, deb qo‘rqardingiz. Keyin... Sizga butunlay tobe bo‘lganimdan so‘ng esa xuddi o‘zingizning shaxsiy mulkingizday meni bir chetga tashlab qo‘yib, butunlay unutdingiz.

— Hayot o‘zi shunaqa. Jigaring og‘rimasa, uni badaningni qayeridaligini bilmaysan. Kim qichimagan joyini qashiydi?

— Meni juda qattiq unutib yubormang deyman-da.

— Meni bunchalik go‘l deb o‘ylama. Agar juda norozi bo‘lsang, marhamat, ketishing mumkin!

— Ketolmasligimni bilganingiz uchun shu gaplarni aytyapsiz.

— Yo‘q, mendan ortiq erni topolmasligingni bilganim uchun aytyapman.

— O‘zingizga bu qadar bino qo‘ymang. Men sizdan ortiq erni izlayotganim yo‘q. Men sizdan o‘zimga ozroq e‘tibor so‘rayapman, xolos. Menga sal ko‘proq e‘tibor beradigan odam esa hali topiladi.

— Men ham shuni aytyapman. Bor, senga e‘tibor beradiganlarni topib ol.

— Menga birovlar e‘tibor bersa uyalmaysizmi?

— Bitta zebigardon uchun ichingda shuncha alam yotgan ekan, ket.

— Zebigardon uchun emas, siz uchun ketaman. Zorimni aytсам, quchog‘ini ochadigan odam topiladi.

— Armoning qolmasin. Modomiki, ko‘nglingni to‘ldiradigan odamni izlayotgan ekansan, bu dardni o‘ldirib bo‘lmaydi.

— Bunday deyishga qanday tilingiz bordi, uyatsiz?!

Muhayyo ko‘zida yosh bilan yotoqxonaga kirib ketdi.





Bir kun Turg'un ishdan kech qaytdi... O'sha kun uning kech qolishini Muhayyo ham bilardi. Turg'un Muhayyoning nima ish bilan bandligini, Sobirjon nima qilayotganligini bilish uchun yuragida uyushib kelayotgan qandaydir sog'inch harorati bilan uyiga telefon qila boshladi.

— Alyo.

— Alyo, kim bu? — telefon go'shagini qandaydir erkak kishi ko'tardi.

— Men uyimga telefon qilyapman, — dedi Turg'un taajjulanib.

— Nima?

— Men uyimga...

— Trubkani qo'yib qo'y...

Turg'un nima qilishini bilmay trubkani qo'yarkan, telefon-dagi raqam ko'rsatkichga qaradi. Ko'rsatkichda o'z uyining raqamlari yozig'liq turardi. Biroz kalovlanib turdi-da: «Nahot shu rost bo'lsa, o'z uyimda-ya...» — deb o'ylay boshladi. Joni halqumiga keldi. Muhayyoga nima kerak o'zi? Nahotki, meni bir umr yuvsa ham ketmas isnodga qoldirmoqchi? Endi qanday bosh ko'tarib yuraman? Baloga qoldim, baloga! Yo ajralib qutilaman, yo o'ldirib!..

Turg'un stol ustidagi qog'ozlarni apil-tapil yig'ishtirib, uyga oshiqdi.

Yo'l bo'yi shubha va gumonlar alangasida gap anglamaydigan battolga aylandi.

Uyga yetib borganida, podyezd qop-qorong'u edi. Hali bir qadam ham bosmasidan o'z uyining eshigi ochilib-yopilganligini ko'rdi. U yugurib zinadan qadam tashlarkan, xayolida sport kiyimidagi bo'yi baland yigit gavdalandi. Kimlardan-dir Muhayyo maktabda o'qib yurgan paytlari shunday bir bola bilan «yurgan»ligini eshitgandi. Keyin sinfdoshlar uchrashuvi tushirilgan videotasmada ham bir bola bilan gaplashgani, birga o'ynashganini ko'rdi. Avvallari bu narsaga uncha ahamiyat bermagandi. Demak, buyog'i rost bo'lib chiqaypti. Muhayyo

bu bola bilan uchrashishni hali ham davom ettiryapti. Shunday uchrashuvdan biri — o‘z uyida. Avvallari uyga ketdim deb, uchrashib yurgan. Sobirjonni onasiga qoldirib chiqib ketgan. Hozir Sobirjonni kimga qoldirishni bilmay, uni uyga taklif qilgan...

Turg‘un shiddat bilan zinadan ko‘tarilar ekan, tepadan shovullab bir yigitning tushayotganini ko‘rdi. Yigit baland bo‘yli, sport kiyimida edi.

Turg‘un qorong‘uda yigitning yuzini ko‘rolmadi. Hali eshushini yig‘ib olishga ulgurmay, hatto yigitning oldini to‘shiga da‘vat etuvchi fikr xayolida tug‘ilib ulgurmay, yigit shuv etib oldidan o‘tib ketdi. Turg‘un bir lahza to‘xtadi-da, «Kimsan?» demoqchi bo‘ldi. Keyin «kuchim yetarmikan? — degan xayol miyasining qaysi bir chetida lipillab o‘tdi-da, «Hozir o‘ldiraman» degan jur‘at bilan to‘xtab, uning ortidan tusha boshladi. Yigit uning uyidan chiqqaniga shubhasi yo‘q edi... Bunga aniq iqrор bilan zinapoyadan yana pastga otilib tushdi. Ammo yigit bir lahzada ko‘zdan g‘oyib bo‘lgandi. Turg‘un katta ko‘chani, uy-atroflarni zir qaqshab izlay boshladi. Ammo yigitdan darak topmadi.

Turg‘un zinadan yana qayta ko‘tarilar ekan, uyi eshigi qattiq tanbalanganini ko‘rib, battar tutoqdi: «Boshqalar uchun ochiq, men uchun yopiq...»



Muhayyo pishgan ovqatni kimga suzishni bilmay, biroz o‘ylanib turdi-da, gazni o‘chirib, bir yumushdan qutulganday yengil tortdi. Ovqatni bir o‘zi yeyishga ishtahasi ham, xohishi ham yo‘q edi.

Yotoqxonaga kirib, divanga cho‘zilarkan, qo‘liga tushgan kitobni olib o‘qiy boshladi:

«Men seni erkalab, suyib to‘ymasam,
Ko‘zimdan bir zumga nari qo‘ymasam.
Ammo ayt, ne sabab, bugun bo‘lmasa,
Erta meni tashlab, ketasan jonim...»



Muhayyo zinadan eshitalgan dupurga quloq tutib, «yo‘lakning chirog‘ini kimdir sindirib ketibdi, eshikni ochsam, zina yorishadi», — deb o‘yladi va eshikni ochdi. Biroq dupur tepadan kelayotganini bilib, eshikni yopdi. Biroz o‘tib, shovqin tindi. Muhayyo eshikni tamladi.

Bir soniya o‘tmay uy qo‘ng‘irog‘i dam-badam jaranglayverdi. Muhayyo cho‘chib, eshikka otildi. Eshikda Turg‘un rangi oqarib, vajohat bilan turardi:

- Hozir uydan kim chiqib ketdi?
- Hech kim!
- To‘g‘risini ayt. Uyda kim bor edi?
- Men...
- Telefon go‘shagini kim ko‘tardi?
- Hech kim, jiringlagani ham yo‘q.
- Sen hali ham o‘sha maktabdagi «o‘ynash»ing bilan uchrashib turibsanmi?
- Bunaqa gaplarni qayerdan oldingiz?
- Senga nima kerak o‘zi? Umrinni zahar-zaqqumga to‘ldir-moqchimisan?!
- Sizga nima bo‘ldi? Ishonmas ekansiz, uylanib nima qilardingiz?
- Men senday baloga qayerdan yo‘liqdim?
- Meni haqorat qilmang! Men umrimni sizga bag‘ishlaganman. Lekin ket desangiz, ko‘chada qolib ketmayman. Sizning haqoratlashingizga tashlab qo‘yishmaydi.
- Kim u, o‘shami?
- Onam hali tirik, tog‘am hali tirik...
- Endi onang ham, tog‘ang ham — men!
- Shusiz ham cho‘ridan farqim qolmadi.
- Agar yoqmasa, ket bu yerdan. Faqat meni isnodga qoldirmay ket. Keyin nima qilsang, o‘zing bilasan.
- Men o‘z qadrimni yaxshi bilaman. Ko‘chada birov bilan o‘ynashib yurgandan o‘lganim yaxshi. Meni bilmas ekansiz, endi ko‘zingiz ko‘r bo‘ladi.

O‘sha kuni ular ilk bora to‘shaklari bo‘lak-bo‘lak yotdilar.

Muhayyo ertasi kuni Sobirjonni kiyintirdi-da, kerakli narsalarni yig‘ishtirib, indamay uydan chiqib ketdi. Turg‘un uni

izlab bormadi. Turg'un o'g'li uchun Muhayyoga shahardan ikki xonali uy olib berdi. Muhayyoning ko'ch-ko'ronini o'sha yoqqa qo'yib qo'ydi. O'zi esa uyda yolg'iz yashab, gap-so'zlar ko'paymasin deb, onasinikida yurdi.

Keyin uning hayotida Erkin paydo bo'ldi. Bayram kunlarining birida xuddi uning ichini bilganday, Erkin unga, u istab yurgan, olishni ko'ngliga qattiq tukkan zebigardonni sovg'a qildi. Bu sovg'a ularning munosabatlarini yanada qalinlashtirib yubordi.



Bir kun Turg'un uyda yolg'iz qolganida chuqur xayolga botdi: «Nega Muhayyo ko'z oldimdan ketmaydi? Nega uni eslayveraman? Nega? Muhayyo bilan meni bog'lab turadigan narsalar bu qadar ko'p, bu qadar chambarchas bog'lanib ketgan? Nega uni eslasam, jonimni sug'urib olishayotganday o'rtanib ketaman? U mening hayot-mamotim bo'lib qolishga qachon ulgurdi? Nima uchun dilbandim Sobirjonning bir marta jilmayishi men uylanadigan o'nta qizning mingta nozu ishvasidan ko'ra suyimliroq? Meni kechir, Muhayyo, meni kechir! Men seni kechirishga tayyorman!»

Turg'un g'amu hasratga to'la ko'zlarini bir nuqtaga tikib, xuddi qo'l-oyoqlari qotib qolganday o'tirardi: — «Balki shubha-gumonlarim noo'rindir?»

Turg'un titroq qo'llari bilan beixtiyor telefon raqamlarini tera boshladi:

— Salom, Muhayyo, bu men... Bugun vaqting bormi, ko'rishsak degandim.

— Nega?..

— O'zim shunchaki...

— Axir shunchaki uchrashadigan yoshda emasmiz.

— Balki, suhbat davomida bir xulosaga kelarmiz.

— Yo'q, uchrasholmayman. Endi u kunlarni unuting. Hammasi tush kabi o'tib ketdi. Siz meni tanimaysiz, men sizni. Ajralishganimizga ham bir yildan oshib ketdi. Demak, bizni bog'lab turadigan hech narsa yo'q. Bo'lganida, men buni sezardim.

— Muhayyo, dastlab men ham oramizda hech narsa yo‘q, deb o‘ylagandim. Keyin bilsam, seni qattiq yaxshi ko‘rar ekanman.

— Qo‘ying. Bu gaplar yolg‘on. Agar aktyor bo‘lganingizda, hozirgi holatingizni ko‘rib, odamlar ijirg‘anishardi.

— Balki, shundaydir? Hozir birgina ustun tomoning bor: Men seni yaxshi ko‘raman.

— Turg‘un aka, qiyofangizni yaqqol tasavvur qilib turibman. Siz ayyor odamsiz. Siz meni sevmaysiz. Hozir siz bilan qachonlardir erim bo‘lganingiz uchungina gaplashib o‘tiribman. Sizning ham birgina ustun tomoningiz: «qachonlardir erim edingiz».

— Men hozir sevishingga loyiq insonman.

— Sizenshuncha yashay oldim, demak, sizni unutishga ham kuchim yetadi.

— Mayli, o‘ylab ko‘r. Bu dunyoda Turg‘un bitta. Ikkinchisini hech qachon topolmaysan.

— Menga birinchisi ham, ikkinchisi ham kerak emas.

— Agar menchalik seni sevadigan odam borligiga ko‘zim yetsaydi, sen bilan gaplashib o‘tirmagan bo‘lardim.

— Biz gaplashmadik deb hisoblayvering!

— Xayr, bo‘lmasa.

— Xayr!

Turg‘un go‘shakni qo‘yarkan, ayol kishi naqadar katta kuch ekanligini anglab yetdi. Muhayyoning birgina injiqligi uning butun hayotini ostin-ustun qilib yubordi. Muhayyo uning uyida xokisorgina, uning buyruqlariga mute, «gah» desa qo‘liga qo‘nib yurganida hech narsa bilinmayotgandi. Hamma joy osoyishta edi. Daryo o‘z o‘rnida edi. Muhayyo ketdi-yu, uyi huvillab qoldi. Daryo uning o‘zanini tashlab, boshqa yo‘ldan ketdi. Endi uning na o‘zida, na ishida, na uyida halovat bor.

Muhayyo ketganda ham jimgina ketmadi. Televizordan turib, unga qarata qo‘shiq ayta boshladi. Qo‘shiqdagi har bitta so‘z aynan Turg‘unga aytilgandi. Turg‘un bir narsaga hayron qolardi. Balki «vaqt hakam» deganlari shu bo‘lsa kerak. Muhayyo uydan ketayotganda, Turg‘unning unga nisbatan g‘azab va nafrati tiyiqsiz

edi. Uni ko‘rishga ko‘zi, otishga o‘qi yo‘q edi. Bora-bora bu nafrat o‘z-o‘zidan yo‘qola bordi va o‘tgan voqealar shunchaki xayolga, ya‘ni «endi turmushda bo‘lib turadi-da», — deya xulosa chiqariladigan xayolga aylanib qoldi.

Muhayyoning so‘zlarini eshitib, Turg‘un o‘z hayotida naqadar katta «dushman» paydo bo‘lganini angladi. Bu «dushman» uni muhabbat azoblariga tashlab, tobora uzoqlashayotgan Muhayyo edi...



Studiya. Muhayyo xirgoyi qilyapti. Hamrohlari so‘zga mos ohang, kuy bastalashyapti.

Osmono‘par isyonlarim edi g‘olib,
Kuy orzusi uzoqlarga ketdi olib.
Xarob qilgan sarobimdan tonib, tonib,
Toppinganim sen bo‘lding-ku, ey bolajon!

Ming turlanib, tovlangan nur — men qurgan umr,
Har shaytonga shukur aytib, ko‘rdim huzur.
O‘rnim bilmay, kufrlarda yurdim, uzr,
Savob yog‘im sen bo‘lding-ku, ey bolajon.

Adashganman, ummondagi bir xasdayman,
So‘zim qaytgan, o‘zim so‘nggi nafasdayman.
O‘zga ne so‘z desam hamki, aldagayman,
Sog‘inganim sen bo‘lding-ku, ey bolajon.



Turg‘un «Sayilgoh»ni aylanib yurgandi, kafeda Muhayyo, Sobirjon va yana bir notanish yigit — uchalasi o‘tirganini ko‘rib qoldi. Sobirjon stolda o‘tirolmas, o‘yinqaroqligi tutib irg‘ishlar, yigit esa unga mehribonchilik qilmoqchi bo‘lar, uning bolaga xushomadidan Muhayyo zavqlanib kulardi. Turg‘un odamlarni pana qilib, ularga qarab turdi. Bir xayoli, «E, menga nima?» — deb o‘tib ketmoqchi ham bo‘ldi. Lekin ketolmadi. Sobirjon yig‘laganda, xuddi biron o‘rgatganday doim «dada» deb yig‘lardi. Chaqaloqligida shunday edi. Uning «dada» deb yig‘lashidan

yuragi erib ketardi. Muhayyodan ko'ra u ko'proq kuyunar, yugurib borardi. Dastlab Turg'un chaqaloqni ko'tarishni bilmasdi. Qandaydir erish tuyulardi. Keyinchalik, bora-bora ishxonadan turib ham telefon qiladigan bo'lib qoldi.

Turg'un uzoqdan Muhayyoning Sobirjonga nimanidir uqtirayotganini ko'rdi. Balki «amaki»ni maqtab, «dadang shu — deyayotgandir? Keyin Sobirjon «amaki»ga osilib oldi: «Dada».

«Amaki» Turg'unga teskari o'tirgani uchun, uning yuzini Turg'un ko'rolmasdi. Balki «amaki»ning «o'g'il»ga qarab afti bujmaygandir? Balki, quvonib ketib, og'zi qulog'ida irshaygandir. Har ikki xil munosabat ham baribir Turg'unning yurak-yuragini tilib yubordi.

Rashk va alamdand o'zini tutolmay qoldi. Tez-tez qadam tashlab, ular o'tirgan joyga qanday borib qolganini sezmedi.

— Kim bu, Muhayyo?..

Sobirjon: — «Dada», deya uning oyog'iga yopishdi.

Muhayyo achchiqroq javob qaytarmoqchi edi, Turg'unning avzoyini ko'rib, vaziyatni yumshatmoqchi bo'ldi:

— Turg'un aka, keting bu yerdan.

— Senga, bu kim deyapman?..

— Men Erkin bo'laman! — U o'rnidan turdi: — Gaping bormidi?..

— Bu meni xotanim bo'ladi.

— Xotining bo'lsa, sen qayerda yuribsan?

— Meni hayotimni buzgan senmisan?

— Hayotingni sen o'zing buzgansan, xotiningni ham men buzganim yo'q.

— Yo'qol bu yerdan! Uning atrofida o'ralashganingni ko'rmay!

— Ixtiyor menda. Xotiningni ham ixtiyori menda, — Turg'un Erkinning og'ziga musht tushirdi. Erkin ham unga tashlandi. Uryiqitga birpasda odamlar to'plandi. Ajratuvchilar o'rtaga tushdi. Muhayyo Sobirjonni quchoqlab yig'larkan, qo'rquv va isnoddan ko'ziga duv-duv yosh kelardi:

— Turg'un aka, keting bu yerdan, keting. Biz shunchaki gaplashib o'tiribmiz, Erkin aka, siz ham keting. Ketinglar bu yerdan, ketinglar!

Muhayyo Sobirjonni quchoqlaganicha, yugurib ketdi.





Turg'un xonada asabiy kezinarkan, Muhayyo bilan kechirgan baxtli damlari xayolini tark etmay qiynalardi. Ular turmush qurganlarining ilk yillarida juda saodatli umr kechirishgandi. Keyin mayda-chuyda g'idi-bidilar, kelishmovchiliklar boshlandi. Bora-bora bir-birlarini yomon ko'rib qolishdi. Lekin, hozir garchand eslashga urinsa ham, Muhayyoni yomonlashga arzigulik biror bahona xotirasiga kelmayotgandi. Uni qattiq sog'ingan, uni ko'rishdan boshqa hech narsa yuragiga sig'masdi. Garchand mol-mulkka to'la uyi bor, garchand ota-onasi, yoru birodarlari bor, ammo to'rvasini yo'qotgan gadodek g'arib va tashlandiq sezardi o'zini.

Muhayyo ketdi, o'g'li ketdi. Uy ham, uning yuragi ham huvillab qoldi. Hozir u Muhayyoning barcha ta'na-yu malomatlariga, xarxashalariga, janjalu to'polonlariga rozi. Rozi bo'lganda ham bosh ustiga rozi.



Bir kun onasi chaqirib qoldi.

— Rahimboyning qiziga og'iz solgan edik. Avval boshda o'zing rozi bo'lib, qistalang qilgan eding. Nega endi jimsan?

— Ozigina shoshmay turaylik.

— Nega?

— Oilamni o'ylab qoldim. Xotin topilar, lekin o'g'lim kimning qo'lida qoladi? Keyin, Muhayyoni ham birovlariga bergim yo'q. Hozir o'nta kelindan ko'ra, shular ko'zimga azizroq ko'rinib turibdi. Ertaga u kelin qanday chiqadi-yu, yana shunday o'g'ilni Xudo menga beradimi?

— U endi qo'shiqchi bo'lib, ko'chaga chiqib ketganmishku?

— Agar ro'zg'orimiz buzilmaganda bunday bo'lmasdi! Jimgina yurgandi. Endi u qo'shiqchi bo'ldi-yu, meni boshim baloga qoldi. Qayerga borsam, «shu seni xotiningmi?» — deydiganlar ko'paydi. Ularning qaysi biri bilan yoqalashaman?!





Studiya. Muhayyo qo‘shiq yozayapti:

Umrinni bag‘ishlay deb,
Chog‘langandim necha bor.
Sen izn berganingda
Bo‘larmidim baxtiyor.
Bu kun neki omadim,
Yurishmasa sezgayman.
Kulfat sari adashib,
Umrin borar enkaygan.
Koshki bor-budni berib,
To‘lay olsaydik tovon.
Sevgi aldanmas ekan,
Umr so‘rar yoki jon.
Bu kun neki omadim,
Yurishmasa sezgayman.
Kulfat sari adashib,
Umrin borar enkaygan.



Erkin shifoxonada yotibdi. Boshi dokaga o‘ralgan. Qon izlari silqib turibdi. Muhayyo uning yonida o‘tiribdi:

- Keyin nima bo‘ldi?
- Faqat bu haqda hech kimga aytma. Ular qo‘ygan muddat o‘tib ketdi. Bu ularning birinchi ogohlantirishlari. Yana uch kundan so‘ng ular qo‘ygan yangi muddat ham tugaydi. Keyin... nima bo‘lishini bilmadim.
- Hozir foizlari bilan qanchaga ko‘paydi?
- Uch mingdan oshdi.
- Meni ikki xonali uyim bor. Ularga ayting, bugunoq nomlariga rasmiylashtirib beraman.
- Kerakmas, men o‘zim amallayman.
- Yo‘q demang. Uy hozir bo‘sh turibdi. Boshimiz omon bo‘lsa, mol-dunyo topiladi.
- Yo‘q, kerak emas. O‘zim omadimni yana bir sinab ko‘raman. Men yutqizganim uchun tovon to‘lab, sha‘nimni oqlamoqchi emasman, g‘olib bo‘lib Erkin nomimni, yigit boshim-

ni baland ko‘tarib yurishim kerak. Hayot bu — o‘yin. Undagi har bitta o‘yinda g‘olib chiqmasang, seni chetga surib qo‘yadilar. Men hech qachon, hech kimdan qarz olmaganman. Dunyoda eng qattiq sevib, ardoqlagan odamimning oldida esa hech qachon qarzdor bo‘lib qolishni istamayman. Sen mening sevgilimsan, iltimos, meni kamsitma. Bir lahzaga bo‘lsin, tilimni qisq qilma.

— Erkin aka, hozir bu vaziyatdan chiqib olishimiz kerak.

— Hali uch kun bor. Hali men o‘lganim yo‘q. Hali men tirikman.

Erkinning yuragidagi olov endi uning ko‘zlarida yonardi.



To‘y. Bazmu jamshid avjida. Musiqa sadosi odamlar baqir-chaqirig‘ini bosib ketgan. Muhayyo o‘rtada qo‘shiq aytyapti. Turg‘un ham o‘rtoqlari bilan o‘tiribdi. Muhayyo uni ko‘rib qolib, to‘yning narigi burchiga yura boshlaydi. Ikki odam o‘zaro gaplashyapti:

Birinchi odam: — Turg‘unning xotinimi? O‘zi ham shu yerda o‘tiruvdi-ku!

Ikkinchi odam: — Ha, o‘zi shu yerda. Lekin u buni allaqachon qo‘yvorgan.

Birinchi odam: — To‘g‘ri qipti. Xotin-ku xotin, shunday itim bo‘lsa qo‘yvorardim.

Ikkinchi odam: — (Hi-hilab kuladi.) — To‘g‘ri-ku, lekin bevani ko‘paytiravermay, tarbiyalab, to‘g‘ri yo‘lga solvolsa bo‘lardi. Shunaqa landovur erlarning kasridan dunyoda beva ko‘payib ketdi.

Birinchi odam: — Beva emas, qo‘shiqchi ko‘payib ketdi-de, yuragi kuygan ko‘payib ketdi (Hi-hilab kuldi).

Kimdir Muhayyoning oldida muqom qilib, o‘ynay boshladi, uni qo‘llaridan tortib, raqsga chorladi. Birov uni qulog‘iga eri shu yerda o‘tiribdi, qabilida gapirib ketdi va Turg‘un o‘tirgan tarafga ishora qilib qo‘ydi. Turg‘un nazarini bunday alamli ishorani ilg‘amay qolmadi.

O‘rtoqlaridan biri unga gap otdi:

— Ja-a, ochilib ketibdi-yu!

Ikkinchi ogʻaynisi askiya qila boshladi: — Bu shoʻrlik nima qilsin endi, qaytadan nikohiga olsinmi, ochilgan joylarini yopish uchun!

Uchinchisi: — Ovozni yopib yurgan ekanda, ovozni!

Toʻrtinchisi: — Endi yopigʻliq qozon yopilmaydi, hamma oʻzining shoʻrvasini suzib ichaveradi.

Birinchisi: — Endi, bu qayerga borsa, Turgʻunboyning nomlari ham qoʻshib chaynaladigan boʻldi-da.

Ikkinchisi: — Bizning nomimiz-chi, xoʻ, falonchini oʻrtogʻi bor-ku, Turgʻun degan, bu oʻshaning xotini-da, qoʻyvor-gan xotini deyishadi.

Uchinchisi: — Endi, doʻstni qoʻyvorib boʻlmasa, nima qilardik, chidaymizda! (Gurr kulgi, masxarabozlik).

Turgʻun oʻrnidan turib ketmoqchi boʻldi. Ammo, el ogʻziga elak tutib boʻlmasligini bilib, oʻzini bosdi. Xuddi Muhayyoni qoʻyvorib toʻgʻri ish qilganday qomatini gʻoz tutdi. Lekin yura-gida alam: — Nega bitta xotinni boshqarib ololmadim? Qayerda xato qildim? Xotininning bunday yurishi men uchun isnod-ku? Oʻgʻlim ham shuni qoʻlida tarbiya oladimi? Muhayyoni bu holga tashlab qoʻymaslik kerak. U shu ketishda xarob boʻladi. U shu ketishda buzilib ketadi.

Turgʻun sigaret chekib kelish uchun oʻrnidan tura boshladi. Yoʻlda uni toʻxtatib, oʻyinga tortishdi.

Birinchiodam: — Xotini ashula aytsin, eri oʻynasin-da!

Ikkinchiodam: — Xotinni nogʻorasiga faqat bizmi, siz ham bir oʻynang!

Uchinchiodam: — Birinchi odamning qulogʻiga shi-virlyaydi: — Qoʻyvor, ular ajrashgan, xabaring yoʻqmi?

Birinchiodam: — Yoʻgʻ-e, unda uzr, bilmabman!

Turgʻunni qoʻyvorishdi. Turgʻunning qorasi qayta koʻrinmadi. Toʻy davom etdi.



Bir kun tunda u Erkin bilan allamahalgacha qolib ketdi. Soat chamasi ikkilar edi. U ham, Erkin ham juda xursand,

kayfiyatlari a'lo, dimog'lari chog', baxtu saodatdan boshlari chir-chir aylanardi. Lekin ko'chaga chiqqanlarida Erkinning mashinasida kimdir o'tirganini, mashina oynalari singanini, u odam zo'r berib motorni o't oldirishga urinayotganligini ko'rib, to'xtab qolishdi.

Mashinada o'g'ri bor edi. Erkin fursatni boy bermay, mashinaga qarab yugurdi. Lekin, o'g'ri qochishga urinmadi. U g'irt mast edi. Erkin o'g'rini ushlab, biqiniga urganda ham o'g'ri qochishga urinmadi.

— Nima qilyapsan, ablah?

— Magnitofon qo'ymoqchi edim.

— Nega oynalarni sindirding?

— Men sindirganim yo'q.

— Buni pulini to'laysan. Hozir militsiya chaqiraman, kazzob!

— To'layman? Men qilganim yo'q. Mashinang ham kerak emas.

— Magnitofon qani?

— Opketishdi.

— Kim?

— Bilmayman.

— Hozir militsiya chaqiraman. Oynalari qancha turishini bilasanmi?

— Qo'yvor, bilmayman.

O'g'ri qochishga urindi.

Ko'chadagi baqir-chaqir, shovqin-suronni eshitib, birpasda odamlar to'plana boshladi. Erkin o'g'rini qattiqroq urgan paytda kimdir militsiyaga qo'ng'iroq qilgan shekilli, darhol bir guruh militsiya har tarafni o'rab oldi. Bittasi o'g'rini so'roqqa tutdi. Bittasi mashinaga tushgan barmoq izlarini tekshira boshladi. Bittasi Erkinni, yana biri Muhayyoni gapga soldi.

Hamma ish teskari ketdi. Militsionerning savollariga Erkin ham, Muhayyo ham to'g'ri javob berolmas edi.

— Bu yerga kimnikiga keldilaring? Yarim kechasi nega mashinani yo'l yoqasida qoldirdingiz? Bu ayol sizga kim bo'ladi? Qayerda ishlaysiz? Sizlar bilan yana kim bor edi?

Hozir eringizni chaqirsak bo'ladimi? Yana kimlar bu o'g'rilik hodisasiga guvohlik qiladi?



Erkin gapni u yoqdan bu yoqqa olib qocha boshladi. Go‘yo-ki bu mashina unikimas, Muhayyoni ham ko‘chada tasodifan ko‘rib qoldi va umuman uni tanimaydi. Va umuman bu o‘g‘ri emas, o‘zining yaqin o‘rtog‘i va umuman, buning hammasi qandaydir anglashilmovchilik. Umuman uni hozir uyida intizorlik bilan kutishyapti va umuman, u tezda ketishi kerak. Va umuman Muhayyoni ham, o‘g‘rini ham o‘zi uyiga olib borib qo‘yadi va umuman, militsionerlarni urintirib qo‘yishgani uchun xizmat haqini ham o‘z yonidan to‘lashga tayyor.

Muhayyo ham dastlab onasiga telefon qila boshladi. Militsionerning qo‘polligi uchun Turg‘unning nomini aytib dag‘dag‘a qila boshladi. «O‘g‘ri qolib, meni so‘roqqa tutayotganlaring uchun pagonlaringni yulib olaman», — deb baqirdi. Biroq bu yerdan siljib qolish payti kelgan, odamlar to‘planishayotgan, uni orasida bitta-yarimta tanishlari kelib qoladigan bo‘lsa, butun shaharga ovoza tarqalishi xavfi tug‘ilayotgandi. Agar shunday ovoza tarqalsa, keyin o‘nta shunday mashinaning puliga ham bu ovozani yopdi-yopdi qilib bo‘lmasdi.

Muhayyoga bu alfozda, ya‘ni yashirin oshiq-ma‘shuqlik holatida o‘z sha‘nini himoya qilolmasligi juda alam qildi.

Achchig‘ini bosib, uzr so‘radi. Erkin ham o‘z da‘vosidan kechdi. Hartugul, militsionerlar ham insofga kelib, o‘g‘rini qo‘yib yubordi.

Erkin tongga yaqin Muhayyoni ko‘cha boshida qoldirdi.

Muhayyo jo‘nab ketayotgan yengil mashina tomonga qayrilib qo‘l silkirkan, noumid tuyg‘u bilan jilmayib qo‘ydi. Yuragiga o‘rnashib qolgan majhul kayfiyat tarqalmadi.

Mashinadan uyiga yetmay, yuz qadam berida tushib qolar-kan, hali Erkin bilan xayrlashganlariga bir soniya o‘tmay, yolg‘izligi yana achchiq ichikish hissini zohir eta boshladi.

Muhayyo Sobirjonni ko‘tarib, uyiga qaytib keldi. Unga muhabbat kerak edi. Mana muhabbatga ham yetishdi. Muhabbat uni yengil mashinada — ehtiroslar og‘ushida olib yurib-yurib, ko‘cha boshiga tashlab ketdi.

Albatta, u Erkin bilan yana qachon uchrashishlarini biladi. Lekin Erkin unga turmush qurish haqida hali hech narsa degani yo‘q. Ayol kishi uchun esa oilasiz hayot hayotmi?

Muhayyo qo‘shnilardan istihola qilib, uyidan ancha berida tushib qolganiga endi afsuslana boshladi.

Xayolida negadir sobiq eri Turg‘un gavdalandi. Turg‘unning uyidan chiqib ketar oldi, hayotining u bilan kechirgan eng so‘nggi oqshomida, qorong‘u tushishini uzoq poylagandi. Ochiqchasiga ketishga qo‘ni-qo‘shnilardan uyaldi. Eri darvoza oldigacha lom-mim demay ergashib keldi. Hamma gaplar aytib bo‘lingandi. Yana nimadir aytish mumkin edi. Lekin nafsoniyatning ham, aytish mumkin bo‘lgan gaplarning ham cheki-chegarasi bor ekan. Turg‘un ham, Muhayyo ham o‘zliklaridan kechib, bu chegarani hatlab o‘tolmadilar.

Muyulishga yetgach, Turg‘un egilib o‘g‘lining yuz-ko‘zidan o‘pdi. Muhayyoga Turg‘un uni ham o‘pmoqchiday bo‘lib tuyuldi. Mabodo o‘pganda ham, u baribir ortga qaytmagan bo‘lardi.

Lekin hozir negadir erini qo‘msadi. Oilasini qo‘msadi. Tinchgina turmushini: ma’sud kunlarini esladi. «Mening yoshimda, sevgi degan yolg‘on-yashiqqa balo bormidi?» — deb o‘yladi. «Sevib ham nima bo‘ldim, go‘r bo‘ldimmi, bitta er topilib qolarmikan deb, jonim halak, ming og‘izni poylayman, bir kishidan sado yo‘q!» Hatto o‘g‘rining oldida tilimiz qisq. Qachongacha yashirinib yashayman?

U, xayoliga Erkin haqida bir fikr urilganidanmi, undan imdod ilinjidadir, ortiga, hozirgina o‘zi tushib qolgan mashina tomonga o‘girilib qaradi. Qaradi-yu, qop-qora bo‘shliqda, itmikan, nimadir sandiraqlab kelayotgani ko‘ziga ko‘rinib ketdi.

Muhayyo qo‘rqib qadamini tezlatdi. G‘ayriixtiyoriy ravishda oyoqlari qaltiradi. Shu orada yana tisarilib qararkan, ko‘ziga ko‘ringan qora maxluq, sirtloniy ephillik bilan oraliqni qisqartirayotganidan a‘zoyi badaniga titroq yugurdi. O‘rtalikda go‘yo ikki-uch qadam qolgandi. Muhayyoning nafasi ichiga tushib ketdi.

Maxluqning ko‘zlari sovuq yiltirar, tahlikali, tajovuzkor edi. «Hozir tishlasa kerak?» — deb o‘yladi Muhayyo. So‘ng o‘zini qo‘lga olishga, hamlaga shay turishga urindi.

Lekin bu urinish, jur‘at shu qadar nochor edi-ki, og‘zi-burniga uchuqlarning toshib chiqayotganligini yaqqol sezardi. Lablarini qattiqroq bossa, uchuqlarning po‘rtanaday potirlab chiqqan suvi, iyagiga shilt-shilt tomib tushardi. «Bevani ko‘rsa it ham hurarmish, deganlari nahotki rost bo‘lsa, nahotki azaliy hikmat shunday bo‘lsa?»

Muhayyo o‘z savoliga javob topishga ulgurmay, oyoqlariga nimadir kelib suykala boshlaganday, jon alpozda baqirib yubordi.

«Tur, ket!» — deya, yerdan toshmi, tayoqmi axtarganday bo‘ldi. O‘zini yo‘qotib qo‘yganidan, ortiga tisarilib, qopqora bo‘shliqqa bir zum, qattiq o‘qrayib qararkan, hamla qilish uchun beixtiyor qadam tashlamoqchi ham bo‘ldi. Ammo keyinchalik o‘zining aytgan ta‘biri bo‘yicha turolmas bo‘lib yiqilishiga bir bahya qoldi.

Maxluq, noumid bo‘lganday, tisarila-tisarila orqaga chekindida, to‘xtab kuta boshladi.

Muhayyo o‘z xonasiga kirganda, hamma uxlayotgandi. Qo‘shni xonadan: «Kim u?» — ma‘nosidagi uyqusiragan tovush keldi. Onasi qorong‘uda ro‘molini axtardi shekilli, timirskilanib chiqa boshladi. Lekin, Muhayyo onasi bilan ko‘rishishga ro‘yxushlik bermay, ichkaridan turib, «Menman oyi, yotavering, yaxshi yetib keldim» — deb qo‘ydi. Onasi u aytgan yolg‘onga ishondi shekilli, karovat g‘ichirlab, uning qayta yotganini bildirdi.

Oyisining yonida uxlab qolgan o‘g‘ilchasini olib kelish Muhayyoning ko‘ngliga sig‘madi. Onasi hozir kelib, «Yarim kechasi qaysi go‘rda sang‘ib yuribsan», — deya urishishini istadi. Biroq onasi kelmadi. «Har kimning o‘ziga insof bersin», — deb o‘yladi, shekilli.

Muhayyo chiroqni yoqib toshoyna yoniga keldi. U oynada rangi oppoq oqarib ketgan o‘z aksini ko‘rdi. Sochi, qoshi, hatto kipriklari ham oqarib ketganday edi. Lablari gezarib turardi.

U aft-angoridagi siniqlikka bardosh berolmay, o'zini o'rin-diqqa yuztuban tashladi.

Yarimta bo'lib qolgan umrining izlanishlari, yo'qlashlari, diydor istovchi ilhaqliklari uni tun bo'yi sarosimaga solib chiqdi. «Nega oilam buzilib ketdi?» — degan savol boshi uzra kalxatday aylanaverdi, aylanaverdi. Javob beray desa tili aylanmas, jo'yali bir javob topish o'rniga nuqul kularmish. Keyin tushining davomida oradan qancha vaqt o'tdi, bilmaydi, osmonni to'l-dirib uchayotgan kalxatlar ko'zdan g'oyib bo'lib, Erkin hadya qilgan zebigardon shodalari bir ipga tizilib, uning boshi uzra aylanaverdi.

Zebigardonning har bir shodasida Muhayyoning kulib tur-gan aksi ko'rinardi. Keyin boshi aylanib, quvvayi hofizasida hech narsa tasvirlanmay qoldi.

Tunning allamahallida isitmasi chiqdi. Alahsirab uyg'ondi. Toshoyna yonida ilig'liq turgan zebigardonni — tushiga kirib qiynayotgan, bo'ynini bo'g'ayotgan, qizib tomog'ini jiz-jiz kuydirayotgan zebigardonni olib, derazadan ko'chaga uloqtirdi. Chap tarafiga uch marta tuf-tufladi-da, o'ng tomonga o'girilib yotdi.

U o'z hayotining o'nnglanib ketishini istardi. Hayotdan qanoatlanishni istardi. Hayot yuragining barcha istaklarini qanoatlantirishini istardi.

Muhayyo ko'zini qattiqroq yumar ekan, lablari o'z-o'zidan pichirlayverdi: «Hayotning jamiki zavqi-shavqi, lazzatu faro-g'atlari yuragimda doimo to'lib-toshib turmas ekan, bo'ldi bas, qanoatlandim demayman, menga shunchasi ham yetarli demayman, dunyo go'zalliklariga to'ydim demayman. Hali dunyodan umidlarim ko'p, orzularim ko'p, armonlarim ko'p. Axir nega ham boriga shukur qilishim kerak, nega-nega?»

Muhayyo yana alahsirab uxlab qoldi.

Tongga yaqin tush ko'rdi. Itning qattiq-qattiq vovullashi biroz sergaklantirdi. Shuning uchunmi, ko'rgan tushi aniq-tiniq esida qoldi: Tushida bir sayoq it u yarim tunda derazadan uloq-tirib yuborgan zebigardonni bo'yniga taqib olib, hadeb dar-voza tagiga tumshug'ini tiqib uvillarmish...



Muhayyo toshoyna yonida soch tarab o'tirganda xonaga o'g'li kirib keldi.

— Oyi, bu siznikimi? — uning qo'lida Muhayyo ko'chaga uloqtirgan zebigardon turardi.

— Buni qayerdan olding?

— Itimizning katagidan.

— U yerga qanday borib qopti?

— Boshqa itlar olib kelgandir-da, qarang g'ajib tashlangan.

— Quturgan itlar tekkandir. Bor, tashlab yubor!

— Yuvsangiz toza bo'ladi. Juda maqtab yurardingiz-ku?

— Shuni taqqim yo'q. Bu kasofatning dastidan qancha baloga yo'liqdim. Bunga quturgan it tegmagan, bunga it tegsa quturadi.

— Oyi, nima deyapsiz? Axir, bu ayollar jon deb taqadigan chiroyli bo'yinchoq-ku?

— Jon o'g'lim, buni ko'zimdan yo'qot!

— Mayli, uya qo'yib qo'yay, so'raganingizda berarman.

— Yaxshisi, tashlab yubor.

Muhayyo Sobirjonga qaradi-yu, yuragi gupurib ketdi.

Sobirjon Turg'unning quyib qo'yganday o'zi edi. — Sen dadangga juda o'xshaysan. Xuddi Hasan-Husanday. Biz dadang bilan shu zebigardon tufayli ajrashdik. Taqdir shu zebigardonni sabab qilib ko'rsatdi. Shuning uchun buni tashlab yubor. Lekin... dadang ketgan bo'lsa ham, uning qiyofasida sen qolding. Demakki, sening qiyofangda dadang ham biz bilan...

Men undan hech qachon ajralolmas ekanman. Buni kech tushundim. Agar bu zebigardonni bo'ynimga taqib yuradigan bo'lsam, o'z tavqila'natimni osib yurgan bo'laman.

Jon bolam, uni tashlab yubor. Axir dadangning o'g'lisan-ku! O'rningda dadang bo'lganda, bizning yo'llarimizni ayirib yuborgan bu zebigardonni allaqachon yo'q qilib yuborardi.

— Mayli oyi, tashlab yuboraman. Keyin dadamning oldiga boramizmi?

— Yo‘q, o‘g‘lim... Endi dadangning bolalariga boshqa oyi onalik qiladi. Endi biz begonamiz.

— Oyijon, dadamga boraylik!

— Bo‘ldi, bas qil. Sening ko‘zlaring, qosh-qovoqlaring, qiliqlaring, har bir harakating shu qadar dadangnikiga o‘xshaydiki, hatto sen uchun mingta... — «Erkin bo‘lsa ham», demoqchi edi-yu, ko‘ksidagi faryod qanchalik kuchli bo‘lmasin tilini tiydi va «...si bo‘lsa ham dadangdan ajrashmagan bo‘lardim. Men adashdim. Lekin dadang ham oppoq emas. Endi, bo‘lar ish bo‘ldi, bo‘yog‘i ko‘chdi», — dedi.

— Oyi!

— Qo‘y o‘g‘lim, meni qiynama. Kel, bu zebigardonni yashirib qo‘yay.

Muhayyo zebigardonni olib taqinchoqlari orasiga qo‘shib qo‘ydi.



Muhayyo Shahzoda uyga kirib kelganida bir qo‘shiqni xirgoyi qilayotgandi. She‘rga mos ohang izlar, chet el musiqalaridan har bir so‘zning ma‘nosiga mos so‘z va ohang mush-tarakligi topilmay jig‘ibiyroni chiqardi.

— Eshitdingmi, Turg‘un uylanayotganmish?..

— Qachon?!

— Bilmadim, kimgadir unashtirishibdi...

— Shunchaki, gapdir.

— E, senga nima, endi oldingdan yigit degani qalashib chiqaveradi.

— Unday emas, Shahzoda...

— O‘zing ketganding...

— Qaniydi qaytib borolsam?

— Nima?!

— Hozir mening oldimda ikkita yo‘l turibdi. Yo qo‘shiqchi bo‘lish, yo oilaga qaytish... Turg‘un uylandi, degan gap — oilamning tugashidir. Qo‘shiqchilik esa havoyi narsa... Balki ermakdir? Balki undan o‘ch olishim uchun, uni o‘zimga qaytarishim uchun vosita edi. Men kuylasam uning uchungina kuylardim. Endi kimga...

— Muhayyo... Axir qo'shiqchi bo'lmasingdan oldin ajrashgandinglar... U seni qo'shiqchi bo'lganing uchun tashlab ketgani yo'q-ku?

— Qo'shiqni tashlasang ham, baribir qaytib kelmaydi, demoqchimisan?

— Uni umuman qaytib kelishini istamayman.

— Men uni qaytib kelishi uchun hamma narsadan voz kechishga tayyorman.

— Muhayyo... ortingga yo'l yo'q!

— Men oldinda ham hech qanday yo'lni ko'rmayapman.

— Mana ko'rasan, hammasi yaxshi bo'ladi. Hali yosh va chiroyli yigitlar...

— Uyalmaysanmi, Shahzoda?

— Axir u seni tashlab ketdi. Erkin bilan munosabatingdan so'ng mana uylanyapti. Sen ham endi o'z aravangni tort!

— Oila ko'zni chirt yumib, yuz o'girib ketaveradigan matoh emas. Sen tuyg'ularini igna bilan bir-bir o'ldirib chiqqan qizga o'xshaysan. Qiz bolani aslida mana shu tuyg'ulari uchun ardoqlashadi. Er nimaligini bilsayding.

— Xo'sh, seni qaysi aybing uchun uydan haydadi?

— Beayb odam bo'lmaydi. Men uni er o'rnida ko'rmadim. Uning imkonidan ko'ra kattaroq narsalarni talab qildim. Nafsoniyatiga tegdim. Agar sabr qilsam, hammasi asta-sekinlik bilan bo'lardi. Endi esa ish teskarisiga ketdi.

— Qo'y, hali hammasi oldinda. Istaysanmi, u uylanayotgan qiz bilan uchrashtiraman.

— Yo'q. Foydasi yo'q. U qizga o'z xatolarim haqida aytib berishim mumkin. Lekin bundan menga nima foyda? Qolaversa, Turg'un menga uylanayotganda meni bilmasdi. O'ylaymanki, hozirgi uylanayotgan qizini ham yaxshi bilmaydi. Faqat, Turg'unning kimligini endi bilayotgandayman. Bo'lg'usi kelinga shu haqda gapirsam, balki baxtli bo'lib ketishlari uchun ozroq yordam bo'lardi.

— Senda bor-yo'g'i birgina chora qolgan: Ra'no bilan uchrashish!



Muhayyo soat o'nlarga yaqin butun a'zoyi badani uvishib uyg'onarkan, o'rnidan turib uch-to'rt qadam tashladi-da, tanidagi og'ir yuk xuddi o'ziniki emasdek, gandraklab tuni bo'yi zada qilib yuborgan o'rindiqqa yana o'zini otdi. Kun qizib, tikkaga kelganda yuragini o'rtab yuborgan qandaydir shijoatdan ruhlanib, jussasini ko'tardi.

Uning birinchi qilgan ishi telefon raqamlarini terish bo'ldi:
— Shahzoda, bir kelib ket.

Keyin qog'oz-qalam topib, stolga cho'kkaladi.

«Azizim, Erkin aka!

Men ushbu xatni o'zimda qolgan so'nggi imkoniyat deb bilaman. Balki, mening (Muhayyo shu yerga kelganda «o'z muhabbatimga» deb yozmoqchi edi-yu, ikkilanib qoldi va o'z his-tuyg'ularini biroz yashirmoqchi bo'lib, dudmalroq yozishni afzal ko'rdi) iqror bo'lishim, sizga biroz erish tuyular, lekin men ham insonman.

Muhabbat har qancha yuksak va ilohiy bo'lmasin va men sizdan ko'rgan mehru muhabbatni hech qachon, hech kimdan ko'rmagan bo'lsam-da siz bilan o'tgan saodatli lahzalar, men inson bo'lib hayotimda ko'rgan eng go'zal va eng baxtiyor lahzalar bo'lsa-da, men bugun sizga so'nggi so'zimni aytishga majburman: Agar rostdan ham sevsangiz, menga uylaning. Va bu masalani bugun, soat 19.00 da bizning uyga kelib hal qiling. Bo'lmasa... Undan keyin nima bo'lishini, albatta, sizga aytmayman. Bu yog'ining Sizga daxli yo'q. Bu yog'ida Sizning nomingiz ham, Sizning xotirangiz ham hech qachon, hech qayerda eslanmaydigan hayot boshlanadi. Undan keyin men uchun ham balki hech kim, hech qayerda eslamaydigan hayot boshlanar. Men hozircha biror to'xtamga kelganim yo'q. Chunki, hozir men Sizning soat 19.00 da xonadonimizga kirib kelishingiz umidi bilan yashamoqdaman. Siz har doimgidek, mening butun vujudimni, shuurimni, zavqu shavqqa, ishqu sururga, mehru muhabbatga to'ldirib kelasiz, degan

o‘ydaman. Mening hayotimda yana ulug‘ ayyom boshlanadi. Men yana sizning cho‘ringiz misol har bir ko‘z qarashingizdan barcha istaklaringizni muhayyo qilishga hozir-u nozir turaman. Dunyoda biror juft bormikan, siz u biz kabi bo‘yi-bo‘yiga, yulduzi-yulduziga, bir kaptarning ikki qanoti kabi bir xilda yozilib, bir xilda singib qovushadigan, hammayoqlari xuddi o‘z tanasiday bir-biriga yoqadigan.

Lekin na ilojki, bugun elakni suvdan ko‘tarish vaqti keldi. Men ortiq kutib yurolmayman. Endi buyog‘i avvalgiday bo‘lmaydi. Endi men oila qurmoqchiman. Xuddi kiyimlar eskirib, ularni tashlab yuborish muddati kelgan singari, bir kun go‘zallik meni tark etadi. Balki, qalbidagi yoshlik shijoati, romantik o‘y-xayollar, balandparvoz orzu-umidlar ham tark etar. Bilmadim. Meni bugun mutlaqo boshqa narsalar o‘ylantirmoqda.

Xullas, sizga tanlash uchun so‘nggi imkoniyat qoldirmoqdaman. Bu imkoniyat kechki soat yettida sizning ixtiyoringizda bo‘ladi, yo‘qsa, ushbu xat siz bilan meni bog‘lab turgan so‘nggi xayrlashuv maktubidir. Bizni boshqa hech narsa, hech qachon uchrashtirmaydi, hech qachon bog‘lamaydi.

Agar ko‘rishmasak, xayr! Mendan rozi bo‘ling! Men sizdan roziman».

Muhayyo o‘rnidan turib, yana nimalardir yozishi kerakligini, yana nimalardir qolib ketganligini, yana nimalardir deyishga nafrati, yana nimalarnidir deyishga mehru muhabbati yetmaganligini his qildi. O‘ylab-o‘ylab, yana Erkinga aytadigan gaplari qalbining tubidan buloqday otilib chiqayotganini sezdi. Biroq, endi ortiqcha his-tuyg‘uga berilmaslik mavridi kelganligini angladi. Qolgan gaplarni kechqurun soat yettiga qoldirsa ham bo‘laverishini o‘z-o‘ziga tushuntirdi. Hali yashash uchun imkoniyat borligini xo‘rsiniq va ixtiyorsiz ravishda esladi.

Ongining qayeridandir o‘jarlik bilan qat‘iy turgan maqsad, uni ikkinchi qog‘ozni olishga majbur qildi.

Ikkinchi maktub Turg‘unga atalgan edi.

«Salom, Turg‘un aka!

Albatta, sizga maktub yozayotganimga hayron bo‘layotgandirsiz? Lekin ajablanadigan joyi yo‘q. Chunki, hayotimning

biron lahzasi yo‘qki, siz xayolimning bir chetida turmagan bo‘lsangiz. Hayotimda biron lahza yo‘q-ki, siz mutlaqo unutilib ketgan bo‘lsangiz. Bekorga aytishmas ekan, ikki yosh to‘y qilib, nikoh ayyomiga qarindosh, yoru birodarlarini chorlaganda, samovotda farishtalar ham bazmu jamshid qurishib, ikki yosh baxtu saodati uchun tantana qiladilar, deb. Nikohda ana shunday sirli, sehrlil qudrat yotishining boisi ham shu bo‘lsa kerak. Afsuski, buni men juda kech tushundim. Tushunganda ham sizning yuzingizga oyoq qo‘yib, uydin chiqib ketganimdan so‘ng, biz endi mutlaqo ajrashib ketdik, deb o‘ylaganimdan so‘ng tushunib yetdim. Hayotning qiziqiligini qarang-ki, sizga bo‘lgan nafratim bugun meni mutlaqo tark etdi. Bugun yuragimda sizga nisbatan qandaydir moyillik uyg‘ongan ekan, ushbu maktub o‘sha moyillikning natijasidir. To‘g‘ri, bugun men sizni kechirganim bilan siz meni kechira olasizmi? Lekin, endi men sizga shu qadar ulug‘ muhabbatni taklif etaman-ki, shu choqqacha mening bu mehrimning o‘ndan birini ham ko‘rmaganingizga iqror bo‘lasiz. Sababi, endi men hayotimni boshqatdan boshlamoqchiman. Uning boshlanishiga esa siz sababchi bo‘lasiz. Agar bugun kech soat yettida o‘zingiz bilgan, men va sizning o‘g‘lingiz Sobirjon yashayotgan uyga yetib kelsangiz va bir og‘iz «Sizlarni kechirdim» desangiz kifoya. Men sizning kechirishingizni o‘z hayotimni davom ettirishga berilgan ruxsatnomaday qabul qilaman. Yo‘qsa, men uchun bu hayot davom etmasligi mumkin. Harqalay hozir men shu holatdaman. Hayotimning burilish nuqtasidaman. Harqalay, hayotimning buyog‘i kechagiday bo‘lmaydi. Ertangi kunim qanday bo‘lishi mening o‘zim uchun ham qorong‘u. Kechagi kun jonimga shu qadar tegdi-ki, ertangi kunim yana shu maromda davom etishini ortiq istamayman. Agar kelsangiz, men sizni avvalgi turmush o‘rtog‘im sifatidagina emas, mening hayotimni asrab qolgan xaloskorim sifatida qabul qilaman. Qo‘limdan nimaiki iltifot kelsa, nimaiki mehru muhabbat kelsa, barini sizga bag‘ishlayman.

Agar kelmasangiz ham yana o‘zingiz bilasiz. Ushbu xatni o‘qiganda xuddi mening qismatimni yirtib tashlaganday bo‘lak-bo‘lak qilib yirtib tashlang. Shu bilan oramiz mutlaqo



uziladi va meni boshqa hech qachon, hech joyda ko'rmaysiz. Men uchun o'z qismatim hozir mana shu qog'ozday ojiz va notavon bo'lib turibdi. Uni yirtib tashlash uchun juda katta kuchning ham keragi yo'q. Agar siz qaytib kelsangiz, bu qog'oz men uchun yangi hayot bag'ishlangan inson taqdiri kafolatnomasi singari ulkan qudratga aylangan bo'lar edi.

Xayrlashuv oldidan aytadigan so'nggi so'zim, «Sizni sevaman» va soat 19.00 gacha kutaman.

Kelmasangiz, qiyomatda yuz ko'rishamiz degan tuyg'u bilan Muhayyo».

Muhayyo maktubni yozib tugatar ekan, eriga aytadigan gaplari bo'g'ziga bir-bir yig'ilib kelayotganidan yuragi hapriqib ketdi. O'zining odamlar qo'lida shuncha ermak bo'lib yurganini eslab, g'azabi keldi. Ularning bari mening iltifotlarimga noloyiq deya, o'z-o'ziga hukm chiqardi... Lekin yashash kerak. Zotan, unga hayot mana shu odamlar orasidan berilgan ekan, demak, murosasiz zarur. Agar bu odamlar unga e'tibor qilmay uning qadriga yetmayotgan ekan, demak isyon qilishi, bosh olib ketishi, yoyinki, bari-bariga nuqta qo'yishi zarur.

Soat uchlarga yaqin Shahzoda kirib keldi. Dugonasini uniq-qan, aftodahol kayfiyatda ko'rib, uning ham yuragi uvishib ketdi.

— Shahzoda, mana bu xatlarning birini Erkinga, birini esa Turg'unga olib borib ber. Mana ularning telefonlari. Mening hozir ular bilan ko'rishishga ham, gaplashishga ham toqatim yo'q. Faqat o'z qo'llariga topshir. Topshir-u, indamasdan qaytaver. Maktubda hammasi yozilgan. Agar kechqurun vaqting bo'lsa qaytib kel, yo'qsa yana o'zing bilasan. Faqat sendan iltimos, ularni hoziroq topib, maktublarni ber, xat kechqurun yettigacha ularning qo'lida bo'lishi shart.

- Muhayyo, nima bo'ldi, ochig'ini ayt.
- Keyin, keyin. Hozir boraqol.
- Xatlarni o'qisam maylimi?
- Yo'q, kerakmas. Ular senga atalmagan!
- Shular mendan azizroq bo'ldimi?
- Ayol kishi uchun ayoldan ko'ra erkak hamisha azizroq bo'lgan... bor endi, boraqol.

Muhayyoning xo‘rligi keldi. Lekin yuragidagi qayg‘u qotib, qat‘iyatga aylangandi. Borib derazalarni ochib ko‘ra boshladi. Derazadan o‘zini tashlasa, sog‘ qolish-qolmasligini chamaladi. Agar soat yettigacha hech kim kelmasa, hech kim uni bu shashtidan qaytarmasa, agar u hech kimga kerak bo‘lmasa, agar uning o‘ylab yurganlari, umid qilib yurganlari sarob bo‘lib chiqsa, shuncha yashab qadr topmagan bo‘lsa, endi yashab yurishidan nima foyda?

Derazadan o‘zini tashlaydi-yu, baridan qutuladi.

Muhayyoning bir xayoli hali yetti bo‘lmasdan, hali Erkin ham, Turg‘un ham bir qarorga kelib ulgurmaslaridan oldin ularning munosabatini bilmay, baridan qutulmoqchi bo‘ldi. Yana derazalarni ochib, o‘zini qanday tashlashi kerakligini chamalab ko‘ra boshladi. Oppoq oyoqlarini deraza raxiga qo‘yib, bir zumga ko‘zini yumdi va o‘zining pastga tushib ketayotganini tasavvur qila boshladi. Ko‘z oldi qorong‘ulashdi. O‘zini ojiz va chorasiz sezdi. Qo‘l-oyoqlari xuddi qotib qolgandek edi. Miyasining qayeridadir bir fikr yilt etib, nishona berdi: — Bechora onam, mening dardimda kuyib, kul bo‘ladigan bo‘ldi-da. O‘g‘li Sobirjon ham bir kunmas bir kun katta bo‘lib, o‘z yo‘lini topib ketadiganday negadir undan xotirjam edi. Turg‘un ham, Erkin ham yuragida biror iliqlik uyg‘otolmadi. Hozir go‘yo shu yerdan o‘zini tashlasa, uning uchun yangi hayot darvozalari ochiladiganday edi. Qo‘l siltab hammasini tashlab ketadi. Hammasini. Hammasi...uning qadriga yetmagan kazzoblar. Mana Turg‘un — qip-qizil kazzoblik timsoli. To‘nka. Loqayd. Muhayyoning barcha fidoyiliklariga befarqlik, sovuqqonlik bilan qaragan to‘nka. Mana Erkin. Uning cheksiz mehr-oqibatiga, suyib-erkalashlariga yolg‘onu aldovlar bilan javob qaytargan muttaham.

Hali turmushga chiqmasidan oldin u Turg‘unga qanchalik ishongandi. Turg‘un uni yangi hayot ostonasiga boshlab ketadi, deya qattiq ishongandi. Hali shunday baxtli bo‘laman-ki, bu baxt nash‘asini bir umr tatib tugatolmayman, — deya ishongandi. Ammo Turg‘un yetaklab borgan hayot ham oddiy hayot edi. Bu hayotda ham hamma yuk Muhayyoning yelkasida edi. Muhayyo yaxshi gapirsa, odamlar ham yaxshi gapirar, yomon gapirsa,



boshqalar ham yomon javob qaytarishar, hammasi oddiy va almisoqdan qolgan, baxt va omad bu yerda ham xirmon bo‘lib, uyulib yotgani yo‘q edi. U esa hayot ham, quvonch ham, omad ham uning eshigiga tinimsiz oqib kelaversa, — deya o‘ylagandi. Afsuski, u boriga shukur qilmay, bu ostonani tark etdi.

Keyin hayotida Erkin paydo bo‘ldi. Dastlab Erkin o‘zi ko‘zlagan g‘aroyib hayotning timsoli bo‘lib tuyulgandi. Bu timsol haqiqatan ham yuksak bo‘lishi uchun, endi o‘zi ham mehnat qila boshladi. Bu mehnat Erkinni ko‘r-ko‘rona, fidoyilarcha, butun jonu jahdini berib sevishdan iborat edi. U butun ongini, tafakkurini, qalb qo‘rini, topgan so‘nggi chaqasigacha Erkinning turish-turmushi, o‘y-xayoliga bag‘ishlab, seva boshladi. Erkinni sevish, baxtli qilish uchun hatto «Muhabbat» degan ulkan «Fan»ni o‘ylab topdi. Bu fanni o‘rtadagi hayotga baxshida qildi. Go‘yo Erkin bemor-u, u tabib edi. Erkin bilan uchrashishlariga qizg‘in tayyorlanar, aytadigan gaplari, qiladigan qiliqlari, nozu ishvalari, Erkin yoqtiradigan uydirmalarni o‘ylab topar, yurak-yuragidan silqitib chiqarar va bemorga beriladigan malham — doriday asta-sekinlik bilan o‘z mehru muhabbatini, munosabatini bildirib borardi. Muhayyoning maqsadi bo‘yicha, Erkin bir kunmas bir kun butunlay «tuzalib» ketishi, ya‘ni butunlay uniki bo‘lishi, butun jismu joni, o‘y-xayoli bilan Muhayyo uchun uyg‘onib, Muhayyo uchun uxlashi, Muhayyo uchun yashab, Muhayyo uchun o‘lishi kerak edi. Ammo, Erkin «tuzalmadi». Uning muhabbatiga muhabbat bilan javob bermadi. O‘zining davom etayotgan hayotini — oilasini, turmush tarzini, o‘y-xayolini, o‘zi ko‘zlagan maqsadlarni zarracha bo‘lsin — o‘zgartirmadi va hatto o‘zining bu olamiga Muhayyoni yetaklab ham kirmadi. Erkin Muhayyoni xuddi bir erkak kishi sevganday sevdi, erkaladi, qo‘lidan kelgan yordamini ayamadi va bundan ortiq hech narsani va‘da ham qilib o‘tirmadi. U faqat oralaridagi ko‘ngil-xushlik davom etaverishini istardi, xolos.

Bugun esa sarhisob vaqti yetdi.

Muhayyo xonada betoqat bo‘lib yura boshladi. Hozir kimdir kelishi kerak edi. Qani, qaysi biri ilgariroq kelarkin. Albatta,

xatni kim birinchi bo‘lib olsa, o‘sha keladi. Lekin kimning avval kelgani yaxshiroq?

Albatta, Erkinning-da! Yo‘q, Turg‘un kelsa ham mayli. Tinchroq.

Muhayyo yana betoqat bo‘lib soatga qaradi. Soat bir maromda chiqillar, ingichka mili bir lahza bo‘lsin to‘xtamasdi. Soat yettiga hali ancha bor. Hali deyarli uch soat bor. Mana shu uch soatda uning qismatida o‘zgarish bo‘lishi kerak. Uning hayoti yangi o‘zgarish sari burilishi kerak. Bu hayot unga o‘zi kutmagan, o‘zi ishonmagan saodatni in‘om etishi kerak.

Soat millari to‘xtamasdi va u o‘zini «Baxt» ostonasiga yaqinlashayotganini sezdi.

Beixtiyor deraza sari qadam tashlar ekan, deraza uni «o‘lim» ostonasi sari olib ketmasligiga iqror bo‘ldi.

Ammo... ular xatni olgan bo‘lsalar, soat yettini kutmay kelishlari mumkin bo‘lgan vaqt allaqachon o‘z hukmronligini surayotgandi.



Muhayyo betoqat bo‘lib soatga qaradi. Soat millari tinimsiz ravishda oldinga intilardi. Hademay yettiga ham yetadi.

«Mana, o‘yin ham tugadi. Muhabbat deb atalmish ertak nihoyasiga yetmoqda. Bu ertak qanchalik huzur-halovatli va bu dunyoda hech bir narsani unga tenglashtirib bo‘lmasa-da, oxir-oqibatda uning sarob ekanligi ko‘rinib qoldi. Bu sarobda men yo malika bo‘lib chiqib ketishim kerak, yoki qurbaqa...

Muhayyo derazaga yaqinlashib, tabaqalarini ohista ochib ko‘ra boshladi. «Sharmandayi sharmisorlik qismatidan ko‘ra...»

Muhayyo yana o‘girilib soatga qaradi. Soat millari beshdan oshayotgandi. Banogoh, qo‘ng‘iroq jiringidan seskanib ketdi. Bosib kelayotgan balo-qazodan qutulganday eshik tomon chopdi.

Eshik oldida Turg‘un turardi.

— Salom, Muhayyo...

— Salom, keling.

— Keldim. Menga xat yozibsana.



- Xat yozmasam kelmasligingizni bilardim.
- Meni kutishing mumkinligi tasavvuringa sig‘magandi.
- Nahotki shunchalik begonalashib ketdik.
- Buni sendan so‘rash kerak. To‘g‘risi, men umidimni uzgandim. Xatni o‘qib hayron bo‘ldim. Seni menga xat yozishga nima majbur qildi? O‘ylab, o‘yimga yetolmadim. To‘g‘rirog‘i, hech narsani o‘ylab ham ko‘rmadim. O‘qidim-u, xuddi yo‘qotib qo‘ygan qadrdon narsam topilganday, bu yoqqa yugurdim. Ikkilanganim ham yo‘q. Shunga ishonasanmi? Mana qara... Mana bular bari to‘yga taklifnomalar. Yana bir oydan keyin uylanishim kerak edi. Endi barisini yirtib tashlaydigan bo‘ldim. Faqat sening bir og‘iz so‘zing kerak. Agar shu so‘zni aysang, bas... Qani, ko‘zlarimga tik qarab ayt, menga xiyonat qilmadingmi?
- Qanaqa xiyonat?
- Sen mendan keyin hech kim bilan birga bo‘lmadingmi?
- Qaysi ma‘noda?
- Hech kimni sevmadingmi, birga yotmadingmi?
- Nega to‘yimizdan oldin bu narsalarni so‘ramay, endi, shuncha yillardan keyin so‘rayapsiz?
- Avvallari menga xiyonat qilishing mumkinligiga aqlim yetmasdi. Ajrab ketganingdan keyin bu narsa qo‘lingdan kelishiga ishondim. To‘yimizdan oldingi hayotingga ham keyinchalik shubhalana boshladim.
- Siz soddasiz. Agar hozir ham mening gaplarimga ishonadigan bo‘lsangiz, o‘sha soddaligingiz qolmabdi.
- Demak, nimadir bo‘lgan...
- Afsuski, bu savollarni juda kech beryapsiz. Balki, xat yozishimning sababi ham uyat meni tashlab ketganidan bo‘lsa kerak.
- Men haqiqatan omadsizman...
- Nega? Erkak kishiga oson. Istagan payti uylanib keta-veradi.
- Men ham shunday deb o‘ylaganimda bu yerga kelmasdim.
- Agar, sizga xiyonat qilmadim desam, ishonasizmi?

— Sen bu gapni aytishni istamayapsan. Demak, nimadir bo‘lgan. Endi, yuz bora yig‘lab-yolvorib aytasang ham ishonmayman.

— To‘g‘ri... Shuncha yil bir yostiqaqa bosh qo‘yib, kesishmagan yo‘llarimiz endi ham kesishmasligiga iqror bo‘ldim. Sizda mening yuragimni kuydirib yuboradigan qudrat avval ham yo‘q edi. Endi ham. Nima qilay? Men sizni sevganim uchun emas, hayotim fojiali tugayotganidan qo‘rqqanim uchun xat yozgandim. Kelganingiz uchun rahmat. Men sizdan roziman, siz ham rozi bo‘ling.

— Mendan rozilik so‘rama. Bu yerga kelib xato qilibman. Bir yog‘i o‘g‘limni o‘ylagandim. Xayr!

Turg‘un javob ham kutmay shiddat bilan alamdan bo‘g‘riqib chiqib ketdi.

Muhayyo xonada asabiy kezinarkan: «Bu safar ham o‘z vaqtida kelmadi. Agar Turg‘un Erkindan keyin kelganida, balki vaziyat boshqacha bo‘lardi», — deya o‘ylay boshladi. «Erkin keladimi, yo‘qmi? Kelishi kerak!» Men hayot bilan vidolashyapman, nahotki bunga u befarq. Men o‘lsam, u nima yo‘qotadi? Hech nima! Nari borsa o‘kinib, sigaret chekishi mumkin. Keyin o‘z xafachiligini kimlargadir aytishi, o‘ynashlariga maqtanishi mumkin. O‘g‘lim-chi, o‘g‘lim ham boshida bir-ikki bor yig‘lashi, katta bo‘lgach esa o‘z yo‘lini topib ketadi. Onam-chi, onamgina mening dog‘imda, g‘amu hasratda adoyi tamom bo‘ladi.

Muhayyo yana derazadan pastga qaradi. «Hech bo‘lmasa, bir lahza havoda erkin uchaman, keyin azoblardan qutulaman. Nahotki, Erkin kelmasa, shunchalik shafqatsiz bo‘lsa?»

Nahotki, o‘lishdan ko‘ra yashash qiyinroq. Muhabbat degan narsani kim o‘ylab topgan? Hayotimning muhabbatga to‘la lahzalarida xuddi malikalarday yashadim. Malikalarday baxtiyor bo‘ldim. Bir odamning qalbi quvonishga qanchalik qodir bo‘lsa, shunchalik sevindim, shod bo‘ldim. Eng baxtli odam qanchalik baxtiyor bo‘la olishi mumkin bo‘lsa, shunchalik baxtiyor bo‘la oldim. Hatto malikalarning ham yuragi bundan ortiq baxtiyor bo‘la olmaydi. Muhabbat meni shu qadar yuksaklikka ko‘tardi, endi esa baxtsizlik nima ekanligini bilishga mahkumman.

Muhayyo soat jarangidan cho‘chib tushdi. Uning millari to‘ppa-to‘g‘ri yettini ko‘rsatib turardi. «Erkin kelmadi. Nachora? Bizlar deyarli hamma narsani gaplashib bo‘lganmiz. Uning kelmasligi esa so‘nggi savollarimga bergan javobidir.

Uning tahqirlovchi javobiga ojiz kimsaning ojiz javobi ham tayyor.

Muhayyo derazani ochib, raxiga oyoq qo‘yarkan, pastda turgan qorong‘ulik ichida g‘ira-shira ko‘rinib turgan Erkinga ko‘zi tushdi va bir balodan qutulganday, orqaga chekindi. Uyalib derazani yopdi.

— Nega ertaroq kelmadingiz?

— Men kutib turgandim. Jur‘ating yetarmikin-yo‘qmikin, deb o‘ylayotgandim. To‘g‘ri topgan ekanman.

— Agar zahar ichganimda-chi?

— Zahar hech joyda yo‘q-ku?

— Bo‘lganida-chi?

— Sen g‘irromlik qilyapsan. Ayt, qachon senga uylanaman deganman. To‘g‘ri, seni sevaman deganman. Senga bu so‘zni aytganimda, sevgi nima ekanligini ham bilmasdim. Sen tufayli sevgi nima ekanligini bildim. Muhabbat haqidagi barcha ertaklar hammasi rost ekanligiga ishonдим. Sevgisiz hayot hayvonlarning yashashidan boshqa narsa emasligiga ham iqror bo‘ldim. Lekin nima qilay, senga uylanolmayman. Endi hech narsani o‘zgartirishga qudratim yetmaydi.

— Men-chi, mening hayotim nima bo‘ladi? Axir, men temir emasman-ku? Siz meni har bir hujayramgacha o‘zgartirib yubordingiz-u, hayotimda hech narsa o‘zgarmasligini talab qilyapsiz.

— O‘zingni qo‘lga ol. Muhabbating oldida qarzdorman. Men hozir sendan bir dunyo oltin olib, qaytarib berolmayotgan odamday qarzdorman. Agar biz o‘n yil oldin ko‘rishganimizda, balki hozirgiday bir-birimizni sevolmasdik. Biz umrimizning shunday pallasida uchrashdikki, hatto bir kun oldin yo keyin uchrashganimizda, balki bir-birimizga mutlaqo befarq qarardik.

— Siz aftidan hech narsani tushunmayotganga o‘xshaysiz. Hatto, nega sizni chaqirganimni ham o‘ylab ko‘rmayapsiz, Erkin aka!

— Sen menga bugun bermoqchi bo‘layotgan savollaringga dastlabki uchrashuvimizdayoq javob berganman.

— Hammaga yoqdi-gu, bir sizga yoqmadik, yoqmadik-a!

— Menga ham yoqasan. Men hech kimni seni sevganchalik sevganim yo‘q. Umuman, sengacha sevgi nimaligini ham bilmasdim. Endi aytishim mumkin. Sevgisiz hayot...

— Hozir gap boshqa yoqda. Gap sevgining nimaligi haqida emas, natijasi haqida ketayapti.

— Natijasini mendan talab qilma. Marhamat, yana istagancha sevishib yuraverishimiz mumkin. Mana shunisi yaxshi...

— Yo‘q, bu o‘yinda faqat men yutqizaman. Oilamdan ajraldim, ishxonamdan haydaldim, yaxshi otim ko‘cha-ko‘yda yomonga aylandi. Erimdan qolgan barcha mol-mulkni havoga sovurdik. Oyog‘imdan qulog‘imgacha qarzga botdim. Aka-ukalarimga yolg‘on gapiraverib, burdim qolmadi. Hozir meni bu hayotda sizga bo‘lgan umiddan bo‘lak hech narsa ushlab turgani yo‘q. Siz esa shu umidni uzmoqchi bo‘lyapsiz?

— Bu sen o‘zing tanlagan qismat.

— Men bunchalik xo‘rlanishga loyiq ish qilmadim-ku?

— Seni hech kim xo‘rlyotgani yo‘q. Yana avvalgiday yashayveramiz, faqat uylanish haqida gap ochma. Oilam, bola-chaqalarim bor.

— Sizing hayotingiz o‘z yo‘lida tekis ketaveradi. Hammasi joy-joyida, faqat qurbon bo‘lgan biz.

— Qo‘y, unday dema. Seni sevaverib, men ham adoyi tamom bo‘ldim-ku?

— Ishonmayman.

— Nega?! (Erkin uning yelkasidan quchoqlaydi) Uylanaman degan bitta-yarimtasi hali chiqib qolar. Biz esa faqat bir-birimizni sevishga yaratilganmiz. Kel, endi... (Ular divanda quchoqlashib o‘tiradilar).

— Qo‘ying, oyim uydalar. Siz haqingizda gapirganman. Bo‘lmasa, allaqachon haydab chiqarardilar.

— O‘zimni oyijonim, men uchun shunday qizni tug‘ib qo‘yibdilar-u, ming marta o‘rgilsam arziydi. (Erkin Muhayyoning yuz-ko‘zlaridan o‘pa boshlaydi). Yur, ketdik o‘zimizning joyga...



— Yo‘q, kerakmas. To‘xtang, narigi xonalarni ko‘ray, hech kim yo‘qmikan. Eshikni ham berkitib kelaman. (Muhayyo o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Erkin divanga cho‘zilib, yoqasining tugmalarini yechdi. Xotirjam va o‘zidan mamnun). Ancha vaqtdan keyin ko‘zlari orom istab, yumila boshlaydi. Bu hol tomog‘iga taqalgan o‘tkir tig‘ning og‘rig‘ini sezgunga qadar davom etadi. Og‘riqdan ko‘zini ochganda tepasida turgan Muhayyoni ko‘rdi:

— Jinni bo‘ldingmi, ol!

— Men bugun o‘zimni o‘ldirishga qasd qilmaganimda, sizni ham o‘ldirmagan bo‘lar edim. Xayr. Mendan keyin yashashga haqqingiz yo‘q.

— Esingni yig‘. Jinnilik qilma. Hali hammasi yaxshi bo‘lib ketadi. Hamma narsani bir kunda hal qilib bo‘lmaydi. Balki turmushimiz ham o‘zgarar. Bola-chaqam bor. Seni ham shunday tashlab qo‘ymayman... Balki, yashirincha nikohdan o‘tib, alohida uy olarmiz.

— Yo‘q, bu gaplar juda kech aytilyapti. Bu gaplarni meni qutqarish uchun emas, o‘zingizni qutqarish uchun aytyapsiz. Xayr!

— Muhayyo, Muhayyo, shoshma, ol pichoqni. Nima, men seni biron marta aldadimmi, yo seni istaganingday sevmadimmi, ayt nima qildim?

— Men sizsiz yashashim mumkin bo‘lganda edi, o‘zimni o‘ldirmagan bo‘lardim. Siz mensiz yashay olasiz, shuning uchun sizni o‘ldiraman. Men bir o‘zim o‘lib ketishni istamayman.

— Nima deyapsan, Muhayyo, biz hali ko‘p yashaymiz. Bizning davrimiz endi keladi. Ol pichoqni...

Muhayyo uning tomog‘iga qadalgan pichoqni oldi. Lablari, titrardi.

— O‘ldir desangiz ham o‘ldirmasdim...

— Senga ishonib bo‘ladimi?

— Menga nima qipti?

— O‘zingni qo‘lga ol. Kerak bo‘lsam chaqirarsan. Yopig‘liq qozon yopig‘ligicha qolsin. Uni ko‘tarsak, biz hali birga o‘lishimiz uchun ko‘p narsa yetishmasligi ayon bo‘lib qoladi.

— Nimalar?

— Sen meni sevgan paytlaringda boshqalarni ham nazardan qochirmagansan. Men ham xuddi shunday. Agar turmush qurganimizdan so‘ng, bir-birimizsiz yasholmaymiz deb kafolat berolganingda, men senga uylangan bo‘lardim. Afsuski, sen endi meni deb yasholmaysan. Hali sen sevadiganlar ham, seni sevadiganlar ham ko‘p bo‘ladi. Muhabbat esa xonaki emas, yovvoyi kaptardir. Sen hozir uni qafasga solaman deb, o‘zingni qiynayapsan. Balki, sen o‘zingni o‘ldirishing ham, meni o‘ldirishing ham to‘g‘ridir. Lekin bu o‘z yuraging haqida, o‘z muhabbating haqida chiqargan to‘g‘ri xulosang emas. Biz muhabbat uchun o‘lishga noloyiqmiz. Bizning yuraklarimiz sen o‘ylagan-chalik toza emas.

— Men ham sizday o‘ylaganimda, bu hayot uchun, hayotning oldida o‘zimni iflos sanaganim uchun o‘zimni o‘ldirishga qasd qilmagan bo‘lardim. Xayr, siz bilan gaplashadigan gapimiz qolmadi.

— Nima ham derdim. Omon bo‘! Agar istasang yana uchra-shamiz.

— Men Xudodan shunday bir muhabbat so‘rayman-ki, men sevgan kishi meni hech qachon aldamasa, butun jonimni, umrimni, kuchu qudratimni, yuragimni berib unga fidoyi bo‘lib o‘tardim. Joningni tikib borsang-u, seni qancha vaqtlar davomida aldab kelayotganlarini ko‘rsang, bundan ortiq fojia bormi? Lekin endi bu gaplarning sizga hech qanday aloqasi yo‘q. Keting!

— Xo‘p, xo‘p...



To‘y. Kuy-qo‘shiq avjida. Shovqin-suron. Birrovga kelgan xonandalar ikkita-ikkita, to‘rtta-to‘rtta qo‘shiq aytib, davrani bo‘shatyapti. Navbat Muhayyoga yetib kelgan.

O‘rtani olib boruvchi uni ogohlantirayapti:

— Muhayyo, tayyor bo‘lib turing, qo‘shiq tugashi bilan e‘lon qilaman, xo‘pmi?

— Tezroq bo‘la qoling. Vaqtim ziq.

Shu payt to‘yxonaga Sevinch kirib keladi. Uning atrofida cholg‘uchilari. Uning viqor bilan yurishlarini ko‘rgan to‘y ahli hayratda. Hamma yo‘l bergan, havas bilan qaragan. Ba‘zilar

suyulib qulluq qilgan. «O, Sevinch keldi», degan tovushlar. O'rtakash ham yugurib peshvoz chiqqan.

— Keling, keling Sevinch!

— To'y qalay bo'lyapti?

— Zo'r. Siz keldingiz, endi dahshat bo'ladi.

— Menga qachon navbatni berasan?

— Sizgacha uch kishi yozilgan.

— Vaqtim ziq. Hozir chiqib ayt.

— Menga baribir. Ana, Muhayyoning navbati. O'zingiz so'rang.

— Muhayyo... Hozir men chiqaman. Yo'q, dema. Ozroq tursang asakang ketmaydi.

Muhayyo: — Yo'q. Kutolmayman. Qolaversa, men qo'shiq aytgandan so'ng, sening kelgan-kelmaganing ham bilinmay ketadi. Shuning uchun shoshilmay qo'yaqol.

Sevinch: — Gazanda!

Muhayyo: — Mening oldimga tushishingga hali ancha bor!

Sevinch: — Shunday qilaman, tomog'ing hali mening nomimni aytishdan boshqasiga yaramay qoladi.

Muhayyo: — Sening nomingni aytganlarning tahorati buzilib ketyapti-yu.

Sevinch: — Senda tahorat bormi?

Sevinch g'azab va nafrat bilan to'ydan chiqib ketadi. Bir to'lda odam unga ergashadi. Muhayyo qo'shiq aytish uchun o'rtaga qarab yura boshlaydi.



Sevinch va Nargiza o'tiribdi. Sevinch asabiy:

— Hozir u kim bilan yuribdi. Ishongani kim?

— Erkin degani bilan. Harqalay katta boylardan...

— Sen unga yo'l topishing kerak. Uning qo'ynida bizning go'zallardan biri yotganida, men o'zim Muhayyoni yetaklab boraman. Erini, oilasini tashlab, shu Erkin deganiga ishonib, karillab yurgan ekan, ishongani xiyonat quchog'ida yotganida bir ko'rib qo'ysin. Va men ham shunda Muhayyoning ahvolini ko'rib, g'uborim tarqaladi.

Uni yengishning boshqa yo'li yo'q!



Eshik qo'ng'irog'i jiringlaydi. Eshikda Sevinch va Muhayyo dam-badam tugmachani bosardi. Sevinch Muhayyoga masxa-raomuz pichirladi:

— Sal o'zingni bos. Hozir sevaman deganingni ahvolini ko'rasan... Ishonganing ishtonsiz ishrat qilyapti.

Ichkaridan, «Kim u?» degan tovush. Sevinch «Bu men!» deydi. Muhayyo tirqishdan panaga bekinadi. Erkin bamaylixotir, Sevinch kelganidan xotirjam tortib, eshikni ochadi. Erkin xaltda. Oldin Sevinch, so'ngra Muhayyo kirib boradi. Erkin dahshatdan dong qotib qoladi. Qizlarni ko'rgan Nargiza xuddi hech narsadan xabari yo'qday, yarim yalang'och yugurib kelib, Erkinning ustiga sakrab osilib oladi. Uning xiyonatini ko'rgan Muhayyoning ko'zlari olov bo'lib yonadi. Sumkasidan pichoqni olib otadi:

— Ablah!

— To'xta, Muhayyo...

Erkin xonaga qochib kirib, eshikni berkitadi. Muhayyo eshikni tepa boshlaydi: — Hozir o'ldiraman!

— Muhayyo, men baribir seni sevaman, yakka-yu yago-namsan. O'zingni bos. Xotinim emassan-ku?

— O'ldiraman, iflos! — Muhayyo pichoqni eshikka sanchadi. Qattiq janjal, baqir-chaqirlardan butun «dom» larzaga keladi. Sevinch istehzoli tabassum bilan bo'layotgan voqealarni kuzatib turardi.



Muhayyo studiyada qo'shiq yozayotgan edi, kimdir oynani chertayotganini eshitib, o'sha tomonga qaradi. Oyna ortida Erkin turardi. Musiqachilardan o'ng'aysizlanib, tashqariga chiqdi.

— Keling!

— Salom, Muhayyo.

— Nega keldingiz?

— Bilasanmi, hamma ayb menda. Sening oldingda gunoh-korman. Meni kechir.

- Xo‘p, kechirdim.
- Kel, yarashamiz.
- Xo‘p, yarashdik ham deylik, keyin nima bo‘ladi?
- Men seni yaxshi ko‘raman.
- Qo‘ying bu gaplarni. G‘ijinim kelyapti... Bu so‘zlarni shu qadar yomon ko‘raman-ki, ayniqsa sizning og‘zingizdan chiqqanda, chidab turolmayman.
- To‘g‘ri, avvallari bu gaplarni ermakka aytardim, endi rostdan, chin yurakdan...
- Bo‘ldi, bas. Keting!
- Ayt, aybimni qanday yuvay? Bitta jonimga buncha jabr. Men seni bu qadar sevaman deb o‘ylamagandim. Hozir nima desang roziman. Faqat, avvalgiday do‘st bo‘laylik, avvalgiday birga bo‘laylik. Axir bir paytlar sevarding-ku? Bir paytlar aytgan so‘zlaring hech qachon yodimdan ko‘tarilmaydi. Ayniqsa, terakzor tagidagi uchrashuvimiz ko‘z oldimdan ketmaydi. Axir bir-birimizni sevamiz-ku, nega kechirmaysan? Yolvoraman Muhayyo, meni kechir, seni sevaman!
- Yolg‘on! Avvallari sizni mutlaqo boshqa odam deb bildirdim. Siz tasavvurimda salkam avliyo edingiz. Keyin bilsam, siz ham boshqalar qatori iflos ekansiz. Endi kechirishimning hojati yo‘q. Bu kechirimlar hech narsani o‘zgartirolmaydi. Siz bugun kechirim so‘rab, ertaga xiyonat qilasis.
- Bo‘ldi, hech qachon xiyonat qilmayman. Istaysanmi, senga uylanaman. Oila qurib, o‘g‘lingga otalik qilaman. Doimo birga bo‘lamiz. Qasam ich desang, qasam ichaman. Seni sevaman, Muhayyo! Sensiz qiynalganlarimni bilsayding.
- Rosti, seni bu qadar sevib qolaman, deb hech o‘ylamagandim. Endi sensiz yasholmayman.
- Erkin aka, keting bu yerdan. Gaplaringizni eshitib ko‘nglim ayniyapti. Odam bu qadar pastkash bo‘lmasligi kerak.
- Muhayyo, uyingga sovchi jo‘nataman. To‘y qilamiz. Hammasi ochiqchasiga bo‘ladi. Yana qanday isbotlay...
- Keting... Sevgingi bunaqa gaplar bilan sotib olib bo‘lmaydi. Siz men o‘ylagan odam emassiz. Siz xiyonatkor, sotqinsiz.
- Xo‘p, men shundayman. Faqat sen meni kechir...

— Men kechirganimda ham, endi hech narsa o'zgarmaydi. Endi hech qachon uchrashmaymiz. Bari tugadi. Ertaga kelsangiz ham, o'n yildan keyin kelsangiz ham javobim shu. Qasam ichib aytaman, qayta siz bilan bo'lsam, yolg'iz bolamning o'ligi tutsin.

— Muhayyo...

Muhayyo chirt burilib studiyaga kirib ketdi. Erkin nima deyishini bilmay, dovdirab qoldi. Taqdirga tan bergan odamday hayrat va taajjubda, boshini changallab, yerga o'tirdi.



R a ' n o: — Siz Turg'un akamning menga bo'lgan munosabatlari samimiyligiga shubhalanyapsiz, shekilli?

M u h a y y o: — Yo'q, balki o'zgargandirlar. Lekin ayol kishining yolg'iz qolishi, kun kelib inkor etilishi, sevilmay qolishi, sevgan odami yo'qlamay qo'yishi, naqadar azobli ekanligini bilganim uchun bu yerga kelib o'tiribman.

R a ' n o: — Mening o'rnimda boshqa odam bo'lganda, shunday qilarmidingiz?

M u h a y y o: — Ha, men negadir Turg'un aka sizni sevib qolganiga ishonmayapman. Mana shu narsa sizni baxtsiz qiladi, degan xavotirdaman. Biz bor-yo'g'i bitta zebigardon uchun ajrashib ketdik.

R a ' n o: — Hozir Turg'un akaga telefon qilaman. Siz narigi telefondan bemalol eshitavering.

M u h a y y o: — Yo'q, kerakmas.

R a ' n o: — Kerak. Bu siz uchun ham, men uchun ham kerak. Faqat bildirib qo'ymang.

Ra'no telefon raqamlarini teradi. Trubkani Turg'un ko'taradi;

T u r g ' u n: — Allo, Ra'no yaxshimisiz?!

R a ' n o: — Turg'un aka, siz bilan ko'rishganimizda, necha bor shaylandimu, lekin aytolmagandim. Endi, telefonda bo'lsa ham, so'rashga majburman. Nega xotiningiz bilan ajrashgansiz?

T u r g ' u n: — Uni o'zi ketdi. Qo'shiqchi bo'lmoqchi ekan... Qisqacha aytganda: «Baxtimiz ochilmadi».

R a ' n o: — Agar ertaga u kishi qaytaman desa, qaytadan uylanasizmi?

T u r g ' u n: — Yo'q. Chunki u menga xiyonat qilgan.

R a ' n o: — Balki, bu narsa bo'lmagandir. Men o'z baxtimni o'zgalar baxtsizligi hisobiga qurmoqchi emasman.

T u r g ' u n: — Sizni sevishim uchun baxtsiz yashaganim to'siq bo'lolmaydi.

R a ' n o: — Sizning Muhayyo bilan kechirgan turmushingiz men bilan ham takrorlanmaydimi?

T u r g ' u n: — Hech qachon. Bizlar baxtli bo'lamiz. Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi. Endi ko'zim ochildi. Siz mening baxtsiz.

R a ' n o: — Turg'un aka, uyga adam kelib qoldilar, keyinroq qo'ng'iroqlashamiz.

T u r g ' u n: — Ra'no, siz hech shubhalanmang. Sizni yaxshi ko'raman. Sog' bo'ling!

Ular trubkani qo'ydilar. Muhayyo hayratdan qotib qolgan. Nima deyishini bilmay, Ra'noga qaraydi. So'ng: — Rahmat, ancha narsani oydinlashtirdingiz, — dedi.

R a ' n o: — Albatta, men Turg'un akaga nisbatan yaxshi ish qilmadim. Balki, bu ishim uchun u kishi xafa bo'larlar. Lekin sizlarning oralarigizdagi bog'liqlik qay darajadiligini bilish men uchun ham qiziqarli. Bunga ko'z yumolmayman. Oila qurgunimizcha bu munosabatlar oshkor bo'lgani yaxshi. Turmush qurganimizdan so'ng oila sirlarini hech qachon oshkor qilmayman.

— Shunday bo'lgani yaxshi. U sizni bu qadar yaxshi ko'rib qolganini bilmagan ekanman. UZR. Endi men boray!



Yaqin odaming o'lsa, «bandalik ekan-da» — deya taskin izlaysan. Ammo qachonlardir qarddon bo'lgan, seni quchib erkalagan, jismu jonini bergan, borlig'ingga singib ketgan va hayotingning eng aziz bo'lagi bo'lib qolgan inson, hatto u keyinchalik begonaga aylanib qolgan bo'lsa ham, u endi sendan mutlaqo ketayotganligini ko'rish, ayniqsa boshqa birovni baxtli

qilish uchun, aynan seni o'ringga boshqa birovni saodatli qilish, uni sevish, unga o'z hayotini bag'ishlash, u bilan oila qurish, seni ayro yo'lda tashlab u bilan qolgan umrini fayzli o'tkazish va seni bitmay-tugallanmay qolgan mojarolar iskanjasiga o'zingni yolg'iz tashlab ketayotganligini, yangi hayot ostonasini ochib, kirib ketayotganligini ko'rish naqadar dahshat. Ayniqsa, ayol kishi uchun. Ayol kishi uchun o'zining sobiq turmush o'rtog'i boshqa birovga uylanayotgan tundan mash'umroq tun yo'q. Agar ayol mana shu tundan eson-omon o'tib olsa, mana shu tunda sabr-toqat qilolsa, keyin yuragi tosh bo'lib, yashab ketaveradi. Hamma baloga bardosh beroladi. Faqat u mana shu tunni o'tkazib olsa bas.

Lekin Muhayyo o'sha kech uyda o'tira olmadi. O'zi karaxt bo'lib qolgan, oyog'ini yerdan uzolmas, changakday bukilib o'tirishdan boshqasiga yaramasdi. O'zini bu qadar aftodaholiligini bekitish uchun dalda deya o'g'lini ham o'zi bilan olib, to'y o'tayotgan kafega borish uchun taksi to'xtatdi.

Keyingi paytlarda Muhayyo ko'p to'ylarda bo'ldi. Qo'shiq aytib ko'p bazmlarni o'tkazdi. Nikoh to'y, sunnat to'y, charlar... Ba'zan ikkinchi bor uylanayotganlarning to'yida ham bo'ldi. To'yxona xuddi uning ishxonasiday bir taassurot uyg'otardi. Lekin bugun Turg'un uylanyapti.

Kafe katta yo'lning yoqasida bo'lganligi uchun o'tgan-ketganlar ko'p. Muhayyo qorong'u tushganidan foydalanib, xuddi yo'lovchiday kafe atrofida asta-sekin yura boshladi. Kafe og'zida, bir paytlar unga qarindosh bo'lgan, uni tanigan, uni hurmat qilgan tanishlariga ko'zi tushdi. To'ydagi qo'shiqchini ham ovozidan tanidi: Sevinch! Dunyoning aylanib kelishini qarang. Sevinch uni Erkindan ayirgandi. Endi Turg'undan ham ayiryapti. Yo'q, Sevinch Erkinning xiyonatlariga xotima yasadi, ochiq-chasiga ko'rsatib berdi, xolos. Turg'un bilan bo'lgan mojarolarning esa so'nggi kunida ishtirok etyapti, xolos. Lekin nega aynan Sevinch?!

Muhayyoning bir niyati to'yga shart kirib borish edi. Lekin shartta kirib borishga haqqi yo'qligini bilardi... Qolaversa, bu yerdagilarning ba'zilari uni Turg'unning sobiq xotini deb

bilsa, ba'zilar «ana, qo'shiqchi Muhayyo keldi», — deya xayol qiladi.

Muhayyo to'yxonaga qarar ekan, ko'zlaridan duv-duv yosh to'kilardi. Sobirjon ham onasining avzoyiga qarab, xarxashalarini to'xtatdi. Boyadan beri, ana amakim, ana ammam, ana falonchi akam deb, to'yxona tomonni ko'rsatar, hech narsani tushunmay, onasini o'sha tomonga sudrayotgandi. «Ular bari yomon odamlar» — deyishi ham ta'sir qilmas, nega shuncha vaqt yaxshi bo'lib yurgan odamlar birdaniga yomon bo'lib qolganligiga idroki yetmasdi.

Muhayyo asfalt yo'lni kesib, yugurib kelayotgan Turg'unga ko'zi tushdi. Turg'un kela solib Sobirjonni quchoqlab oldi.

— O'g'lim, meni kechir. Xohlasang seni to'yxonaga olib kiraman. Hali katta bo'lganingda, meni tushunasana. Ungacha ham yolg'izlatib qo'ymayman. Oldingga borib turaman. O'g'lim, seni yaxshi ko'raman. Mening jigarbandimsan. Ko'chada qolgan baxtim, baxtsizimsan.

— Dada, dadajon... Sizni sog'indim.

— O'g'lim, senga qaytar yo'llarim berkilgan bo'lsa, nima qilay?! Men bugun uylanayapman. Faqat seni ko'rish uchun chiqdim. Menga seni kelganingni, oyingni kelganini aytishdi.

Turg'un boshini ko'tarib, Muhayyoga qaradi:

— Ra'no seni tanir ekan. Seni oldingga chiqqimni bilib, bo'ynidagi zebigardonni yechib berdi. Ma, ol. Qachonlardir bitta zebigardon uchun ajrashib ketgandik. Buni taqib, zora baxtli bo'lsang. Zebigardon haqida unga o'zing aytib bergan ekansan. Meni ham juda baxtli deb o'ylama. Agar menga xiyonat qilmaganingda hech qachon uylanmagan bo'lardim. Mening ornomusimni bu qadar arzon sotganing uchun seni kechirmayman. Umid bilan bir yostiqa bosh qo'yganimizdan so'ng senga butun hayotimni bag'ishlagandim. Afsus, boshim toshga juda qattiq urildi. Sen ham o'z baxtingni toparsan. Iltimos, bu zebigardonni ol. Mendan ginang qolmasin...

— Kerak emas. Men bu yerga zebigardon uchun yoki siz uchun kelganim yo'q. O'zimning fojiamni ko'rish uchun, men

yo'l qo'ygan xato naqadar dahshatli ekanligini anglash uchun kelganman.

— Men boray. So'nggi iltimosim, buni ol. — Turg'un Muhayyoning qo'lga zebigardonni tutdi. — Sobirjonga biror narsa kerak bo'lsa, aytarsan.

Turg'un ortiga qarab yugurib ketdi. Muhayyo uzoq vaqt o'kirib-o'kirib yig'ladi. Jimib qolgan Sobirjon uning etagiga yopishib olgandi. Oradan ancha vaqt o'tdi, Sobirjon onasining nimanidir g'ijirlatib yeyayotganini ko'rdi. Muhayyo zebigardon donalarini birma-bir og'ziga solayotgandi. Donalar katta-katta bo'lganligi uchun tomog'idan zo'rg'a o'tar, ba'zilarini tishi bilan sindiraman der, lekin tishi sinib, labining bir burchidan qon sizib chiqardi. Sobirjon oyisining qo'llariga tirmashdi. Lekin oyisi vajohat bilan, shoda-shoda toshlarni kappalab og'ziga solar, o'qchib-o'qchib yutinardi. Sobirjon oyisini qattiq tortib o'ziga qaratmoqchi edi. Muhayyo yo'l chetidagi panjaraga suyanganча yerga behush bo'lib quladi. Sobirjon oyisiga qarab engashganida, Muhayyo nafas ololmay xirillar, ko'zlari katta-katta ochilib, dahshat va sarosimadan qotib qolgan edi.

Sobirjon endi onasiga yordam berolmasligini tushunib, to'yxona tarafga chopdi.

Turg'un yetib kelganida Muhayyoning ko'zlari osmonga qarab qotib qolgan, uning ko'zlari yulduzlari kuygan tun osmoniday qop-qora edi...

—

MUNDARIJA

—

<i>H. Xudoyberdiyeva. Barqaror tuyg'ular alangasi</i>	3
Sen qalbmning ardog'idasan (qissa)	6
Sahroyi gullar (hikoya)	39
Balog'at bekati (telenovella)	46
Oppoq gulday oydin xotira (hikoya)	75
Izg'irinli kunlarning biri (voqeyiy hikoya)	80
Zabarjad (qissa)	83
Agar seni aldasa hayot (hikoya)	134
Bahorning eng so'nggi lolasi (telenovella)	149
Boshimdagi tojim — onam (badia)	155
Yangi oy chiqqan kecha (kinoqissa)	190
To so'nggi nafasgacha (qissa)	225
Taraddud (kinoqissa)	240
Yulduzlari kuygan tun (kinoqissa)	251

Muhammad Ismoil

BAHORNING ENG SO'NGGI LOLASI

Kitobda rassom O. Qozoqov ijodidan foydalanildi.

Muharrir To'liqin Hayit

Rassom J. Odilov

Texnik muharrir T. Xaritonova

Musahhihlar N. Umarova, S. Salohutdinova

Kompyuterda tayyorlovchi F. Tugusheva

Nashr. lits. A I № 158, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 2.05.2010.
Bichimi $84 \times 108^{1/32}$. Garnitura «Times». Ofset qog'oz. Ofset bosma.
Shartli.b.t. 15,54. Nashr. b.t 14,05. Adadi 3 000. Buyurtma № 07-90.
Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi.
100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Ismoil, Muhammad.
I 81 Bahorning eng soʻnggi lolasi. Hikoya va qissalar/
Muhammad Ismoil. — T.: «Oʻzbekiston» nashriyot-matbaa
ijodiy uyi, 2010. — 296 b. — B.s.

ISBN 978-9943-01-116-8

BBK 84(5Y)6